

Rusiyada kitapçılık
vəşhətləri



A. A. Fer
Kuchalar yoxduları
...
F. I. Tsvetchev
Yaproqlar

N.A. Nekrasov

Rusiyada kim yaxshi yashaydi



A.A. Fet

Xunbotar yog'dulari

F.I. Tyutchev
Yaproqlar

Poema va she'rlar

UO'K 821.161.1-3

KBK 84(2Rus)

N 42

Tarjimonlar:


Mirtemir, Mamarasul Boboyev, Ramz Bobojon,
Razzoq Abdurashid, Abdulla Sher, Tohir Qahhor,
O'roz Haydar, Rauf Subhon

ISBN 978-9943-25-955-3

© N. Nekrasov, A.A. Fet, F.I. Tyutchev, 2020

© «O'ZBEKİSTON» NMIU, 2020

N.A. NEKRASOV



Birinchi bo‘lim

PROLOG

Qaysi yil bu – aytaqol,
 Qaysi el bu – o‘ylab boq,
 Katta karvon yo‘lida
 Uchrashdi yetti dehqon:
 Va bularning barisi –
 Burundiqli aymog‘i¹,
 Sho‘rpeshona tumani,
 Bo‘sh-taqir volostida
 Yonma-yon qishloqlardan –
 Yamoqzor, Juldurravot,
 Yalang‘och, Ushuktepa,
 Kuygankent, Yutoqsaroy
 Hamda Qahatqo‘rg‘ondan,
 Yetti muvaqqat qarzdor²
 Dush keldi-yu dovlashdi:
 Rusiyada kim xushvaqt,
 Dorilamon yashaydi?

Degan katta so‘roqni
 Hal qilmoxchi bo‘ldilar.
 Roman dedi: pomeshchik,
 Demyan dedi: amaldor,
 Luka dediki: yo‘q, pop,
 Qorni katta savdogar –
 Dedilar aka-uka
 Ivan bilan Mitrodor.
 Keksa Paxom chiraniib,
 Yerdan ko‘z olmay dedi:
 Oliy mansab zodagon,
 Chorning inoq vaziri.
 Prov bo‘lsa, dedi: chor...
 Dehqon – ho‘kizday qaysar,
 Baron devona xayol
 Boshiga o‘rnashsa, bas,

¹ Rusiyada Burundiqli degan viloyat, yo bo‘lmasa Sho‘rpeshona degan tuman yoki Yamoqzor, Qahatqo‘rg‘on degan qishloqlar bo‘lgan emas, albatta. Ulug‘ shoir Nekrasov chor Rusiyasidagi krepostnoy dehqonlarning och, gado, yupun, erksiz hayotini tasvirlash niyatida sharqli nomlar o‘ylab topgan. Masalan: Zaplatov, Diryavin, Razutov, Znobishin... Ko‘rinib turibdiki, yamoq, yirtiq, juldur, yalangoyoq, yupun, sovuq urchan ma‘nosidagi so‘zlardan qishloqlarning nomini to‘qigan. Bu nomlarning o‘zi o‘sha qishloqlarning hol-ahvoldidan xabar berib turipti. – *Tarjimon*.

² ...Muvaqqat qarzdor – 1861-yili «erk» olgan dehqonlar to 1864-yilgacha avvalgi xo‘jayinlari – pomeshchiklarga ishlab berishlari majburiy edi. 1863-yili esa, har bir «ozod etilgan» dehqon, olgan yeri uchun har yili davlatga qancha pul to‘lashi kerakligini aniqlagan qoida ishlab chiqildi. Bu soliqni to‘lay boshlagandan so‘ng, dehqonlar «muvaqqat qarzdorlikdan xususiy mulk egasi bo‘lgan dehqonlar qatoriga o‘tadi, deb hisoblashardi. – *Tarjimon*.

Pona qoqsang ham chiqmas!
Xuddi o'shandoq bo'ldi:
Har kim o'zinikin der,
O'z so'zini ma'qullar!
Shundoq g'alati dovki,
O'tkinchilar o'yldi:
Yombi topgandir bular,
Shuni o'zaro bo'lar...
Obbo, azamatlar-ey...
Har kim o'z yumushida,
Uydan erta chiqqandi:
Biri – temirchi tomon,
Biri – o'rta qishloqqa,
Go'dakka nom qo'ygani
Domlani chaqirgali.

Paxom Bozorlikentga
Asalin elmoqdaydi.
Ivan bilan Mitrodor,
No'xta olib, anchayin,
Asov otni tutgali,
Uyurga ketmoqdaydi.
Har birin o'z yo'liga
Tushmoq payti o'tsa ham –
Hamon ketmoqda qator!
Gala bo'ri quvganday,
Yo'l olis – ketgan sari,
Yo'l bosishar qistalang.
Dovlashib borishadi,
Bema'ni gurung – chuvvos,
Vaqt esa kutib turmas...


Oltin quyosh botganin,
Oqshom quloch otganin,
Dov qizib, payqashgan yo'q.
Balki, shundoq tun bo'yi
Bilmasdan o'zлari ham,
Ketisha berar edi;

Duch keldi Durandixa,
Xunuk va qing'ir ayol:
«Yaxshilar! Qora tunda
Qayoqqa bormoqchisiz?» –
Dedi-yu, qotib kuldi
Va axtasin qamchilab,
Jo'nab qoldi alvasti...

– Darvoqe, xo'sh qayoqqa? –
Bir-biriga ko'z solib,
Turishadi hang-u mang,
Yerga qarashar nuql...
Tun og'ib qolgan mahal,
Yuksak osmon avjida
Yulduzlar yonar qalin;
Oy yuzar, soyalar-chi,
Shoshqin, tajang yo'lhilar
Yo'lini kesmish edi.
– Ey, siz – qora soyalar!
Kimni quvib yetmaysiz?
Kimdan o'zib ketmaysiz?
Faqat, sizni soyalar,
Ilg'amoq, quchmoq mahol!

To'qayga, katta yo'lga
Indamay boqar Paxom,
Boqar, o'ylar, solar razm,
Nihoyat, u shundoq der:

– «Bizni jin chalipti-yu,
Xo'p kalaka bo'libmiz!
Raso o'ttiz chaqirim
Yo'l o'tibmiz, kam emas!
Uyga qaytish ham qiyin,
Horganmiz, yetolmaymiz,
Qani ey, yonboshlaylik,
Dam olaylik, tong otsin...»



Aybni jinga ag'darib,
Yo'lga yondosh to'qayda
Davra qurdi yettovlon.
Gulxan yoqdilar darrov,
Qo'shib-chatib, pul yig'ib,
Araqqa chopdi ikkov:
Bular tek o'tirgan yo'q,
Oq qayin po'stlog'idan
Stakan bo'ldi tayyor...
Vaqtida keldi araq,
Zakuskasi yonida,
Dehqonlar qurmoqda bazm!
Ichib, yedilar rosa,
Janjal boshlandi tag'in:
Rusiyada kim xushvaqt,
Dorilamon yashaydi?
Hammasi baqiradi:
Roman dedi: pomeshchik,
Demyan dedi: amaldor,
Luka aytadi: yo'q, pop.
Qorni katta savdogar! –
Dedilar aka-uka,
Ivan bilan Mitrodor.
Paxom bo'lsa aytadi;
Oliy mansab zodagon,
Chorning inoq vaziri.
Prov hali ham der: chor!

Boyagidan beshbattar
Dovlashar xit va tajang,
So'kishar va sasishar,
Bir-birining sochiga
Yopishsa ajab emas...

Qarang, yopishdilar ham!
Roman Paxomni mushtlar,
Demyan Lukani tepar,
Ivan bilan Mitrodor

Provni to'qmoqlaydi
Va har kim o'z so'zin der;
O'zinikin ma'qullar.

Yangrab ketdi yangg'iroq:
Aylana – shovqin-suron,
Gulduros hayqiriqlar,
Yetti qaysar dehqonni
Gij-gijlaydi go'yoki...
O'ngdan ovoz: chor o'zi!
Chapdan sado keladi:
Yo'q, pop dedim, pop, xolos!
To'qay ichi to'polon,
Cho'chishgan va hurkishgan –
Uchishar parrandalar,
Qochishar darrandalar,
O'rmalar gazandalar,
Xarxasha, ola-g'ovur,
Bo'kirar va o'kirar,
Yig'lar, ho'ngrar, gurkirar!

Oldin sakrab sur quyon,
Shox tagidan chiqdi-yu,
Yunglari tikka-tikka,
Dirillab qochib qoldi.
So'ng qayin tepasida
Zog'chalar g'avg'o soldi –
Chiyildoq va yoqimsiz...
Bu yoqda qush bolasi
Uyasida yotolmay,
Qulab tushdi qo'rquvdan.
Chirillaydi ona qush,
Hadeb fig'on chekadi,
Qayda polapon? Topmas!
Keyin, keksa kakku qush
Uyg'ondi-yu, kimgadir,
Ku-kulash xohlab qoldi;
Boshladi o'n gal rosa,
Biroq, har gal adashar



Va qaytadan boshlardi...
Ku-kulab qol, kakku qush!
Bug'doy bosh chiqarganda,
Boshoq yeb bo'g'ilarsan,
Ku-kulashdan tinarsan'.
Jam bo'lib yetti ukki,
Yetti ulkan daraxtdan
Jangni tomosha qilar,
Qahqaha urishadi
Qorong'i tun qushlari!
Sariq, katta ko'zları
Yonar bol mo'mi kabi,
Go'yo porloq o'n to'rt sham!
Qarg'a ham eslik qush-da,
Vaqtida uchib keldi,
O'tirar xud gulxanga
Yondosh daraxt boshida,
G'a-g'ag'lab tilak tilar,
Iblisga sig'inmoqda:
Birontang o'la qolsang
Menga mazza bo'lardi...
Oqshom podadan qolgan
Qo'ng'iroqli sigir ham, —
Odam g'uvurin payqab,
To'g'ri gulxanga keldi;
Dehqonlarga baqrayar,
Bema'ni mojaroga
Qulq soldi ancha vaqt,
So'ng boshladi, boyaqish,
Betoqat ma'ramoqqa!

Ma'pap esi yo'q sigir,
Chiyillaydi zog'chalar,
Baqirar yetti o'jar.
Hammagini takrorlab,

Yangramoqda yangg'iroq,
Uning tashvishi yolg'iz —
Odamni mazax qilmoq.
Go'daklarni qo'rqiitmoq,
Xotinlarni cho'chitmoq.
Uni hech kim ko'rganmas,
Lekin hamma eshitar,
Jismi yo'g'u — o'zi bor,
Tili yo'g'u — so'zi bor!

Moskva-reka ortidan
Kelgan bir Boyqush-beka
Qo'nimsiz qanot qoqar,
Uchar yettov boshida;
Qanotlari dam yerga,
Dam shoxlarga urilar...
Mug'ombir tulki esa,
Xotinchalish gap tig'nab,
Yondoshib kelib asta,
Janjalga soldi quloq,
Va jo'nab qoldi «him» deb;
«Tushunolmas shayton ham!»
Rosti: dovchilar o'zi
Nima bahs qilganini
Bilarmi, eslarmikan...

Bir-birin do'pposlashib,
Yonboshga tepkilashib,
Eslari kirdi axir,
Ko'lmakdan ichdilar suv,
Pishinishib oldilar,
Bosa boshladi uyqu...

Shu mahal qush bolasi
Dikillab ucha-qo'na,

¹ Bug'doy bosh tortganda, («botoq yeb bo'g'ilib») kakkuning ovozi o'chadi, deydi xalq. *Muallifning izohi.*

Yer bag'irlab, yo'rg'alab,
Gulxanga keldi yaqin.
Paxomtoy tutib oldi,
Ko'rdi youruqqa solib,
Dedi: «O'zing zig'irdak,
Panjang juda ham o'tkir!
Puf desam-ku, qulaysan,
Suf desam yumalaysan,
Chertsam-ku ag'anaysan,
Har qalay, sen mitti qush,
Dehqondan kuchliroqsan!
Qanoting tez o'sadi,
Pir-pir! Qayga xohlasang,
O'sha tomon uchasan!
Ey, qush, mitti qushgina!
Qanotingni bizga ber,
El-u yurtni kezaylik,
Ko'raylik, axtaraylik,
So'raylik va bilaylik:

Rusiyada kim xushvaqt.
Dorilamon yashaydi?

«Agar bizga har kuni
Yarim puddan non bo'lsa,
Qanot nima keragu;
Shundoq ham biz keng yurtni,
Onamiz-Rusiyani
Yayov kezib chiqardik!» –
Derdi o'ksigan Prov.

– Biror chelakdan araq
Bo'lsa! – deb qo'shib qo'ydi,
Araqqa juda xumor
Ivan bilan Mitrodor.

– Gazagiga o'ntadan
Tuzlangan bodring bo'lsa! –
Dehqonlar hazillashdi.

– Tush payti korson to'la
Muzdak kvas ham bo'lsa!

– Kechqurun bir choynakdan
Jag'illagan choy bo'lsa!

Bular gurunglasharkan,
Boshlarida charx urib,
Uchib yurdi ona qush:
Hamma gapni eshitib,
Gulxan yoniga qo'ndi.
Chiyillab sakradi-yu,
Odamzod ovozida
Paxomga shunday dedi:

«Bolamni erkiga qo'y!
Zig'irdak qushcha uchun
Katta to'lov to'layman».

– Qanday to'lov?

«Non, g'allá,
Har kuniga yarim pud,
Va bir chelakdan araq,
Gazagiga bodringlar,
Tush chog'i nordon kvas,
Oqshom achchiqqina choy!»

– Hoy mitti qush, qayoqdan –
Yetti qishloqi uchun
Non va vino topasan? –
Der Ivan va Mitrodor.

«Topishku o'z ishingiz,
Mitti qush bo'laturib,
Aytsam ayta qolayin!»

– Ayt!
«O'rmonni oralang,
O'ttizinchı bog'ona



Yonidan bir chaqirim;
Yalang joyga chiqasiz,
Yalanglikda turadi
Ikki keksa qarag‘ay,
Qarag‘aylar tagida
Ko‘milgan quticha bor.
Kavlab oling, g‘animat,
Quti esa – sehrli:
Ochילדasturxon – unda,
Har qachon xohlasangiz
To‘yg‘azar – serob qilar!
Faqat ohista aytning:
– *Ochילדasturxon, ochil!*
Dehqonlarni mehmon qil!
Sizlarning xohishingiz,
Va mening amrim bilan –
Aytganingiz bo‘ladi.
Endi – jo‘jamni bering!»

Qushga Paxom aytadi:
– To‘xta! Bizlar-ku, qashshoq,
Yo‘limiz hali yiroq, –
Sen eslik qush ekansan,
Usti-boshimiz eski,
Yo‘q dema, sehr qilgil!..

– Toki chakmonlarimiz
Qancha kiysak to‘zmasin! –
Deb talab qildi Roman.

– Chipta kovushlarimiz
Chuvolmasin hech qachon! –
Deb talab qo‘ydi Demyan.

– Toki rasvo burga, bit,
Ko‘ylakda urchimasin! –
Deb talab qildi Luka.


– Chirimasin paytava...
Der Ivan va Mitrodor.

Qush shunday berdi javob:
«Ochילדasturxon o‘zi
Barini yamar, yuvar,
Quritar... bo‘ldi, qo‘ying!..»

Paxom keng kaftin ohib,
Bo‘shatdi polaponni.
Zig‘irdak qush bolasi,
Dikillab, ucha-qo‘na,
Yer bag‘irlab, yo‘rg‘alab,
Iniga ketdi to‘g‘ri.
Orqasidan ona qush
Ucharkan, shunday dedi:
«Lekin bitta sharti bor!
Qursoq ko‘targanicha
Ovqatni so‘raybering,
Ammo araqni esa,
Har kuni bir chelakdan
Ortiq so‘ray ko‘rmangiz,
Ortiq so‘rar ekansiz,
Sizning xohishingizcha
Bir-ikki gal bo‘lar-u,
Uchinchi gal – xatarli!»

Uchirmasi yonida,
Uchib ketdi ona qush,
Dehqonlar turnaqator,
O‘ttizinchi bog‘ona
O‘rnini topmoq uchun,
Cho‘zilib yo‘lga tushdi.
Topdilar!.. Xuddi o‘zi,
Qalin o‘rmon oralab,
Odim-odim sanashar.
Chaqirim o‘lchashganda,
Yalanglikni ko‘rdilar –
Yalanglikda turipti
Ikki keksa qarag‘ay...

Darrov yerni kavlashib,
Qutichani oldilar,



Ochdilar-u, topdilar –
Ochילדasturxonni ham!
Topdilar-u, yettovlon
Ayhoshlashdi barobar:
«Ochילדasturxon, ochi!
Dehqonlarni mehmon qil!»

Ochildi keng dasturxon,
Qaydandir paydo bo'ldi,
Kattakon ikkita qo'l –
Bir chelak sharob qo'yib,
Nonni ham tog'day uyib,
G'oyib bo'ldilar tag'in.

- Xo'sh, sho'rtak bodring qani?
- Qaynagan choyi qani?
- Muzdak kvasi qani?

Bular ham bo'ldi paydo...
Dehqonlar belbog' yechib,
Dasturxon atrofida

Davra qurdilar darrov,
Boshlandi ulkan gurung!
Suyungandan o'pishib,
Ahd-u paymon qilishar:
Bundan buyoq noo'rín
Yoqalashmaslik uchun;
Dovni esa, o'yashib,
Aql va insof bilan
To'g'ri hal qilmoq uchun, –
Shu janjal bitmaguncha,
Rost javob topmaguncha –
Uyiga ham qaytish yo'q,
Xotinlarni ko'rish yo'q,
Go'daklarni o'pish yo'q,
Chollarni sog'inish yo'q,
Ya'ni chinakam, to'liq
Va ayon bilmaguncha:
Rusiyada kim xushbaxt,
Dorilamon yashaydi?

Gapni bir joyga qo'yib,
Saharda murdalarday,
Uchib qoldi yettovlon...



I b o b

POP

Olis-olis cho'zilgan,
Oq qayinlar tizilgan,
Qumlik, kimsasiz keng yo'l.
Yo'lning ikki yonida
Qiya tepalar, qirlar,
Dalalar, pichanzorlar,
Shuvoq o'sgan taqirlar –
Tashlandiq yer uchraydi,
Ko'llar, soylar bo'yida –
Eski qishloqlar turar,
Yangi qishloqlar turar...
Ko'klamda muncha ham soz:
Suv bosgan o'rmonzorlar,
Toshqin yuvgan o'tloqlar,
Rusiya jilg'alari,
Sho'x oqar daryolari!
Lekin, ko'rksiz manzara
Ko'zlarga quvonch bermas,
Ey, ko'klam dalalari
«Axir qish bo'yи har kun
Qor bekor yoqqan emas.
(Deydi bizning yo'Ichilar)
Ko'klam keldi – mana qor
O'zini ko'rsatmoqda!

Vaqt kelguncha u yuvosh:
Yoqqanda, yog'ganda jim.
Erib oqqanida-chi,
O'lsasi bo'kiradi,
Qayonga boqmagin suv!
Dalalar suv ostida;
Yo'l yo'q – go'ng tashigani,
Vaqt esa, erta emas,
May oyi kelib qoldi!»
Na eski qishloqlarga,
Na yangi qishloqlarga
Boqib ko'zlar quvnamas!
Hoy, uylar, yangi uylar!¹
Sizlarni qurayotgan
Bekorchi chaqa emas,
Kechagi o't balosi!

Yo'Ichilarga duch kelar,
Hadeb oddiy kishilar:
Ko'z tanish og'aynilar –
Juldurvoqi dehqonlar,
Ustalar², tilanchilar...
Askarlar, kirakashlar...
Askar-u gadoylardan:

¹ Hoy, uylar, yangi uylar! – Gap yong'indan so'ng, noiloj qurilayotgan uylar haqida borayotir. («Badmast kecha» bobiga qarang).

² Ustalar – o'sha vaqtida fabrika yo zavodda ishlovchilar, ishchilar ma'nosida.

Rusiyada yashamoq
Yengilmi – og‘irligin
So‘rashib o‘tirgan yo‘q.
Askarlar soqolini
Mo‘ychinakda yuladi,
Tutunda isinadi,
Bularda baxt ne qilsin?

Kech kirib qolgan edi,
Ketishar yo‘lda hamon,
Ro‘baro‘dan chiqdi pop.
Ta‘zim uchun bosh egib,
Qalpoqlarin oldilar,
Keyin, qator tizilib,
Saman axta yo‘lini
To‘sib turdilar yettov.
Pop ko‘tardi boshini
Va boqdi, so‘raganday,
– Xo‘sh, nima gap deganday.

Luka popga dediki:
– Qo‘rqma! Biz talonchimas,
(Asli Lukaning o‘zi
G‘o‘labir va sersoqol,
Sarkash, sergak, telbaroq,
Baqaloq kelgan dehqon.
Tegirmonga o‘xshaydi:
Tegirmon qush emas-da,
Qanot qoqsa ham o‘zi,
Uchgan emas hech qachon!)

Biz – yuvosh dehqonlarmiz, –
Muvaqqat qarzdorlardan,
Sho‘rpeshona tumani,
Bo‘shtaqrir volostida
Yonma-yon qishloqlardan –
Yamoqzor, Juldurrovot,
Yalang‘och, Ushuktepa.

Kuygankent, Yutoqsaroy
Hamda Qahatqo‘rg‘ondan.
Yuribmiz zarur ishda:
Tashvishimiz kattakon,
Shundoq katta tashvishki,
Uyimizga kirgizmas,
Ishga ham qo‘l urgizmas,
Hatto ovqat yegizmas.
Qishloqcha gapimizga
Kulma ham nayrang qilma,
Insof bilan ma’noli,
To‘g‘ri javobingni ayt.
Avval shunga va’da ber.
Yo‘q esa, hu – deymiz-u,
Boshqalarga boramiz...

«Jiddiy ish bo‘lsa agar,
Kulmay va nayrang qilmay,
Insof bilan to‘p-to‘g‘ri,
To‘liq javob aytishga
Sizga va’da beraman!
Omin!»

– Qulluq! Qulq sol!
Ketardik yo‘l-yo‘lakay,
Duch kelib qoldik to‘sat,
Duch keldigu dovlashdik:
Rusiyada kim xushvaqt,
Dorilamon yashaydi?
Roman dedi: pomeshchik.
Demyan dedi: amaldor.
Men: pop deb turvoldim.
Qorni katta savdogar! –
Deydi bu aka-uka
Ivan bilan Mitrodot.
Paxom dedi: shavkatli,
Oliy mansab zodagon,
Chorning inoq vaziri.

Prov bo'lsa, dedi: chor...
Dehqon ho'kizday qaysar:
Biron devona xayol
Boshiga o'rashsa, bas,
Pona qoqsang ham chiqmas!
Dovlashsak ham nechog'lik
Kelishaolmadik hech!
Dovlashib – tentaklashdik,
O'lqiday kaltaklashdik,
Kaltaklashib – o'ylashdik:
Dovni hal etmaguncha,
Aslo tarqab ketish yo'q,
Uyiga ham qaytish yo'q,
Xotinlarni ko'rish yo'q,
Go'daklarni o'pish yo'q,
Chollarni sog'inish yo'q,
Toki chinakam, ayon,
Va to'liq bilmaguncha:
Rusiyada kim xushvaqt,
Dorilamon yashaydi?
Tangri uchun bizga ayt:
Poplarning ko'rgan kuni
Yaxshimi? O'zing qalay,
Tinch, xushbaxt yashaysanmi,
So'yla, xudojo'y ota!..

Aravacha ustida
Hang-u mang o'ylaydi pop,
Deydi: «Mo'min bandalar!
Noshukurlik bo'lmasin,
Bo'ynimda-ku butim bor,
Sabr-u qanoatim bor,
Qanday yashaganimni

Men aytay, siz tinglangiz!
Haqiqatni aytaman,
Siz – o'zingizcha o'ylab,
Uqib oling!»

– Xo'p, boshla!

«Sizcha, baxt nima o'zi?
Huzur-u boylik, obro',
Shundaymasmi, jon do'stlar?

Ular aytdiki: Balli...

«Endi ko'raylik, qani,
Popda *huzur* bormikan?
Tug'ilgan kunimdanoq
Aytsam yaxshiroq edi,
Popdanki tug'ildingmi,
Savod olishing qiyin,
Qanchalik qimmatbaho
Sotiladi bu minbar¹,
Indamay qo'yaqolay!

.....
.....
Bizning ish ham osonmas,
Yo'l og'ir, behisob qavm²,
Birisi og'rib qolar,
Uttasi o'lib qolar,
Har tuqqan go'dakka ham
Chaqirar vaqt-u bevaqt!
Bug'doy o'rog'ida ham,
Pichan o'rog'ida ham,
Kuzning jimjit tunlari,
Qahraton qish kunlari,

¹ *Qanchalik qimmatbaho...* – pop o'g'li diniy maktab (seminariya)ni bitirgandan keyin, o'lgan yoki ishdan bo'shatilgan ruhoniying mansabini egallamoq uchun o'sha ruhoni qiziga uylanishi shart edi.

² *Qavm* – bir cherkovga qarashli mahalla, qishloq, aholi ma'nosida. *Tarjimon*.

Ko'klamdag'i selda ham
Chaqirgani – chaqirgan!
Bormayam ko'rchi, qani!
Xo'p deb ketaverasan.
So'ngaklaring sirqirab –
Qo'ya qolsa mayli-ya,
Darmon-darmoning qurib,
Jon azobi chekasan.
Ishoning, ey mo'minlar,
Odatga ham bir chek bor:
O'luvchi g'arg'arasi,
Tobut boshidagi dod
Va yetimning hasrati –
Biroz titroq solmagan
Yurak ham bo'larmikan!
Omin! Qani o'ylang-chi,
Menda huzur ne qilsin?»
Dehqonlar ko'p o'ylashmay,
Popga jindak dam berib,
Qo'sh bukilib aytdilar:
– Nima aytasan tag'in?

«Endi ko'raylik, qani,
Poplarga *hurmat* bormi?
Masala sal qaltisroq,
Achchig'ingiz chiqmas-a?..

Ayting, mo'min bandalar,
Bizga-ku laqab qo'yib,
Ayg'ir zot deb aytasiz!.
Gunohimiz nimada,
O'zingiz javob bering!»

Dehqonlar angrayishar,
Pop ham xomush turipti.

«Kim bilan duch kelishdan
Qo'rqaqiz yo'l-yo'lakay.
Bas! Javob bering qani!»

Yo'talib, serrayishar,
Un yo'q! Sin yo'q, bari jim!

«Xo'sh, kimning to'g'risida
Masxara latifalar,
Bo'limg'ur hangomalar,
Adabsiz ashulular
Va g'iybatlar to'qiysiz?»

Oppoq otinbibini²,
Undan ham oq qizini,
Shundoq mulla bolani
Malomatga chalpiysiz?
Kim ketidan im qoqib,
Zaharxanda qilasiz,
Va xaxolab kulasiz?»

Yettovlon yerga boqar,
Pop ham xomush turipti.
Dehqonlar o'y o'ylashar,
Pop keng qalpog'i bilan
Yuzini yelpib-yelpib,
Ko'kka ko'z solar edi.
Ko'klam chog'i, bulutlar
Qizil quyosh boboning
Nevaralari kabi
O'ynashar ko'k yuzida:
Mana, o'ng tomon tutash
Qora bulut ostida,
Tumanlik, qop-qorong'i,
Ham to'kmoqda ko'z yoshi:

¹ *Ayg'ir zot* – rus xalq folkloridagi popning xotinbozligi, buzuqligi to'g'risida aytildigan besanoq latifa va cho'pchaklarga ishora.

² *Otinhibi* – pop xotini.

Kulrang ip qatimlari
Ko'kdan to yergachayin
Cho'zilmish qator-qator.
Beriyoqda, dehqonlar
Boshida parcha-parcha
Yirtiq, sho'x bulutchalar
Orasidan kulmoqda –
Yarqiroq, suluv quyosh,
Go'yoki, bog'-bog' bug'doy
Orasidan kular qiz,
Ana, qo'zg'oldi bulut,
Pop ham qalpog'in kiyar,
Jala quysa ehtimol.
O'ng tomon ko'k qirg'og'i
Yorug'roq, toza, quvnoq,
Demak, tinipti yomg'ir.
U yerda yomg'ir emas,
Ilohiy bir mo'jiza:
Oltin ip arqoqlari
Cho'zilmish yerga qadar...
«O'zimiz emas... axir
Bobolar...»¹, dedi eng so'ng
Ivan bilan Mitrodor.
Boshqalar ham: «Balli, der,
Biz emas, bobolar-ku!»
Pop aytdiki: yo omin!
Kechirgaysiz, mo'minlar,
Sizni ayblast uchunmas,
Siz so'rab qoldingiz-u,
Men to'g'risin so'zladim.
Dehqonlardan poplarga
Hurmat shu! Pomeshchik-chi...

– Sen ularni tashlab o't!
Ular bizga tanig'lik!

«Endi ko'raylik, qani,
Og'aynilar, poplarning
O'sha boyonliklari
Qaydan kelib qolipti?
Yaqingina zamonda,
Rusiya imperiyasi
Dvoryan qo'rg'onlari²
Bilan to'lib-toshgandi.
Yashardi pomeshchiklar –
Mashhur mulkdor to'ralar,
Ular hozir juda kam!
Ishqilib ko'payishar,
Nevarami, chevara,
Biz ham quruq qolmasdik.
Yeganlari ham tekin,
Ichkanlari ham tekin,
To'y desang – to's-to'polon,
Eh-he, qancha chaqaloq!
Garchi, o'zлari tantiq,
Bag'ri tosh, qo'li ochiq
Oliy janoblar edi.
Jamoatdan qolmasdan:
Shu yerda to'y qilishar,
Go'dakka nom qo'yishar,
Ibodatga kelishar,
O'qirdik duoyi xayr.
Biron vaj-la shaharda
Yashab qolsa pomeshchik,
O'lar choqda, har qalay,

¹ O'zimiz emas... – popni beobro' qilish ota-bobolardan qolgan qadimgi gap ma'nosida.

² Dvoryan qo'rg'onlari – chorizm davrida dvoryanlar, pomeshchiklar va podshoga xizmat ko'rsatgan amaldorlar, ya'ni oliy va imtiyozli tabaqa uchun qurilgan saroylar, qo'rg'on, bog'-rog', o'mronlik yerlar, krepostnoylar xizmat qiladigan korxonalardan iborat mulk. Tarjimon.

O‘z tuqqan qishlog‘iga
 Bir amallab kelardi.
 To‘satdan o‘lib qolsa,
 Vasiyat qilardiki:
 Xilxonamga ko‘ming deb.
 Olti otga oy taqib,
 Motam aravasida,
 Vorislar o‘rab olib,
 Qishloqning cherkoviga
 Rahmatlikni eltishar –
 Men sizga aytaqolay,
 Ana shu popga omad,
 Qishloqilar uchun to‘y...
 Hozir undaqa emas!
 Juhud qabilasiday
 Olis-olis ellarda,
 Ham aziz Rusiyada
 Tarqalib yashaydilar.
 Hozir xilxonasida,
 Bobolar yonida ham
 Go‘rda yotmoq faxr emas,
 Qancha-qancha yer-u suv
 Foydaxo‘rlar qo‘lida.
 Rusiya dvoryanlarin
 Asl oq suyaklari,
 Qaylarda qolmadingiz?
 Qayda yo‘q mozoringiz?
 Undan so‘ng raskolniklar¹,
 Dinimizni bo‘lganlar...
 Shukurki, qo‘shilmadim,

Va ko‘rmadim daromad!
 To‘kin-sochin edik, shukur:
 Menga qaram qavmda
 Yashaguchi fuqaro
 Ko‘pi pravoslav²,
 Shunday volostlar borki,
 Yoppasiga raskolnik,
 Qani, xo‘sh, pop ne qilsin?

O‘tar dunyo ekan bu,
 Dunyo degan bebaqo...
 Oldin raskolniklarga
 Jazo bergen qonunlar
 Hozir susayib qoldi;
 Popning daromadiga
 Shu vajdan keldi ofat³,
 Boylar qorasi o‘chdi,
 Yashamas qo‘rg‘onida,
 Qariganda o‘lgani
 Biz yoqqa kelmasa bo‘ldi.
 Boy xotinlar, bekalar,
 Taqvodor u kampirlar –
 Qanchasi o‘lib ketdi,
 Qanchasi monastirlar⁴
 Yonidan oldilar joy.
 Popga kimxob yopguday
 Hech kim qolmadi hozir!
 Zardo‘zi sarpo‘sh qani!
 Bir amallab kun o‘tar,
 Dehqonga orqa qilib,
 Tanga chaqa tushadi.

¹ *Raskolniklar* – XVII asr yarmida Rossiyada turli mazhablarning kelib chiqishiga sababchi bo‘lgan diniy harakat namoyandalari.

² *Pravoslav* – xristian dinida bir mazhab.

³ ... *Keldi ofat* – raskolniklar pravoslav ruhoniylari hokimlarga bergen soxta hisobotlarida go‘yo bular davlat cherkovining marosimlarini bajargan deb ko‘rsatish uchun katta poralar berishardi. Lekin 1884-yildan boshlab raskolniklar ishi tugab, grajdan ma‘muriyatiga o‘tdi.

⁴ *Monastir* – xristian ruhoniylarining ibodatxonasi.

Ulug' ayyom ~~kostar~~
Bir burda chalpak, ~~tuxusuz~~
Jon deb sadaqa qilmoq
Dehqonning odati-ku,
O'zida yo'q bir miri...

Dehqonning shu chaqasin
Hazm qilishni ayting-da!
Yerda baraka qani,
Bel botqoq, yer po'panak,
Poda och tentiraydi,
Ekkuningni o'rib ol!
Nam tepib yotgan bu yer
Ona kabi emikdosh,
Nima balo bo'ldi-yu:
Don ekib ne qilasan!
G'alla emas, muhtojlik,
Shu g'urbatning nonini
Yarim narxga sotasan.
Kelasi yil ham shu gap!
O'lponing uch barobar,
Mol – qorang ham sotilar,
Tavba deng, ey mo'minlar!
Tavba deyvering, dedim,
Ushbu yil uncha emas,
Bir falokat bor chog'i:
Qish yomon sovuq bo'ldi,
Yog'in-yashin, katta sel,
Xo'sh, qachon ekamiz-u,
Belbog' bo'yи katta suv!
Xudoning rahmi kelsin!
Ko'kimizga egikroq
Kamalak yuborgaysan¹.
(Pop qalpog'ini olib,
Isoga sig'indi-yu,
Cho'qindi yettovlon ham.)

Oishlegiz qashshoq,
~~Dehqontar~~ unda nimjon,
Xotinlar munglug', notob,
Boquchi, emizuchi,
Cho'rilar, taqvodorlar,
Mangulik jafokashlar,
Mangulik zahmatkashlar,
Xudoyo, o'zing qo'lla!
Shunday og'ir mehnatdan
Tiyin-tiyinlar yig'ib,
Yashamoq juda qiyin!
Ba'zan kasal yoniga
Borsang: o'ladiganmas,
Uy boshlig'idan judo
Bo'layotgan oila –
Dehqonning xonadoni
Undan yana qo'rqinchroq!
O'lganga o'qib duo,
Qolganlarning ko'nglini
Yupatishga tushasan.
Shu mahal rahmatlikning
Sochlari oq onasi
Mehnatda qadoq qo'lin,
Uzatadi sen tomon.
Qo'lida jiringlaydi
Ikkita bir mirilik,
Hiqildoqdan tutganday!
To'g'ri, halol sadaqa –
Duong uchun beripti,
Olmasak choramiz yo'q,
Shunda bir so'z deyolmay,
Tiling qotib qoladi.
O'z-o'zingcha o'kinib,
Uyga jo'naysan... omin...»

¹ Egikroq yoki egilganroq kamalak – yaxshi ob-havoga ishora. Tarjimon.

Pop so'zini tugatib,
Otni siltalab qo'ydi.
Dehqonlar yo'l berishib,
Bukilib, bosh egishdi,
Ot yo'rtib jo'nab qoldi.
Olti o'rtoq birakay,
Til biriktirgan kabi,
Koyish, qarg'ishlar bilan,
O'sha sho'rlik Lukani
O'rab oldi sansirab.

— Bilganing shu bo'ldimi,
Hu, sen, bema'ni kalla!
To'ng va dovdir qishloqi!
Gapga suqiladi-ya!
Cherkovli dvoryanlar¹ —
Poplar knyazday yashar.
Osmonga quloch yoysan
Popning koshonalari,
Dang'illama uy-u joy,
Qo'ng'iroqlar jarangdor.
Eshitar ro'yi zamin.
Men uch yil, qadronlar,
Popda qarol yurganman,
Tirikchilik emas, hey,
Xuddi yog'da yuzgandek,
Shovlasi yog'liqqina,

Somsalari qiymalik,
Sho'rvalari mazzalik!
Pop xotini bir quchoq,

Pop qizi oppoqqina,
Popning otlari semiz,
Asalarilari to'q,
Qo'ng'iroqday guvullar!
Mana senga maqtovlik,
Poplarning kun ko'rishi!
Nega shovqin, manmanlik,
Janjalga tushding, shakkok?
Sersoqolman, yengaman,
Deb o'ylading shekilli?
Taka ham sersoqol-da,
Odam Atodan avval
Kezsa ham bu olamda,
Lekin, ahmoq sanalur
Taka hanuzgachayin!..

Luka turar, indolmas,
Qo'rqadi — och biqindan
Tushirmasin do'stlari...
Bu gap-ku aniq edi, —
Biroq, baxtini qarang,
Yo'lning aylanmasida
Pop ularga bir qarab,
Po'pisa qilib qo'ydi.



¹ Cherkovdag'i oqsuyak, qo'ng'iroq chalib hukm yurgizuvchi aslzoda, ya'ni pop demoqchi. *Tarjimon*.

II боб

QISHLOQ YARMARKASI

Bizning bu darbadarlar –
Ushuk va nam ko‘klamni
Bekor qarg‘ashgani yo‘q.
Dehqonga erta ko‘klam –
Nimxush kelgani yaxshi.
Bo‘riday uvlab ko‘r-chi,
Dod desang – foydasi yo‘q!
Yerga oftob tushmasa,
Bulutlar ham yog‘oloq,
Yelin solgan sigirday
Ko‘k yuzida kezishar.
Qorlar erib ketipti,
Ko‘k ham yo‘q, yaproq ham yo‘q!
Suv sizotda yotipti,
Yer baxmalga burkanmay,
Yalang‘och o‘lik kabi,
Bulutli ko‘k tagida
Yotar taqir, bekafan.

Esiz, bechora dehqon,
O‘zidan ham mol ayanç,
Bor xashakni yegizib,
Xivchin bilan savalab,
Haydavorar o‘tloqqa,
Yer qovjiroq! Nima bor?
Faqat, Nikola kuni¹

Ochilib ketdi havo,
Yashil, chuchuk barraga
Og‘iz soldi qoramol.
Kun qiziq. Qayinlarning –
Soyasida yo‘l olar,
G‘uldurashib yettovlon:
«Bir qishloqdan o‘tdik – bo‘sh,
Ikkinchisi – tag‘in bo‘sh!
Bu kun hayit kuni-ku,
Qilt etgan jon ko‘rinmas?»
Qishloqning ko‘chasida
Mayda-chuyda go‘daklar,
Eshikni qoqar bo‘lsang,
Qari-quri kampirlar,
Yoki butunlay bekik,
Eshigi qulflog‘liq,
Qulf – laycha vafodor:
Akillab qopmasa ham,
Uyga kirgiza qo‘ymas!

Qishloqdan o‘taturib,
Chorcho‘pdagi oynaday
Tiniq hovuz ko‘rdilar.
To‘sh urib qaldirg‘ochlar,
Yelday uchib o‘tadi;
Ozg‘ingina chivinlar –

¹ Nikola kuni – 22-may (eski sanoqda 9-may).

Quruqda sakraganday,
 Sakrab o'ynashar suvda.
 Qirg'oqda, butazorda
 Qushlar cho'qishar po'stloq,
 Uzun va ravon solda
 Yo'g'on, semiz otincha¹
 Mol yeb ketgan g'aramday,
 Etagini bar urib,
 Turar qo'lida o'qlov.
 Sol ustida uxlaydi
 O'rdak va jo'jalari...
 Chuha! Ot hingirlashi!
 Bir yo'la boqdi yettov,
 Ko'rdilar suv ustida
 Ikkita bosh: qo'ng'irsoch,
 Oftobda toza pishgan.
 Qulog'ida halqasi,
 Quyosh unda yalt etib,
 Ko'z qisib ko'rinoqda.
 Bittasining boshida
 Besh quloch ho'l arqon bor.
 Dehqon arqonni tishlar,
 U yuzar, ot ham yuzar,
 U kishnar, ot ham kishnar.
 Yuzishar, shovqunlashar!
 O'rdak va jo'jalari,
 Ham kennoyi tagida
 Yuzar sol lapang-lapang.

 Yetdi-yu, ot yoliga
 Yopishib oldi dehqon,
 Irg'ib mindi ham o'tloq
 Tomonga chiqdi polvon:

Tani oq, bo'yni esa,
 Qora qurum singari;
 Otdan ham, otliqdan ham
 Irmoq-irmoq suv oqar..!

– Ne gap qishlog'ingizda,
 Elga qirg'in kelganday,
 Na katta bor, na kichik?
 «Kuzmino qishlog'ida,
 Bugun ham katta bozor,
 Ham hayit, ham sayil bor».
 – Kuzmino uzoqdami?
 «Uch chaqirim keladi!»

– Kuzminoga boraylik,
 Sayilni ham ko'raylik!
 Yo'lga tushdi dehqonlar,
 O'zlaricha o'ylardi:
 Xushbaxt yashovchi odam
 U yerda emasmikan?..

Kuzmino – boy va katta,
 Iflos savdogar qishloq.
 Yonbag'irdan cho'zilib,
 Soylikka ulanadi.
 Bir tomon – tag'in tepa –
 Tozalik qayoqda-yu?
 Qadimiy ikki cherkov:
 Biri eski e'tiqod²,
 Biri – pravoslav.
 Ro'baro'da xata bor –
 Uy turipti huvullab,
 Eshigida lo'kidon,

¹ *Otincha* – mulla (pop) qizi.

² *Eski e'tiqod* – bu yerda gap xristian dini mazhablarga bo'lingandan so'ng (XVII asr o'rtalar) bir necha mazhabni birlashtirgan diniy oqim marosimlarini o'tkazuvchi cherkov to'g'risida boradi.

Hoynahoy maktab o'zi.
Bir darchalik yog'och uy,
Qon olguvchi bir feldsher¹
Surati solinipti.
Iflos musofirxona,
Butun topgan-tutgani
Manglayida lavhasi:
(Barkash ko'targan dastyor,
Bir gaz qansharlik choydish,
Choydishning atrofida
Zig'irdak piyolalar,
Go'yo turar ona g'oz
Jo'jalar o'rtasida.
Shahar bozorlariday,
Do'konlar ham bor bunda...

Chalg'ib bunga keladi,
Yana, o'n bir bo'zagar,
Bayram uchun qishloqqa
Chodir ham tikishihti.
Har qaysida besh dastyor,
Pixin yorgan dastyorlar,
Hallos urib chopishar
O'lsasi horg'in, biroq
Ulgurishmas, negaki,
Pul to'lashga – mayda yo'q!
Anov dehqonni qara,
Manov shlyapalikni,
Ro'molchalik qo'l ham bor,
Bitta qarab qo'ysang-chi!
He, he pravoslavlari!
Tashnasiz munchalar ham.
Tomoq ho'llab olsang bas,
Bozor qaytgandan keyin,
Qalpojni topish oson!
Mast boshlar tepasida
O'ynar ko'klam quyoshi...
Chala mast suronlarda
Tovlanadi to'r tomon!
Yigitlarda baxmal shim,
Nuqlu yo'l-yo'l nimchalar,
Ko'yaklari rang-barang,
Xotinlar alvon kiyib,
Qizlar taqqan sochpopuk,
Oqqushday tengsalishar!
G'alati satanglar bor –
Beli burma belbog'lik,
Hay-hay, kiyib kezinar
Poytaxtda yurganday...
Qo'lingning uchi tegsa –

Naq bozor o'rtasiga
Yettov kirishib keldi:
To'la-to'kis mol-tovar,
G'ijir-bijir olomon!
Shuncha suron qayda bor?
Hayit nomoz emas-ku,
Tepada but turganday,
Hammaning boshi yalang...
Bu o'zi shundaqa joy!
Qishloqi telpaklarning
Uyurini ko'ringiz,
Qayga tentiraydi-yu,
Qay tomonga boradi:
Ichkulik ombori ham –
Oshxona-yu, mayxona,
O'nta araq do'koni,
Uch karvonsaroy, qaznoq²,
Chalg'ib unga boradi,

¹ Feldsher – qishloq vrachi yoki vrach yordamchisi (meditsina ham veterinariyada).

² Qaznoq – musallas sotiladigan maxsus qaznoq.

Upasi uchgan kabi!
Ey olifta xonimlar,
Baliq ovlashga qo'ygan
Chigil, yoyma to'r kabi
Etakni yig'ishtiring!
Shu satanglarga qarab,
Qo'sh qarigan bir xotin
Cho'qinib aytadiki:
«Qahatchilik bo'ladi!
Ekin-tikin nam bosgan,
Tavba de, Petr kuni¹,
Hanuz toshqin oqmoqda!
Ayollar xushvaq chitdan
Ko'ylak kiygandan beri,
Daraxtlarda o'sish yo'q,
Don-dunlarda unish yo'q!»
— Qizil chitning gunohi
Nimada enaginam?
Aqlimga sig'mayapti!

«Itni so'yib, qoniga
Shu chitni bo'yaptilar,
Farang degan shunaqa,
Endi uqqandirsan-a?»

Otbozorda to'polon,
Tepaning etagida —
So'qalar-u xaskashlar,
Sixmola-yu changaklar,
Ag'darma shotilar-u
To'g'inlar, do'ngalaklar
Mindi-mindi yotipti.
U yerda bozor chaqqon:
«Baraka top! Qo'lni ber!»

Qasam ichish, askiya,
Va shovqinli qahqaha...
Ne chora bor qahqahsiz?
Pakana bo'y bir dehqon
To'g'in tanlab yuripti:
Birin bukar — ma'qulmas,
Boshqasin bukar — yoqmas,
Birin tortdi kuchanib,
To'g'in esa bo'shanib,
Bitta tarsaki tortdi!
Shu urishqoq to'g'inni
So'kib hayqirar dehqon:
«Tentak so'yil, so'laqmon!»
Boshqasi ortib kelgan
Xilma-xil yog'och buyum —
Ag'darilmish tamom yuk!
O'zi mast! O'q sinipti,
Tuzatmoqchi bo'lgandi,
Bolta ham sindi! Dehqon
O'ylar, boshini qashir,
Boltani koyir, so'kar,
Ish do'ndirmoqda go'yo:
«Bolta emas, muttaham!
Arzimagan yumushdan
Bo'yningni tovlading-a!
Doimo bosh egarding,
Biroq, siylamasding hech!»

Yettov rastada kezar,
Ivanovo chitlari,
Ro'mollar, egar-to'qim,
Kimralilar² mahsuli —
Nuql yangi poyabzal,
Suqlanar, ko'z qamashar...

¹ Petr kuni — 12-iyul (eski hisobda 29-iyul).

² Tver gubernasining Kimri qishlog'i oyoq-kiyimi tayyorlashda shuhrat topgan edi. Bu yerda shunga ishora. Tarjimon.

Poyabzal do'konida
Tag'in kulishar yettov,
Bir chol nevarasiga
Botinka savdo qildi,
Besh yo'l narxin so'raydi,
Aylantirib ko'radi:
Echkining terisidan –
A'lo navli botinka!
– Ikki tanga, oqsoqol,
To'la, yoki jo'nab qol! –
Dedi cholga savdogar.
«To'xta-chi!» Chol qoshiqday
Botinkani qo'ymayin,
Ko'z uzymayin shunday der:
«Men – kuyovdan qo'rqlayman,
Qizim ham indamaydi.
Xotinim – pisand emas,
Ezma, jovrasa jovrar.
Lekin attang, nevaram –
Sho'x qiz, bo'ynimni quchib,
Degan edi: bobojon,
Bozorlik olakeling! –
Ham ipakday sochlari
Yuzimni qitiqlardi,
Erkalanib, tirmizak –
Chol bobosin o'pardi.
«To'xta, hoy yalangoyoq!
Xushomadgo'y, bizbizak!
Echkining terisidan
Botinka keltiraman...»
Mana shunday maqtandim,
Ham katta, ham kichikka
Va'da qildim bozorlik,
Lekin, men ichib qo'ydim,
Hemiri qolgani yo'q!
Bola-chaqa ko'ziga –
Qanday ko'rsatolaman
Shu behayo ko'zimni?..

Men kuyovdan qo'rqlayman,
Qizim ham indamaydi.
Xotinim – pisand emas,
Ezma, jovrasa jovrar.
Lekin, attang nevaram!»
Tag'in nevara dardi!
Betoqat kuyinardi...

To'plangandi olomon,
Tinglashardi kulgusiz,
Unga achinishardi...
Ish yoki parcha non-la,
Ko'maklashardi, balki.
Ammo ikki tangani
Ehson qilolmas hech kim:
O'zi qolar chaqasiz...
Bitta odam bor edi,
Pavel Veretinnikov.
(Zoti kim-u, nomi kim,
Dehqonlar bilmas edi,
Ammo derdilar: «To'ram»,
Sho'x va hazilkash edi:
Kiyardi alvon ko'yvak,
Burmalik movut kamzil,
Ham moylangan etiklar.
O'zi rus qo'shiqlarin
Kelishtirib aytardi
Va tinglashni sevardi.
Uni yo oshxonada,
Yoki qovoqxonada,
Yo karvonsaroylarda
Ko'plar ko'rishgan edi).
Vavilushkaga bo'ldi,
O'sha topda najotkor,
Botinkaga pul berdi.
Vavilo oldi darrov
Va ko'zdan g'oyib bo'ldi!
Sevinib ketganidan



To'raga qulluq deyish
Chol esiga kelgan yo'q.
Lekin, o'zga dehqonlar
Shunday yupandilarki,
Shunday quvondilarki,
Go'yo u har biriga,
Bir so'lkavoy berganday...

Bor edi kichik do'kon,
Sotardi surat, kitob,
Chorbozorchilar undan
G'amlab olishardi mol.
— Generallar suratimi?—
So'rard i u dog'uli.
«Generallardan ham ber!
Faqat, insof qil bir oz,
Ya'ni chinakam bo'lsin —
Yo'g'onroq, vahimaliroq...»

— Ko'ring, qanday ajoyib!
Qaddu qomatda gap yo'q, —
Der savdogar jilmayib.
«Bo'lmasa, gap nimada?
Hazilingni qo'y, jo'ra!
Lash-lushing kimga kerak?
Qayon olib boramiz,
Ham o'tkazamiz kimga,
Kim xohlaydi zararni?..
Chalg'itma! Dehqon uchun
Hamma general birdak,
Archaning g'urrasidek:
Xunugini sotmoqqa
Epchilroq bo'lmoq lozim,

Yo'g'on, vahimali bo'lsa,
Har kimga o'tkazaman...
Kattaroq, savlatliroq,
Tog' o'mrov, shokosa ko'z,
Novcharog'idan tanla,
Yulduzi ko'proq bo'lsin!»

— Harbiy bo'lmanlar-chi,
Kerak emasmi sizga?
«Harbiy bo'lman emish!»
(Ammo, qandaydir yo'g'on,
Qursog'i — xum, to'sh esa,
O'n yettita yulduzli,
Mansabdar suratini
Sotib oldilar arzon).
Savdogar hurmat bilan,
Xaridorga ne yoqsa,
Ikki qo'llab tutadi,
(Lyubyankada — bosh o'g'ri)¹,
Blyuxerdan² yuz dona,
Arximandrit Fotiy³,
Qaroqchi Sipko⁴dan — yuz,
Sotdi rossa do'ndirib...
Sotdi kitoblardan ham:
«Qiziqchi Balakirev»
Ham «Ingliz milordi!...»
Qutidagi kitoblar,
Suratlar kezar butun —
Rus saltanati bo'ylab;
To dehqon xonasida,
Yo yozlik chaylasida,
Pastakkina devorga
Qoqilmaguncha kezar...

¹ Lyubyanka — Moskvada ulgurji kitob sotilgan ko'cha.

² Prussiya feldmarshali (1742–1819).

³ Fotiy — monax, ruhoni, reaksioner (1792–1838).

⁴ Sipko — 1860-yilda sudga tushgan soxta pul yasaguvchi.

Go'r biladi – ne uchun!
Oh! Kelarmi shunday vaqt,
(Kel, orzu etgan zamon!)
U kelganda, dehqonga
Uqdirsalarki, axir,
Suratda ham surat bor,
Kitob ham har xil bo'lar.
Shunda, dehqon Blyuxer,
Yo tentak milordnimas –
Belinskiy, Gogolni
Olib ketar bozordan?..
Ey, siz, rus kishilar!
Ey, siz, mo'min dehqonlar!
Hech eshitganmidingiz
Bu nomlarni biron vaqt?
Bu nomlar – ulug' nomlar,
Xalqparvarlar¹, jonbozlar –
Maqtardi tillarida,
Saqlardi dillarida:
Koshki, shularning rasmin –
Uyingizga ossangiz,
Shular yozgan kitobni
O'qisangiz, uqsangiz ...

«Jannatiga kirardim,
Lekin, eshigi qayda?» –

Yangrab ketdi shu so'roq
Birdan do'kon yonida.
– Qanday eshik izlaysan?
«Tomoshaxona² qayda?
Jim! Musiqa chalmoqda!»
– Qani yur, men ko'rsatay.

Tomoshani eshitib,
Bizning darbadarlar ham
Yo'l soldi o'sha tomon.

Kulgili Polvonkachal.
Nog'orachisi echki,
Oddiy sharmanka emas,
Chinakam musiqali,
Qo'g'irchoqlar o'yinin
Tomosha qildi yettov...
Tomoshada ma'no kam,
Lekin, behuda emas,
Mirshab-u ellikboshi
Yegay toza ham dakki!
Tomoshaxona tiqin,
Olomon pista chaqar,
Yoxud ikki-uch dehqon
Bir-biriga so'z tashlar,
Qarang, araq ham tayyor:
Tomosha ham kayf-safo,
Ovunar, chaqchaqlashar.
Polvonkachal so'ziga –
So'z qistirar do'ndirib,
Ham joyiga qo'ndirib;
Bunday qochiriq topmaysan,
Qalamni chaynasang ham!
Shunday ishqibozlar bor –
Tomoshadan so'ng darrov
Parda ketiga o'tar,
O'pishar, do'st bo'lishar,
So'rar sozandalardan:
– Qaydansiz, azamatlar? –
«Xo'jayinimiz bor edi,

¹ Aslida: zastupniki narodnie – xalqni yoqlovchilar, jonkuyarlar. Tarjimon.

² Aslida: balagan – bozorlarda muvaqqat kichik tomoshaxona, chayla. Tarjimon.

O'ynardik pomeshchikka,
Hozir ozod kishimiz,
Kim bizni mehmon qilsa,
Yo andak ehson qilsa,
Bizga xo'jayin o'sha!»

— Juda soz, aziz do'stlar,
Yetar to'raga chalmoq,
Ular ko'nglini olmoq.
Dehqonlarni yupating!
Ey, bola! Aroq keltir,
Vino! Choy! Pivo ham ber!
Simlyan pivosidan!

To'ra sozandalarin
Ziyofat qilar shu payt,
Dasturxon to'kin-sochin,
Dengiz toshqin go'yo.

Bu – esgan bo'ron emas,
Yo tebranmas ona-yer –
Shovqinlashar, kuylashar,
So'kishar, chayqalishar,
Yumalashar, mushtlashar,
Ham qaytadan o'pishar,
Shu bayramda olomon!
Tepaga chiqisharkan,
Yetti sayyoh ko'rdiki,
Go'yoki butun qishloq
Aylanar, qalqar, tushar,
Hatto, baland gumbazlik
Qadimiy cherkovni ham,
Silkitdi bir-ikki yo'l! –
Bunda hushyor odamga
Yalang'ochday o'ng'aysiz...
Bizning yetti darbadar
Yana kezdi sayhonda
Va bu suron qishloqdan
Ketishdilar kechqurun...





III b o b

BADMACT KECHA

Rusiyada aksar vaqt
 Turar qishloq chetida,
 Darchalari kichik, tor,
 Panjaralari temir,
 Pastak yog'och imorat.
 Bu yerlarda na ombor,
 Na tegirmon, mayxona,
 Na xirmon uchun saroy.
 Qamoqxona ketida –
 Olis-olis cho'zilgan,
 Oqqayinlar tizilgan,
 Kattakon yo'l ko'rinar.
 Oddiy kunlarda jimjit,
 Qayg'ulik ham kamqatnov.
 Endi undaqa emas!

Butun o'sha katta yo'l
 Va aylana so'qmoqda,
 Ko'z ilg'ar yerga qadar,
 Nuql mast ko'rinaldi,
 Yerlarda surinardi,
 Yotar ham turardilar,
 Tarmashlab ko'rardilar,
 Zo'rg'a yo'l yurardilar,
 Tinmasdi bo'g'iq nola!

G'ich-g'ich yuk aravalar,
 Dang qotgan mujiklarning

Gangigan cho'ng boshlari –
 Buzoq kallasi kabi
 Shilqillar edi afgor!

Ketayotgan olomon
 Tappa-tappa qulardi,
 Go'yo tepa ortidan
 Dehqonlarni mo'ljallab,
 Otmoqda yov sochma o'q!

Tushib keldi sokin tun,
 Xira ko'kda qalqdi oy,
 Go'yo yashil baxmalga
 Sof va a'lo oltindan
 Tangri yorliq yozmoqda.
 Bu g'alati yorliqni
 Na oqillar o'qigay,
 Na ahmoqlar o'qigay.

Yo'lida yangrar yuz ovoz!
 Yashil dengiz singari
 Dam tinar, dam kuchayar
 Baqiriqlar, sadolar.

«Biz mirzaga yarim so'm
 Berib, yozdirib oldik:
 Viloyat boshlig'ig'a
 Shikoyat arizasi...»

– Hey! Qoping tushib qoldi!

«Yo‘l bo‘lsin, Olenushka?
To‘xta! Qand beray tag‘in,
Sen – burgaday chaqqonsan,
To‘ysang–irg‘ib qochasan,
Silashga ham qo‘ymaysan!»
– Chor yorlig‘i, yaxshisan,
Afsuski, yozilmapti –
Bizning ko‘z o‘ngimizda...

«Qoch, yo‘l to‘sma, xaloyiq!»
(Talay paychi amaldor
Childirma, qo‘ng‘iroq-la
Ham shovqin-suron solib,
Chopar bozor qaytishi...)

Men senga endi aytam:
Supurgi cho‘ltoq bo‘lib,
Yerni supurar bo‘lsang,
Chang qo‘zg‘or, Ivan Illich!

«Xudo o‘zi saqlasin,
Bormagin, Parashenka,
Piterga hech bormagin!
Shunday to‘ralar borki,
Kunduz – oshpaz xotinsan,
Tunlar – o‘ynash-otinsan,
Rasvolik ham shunchalik!»

– Qayon chopasan, Savva?
(Baqirib so‘rar so‘fi,
Ot minib, belgi taqqan
Va shoshgan yuzboshidan.)
«Kuzminoga, mirshabga:
Bir falokat yuz berdi:
Xudodan qo‘rmaganlar.
Unda bitta dehqonni
O‘ldirishib qo‘yipti!

– Oriqlabsan, Daryushka! –
«Urchuq emasman, do‘stim!
U qancha ko‘p aylansa,
Shuncha qorin soladi.
Men bo‘lsam kundan kunga...»
– Hey, yigit, nodon yigit,
Yupun va isqirt yigit,
Meni sevsang ne qipti,
Yalang boshman, badmastman,
Qariman, mayparastman,
Bul-g‘an-gan-man, olaqol!

Bizning yetti yo‘lovchi,
Hushyor ketib boradi.
Ko‘z solib, tinglab-tinglab,
Ketishar o‘z yo‘lida.

Xuddi yo‘l o‘rtasida
Qandaydir yuvosh yigit
Katta bir go‘r qazmoqda:
– Ne qilayapsan bunda?
«Onamni ko‘mmoqchiman!»
– Ahmoq! Qanaqa ona!
Qara: yangi kamzil-ku
Yerga ko‘mayotganing!
Katta suv bo‘yiga bor,
Tumshug‘ingni suvga tiq,
Bir pishinib, quyingin,
Zoraki, esing kirsa!

«Bir kerishib olaylik!»

Bir-biriga oyoq tirab,
O‘tirdi ikki dehqon.
Kuchanishar, tortishar,
Hansirab olishmoqda,
So‘ngaklari singuday!
Kuch sinash yoqmay qoldi:



«Qani, soqollardan ham
Bir tortishib boqaylik!»
Tortishib, yumdalashib,
Bir-birin soqolidan
Xiyla yulgandan keyin,
Yuzi-ko‘zi aralash,
Musht solib, timdalashib,
So‘kishmoqqa tushdilar!
Bo‘g‘ilar, pishqirishar,
G‘uldurab, o‘shqirishar,
G‘ijinar ham yopishar,
Zo‘r berishar, tortishar!
— «Bo‘ldi, hey la‘natilar!»
Shunday tarmashkanlarki,
Ajralmas – suv quysang ham.


Pastqamlikda ayollar
Janjallahar, biri der:
«Men uchun uyga borish –
Surgundan ham yomonroq!»
O‘zgasi: «Yolg‘on deysan,
Mening holim battarroq!
Katta kuyovim urib,
Sindirdi qovurg‘amni,
O‘rtancham o‘g‘irladi
Urchug‘im-kalavamni,
Kalava-ku, mayli-ya,
Yarim so‘mlik pul qo‘shib,
O‘ragandim koptovga...
Kichik kuyovim bo‘lsa,
O‘ldirguday do‘q urib,
Nuqlu pichoq o‘qtalar».

«Bas, yetar, bas, jonginam!
Xit bo‘lma!» Tepa yoqdan,
Allakim gapirmoqda:
«Parvo qilma... Ketaylik!»
Qichiq, beomon kecha!

Yo‘lda turib xoh o‘ngga,
Xoh chapga boq, ko‘rasan:
Ketishar qo‘shoq-qo‘shoq,
Juft-juft, ulfat-inoq,
To‘qayga emasmikan?
U to‘qay jonga tutash,
Har kimga ham im qoqar,
U to‘qayda bulbul ko‘p,
Sayrashi jonga yoqar...

Serqatnov, kattakon yo‘l
Kech kirgan sayin – rasvo:
Nuqlu abjaq bo‘lganlar,
Zo‘rg‘a sudraluvchilar,
Ham chalqancha yotganlar,
Uchraydi har qadamda.
Bir og‘iz so‘kishmasdan
So‘z aytolmas, odat shu,
Telba va tuturiqsiz
Chakki gap avj oladi!
Mayxonalar oldida
Alg‘ov-dalg‘ov, hayajon,
Aravalar urishar,
Aralashar, surishar;
Hurkkan otlar – egasiz,
To‘rt tomonga qochishar;
Bir tomonda go‘daklar
Ko‘tarar qiy-chuv, chuvvos,
Bechora, abgor bo‘lgan –
Xotinlar, enaxonlar:
Sho‘rlik bu dehqonlarga,
Ichma, deyish mumkinmas.

Bog‘onalar yonidan –
Kelardi tanish ovoz,
Kelib boqsa yettovlon:
Veretinnikov ekan,
(Bozorda Vaviloga



Botinka olib bergan
O'sha saxiy vallomat!)
So'zlashar, suhbat qurar, –
Qishloqilar do'stona
Dardlashar, ko'ngil ochar:
Pavel qo'shiqni maqtar –
Besh bor aytar, yozib ol!
Shu matal yoqqan bo'lsa –
Mayli, yozib olaver!
Yetarlik yozgandan so'ng,
Pavel ularga dedi:
«Rus dehqonlari dono,
Lekin bir ishi yomon, –
Ichar jinni bo'lguncha,
O'ralarga yiqilar,
Zovurlarga tiqilar,
Xafa bo'lasan kishi!»

Dehqonlar u to'raga
Dedilar: Balli, shundoq!..
Pavel daftarchasiga
Nedir yozmoqchi edi,
Paydo bo'ldi mast, karaxt
Bir dehqon, u yotgandi,
Indamay, mukka tushib,
To'raning qarshisida, –
Ko'zlariga ko'z tikib...
Daf'atan irg'ib turdi,
To'raga to'g'ri yurdi –
Qalamin oldi yulib!
«Bas qil, hey, esin yegan!
Kim ko'rganga qoralab,
Bizga yomon ot taqib,
Chaqimchilik qilma ko'p!
Nimamizga suqing bor?
Sho'rlik dehqon ko'nglining
Xushvaqt bo'lganigami?
Goho ichamiz, to'g'ri,

Lekin, ishlaymiz ko'p vaqt,
Bizda mast ko'p ko'rinar,
Lekin, hushyorlar ko'proq.
Qishloqda yurganmisan?
Araq olib bir chelak,
Uylarni aylanaylik:
Bir uyda mukka tushar,
Ikkinchida ham ichar,
Lekin uchinchi uyda
Biri ham yaqin kelmas –
Bir xonadon ichadi,
Ikkinchisi bir qatra!
Ular ham biz singari,
G'urbatda tinka qurigan,
Ichsa, nima qilipti,
Lekin, ahmoqlar ichmas,
Aldam-quldam kishilar...
O'sha hushyor xonadon –
Baloga uchraganda
Ahvolini ko'rib qo'y,
Ko'rsang hazar qilasan!..
Rusiya qishloqlarin –
Ayni o'roq vaqtida
Hech o'zing ko'rganmisan?
Yoppasiga shu xalqni
Badmast deb bilaverma!
Rus yeri keng, bu haq gap,
Lekin, barakasi oz,
Qani, ayt, biz bo'lmasak,
Uchsiz-qirsiz shu dala,
Ekinzor qanday qilib,
Ko'klamda ko'm-ko'k kiyib,
Kuzakda chechinadi!
Kechqurun horib qolgan,
Dehqonni ko'rganmisan?
Tog'-tog' xirmon yonida
Nasvasi bir kaft no'xat:
Kerilma, hey, pahlavon,



Bitta poxol cho'p bilan
Oyog'ingdan chalaman!
Chetga chiq, yo'lni to'sma! –

Dehqonning oshi shirin,
Arraning ham tishi bor –
Chaynaydi-yu yutmaydi!
Bir luqma xo'rak uchun
Yig'lamaymiz, sababi:
Qornimiz ko'zgu emas,
Ahvolimiz aks etsa,..
Ishlaganda – bir o'zing,
Xirmon tayyor bo'lganda:
O'roqda, mashoqda yo'q,
Bir zumda yetib kelar, –
Uch sherik – uch o'lponchi:
Tangri, chor va xo'jayin!
To'rtinchisi bor tag'in –
Ayov bilmas tattixo'r,
Tatardan ham yovuzroq,
U – bo'lishib o'tirmas,
Yakka yamlamay yutar!
Xuddi senga o'xshagan
Yaramas, yovuz, battol
Allaqaysi bir to'ra
Keldi Moskva tarafdan.
Yozib oldi ko'p qo'shiq,
Matalmi, cho'pchak, jumboq,
Aystsang – zerikmas ekan.
Iag'in birisi kelib,
Nuql tergovga tutdi:
– Har kun qancha ishlaysan,
Jig'ildoningdan har kun
Qancha ovqat o'tadi?
Ozmi, ko'pmi? So'roq ber!
Bir tanobchi yer o'lchar,
Bittasi jonni sanar.
Lekin, yong'in har yozda –

Qancha dehqon mehnatin
Shamolga sovuradi,
Sanog'in olgancha yo'q...

Rus – o'lchamay ichadi.
Ammo, g'urbatimizni,
Og'ir mehnatimizni,
Hech o'lchab ko'rganmisiz?
Ishning-ku o'lchovi yo'q,
Dehqonni araq chalsa,
G'urbat qulatmasmikan?
Mehnatini ne deysiz?
Shuncha jabr-u jafoqa
Mujik ko'nikib qolgan,
Kelsa – kelavermasmi?
Dehqon mehnat qilganda
Kuchin ayamaydi-ku,
Tinkam quriydi, demas,
Zo'riqishni o'yamas,
Nahot, ortiqroq ichsam,
O'raga qulayman, deb,
Bir zarang araq ustida
Uzoq o'ylab o'tirsa?
Bir mast qumalab qolsa,
Sizga hayo taralla!
Dehqonlar, qanday qilib,
Botqoqda ho'l pichanni
O'rib, sudrab chiqishar,
O'shani ko'ring edi:
Ot yo'l topishi qiyin,
Yuksiz, salt odamga ham
O'tish xatarlik botqoq; –
Dehqonlar qo'shin-qo'shin,
To'zg'igan lashkar kabi,
Beligacha suv kechib,
Ham do'nglarga qoqilib,
Tirmashar, o'rmalashar,
Ichagi uzilguncha!

Saratonda bosh yalang,
Kirga, terga belanib,
Qo'llarin qiyoq tilib,
So'nalarga yem bo'lib,
Qontalashgan bashara,
Chiroyni ko'rghanmisiz?
Chinakam achinganning –
Achingani rost bo'lsin,
Xo'jayin o'lchagida
Dehqonni o'lchay ko'rma!
Biz – oqbilaklar emas,
Biz o'rish arqog'i keng,
Pahlavon xalq bo'lamiz –
Ishda ham, g'uluda ham!

Har bir dehqonning qalbi
Qora bulut singari –
Qahr-u g'azabga to'la;
Chaqmoqlarning chaqishi,
Qonli sellar yog'ishi –
Lozim edi-yu, ammo
Araq uni bosadi!
Jindak araq ichsa, bas,
Lobar kulgisi kelar,
Dehqonning tanti ko'ngli.
Senga nima tashvish-u,
Atrofga qara, quvon!
Hay, hay, qirchin yigitlar,
Hay, hay, barno juvonlar,
Maza shularniki-da!
Balli, omon bo'lgurlar!
Suyagi ezilsa ham,
Jonlari qiynalsa ham,
Erlik shijoatlarin –
Kelasi zamon uchun

Saqlab qolaoldilar!..
U dehqon tepalikda
Chorig'in sudrab yurar,
Hadeb tepinar edi;
Keyin, andak jim qolib,
Sho'x, ur-sur olomonga
Qarab, zavqlanar edi:
«Ey, boshyalang, g'irtta mast,
Bugun o'zing podshoh,
O'zginamning mujigim,
Suron ko'tar – erkinroq!...»

– Oting nima, oqsoqol!

– «Nimaydi? Daftarchangga
Yozib olmoqchisanmi?
Nima ham keragi bor!..
Ha bor, yozib olaqol:
«*Sarpoychang qishlog'ida*
Yakim Nagoy¹ kun ko'rар,
O'lgunicha ishlaydi,
Qulaguncha ichadi!»

Dehqonlar qah-qah solib,
Yakim degan bu mujik –
O'zi kim ekanligin
Aytishdilar to'raga.

Yakim qashshoq, g'arib chol,
Burun Piterda turgan,
Qamoqni ko'rib chiqqan.

Savdogar bilan sho'rlik,
Olishmoqchi bo'lipti!
Archilgan arg'uvonday

¹ *Yakim Nagoy* – Yakim juldur – yalang'och ma'nosida. *Tarjimon*.

² *So'qa* – temir omoch.

Yalang'och keldi yurtga,
Va qo'lga so'qa² oldi,
O'ttiz yil o'tdi, mana,
Kunaptida qovrilar.
Yer bag'ridan ajralmas,
Yomg'ir yoqqanda nuqul
Mola tagiga qochar,
Yashar – so'qasin qo'ymas,
Ajal kelsa, chol sho'rlik,
So'qada qotib qolgan
Kesakday tushar-ketar...

Qiziq sarguzashti bor.
Bozordan o'g'li uchun
Suratlar keltiripti,
O'zi o'g'lidan battar
Suratlarga mahliyo.
Tangrining g'azabiga
Duchor bo'lib, nogahon,
Qishloqqa o't ketipti.
Yakimning umri bo'yi
Ter to'kib, mehnat qilib,
Topkani-jamg'argani
O'ttiz besh so'lkavoydir¹.
Uy-ku yonayotipti,
So'lkavoylarni tezroq
Olmog'i zarur edi;
Chol esa, suratlarni
Yig'ishtirar devordan;
Xotin esa, bu mahal,
Butlar bilan ovora;
G'aflatda qolib Yakim,
Uy o'prilib tushipti.
So'lkavoylari erib,
Bir musht kumush bo'lipti;
O'sha kumushi uchun

Beriptilar o'n bir so'm...
«Yakim oqsoqol, deyman,
O'sha surat-purating
Uncha arzon tushmapti.
Hoynahoy, yangi uyga
Osib ham qo'ygandirsan?
– Ha, ha, osib qo'yanman,
Yangisini ham osdim, –
Dedi-yu, churq etmadni.
Umri yer haydab o'tgan –
Cholga sinchiklab qarar:
Ko'ksi – botiq; yonboshi
Kesak siqib qolganday;
Qomatlari kamalak,
Yuzi, ko'zi – burishiq,
Egri-bugri chiziqlar,
Xuddi yerdan chiqqanday,
O'zi ham ona-yerga
O'xshar: bo'yni qoramtrir;
So'qa keskan qatlamday,
Yuzi – g'isht, qo'li esa, –
Qoq yog'ochning po'stlog'i,
Sochlari – sochilgan qum...

Dehqonlar payqashdiki,
Yakimning so'zlaridan
To'ra ranjigani yo'q;
Shundan so'ng o'zlar ham
Qo'shildilar Yakimga:
«To'g'ri-da, to'g'ri so'z-da,
Ichsak – nima qilipti!
Ichsak – tanamizda kuch!
Og'ir musibat tushsa,
Ichmaymiz bir qultum ham..
Mehnat qulatmasa, bas,
Falokat yengmasa, bas,

¹ So'lkavoy (*selkoviy*) – bir so'mlik kumush.

Bizni araq yengolmas!
Shunday emasmi do'stlar?..
– Rahm etsin Parvardigor!

«Barakalla, azamat,
Mana buni ichib qo'y!»

Ichdilar araq topib;
Veretinnikov Yakimga
Ikki yarim shishalik
Araq tutdi qo'shqo'llab.
«To'ram! Achchig'lanmabsan,
Aql – boshing bor ekan!
(Shunday deb aytdi Yakim):
Sho'rlik dehqon ahvolin
Tushunmasmi aql-bosh?
To'ng'izday yerni yorib,
Ko'kka ko'zi tushmagan
Hayvon emas ekansan!»

To'satdan yangrab ketdi,
Ko'klar to'la ovozlar,
Biri-biriga ma'qul,
Biri-biriga payvand,
O'n besh juft azamatlar
O'zları mast-u, lekin,
Qulashmay, ag'anashmay,
Kuylashib kelar edi:
Ona-Volga haqida,
Bahodirlilik haqida,
Va suluv qiz haqida
Kuylashar, kattakon yo'l
Jim qolib, solar qulqoq,
Yolg'iz shu uyg'un qo'shiq
Taralar olis-olis,
Yoyilar erkin-erkin,
Epkinda javdariday,
Chayqalar va mavj urar,

Dehqonlarning' qalbiga
Cho'kar otashin g'ussa!..
Shu yigit-yallalarning
Ohangida ezilib,
O'y chekib, xayol surib,
Yig'laydi bitta juvon:
Oftob ko'rmayin o'tdim,
Mohtob ko'rmayin o'tdim,
Yoshgina, sho'rlik jonim,
Yuganlangan tulpor day,
Qanotsiz qaldirg'ochday!
Ko'ngli g'ash, qari erim
O'zi mast, xurrak tortar,
Mening yosh umrim – bandda,
Kuzatar uyquda ham!»

O'ksib yig'lagan juvon,
Yuk ustidan lip etib,
Yerga o'zin tashladi!
«Xo'sh?» deb baqirar g'ash er,
Turar – sochidan tutar;
Xud shalg'am sug'urganday,
O'tqizadi yoniga!

Hay! Kecha, badmast kecha!
O'zing nima balosan?
Yulduzli, zim-ziyosan,
Bahor yeli erkabal
Esib turipti, ammo,
Nafas bo'g'iladi-ya!
Shuncha-shuncha navqiron
Bahrasiz qolgani yo'q!
Qayliqlarin sog'ingan,
Qayliqli kechalarda
Yigit umri xush o'tar!
Ivan esnab baqirar:
«Mening uyqim kelayapti!
Maryushka: «Hozir, hozir,



Birga yotamiz!» deydi.
Ivan aytar: «Joy tor-ku!»
Maryushka imo qilib:
«Sig‘ib qolarmiz!» deydi.
Ivan tag‘in baqirar:
«To‘sak judayam sovuq!»
Maryushka aytadiki:
«Isinarmiz haytovur!»
Shu qo‘sishq esga tushgach,
Bizning yettala sayyoh –
Qutichani sinashga
So‘zsiz bo‘ldilar rozi.
Xudo biladi, nechun,
Cho‘l va yo‘l o‘rtasida
O‘sipti baland, serbarg,
Yoppa-yolg‘iz jo‘katol,
Shu jo‘ka soyasida
Davra qurdi yettovlon,
Astagina aytishar:

«Ochildasturxon, ochil,
Mujiklarni mehmon qil!»
Ochildi keng dasturxon,
Qaydandir paydo bo‘ldi,
Kattakon ikkita qo‘l:
Bir chelak aroq qo‘yib,
Nonni ham tog‘day uyib,
G‘oyib bo‘ldi nogahon.

Yeb-ichishdi yettovlon;
Roman qorovul bo‘lib,
Qoldi chelak yonida;
Qolganlar – baxtli odam
Izlashib ketdi tag‘in –
Olomon orasiga:
Uyiga tezroq yetish
Orzusida yettov ham...





IV б о б

BAXTIYORLAR

Hayitlab, gurullagan
 Olomon o'rtasida –
 Bizning yetti darbadar,
 Baqirib aytar edi:
 «Hey, xaloyiq, orangda
 Biror baxtiyor bormi?
 Bizga o'zingni ko'rsat!
 Rostdan baxtiyor bo'lsang,
 Bir chelak araq tayyor:
 To'yaningcha ichaver,
 Bexarajat, tep-tekin,
 Qandingni ur, azamat,
 Mehmon qilamiz seni...
 Bu g'alati so'zlardan
 Kulishardi hushyorlar;
 O'zi mast-u aqli bor,
 Bir to'da sayilchilar –
 Tinmagur jarchilarning
 Soqoliga to'p-to'g'ri
 Tupurishga sal qoldi.
 Ammo, tekin araqning
 Payidan bo'lgan ancha
 Bekorchilar topildi.
 Sayyohlar chaqirib jar,
 Jo'katol soyasiga
 Kelganda, ko'rishdiki,

To'planipti olomon.
 Ishidan bo'shatilgan
 So'fi taxlit bir odam¹.
 Oltingugurt cho'piday
 Xipcha-yu, ozib ketgan,
 Sotar edi safsata,
 Ya'ni baxt – na davlatda,
 Na suvsar va na oltin,
 Na qimmatli toshlarda.
 – Xo'sh, nimada bo'lmasa?
 – Faqat vaqtichog'likda!
 Janoblar, mansabdarlar,
 Va yer xudolarning
 Boyligining cheki bor,
 Aqlilikning davlati –
 Iso aytgan jannatdir!
 Kun shuvoqda isinsam,
 Ichsam yarimta araq,
 Ana biz ham baxtiyor! –
 «Qaydan olib ichasan?»
 – Siz va'da qildingiz-ku...
 – «Hazillashma! Jo'nab qol...

Qari bir kampir keldi,
 Cho'tir-u bir ko'zi ko'r;

¹ Aslida «Dyachok» – cherkov xodimi, so'fi o'rribbosari, unvon olmagan ruhoniyl.

Ikki bukilib dedi,
Ya'ni, emish baxtiyor:
Kampir bir parcha yerga –
Sholg'om ekib, kuz chog'i
Ming sholg'om olgan emish.
Shunchalik yirik bo'ldi,
Shunchalik shirin bo'ldi,
Yerim esa – uch quloch,
Eniga – faqat bir gaz!»
Uni mazax qildilar,
Bir qatra bermadilar:
«Kampir, bor, uyingda ich,
Sholg'omingni gazak qil!»

Medalli soldat keldi,
O'zi nimjon, ichmoqchi,
U ham der: «Men baxtiyor!»
«Qani, ochiq so'yla, chol,
Soldat baxti nimada?
Siringni yashirmay ayt!»
– Avvalo, baxt shundaki,
Yigirma jangda bo'ldim,
Lekin, men o'lGANIM yo'q.
Ikkinchisi muhimroq,
Ya'ni – tinch yillarda ham
Och-u to'q yashadim-u,
Hali o'lGANIMcha yo'q,
Uchinchisi – necha bor,
Katta-kichik ayb uchun,
Qattiq kaltak yeganman,
Lekin, hamon tirikman,
Ishonmasang – mana men,
Ushlab ko'r, paypaslab ko'r! –

«Ichaqol, soldatgina!
Senga nima ham derdik;
So'zsiz – sen baxtiyorsan!

Og'ir cho'kich ko'tarib,
Yag'rini keng, navqiron
Bitta toshchaqar keldi:
«Men ham yashab yuribman, –
Dedi – shikoyatim yo'q,
Xotinim bor, onam bor,
Muhtojlikni bilmaymiz!

– Xo'sh, baxtingiz nimada?
«Ko'rmaysanmi! – dedi-yu,
Qo'lidagi cho'kichin
Parday bir yelpib qo'ydi, –
Agar tong chog'i turib,
Kech tungacha tosh yo'nsam,
Tog'ni talqon qilaman!
Maqtanmayman, ba'zi vaqt,
Rosa besh so'lkovoylik
Tosh chaqaman bir kunda».

Paxom «baxt»ni ko'tarib,
Keyin ancha yo'talib,
Tutqazdi toshchaqarga:
«E-he, xiyla cho'ng ekan,
Bu baxt – keksaygan choqda
Og'ir yuk bo'lmasmikan?...»

– Kuchingni ko'z-ko'z qilma, –
Dedi ziqnafas, nimjon,
Oriq, bemador mujik,
(Burni – murda burniday,
Qo'llari – xaskashday qoq,
Oyoqlar – uzun kegay,
Odam emas – chivin deng.)
Men ham – tosh chaqar edim,
Men ham kuchimni ko'z-ko'z
Qilardim, maqtanardim,
Xudo urdi, ko'rib qo'y!
Bachchag'ar pudratchi-chi,

Durust odam emasdi,
Soddaydim, laqillatib,
Jo'rtta maqtay beripti.
Men ahmoq quvonibman,
To'rtta azamat ishin
Bitta o'zim ishlabman.
Bir kuni ancha og'ir
G'isht orqalab turgandim,
Qaydandir paydo bo'lди,
La'natи, xuddi o'sha payt:
«O'zi nima gap? – dedi, –
Trofimmisan yo boshqa!
Shuncha oz yuk ko'tarmak –
Uyatmasmi yigitga?»
– Yuk – oz ko'rinsa agar,
O'z qo'ling bilan, qani,
Tag'in taxla, xo'jayin! –
Dedim men achchig'lanib.
Chamamda yarim soat
Men kutdim, taxladi g'isht,
Xo'b taxladi, muttaham!
O'zim ham payqadimki,
Yuk – og'ir, qaltis edi.
Yigitlikka ishonib,
Churq etmay turib berdim,
Shunchalik og'ir yukni –
Men ikkinchi qavatga
Yelkamda olib chiqdim!
Pudratchi boqar, hayron;
Pastdan baqirib dedi:
«Obbo, azamat, Trofim!
Bilmaysanki, ne qilding:
Kamida o'n to'rt pud g'isht
Ko'tarib chiqding shu gal!»
Xuddi o'sha zamoni
Yuragim bolg'a kabi

Urar, po'killar edi,
Qon to'lgandi ko'zimga,
Belim singandi go'yo...
Oyoqlarim – bedarmon,
Qaltiar! O'sha kundan –
Ozdim, so'ldim, sarg'aydim.
Jindakkina quyib ber!»

– Quy dedingmi? Nima gap?
Bizning bu tekin araq,
Baxti kelganlar uchun,
Gapingda tuturiq yo'q! –

«Sabr qil! Baxt nimada,
Hozir aytib beraman». –

– Aytar bo'lsang, aytgin-da!

– Mana gap shu yerdaki,
Hamma dehqon singari,
Men ham ona yurtimga.
Kelib o'lmakchi bo'ldim.
Piterdan men bedarmon,
Garang-u notob, behush
Mashinaga¹ o'tirdim.
Birpasda jo'nab ketdik.
Vagonda bizga o'xhash,
Nuql bezgak ishchilar
Ko'p edi; hammasi ham
Mendak, yurtiga yetib,
O'lish istardi, xolos.
Ammo, baxt deganlari
Bunda ham kerak ekan,
Saraton issig'ida
Achib-bijib ketamiz,
Ko'pchilik bosh og'rig'i,

¹ Mashina – bu yerda poyezd ma'nosida.

Hamma ham gangirab qolgan,
Vagon esa – jahannam:
Biri oh tortadi-yu,
Birisi to‘lg‘anadi,
Birisi dovdiraydi;
Ag‘anar toqati toq;
Birisi talmovsirab,
Onasini chaqirar,
Birisi olazarak,
Xotinin otin aytar,
Alahlar, jovrar, tinmas.

Vasvasasi ortganni
Yo‘lakay stansiyada
Bor, ey, deb tushirishar!
O‘zim isitmada man,
Yor-u do‘stlarga qarab,
Men ham baloga duchor
Bo‘lmayin, deb o‘yillardim.
Ko‘zim tinib, ko‘k halqa,
Xayolim joyidamas,
Go‘yo men nuqlu xo‘roz
So‘yib yurganday edim,
(Biz ham tovuq boqardik,
Goho mingdan oshardi –
Semirtirib, so‘yardik).
Qaydan ham esga tushdi,
La‘natilar! Men – duo
O‘qib ko‘rdim, bo‘lmadi!
Xayoldan ketmadi hech!
Ishonasanmi? To‘p-to‘p,
Ko‘z o‘ngimda pitirlar!
Bari bo‘g‘izlangan-u
Qonlari to‘lqin urar,
Lekin, qu-qulashmoqda!

Qo‘limda pichoq emish:
«Bo‘ldi, bas!» deyman, xolos,
Tangri qo‘llab, qattiqroq
Baqirib qo‘ymabman-da?
O‘tiraman – chidayman...
Baxtimga kunduz tugab,
Salqin tushdi kechqurun,
Shu sho‘rliklar holiga
Tangrimning rahmi keldi!
Axir, yetib ham oldik,
Men ham yurtimga keldim,
O‘sha og‘ir kunlardan,
Shukurki, o‘z yurtimda
Farog‘atda yashayman...»
Mujik baxti ham baxtmi,
Buncha chiramasangiz? –
Baqirar, o‘zi abjaq,
Bitta maymoq yugurdak. –
Siz meni siylavoring:
Baxtim bor, xudoyim bor!
Eng birinchi boyarin,
Knyaz Peremetevda¹
Men sevikli qul edim!
Xotinim – sho‘x cho‘ridi,
Qizim – beka yonida,
Fransuzcha o‘rganar,
Chet tillarni o‘qiydi,
Beka bilan yonma-yon,
O‘tirardi bemalol,
Hamma ishga ra‘yi bor...
Eh, sanchiq tutib qoldi!
(Engashib, o‘ng oyog‘in
Ishqab, silay boshladi.)
Dehqonlar kulishdilar.
– Bu ne kulgi, ahmoqlar, –

¹ Aslida Peremetyev – sotqin, beqaror, xurjun degan gaplarga to‘g‘ri keladi. Nekrasov atay shu nomni bergen. Tarjimon.

To'satdan achchig'lanib,
Vag'-vag'ladi yugurdak, –
O'zim kasal kishiman,
Yotar-turar chog'imda,
Tangrimdan ne so'rayman,
Sizga aytib beraymi?
Yolboramanki: «Tangrim,
Yorlaqagin, og'rinqi
Mendan ola ko'rmaquin,
Shu kasal bilan, axir,
Dvoryan qilgan o'zing!»
Sizdagi past dard emas,
Na dabba va na bo'qoq;
Mamlakatda ardoqli
Dvoryan nasliga xos,
Olijanob bir illat –
Tekkan menga, mujiklar!
Bilib qo'y, past xaloyiq!
Mening dardim – qorason!
Bu kasalga yo'liqish
Unchalik oson emas,
Xilma-xil vinolardan
O'ttiz yil ichish kerak...
Janob Peremetev
Taom yegan chog'ida,
Qirq yillab tikka turdim,
Qo'ziqorin qaylasi¹,
Solingan laganlarning,
Yuqini yalar edim.
Chet el sharoblaridan,
Qadah tagida qolgan,
Sarqitlarni ichardim...
Ana!.. Menga quyib ber! –
– Tuyog'ingni shiqillat!
Bu bizning oddiy sharob,

Sodda dehqonlarniki,
Chet eldan kelgan emas,
Mijozingga mos kelmas!»

Bukchaygan sariq sochli,
Bitta belorus – dehqon,
Tortinib-pisib keldi,
U ham aroq ichmoqchi:
«Menga ham jindak quygin,
Men baxtliman!»! – demoqchi.

– Qo'pol qo'lingni cho'zma!
Avval ayt, dalil ko'rsat,
Sen qanaqa baxtlisan?
«Bizning baxt – nonda faqat:
Uyda, Belorusiyada,
Chorilik, qoramug'lik
Arpa noni yer edim,
Gohida chil ag'anab,
To'lg'oq tutgan xotinday,
Qornimni changallardim,
Uvvos tortib yig'lardim.
Hozir, Tangriga qulluq!
Guboninda to'yguncha
Qora non berishadi,
Yeyman, maza qilaman!»

O'ngga engsayib qolgan,
Yuzi qiyshiq, to'rsaygan
Bir mujik keldi tag'in:
«Men – ayiq ovchisiman,
Baxtim ham juda ulug':
Ayiq bilan olishib,
Uch do'stim g'ijimlandi,
Xudoyimga ming shukur,
Men tip-tirik yuribman!»

¹ Aslida frans. *Toryufel* – yer tagida o'sadigan qo'ziqorin qaylasi. *Tarjimon*.

– Bo‘yningni chapga bur-chi!

Basharasini yuz xil
Xunuk burishtirsa ham,
Qiynalib, urinsa ham,
Mujik buray olmadi:
«Ayiq qurg‘ur olishib,
Chakakni chappa qilgan!»
– Tag‘in bitta ayiqqa
Ro‘baro‘ bo‘lganiningda,
Tersingni o‘ng qiladi...
Kulishib oldilar-u,
Unga quyib berdilar.

Juldurvoqi gadoylar,
Burqib turgan aroqning,
Hidini inqib olib,
Qator kelishaberdi,
Ular ham o‘z baxtini
Dalil ko‘rsatishmoqchi.
– Do‘kon bo‘sag‘asida
Baqqol sadaqa berar,
Uyiga kirsak agar,
Darvoza yonigacha
Uzatib qo‘yishadi,
Qo‘sish aytsak mabodo,
Beka – deraza tomon
Shoshib-pishib keladi,
Qo‘lida bir burda non,
Shuni ham ikki bo‘lib,
Bizlarga uzatmoqchi,
Biz esa, shovqinlaymiz:
«Bu uyning eshididan
Qarang, tutun chiqadi,
Yog‘liq non ushalmasdan,
Bizga butun chiqadi!»

Sayyoohlar payqashdiki,
Araq bekor bo‘ldi sarf,
Chelak bo‘sab qolipti:
«Bo‘ldi, bas, shu kifoya!
Yirtiq-yamog‘i bilan,
Bukri-qadog‘i bilan,
Sen, ey mujikning baxti,
Uy-uyingga jo‘nab qol!»

– Yermilo Girindan ham
So‘rang-chi, aziz do‘stlar, -
Dedi, yaqin o‘tirib,
Dud-bo‘ron¹ qishlog²idan
Fedosey degan dehqon: –
«Yermil yordam bermasa,
Men baxtliman demasa,
Tentirash hojati yo‘q...»

– Yermil degan kim o‘zi?
Knyazmi yo grafmi?

«Na knyaz va na graf,
Bitta jaydari dehqon!»

– O‘tirgin, jo‘yaliroq
Gapirgin, eshitaylik.
Kim, qandoq Yermil ekan?

«Mana shundoq: Unjada
Yetim tegirmonini
Tutar edi Yermilo.
Sudlashib, sotilmoqqa
Bo‘lgandi hukm-u qaror:
Kimoshdi savdosiga,
Mahkamaga² kelgandi,
Yermilo ham umidvor,

¹ Aslida – Dimoglotov qishlog‘i.

² Mahkama (Palata) – o‘sha vaqtida finans ministrligi (Moliya vazirligi)da davlat mulki va qurilish ishlari idorasi. Tarjimon.

Ko‘p bekorchi xaridor
Chippakka chiqib ketdi.
Savdogar Altinnikov
Yermilo bilan yolg‘iz
Jang qilar, olishardi,
Qolishmas, savdolashar,
Bir tiyinlab oshar edi;
Yermilo achchig‘lanib,
Besh so‘m oshdi bir yo‘la!
Savdogar tag‘in bir tiyin,
Davom etdi jang uzoq:
Savdogar tiyinlab oshar,
Yermilo nuqul so‘mlab!
Chidalgan yo‘q savdogar!
Ammo, chiqdi chatog‘i:
Uchdan bir bay pulini,
Talab etdilar darhol,
Uchdan bir esa – ming so‘m.
Yermil kelgandi pulsiz,
O‘zi qildimi xato,
Yo mirzalar shaytonlik
Qilishdimi, har qalay,
Ish bo‘ldi ko‘p pachava!
Altinnikov¹ shodumon:
– Demak, tegirmon menga!
«Aslo!» – deydi Yermilo,
Raisga yaqin kelar:
«Yarim soat kechiksam,
Ijozat bormi, janob?»

– Nima qila olarding,
Yarim soat ichida?

«Bay pulin keltiraman!»
– Qayoqdan ham toparding,

Dovdirab qolganmisan?!
Tegirmon uzoq, axir,
O‘ttiz besh chaqirim yo‘l,
Bir soatda mahkama
Yopiladi, azizim!

«Yarim soatga ruxsat?»

– Bir soatga ham mayli!
Yermil ketdi, mirzalar
Savdogar bilan inoq,
Ko‘z qisishar, kulishar,
Sevinar muttahamlar,
To‘g‘ri bozorga keldi
Yermilo, (o‘scha kuni
Shaharda bozor edi.)
Yuk ustiga chiqdi u,
Qarasak – cho‘qinmoqda,
Ham to‘rt tomonga salom
Bermoqda, baqirmoqda;
«Ey, yaxshilar! Tinchlaning,
Qulq soling, so‘zim bor!»
Jim bo‘ldi tig‘iz maydon,
Yermilo xaloyiqqa
Tegirmon mojarosin
So‘zlab berdi bosh-oyoq:
Savdogar Altinnikov
Allaqachondan buyon
Tegirmonga tikdi ko‘z,
Tek yotganim yo‘q men ham,
Besh bor shaharga kelib,
Surishtirdim, oxiri:
Kimoshdi savdosida
Sotiladi tegirmon
Qaytadan, deb aytdilar.

¹ *Altin* – chaqa, to‘qqiz pul ma’nosida. Chaqaboy tarzida tushunish mumkin. Nekrasov shuni ko‘zda tutgan. *Tarjimon*.

Kerak bo'lmagan pulni,
Dehqon olis yo'llarda,
Ko'tarib yurmaydi-ku!

Men bir tiyinsiz kelgandim,
Qarasam – kimoshdisiz,
Darrovoq sotishmoqchi!
Mug'ombirlik qilmoqchi –
Muttahamlar, ayyorlar,
Kulishar imonsizlar:
«Bir soatda urinib,
Qaydan ham pul topasan?»
Topsam topaqolarman.
Mirzalar, zo'r va ayyor,
Lekin, xalq undan zo'rroq,
Altinnikov badavlat,
Lekin, xalq xazinasi
Qarshisida chidolmas,
Dengizdag'i baliqday
Ovlab tugatolmaysan.
Qani, hay, og'aynilar!
Tepamizda xudo bor!
Kelasi juma kuni,
Shu yerda naqd to'layman!
Gap tegirmonda emas,
Alamiga kuyasan!
Yermiloni bilsangiz,
Ham ishona olsangiz,
Hojat chiqaring, qani!
Qo'llab yuboring, qani!»

Mo'jizaday ish bo'ldi –
Keng bozor maydonida
Jami dehqon, daf'atan,
Ko'tardi chap etagin,

Shamol ko'targan kabi!
Dehqonlar saxiy, jo'mard,
Cho'ntagida ne bo'lsa,
Yermilodan ayamay,
Bo'rkiga to'kib soldi.
Yermil – savodli yigit,
Kimdan nima olganin,
Yozib o'tirgani yo'q.
Sanab ulgursa ham – xo'p,
Bo'rki to'la pul bo'ldi –
So'lkavoy, oltin tanga,
Bir chekkasi yirtilgan,
Bir chekkasi yulingan,
Dehqon qog'oz pullari!¹
Yermilo barin oldi,
Sariq chaqalardan ham
U hazar qilgani yo'q.
Qanday hazar qilsinki,
Ba'zan bir miri chaqa –
Yuz so'mdan ham asqotar!
To'plandi ming so'm rosa,
Xalq esa – hamon saxiy:
«Olaber, Yermil Ilich,
Berarsan, bekor ketmas!»
Yermilo xaloyiqqa
Salom berdi, to'rt tomon
Bukilib, boshin egib,
Qalpoq to'la pul olib,
Mahkamaga ketdi tez.
Mirzalar bo'ldi hayron,
Bo'zardi Altinnikov,
Rosa ming so'm pulni u
Stolga qo'ydi sanab!..
Unga-ku en bo'lmapti,
Bunga bo'y bo'la qolsin!

¹ Aslida *assignatsiya*, qog'oz pul, – 3½ so'mi bir so'm kumush narxida yurar edi.

Mirzalar-chi, gирgitton,
Suykanar, ishshayishar,
Qutlug' bo'lzin, deyishar!
Yermil Ilich undoqmas,
Ortiqcha so'z degan yo'q,
Shirinkoma bergen yo'q!

Juma bozori kuni,
To'plandi butun shahar,
Tomosha qilishmoqchi.
Raso bir hafta o'tgach,
Yermil o'sha maydonda
El etaklik qarzini
Uzaoldi batamom.
Hammasin eslarmidi?
O'sha kun ish bitgandi,
Hayajonda ham shoshqin!
Ammo, janjal bo'lgan yo'q,
Bir kishi haqqim bor, deb,
Etagidan tutgan yo'q.
Hatto, o'zi aytdiki, –
Kimning bir so'lkovoyi
Gardanimda qolganday,
Uzun kun hamyon ochib,
Yermilo aylanardi,
So'rardi: hay xaloyiq,
Shu so'lkovoy kimniki?
Topolmadi oqibat.
Keng bozor maydonida
Hammadan keyin qolib,
Haligi so'lkovoyni –
Ko'rlarga va shollarga
Sadaqa deb ulashdi.
Yermilo ketar ekan,
Oqshom tushib qolgandi...

Yermilo shunaqa mard.

– Ana buni qarang-a! –
Dedi yetti darbadar, –
Lekin, bilsak bo'lardi,
O'zi mujik bo'lsa-yu,
Qandaqa em-tum bilan
Butun okrugda shundoq,
O'tkazipti so'zini?

Em-tum bilan emas, yo'q,
Chin so'zi bilan oldi.
Adovshina qishlog'in
Hech ham eshitkanmisiz?
Unda knyaz Yurloving
Juda katta mulki bor.

– Ha, xo'sh, nima bo'lipti?

«O'sha mulkda korchalon –
Yulduz medallar taqqan,
Mirshablarning kattasi!
Bitta polkovnik edi.
O'z yonida besh-olti
Yon qozig'i saqlardi.
Yermilo mirza bo'lib,
Ishlardi o'sha mulkda.

O'zi yigirma yoshda,
Mirzada qanday erk bor?
Ammo, dehqon uchun-chi,
Mirza ham katta odam.
Avval unga kelasan;
U esa, kengash berar,
Hujjatingni to'g'rilaq,

¹ Aslida o'sha vaqtida ichki ishlar vazirligiga qarashli siyosiy politsiyadan, demoqchi. *Tarjimon*.

Kuchi yetganda qo'llar,
Kutmas ham minnatdorlik,
Choychaqa ham olmaydi!
Dehqondan chiqqan mirza,
O'zining dehqonidan
Bir chaqa olarmidi,
Noinsoflik bo'ladi!
Shu mulkka qaram bo'l mish –
Hamma dehqon, besh yilda,
Yermilo kimligin
Tanib oldilar, ajab!
Shu vaqt uni quvdilar...
Yermil uchun kuydilar,
Yangisi – olg'ir edi,
Poraxo'r, battol o'g'ri,
O'rganmoq mushkul bo'lidi,
Ammo, yo'q edi chora,
Bu olg'ir mirzaga ham
O'rgandik asta-sekin.
U esa, chaqa olmay,
Bir satr ham yozmasdi.
Bir so'z aytmasdi hatto;
Taqvodorlar¹ ichida
Shaddod, to'y magur edi, –
Peshonada bor ekan!

Ammo, u ham ko'p uzoq
Bo'lomadi hukmron,
Knyaz o'lgan kuniyoq
O'rniga o'g'li keldi.
Otasiga o'xshamas,
O'jarroq yigit ekan,
Anavi polkovnikni,
Bosar-turarini bilmas
Olti yugurdagini,
Mirza, mirzaboshini

Quvdi oldiga solib.
Ishboshini o'zingiz
O'z ichingizdan saylang,
Degan bo'lidi yosh knyaz.
Biz uzoq o'ylamadik,
Butun mulk, olti ming jon
Bir jon va bir tan bo'lib,
Birakay chuvvos bilan:
«Yermilo bo'l sin!» – dedik.
To'raning huzuriga
Yermilo chaqirildi,
Dehqon bilan so'zlashib,
Knyaz qichqirib aytди,
Boloxonada turib:
«Mayli, hay og'aynilar!
Xohlaganingiz bo'l sin!
Hujjatiga o'zimning
Knyazlik muhrim bosdim,
Saylaganingiz o'tdi:
Savodxon, epchil mujik,
Yoshlik qilmasa bo'pti».

Biz dedikki: «Otaxon,
Mayliga, bo'laversin,
Yosh-u, aqllik yigit!»
Knyazning keng yerida
Yermil hukmron bo'lidi,
Ham qanday hukmron deng!
Yeti yil xalqdan tushgan
Bitta sariq chaqani
Kaftiga bosgani yo'q,
To'g'riga to'g'ri bo'lidi,
Egriga egri bo'lidi,
Yomonlik qilgani yo'q...»

– To'xta, – dedi bir pismiq,
Qandaydir mo'ysafid pop:

¹ Aslida *kuteynik* – ruhoniylarga taqilgan laqab.

— Yolg‘on gapi rayapsan!
Dup-durust so‘zlay turib,
So‘qa toshga tekkanday,
Chalg‘iganing nimasi!
Niyating aytmoq ekan,
Oqizmay, tomizmay ayt,
Pardadan chiqib ketma.
Yo sen bu sayyo hlargal
Ertak aytayapsanmi?..
Yermiloni bilardim...

«Men-chi, men bilmasmidim?
Biz bir mulkda ishlardik,
Bir volostda yashardik,
Bizni ko‘chirgan keyin...»

— Yermilni bilsang agar,
Ukasi – Mitrni ham
Tanirsan, eslab ko‘r-chi!

Hikoyachi shu joyda
Ancha o‘ylanib qoldi,
Keyin boshladi shunday:
— Aldabman, so‘z qolibdi,
Yo‘ldan og‘ibman biroz!
To‘g‘ri, Yermil mujik ham
Toygandi: soldatlikdan
Kichkina ukasini
Qoldirmoqchi bo‘lgandi.
Aytishmay qo‘yaqolay,
Yosh knyazning o‘zi ham,
«Ukang sochin oldirsin»¹,
Demasdi, qistamasdi;
Nenila Vlasevna
Degan bir ayol bordi,

Yig‘lardi achchiq-achchiq,
O‘g‘li uchun dodlardi:
Bizga navbat kelgan yo‘q!
Ma‘lumki, dodlab-dodlab,
Yo‘liga ketar edi...
Nima deng? Yermil o‘zi,
Soldatga odam berib,
Bartara f qilgandan so‘ng,
G‘ussa-yu g‘amga botdi,
Ovqat ham o‘tmay qoldi,
Axir uni otasi,
Omborxonaga kirib,
O‘zin osayotganda,
Qutqarib qoldi bir kun.
U otasi oldida
Toza tavba qilipti:
«Vlasevna o‘g‘lini –
Soldatlikka benavbat
Jo‘natganid dan buyon,
Keng dunyo ko‘zimga tor,
Dunyodan bo‘ldim bezor!»
O‘zi esa, hay-huv deb,
Arqonga intilguday...
Otasi ham ukasi,
Niyatidan qaytarmoq
Bo‘lishsa, der ekanki:
«Gunohim o‘z bo‘ynimda!
Mana qo‘lim! Orqamga
Qo‘shaloq qilib bog‘lang!
Menday yomon odamni
Sudgacha sudrang, mayli!»
Bir balo bo‘lmasin, deb,
Tentak bo‘lib qoldi deb,
Otasi u sho‘rlikni
Kishanlab, odam qo‘ymish.

¹ Krepostnoy dehqonlarning sochini qirdirishi harbiy xizmatga olinishi edi. Tarjimon.

Xalq yig‘ilib, gur qo‘pib,
Bunday ishni hech qachon
Eshitgan, bilgan emas,
Davosini ham bilmas,
Hayron qolgulik ish-da...
Yermilo yaqinlari,
Bizni afv etishsin deb,
Harakat qilmadi ham;
O‘y o‘ylab ko‘rganingda,
Vlasevna o‘g‘lini
Qaytarish kerak, chunki,
Yermil o‘zin osadi,
Qachongacha qorovul!
Keldi Yermil Ilich ham,
Yalangoyoq, ozg‘in, lanj,
Oyog‘ida tushovi,
Arg‘umoqday yigit-u,
Arg‘amchilik qo‘llari,
Keldi-yu, shunday dedi:
«Ilgarilar sizni men
Insof bilan sud qildim,
Bu gal o‘zim sizdan ham
Qattiq giriftor bo‘ldim:
Endi sud qiling meni!» –
Dedi-yu o‘z boshini
Tizzagacha egdi u.
Esini jo‘yib qo‘yan,
Telba edi, bechora,
Birdan oh deb qo‘yardi,
Tinimsiz cho‘qinardi,
Nenila Vlasevna
Qarshisiga keldi-yu,
Tiz cho‘kdi, munkib qoldi,
Hay, hay, sho‘rlikkina-ya!

Hamma ish tuzuk bo‘ldi,
Zo‘ravon xo‘jayinning
Qo‘li har yerga yetar:

Vlasevnaning o‘g‘li
Kelib, jo‘nadi Mитri;
Deydilarki, Mитri ham
Og‘ir xizmatda emas,
Knyazning ko‘ngli yumshoq.
Yermil gunohi uchun,
Unga jarima soldik:
Pulni uch taqsim qilib,
Andak Vlasevnaga,
Soldatga ham cho‘zdigu,
Qolganin bizlar ichdik...

«Lekin shundan keyin ham,
Yermilo tuzalgan yo‘q,
Bir yilcha gangib yurdi,
Hamma el o‘tinsa ham,
Ishboshilikdan bo‘shab,
Boyagi tegirmonni
Ijara berib oldi;
Ilgarigidan ortiqroq
Sevar bo‘ldi uni yurt;
Un tortib bergeniga
Chamali haq olardi,
Xalqni tutmasdi bevaj,
Gumashtami, ishboshi?
Yo badavlat pomeshchik,
Yo kambag‘al qishloqi –
Hammaning o‘z navbatni,
Tuzgandi shundoq tartib!
Men o‘zim u tomonda,
Ko‘p o‘tdi, bo‘lganim yo‘q,
Lekin, Yermil haqida
Ko‘p gaplar eshitganman,
Yurt maqtab to‘ymaydi hech,
Uning yoniga boring».

Boyagi so‘z talashgan,
Mo‘ysafid pop aytdiki:

Behudaga borasiz –
Bundan besh yil ilgari,
Qishlog‘ida bo‘lganman,
Yermiloni taniyman,
(Ko‘p sayohat qilganman
O‘z umrimda, negaki,
Pirimiz hazratlari
Bizni uyondan-buyon
Izg‘itishni sevardi)...
Yermilo Giringa men
Qo‘shni bo‘lib yashardim.
Darvoqe, durust mujik,
Baxtiga ne munosib,
Hammasi tayyor edi:
Tinchligi, davlat, hurmat,
Istagani bor edi.
Hurmati, ko‘z tekkiday,
Arzigulik, haqiqiy,
Pulga olingan emas;
Do‘q bilan kelgan emas;
Boshdan-oyoq o‘zining
Zehn-u farosatidan!
Yana qaytarib aytay,
U, axir, avaxtada,
Unga bora ko‘rmangiz...

«Xo‘sh, nimaga?» dedilar.
– Xudoning taqdiri-da!
Eshitgan bormi, bir vaqt,
Cho‘chigan viloyatning
Dimiqqan uyezdida,
Qoqshol degan qishloqda,

Obrubkovning mulkida
Ko‘tarildi qo‘zg‘olon?
Biror yerga o‘t tushsa
Gazetada yozganday:
«Sababi – ma’lum emas».
(Ko‘pini o‘qiganman.)
Bu ham xuddi o‘shanday:
Qandoq chiqdi qo‘zg‘olon...
Bilmaydi mansabdor¹ ham,
Bilmas – oliv hukumat,
Qoqsholliklar ham bilmas,
Shu choqqacha noma’lum,
Juda chakki ish bo‘ldi.
Harbiylar yetib keldi,
Hatto poshsholik odam
Xaloyiqqa aytdi so‘z²,
Epoletlik yelkasin,
Tikka tutib dam-badam,
Bir qur haqorat qilib,
Bir qur yuvosh so‘zlardi.
So‘kishi ortiqchaydi,
Yumshoq so‘zi ham dudmol:
«Pravoslav dehqonlari!
Ona Rus! Chor otaxon!»
O‘zga hech qanday gap yo‘q!
Hafsalasi pir bo‘lib,
O‘t och! – deb soldatlarga
Komanda bermoqchiydi.
Shu payt qishloq mirzasи,
O‘ylab topdi yaxshi o‘y,
Yermil Girin haqida
Aytib berdi boshliqqa:

¹ Aslida *Zemskiy ispravnik* – chor Rossiya sida 1864-yili tashkil etilgan va mahalliy ishlarni boshqargan muassasa. Boshliqlari dvoryanlardan bo‘lardi. *Tarjimon*.

² Qo‘zg‘oloni bostirish uchun cheksiz huquqlar bilan kelgan general yo mansabdor.

«Xalq Giringa ishonar,
Ham qulq solar tamom...»
– Chaqiring uni tezroq!
.....

Kimdir dod soldi birdan:
«Voy! O'laman! Rahm eting!»
Kutilmagan bu sado
Bo'ldi popning so'zini,
Hamma u tomon boqar:
Yo'ldagi kart yonida –
Mast yugurdakni tutib,
To'qmoqlashmoqda edi,
O'g'rilik qilgan ekan!
Qayerda qo'lga tushsa,
O'sha yerda sud tayyor:
O'ttiz choqli sud keldi,
Bir-bir xivchin urmoqqa,
Qilindi shunda qaror:
Hammasi urdi tekis!
Yugurdak irg'ib turdi,
Qoqilib ham surinib,
Yirtiq etigin sudrab,
Indamay, qocha ketdi.
Yo'rg'a chopishin qara!
Deb kulishdi sayyoohlar:
Tanishdiki, bu – o'sha,
Boyagi askiyaboz,
Chet el vinolardan
Alohidha bir illat
Tekkan, deb maqtangandi: –
Qaydan keldi bu tezlik!
O'ttiz yil emdosh bo'lgan
Kasaling qayda qoldi!»

– Hoy, hoy, qayga yo'l olding,
Hey, qadrdon otaxon,
Gaping chala qoldi-ku,
Qoqshol degan qishloqda,
Obrubkov nom pomeshchik
Mulkida, qanday qilib,
Yuz bergandi qo'zg'olon?

«Uyga boray, do'stilarim.
Xudo xohlasa, tag'in
Uchrashamiz, o'shanda
Qolganin ham aytarman!»

Gandiraklab olomon,
Targaldi sahar chog'i.
Sayyoohlar uxlashmoqchi;
Shunda uch ot qo'shilgan,
Qo'ng'irog'i jaranglab
Troyka uchib kelar! –
Unda esa, qandaydir,
O'zi yumaloqqina,
Mo'ylovi shopdakkina,
Qorni ag'darilgundai,
Sigarani tutib,
Bir to'ra kelar edi.
Yetti dehqon birakay
Yugurishdi yo'l yoqqa,
Bo'rklarin oldilar,
Boshlarini egdilar,
Keyin safga tizilib,
Zang urib kelayotgan
Uch otliq aravaning
Yo'lin to'sib oldilar...



V b o b

POMESHCHIK

Boyagi aravada
Taltayib kelayotgan,
Shu qo'shni qishloqdag'i
Obolta-Obolduyev¹
Gavrilo Afanasyevich
Degan pomeshchik edi.
Yuzi qizil mag'izdek,
Savlatli, pastbo'y, yo'g'on,
Mo'ylovlari uzun, oq,
O'zi oltmis yoshda-yu,
Qiliqlari yigitdek,
Uqalik kalta kamzul²,
Keng cholvor kiygandi u,
Gavrilo Afanasyevich –
Troykasi oldida
Yetti bo'ydon mujikni
Ko'rib, qo'rqli shekilli,
O'zi kabi g'o'labir
Oltotar to'pponchasin
O'qtaldi sayyohlarga:
– Joyingdan jila ko'rma.
Shartta otib tashlayman,
G'irromi, yo'lto'sarlar!
Dehqonlar kulishdilar:
«Biz yo'lto'sar emasmiz,

O'zing ko'rib turibsan:
Qo'limizda na gezlik,
Na bolta, na panskha!»
– Kimsiz, ne kerak sizga?
«Bizda ulkan tashvish bor,
Shundoq katta tashvishki,
Uyimizga kirdizmas,
Ishga ham qo'l urgizmas,
Ovqat yegani qo'ymas,
Biz qishloqi kishimiz,
So'zimiz dag'al, ammo,
Kulmay va nayrang qilmay,
Insofli va ma'nila,
To'g'ri javob aytishga
Sen bizga chin va'da ber,
Shunda tashvishimizni
Aytamiz senga tugal...»

– Xo'p bo'pti: mening o'zim
Aslzoda kishiman,
To'g'ri javob beraman.
«Boywachcha so'zingni qo'y,
Xristian gapin ayt,
Boywachcha gapda esa,
Tepki bor, haqorat bor,

¹ Aslida *Obolta-Obolduyev* – jinni, tentak, ablah ma'nolaridan to'qilgan.

² Aslida *Vengerka s brandenburami* – ipak uqalik nimcha.

Og‘izga musht urish bor,
Bundaqa gap ketmaydi!
Bizga to‘g‘ri kelmaydi!»

– Ha, ha, yangi gap bo‘ldi.
Mayli, sizniki ma‘qul!
Qani, ayting nima gap?
«To‘pponchangni bekitib,
Gapimizga qulq sol.
Gap shuki, gadomasimiz,
Kuyinchak dehqonlarmiz,
Muvaqqat qarzdorlardan,
Burundiqli aymog‘i,
Bo‘s-h-taqir volostida –
Yonma-yon qishloqlardan:
Yamoqzor, Julduravot,
Yalang‘och, Ushuktepa,
Kuygankent, Yutoqsaroy
Hamda Qahatqo‘rg‘ondan...
Ketardik, yo‘l-yo‘lakay
Duch kelib qoldik to‘sat,
Duch keldigu, dovlashdik:
Rusiyada kim xushbaxt,
Dorilamon yashaydi?
Roman dedi: pomeshchik,
Demyan dedi: amaldor,
Luka dediki: yo‘q, pop.
Qorni katta savdogar, –
Dedilar og‘a-ini
Ivan bilan Mitrodor.
Paxom dedi: shavkatli,
Oliy mansab zodagon,
Chorming inoq vaziri.
Prov bo‘lsa, dediki: chor...

Dehqon – ho‘kizday qaysar:
Biron devona xayol
Boshiga o‘rnashsa, bas,

Pona qoqsang ham chiqmas!
Dovlashsak ham nechog‘lik,
Kelisha olmadik hech!
Dovlashib – tentaklashdik,
O‘lguday kaltaklashdik,
Kaltaklashib – o‘ylashdik:
Dovni hal etmaguncha,
Aslo tarqab ketish yo‘q,
Uy-uyiga qaytish yo‘q,
Xotinlarni ko‘rish yo‘q,
Go‘daklarni o‘pish yo‘q.
Chollarni sog‘inish yo‘q,
Toki, chinakam – ayon,
Va to‘liq bilmaguncha:
Rusiyada kim xushvaqt,
Dorilamon yashaydi?

Xudolikka rostin ayt:
Pomeshchik ko‘rgan hayot
Tuzukmi? O‘zing qalay,
Tinch, xushbaxt yashaysanmi,
Qani, so‘zla, boy ota?»

Gavrilo Afanasyevich
Irg‘ib yerga tushdi-yu,
Yondoshdi dehqonlarga:
Tabibday, har birining
Tomirin ushlab ko‘rdi,
So‘ng, boqdi yuzlariga,
Biqinini changallab,
Dumalab kuldi rosa...
Ha-ha! Ha-ha! Ha-ha! Ha!
Jaranglagan qahqaha
Toza tong havosida
Tarqaldı olis-olis...

To‘yib-to‘yib kuldi-da,
Andak achingan bo‘ldi:

– Qani! Qalpoqni kiyib,
O‘tiring-chi *janoblar*! –

«Biz unchalik janobmas,
Shafqating qarshisida
Tik turgaymiz...» – Yo‘g‘e, yo‘q!

O‘tiring, *grajdalar*! –
Dehqonlar unamasdan,
Noiloj bo‘lib, axir,
Do‘nglikka o‘tirdilar.
«Yoningizda o‘tirsam,
Ijozat berasizmi?
Ey, Proshka! Qani quy,
O‘sha xerstdan jindak.

Gilamcha-yu yostiqni
Shu yerga keltir, to‘sha!»
U gilamga yonboshlab,
Vinodan ichib ozroq,
So‘zni boshladi shundoq:

«Men sizga chin so‘z berdim,
Gap bitta, xudo bitta,
Qiyin-ku, aytaman-da!
Hurmatli kishisiz-u,
Lekin, fahmingiz kalta,
Gapni qayerdan boshlay?
Eng avval tushuningki,
Pomeshchik yo dvoryan
Degan so‘z o‘zi nima?..
Siz, baraka topkurlar,
Nasl-u nasab deganning,
Shajara daraxting
Fahmiga borasizmi,

Eshitgan, bilganmisiz?»

– Bizda o‘rmonlar serob,
Ming xil daraxt ko‘rganmiz, –
Dedilar birvarakay.

«Ol, ha! Gapni qarang-a,
Men bog‘dan-u, siz tog‘dan,
Gapning jo‘ni shundaki,
Tegi ko‘rgan avlodman,
Ulug‘ bobom Obolduy¹
Salkam uch yuz yil burun
Eski rus yorlig‘ida
Nomi tilga olingan.

Yorliqda yozilganki:
«Tatar zotidan bo‘lgan
Laqma Obolduyevga
Bir gazi ikki so‘mlik
Yaxshi movut berildi,
Chunki: Chor tug‘ilgan kun²,
Bo‘rilar, tulkilar-la
Malikaning ko‘nglini
Ochdi u, innaykeyin, –
O‘zining ayig‘ini
Yovvoyi ayiq bilan
Urishtirdi toza ham;
Obolduyevning o‘zin
Ayiq mijig‘lab qo‘ydi...»
Bobokalonim shundoq,
Uqdingizmi, azizlar?»
– Uqdir, ha! Hozirda ham,
Ayiq yetaklab yurgan,
Sayog‘u sargardonlar,
Muttahamlar oz emas!

«Hadeb o‘z gapingizni
Ma’qul qilmang, azizlar!

¹ Laqma ma‘nosida.

² Tug‘ilgan kun bayrami.

Valaqlamang! Bir nafas
Menga ham qulq soling,
Men nima demoqchiman:
O'sha, hayvonlar bilan
Malikani yupatgan
Obalta-Obolduyev
Salkam uch yuz yil burun
Naslizmizga bosh bo'lgan,
Buni men aytdim boyta.
Agar ona tomondan,
Surishtirib ko'rsangiz,
Ularning tagi-tugi
Bobomdan ham eskiroq:
Ikkinchib bir yorliqda
Shunday yoziliptiki:
Shepkin degan bir knyaz,
Vaska Gusev ikkovi,
Moskvaga o't qo'yib,
G'aznani talamoqchi
Bo'lganida, tutilib,
Ikkovi ham osilgan». –
Ana shu voqeaga
Salkam uch yuz yil bo'pti,
Mana nasl-u nasab-u,
Mana tagi-tugimiz,
Bu daraxtning ildizi
Shuncha uzoqdan kelar,
Bilib qo'ying, do'stlarim! –

– «Ha, sen o'sha daraxtda
Jahonga paydo bo'lgan
Duvarak olmasan-da? –
Dedilar yetti dehqon.

Duvarak olmamanmi,
Bu gapingiz ham mayli,
Axir gapni uqdingiz,
O'zingiz bildingizki,

Dvoryanlik nasabi,
Qancha qadimiy bo'lsa,
Shuncha nomi ulug'-u
Obro'si ham o'shandoq...
Gap ma'qulmi, yaxshilar?»

– Barakalla! – deyishdi.
Oq suyak, qora suyak,
Deganicha bor ekan,
Hurmati ham har xil-da!

– Ha! Ma'qul! Tushunibsiz!
Ana gap shu yerda-da,
Bibi Maryam qornida
Yashaganday tinch edik.
Hurmat ham o'z joyida,
Ruslearning o'zi emas,
Hatto rus tabiat –
Bizlarga qaram edi,
Doimo porom edi.
Tevarakka qarasang,
Yop-yolg'iz quyosh o'zing,
Qishloqlaring tinch, dovsiz,
O'rmonlaring zinch, qalin,
Aylana sening dalang!
Qishloqdan o'tar bo'lsang,
Dehqonlar oyog'ingga
Yiqilar, bosh urishar;
Changalzor, bog'dan o'tsang,
O'rmonda salom berar –
Yuz yashar chinorlar ham!
Qirdan, daladan o'tsang,
Bo'liq-bo'liq bug'doylar,
Og'ir, oltin boshqolar,
Qadamingga yiqilib,
Shiviri qulqoni-yu,
Ko'rki ko'zni erkalar!
Hay, hay, baliqni ayting!

Soylarda laqqa-laqqa:
«Hozircha semiraver!»
Bag'ri keng o'tloqlarda
Hurkar, pulsar tovushqon,
«Kuzgacha o'ynaybersin!»
Hammasi barin uchun,
Bu yerda har bir ko'kat:
«Men seniki» deganday,
Xo'jayinni erkalar.

Rus ko'rki va g'ururi –
Oppoq-oppoq cherkovlar
Qirlarda, tepalarda
Yarqirab ko'rinardi,
Dvoryan qo'ralari –
Kimo'zar talashardi.
Uylari oyinaband,
Gulxonalik, gulzorlik,
Chin-Mochin shiyponlar-u
Inglizcha maydonlar;
Har qo'rg'onda bayroq bor,
Shabadada hilpirab,
Imlab chaqirgan kabi,
Rusning mehmondo'stligin
Namoyishi shu yerda...
Fransuz ko'rmas tushda;
Bir kun, ikki kun emas,
Oylarga cho'zilgan to'y,
To'kin-sochin ziyofat,
Fransuzning tushiga
Yetti uxlasa kirmas!
Semiz, semiz qurqildoq,
Qo'lda tortilgan chag'ir,
O'yinchi-yu sozanda,
Bel bog'lab xizmat qilar,
Yig'sang bir qo'shin kabi!
Barisi biznikidi!

Besh oshpaz-u qo'sh novvoy,
Ikki temirchi, tag'in
Zeb-u ziynat ustasi,
O'n yetti sozanda-yu
Yigirma ikki ovchi
Xizmatga tayyor edi...

Pomeshchik tajang bo'lib,
Ko'ngli hasratga to'lib,
Bolishga ag'anadi,
So'ng o'nglanib, tayanib,
Qichqirdi: Ey, Proshka!
Xo'jayin aytgandayoq,
Malay keltirdi darhol
Bir ko'za to'la araq,
Gavrilo Afanasich
Bir qultum ichib olib,
So'zida davom etdi:
«Hey, onaxon – rus yeri,
Sening o'rmonlaringda,
Kechki kuzak chog'lari,
Ovchi burg'ularidan,
Jonga rohat berguvchi,
Ovozlar to'la edi.
Mung'aygan, rangi o'chgan,
Yarti yalang o'rmonlar,
Bizning ola-g'ovurdan,
Qayta yashay boshlardi,
Yalanglikda turishar –
Itboqar – olbosarlar,
Bir chekkada pomeshchik,
O'rmonda tartaraklar,
Vag'illar besaranjom,
Quloqlarni yorgudek,
Itlar chopar birakay,
Bo'rk ol, desang, bosh olgan
Tozi itlar shu yerda.
He, he, bu shovqin-suron,

Bir gala it vovullar!
Birin ko'rib qoldimi,
Chilvirin uzib qochar,
Xip bo'g'ar giribondan.
Yetilgan, qora buril,
O'siq qilchiqli tulki,
Quyrug'in bilanglatib,
Bir tomonga qochmoqda.
Tanlarin titroq bosib,
Biqinib kutishar jim,
Yuguruk, ziyrak itlar:
Xuddi kutilgan mehmon!
Bizga yaqinroq kelsin,
Azamatlarga yaqin,
Butalardan nariroq!
Mo'ljalga kelib qoldi,
Hay, hay, otim, kishnama!
Churq eta ko'rma, itlar!
Akaginang o'rgulsin!
Paq etding, ish jobajo!»
Gavrila Afanasich
Gilamdan irg'ib turib,
Qo'l siltab, oldin yurib,
Ham sapchir, baqirardi!
O'zi bu yerda edi,
Esi tulki ovida...

Dehqonlar jim tinglashib,
Qarashar ermak qilib,
Miyig'ida kulishar...

«Hay, hay, tozi ovlari!
Pomeshchiklarning nomi
Xayoldan o'chsa o'char,
Lekin, sen azaliy rus
Ermagi – ovunchog'i!

Unut bo'lmassan hech vaqt!
O'zimiz uchun emas,
Achinamiz sen uchun,
Attangki, ey ona-Rus,
Ov bilan birga, axir,
Jangovar va mardona,
Ham ulug'vor tusingni
Yo'qotib qo'ymoqdasan!
Bir zamonlar, kuz kezi,
Ellikka yaqin boyon
To'planardi ovloqqa;
Har qaysida eng kami,
Yuztadan ol-bos tozi.
Har qaysida eng kami,
O'nlab otliq, itboqar,
Har qaysida bakovul,
Yegulik ham ichkulik
Ortilgan arava bor!
Yalla aytib, soz chalib,
Biz yo'lga tushar edik;
Otliq diviziyang ham
Ip esholmay qolardi!
Vaqt – lochinday uchardi,
Pomeshchik ko'ksi esa,
Nafas olardi yayrab,
Yengil va erkin-erkin...
Boyarlar¹ zamoniday,
Qadim rus tartibicha –
Joning rohat topardi!
Ixtiyorim o'zimda,
Birov churq etib ko'rsin,
Afu qilgan ham – o'zim,
Jazo bergan ham – o'zim!
Mening xohishim – qonun!
Mushtim – o'z politsiyam! –
Tepkim – chaqin chaqadi,

¹ Boyar – burungi Rossiyada dvoryanlarga mansub katta boy, katta yer egasi.

O‘ttiz ikki tishini
Bir zARBIMDA qoqaman.
Yudrug‘im – jag‘ qayirarrr!..»

To‘sat uzilgan torday,
To‘xtar pomeshchik so‘zi.
Xo‘mrayar yerga qarab,
Baqirar: Ey, Proshka!
Bir qultum yutib olib,
Taptidan tushib aytdi:
«O‘zingiz ham bilasiz,
Qattiqqo‘llik ham kerak!
O‘zim do‘pposlab qo‘yib,
O‘zim achinar edim.
Uzildi ulug‘ zanjir –
Hozir kaltaklash qayda,
Hozir tepkilash qayda,
Lekin, ota singari,
Dehqonni ayash ham yo‘q.
Ha, goho men beayov,
Qattiqqo‘lli bo‘lardim,
Har qalay, ko‘p mahal men,
Ko‘ngillarini ovlab,
Yuvosh ham tortar edim.

Iso tug‘ilgan kuni¹
Menga qaram kim bo‘lsa,
Ayyomlar muborak, deb
Iliq o‘pishar edim².
Shunda deng, mehmonxona,
Katta dasturxon yoziq;
Unda – rangdor tuxumlar,
Somsa, gupurma nonlar!
O‘z xottinginam, buvim,

O‘g‘illarim, hattoki –
Bo‘y qizlarim jirkanmay,
Eng tuban dehqon bilan
O‘pishardi bermalol...
«Xristos Voskres!»

«Vo istinu!»

Dehqonlar ochib ro‘za,
Ichardi sharob, bo‘za...

Yilda o‘n ikki bayram,
Har bayram arafasi
Pop kelib, tong otkuncha
Yasan-tusan, serhasham –
Mening mehmonxonamda
Ibodat qilar edi.
Shu ibodat kechasi,
Kirardi dehqonlar ham,
Ijozat bergandim men,
Mayli, kir – ibodat qil,
Manglaying yorilguncha!
Uy buruqsib ketardi,
Shunda cho‘ri xotinlar,
Arang tozalar edi.
Diniy tozalik shu-da,
Beg‘ubor saqlanardi,
Dindoshlikning o‘zi shu!
Shundaymasmi, yaxshilar?»

– Hovva! – dedi sayyoohlar,
Ichida o‘ylashdiki:
«Ularni o‘z uyingda –
Ibodat qildirgani
Urib to‘plagandirsan?...»

¹ Iso tug‘ilgan kun; xristianlar bayrami, diniy aqida.

² Aslida Xristosovalsy – Iso tug‘ilgan kunda uning nomini aytib, har kim bilan o‘pishmoq mumkin.

«Lekin, maqtanmay aystsam,
Meni dehqon sevardi!
Surmindagi mulkimda –
Bari pudratchi edi,
Ba'zan uyda zerikib,
Bir ishlab kelaylik, deb,
Bahor boshidan bari
Yoppa ruxsat olardi...
Kuzni kutib, ko'z tolar,
Xotinim, bola-chaqam
O'sha ketgan dehqonlar
Kimga qanday bozorlik,
Kimga ne sovg'a-salom
Keltirishin mo'ljallab,
Fol ochishar, dovlashar.
Keltirishi – turgan gap:
Barshchina degan gap bor',
Ular doimo qarzdor,
Kanop, tuxum, parranda;
Azaldan pomeshchikka
To'lovingning bari bor,
Zo'rlik emas, majburiy,
Keltirardi dehqonlar!
Kiyevdan – murabbolar,
Ashtarxonidan – baliqlar;
Himmati balandrog'i
Bir-ikki kiyim shoyi:
Bunday qarab qo'ysangiz,
Yangangiz qo'lin o'pib,
Bo'g'jama tashlab qo'yari!..
Bolalarga o'yinchoq,
Uncha-muncha shirinlik,
Biz – keksa gazakxo'rga
Piterdan yaxshi sharob!
Har qalay, ish ko'zini

Bilardi bu g'irromlar.
Bir qultum musallasni,
Ana qishloqda tayyor,
Qayqoyoqdan emas,
Farangdan keltirishar.
Ichishmay ne qilaman,
Do'st-og'ayni tutinib,
Katta gurung qiziydi,
Xotinim o'z qo'lida
Hammasiga to'staqan
To'ldirib uzatadi.
Go'daklar ham shu joyda,
Qand shimib yurishadi,
Mujiklarning valaqlab,
Qilgan hikoyasini
Tinglashadi oqirin –
Og'ir kasblar haqida,
Olis ellar haqida,
Peterburg va Ashtarxon,
Kiyev, Qozon haqida...
Mana, qanday yashardim
Meros yer-suvim-la men,
Chindan ham yaxshi edi.
Qoyilmisiz, azizlar?»

– Ha-da, siz ko'rgan hayot –
Hasad qilgulik edi,
O'lib ketishlik ham hayf!

– Attang! O'tdi, ketdi-da...
Iya! Bu janoza-ku,
Cherkov chaldi qo'ng'iroq...

Sayyoohlar soldi qulqoq,
Kuzmino qishlog'idan

¹ Barshchina – krepostnoylik davrida dehqonlarning pomeshchikka majburiy, tekin ishlab berishi.

Ertalabki havoda
Yuraklarni o'rtovchi
Bir mung cho'kmoqda edi:
«Dehqon o'lganga o'xshar,
Xudoyim rahmat qilsin!» –
Dedi yettala sayyoh,
Cho'qinishib qo'ydilar.

Gavrilo Afanasich
Qalpog'ini oldi-yu,
Xudojo'y odam kabi
U ham darrov cho'qindi:
– Bu o'lgan – dehqon emas!
Boyonlar hayotiga
O'qilgan fotiha bu!..
Ey, keng va to'kin hayot!
Kechir – alvido mangu!
Mulkdorlar Rusiyasi,
Yedik, ichdik, endi xayr!
Rus hozir qadimgimas!
Ey, Proshka!» – dedi-yu,
Bir qultum ichib-olib,
Hushtak chaldi...
«Nechog'lik
O'zgarib ketmish yuzing,
Ko'rib, xafa bo'lasan,
Bebaxt, qadrdon diyor!
Olijanob tabaqa
Qochib ketgan jamuljam,
Yo qirilib ketdimi!
Qayon borma, duch kelar,
Faqat mast dehqonlar-u
O'lpochi amaldorlar,
Ko'chib kelgan polyaklar
Ham esi past dallollar',

Ba'zan mirshablar o'tar,
Hoynahoy biron yerda,
Minnatdorligi toshib,
Qishloq ko'tarmish isyon!
Burun o'tardi nuqul
Soyabon aravalari,
Uch ot qo'shilganlari,
Olti otliqlari ham!
O'tar chopog'on otlar,
Aravada chayqalar,
Pomeshchik oilasi, –
Savlatli onalar-u
Yoqimtoy qizaloqlar,
Quvnoq o'g'ilchalar ham!
Jaranglar qo'ng'iroqlar,
Shildirar shildiroqlar,
Tinglarding maza qilib,
Qulog'inga yoqimtol,
Qani, o'zingiz aytинг,
Qanday g'am tarqataylik?
Qayga qadam bosmagin,
Jahling chiqib ketadi.
Bir qadam bosar-bosmas
Kishi qoladi hayron:
Qabriston hidi kelar,
Biron qo'rg'onga yaqin –
Keldingmi... E, xudoyim!
Pomeshchik qo'rasini
Eng oxirgi g'ishtgacha
Talashib ketishipti.
Necha yuz yil parvarish
Topgan kattakon bog'i –
Dehqonning boltasidan
Bir tikkaygan daraxt yo'q!
Mujikning quvonchi shu,

¹ Aslida *Posredniki* – saylangan vositachilar. Bular mulkdor va «erkin» dehqon o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bitirishi kerak edi, haqiqatda esa, mulkdorlar foydasiga ishlashardi.

Ancha o'tin tushipti,
Dehqonning yuragi tosh,
O'ylarmidiki, hozir,
U qulatgan keksa dub,
Qachondir boboginam
O'z qo'lida o'tqazgan?
Anovi maymunjonning
Xuddigina tagida,
O'ynashardi sho'x, quvnoq
Bizning go'daklarimiz,
Ganichka-yu Verochka,
O'ynardik bekinmachoq,
Buni dehqon o'ylarmi?
Manov jo'ka tagida,
To'ng'ich o'g'liga bekam,
Homilador bo'lganin,
Menga pichirlagandi,
Suluv yuzi – olchaday,
Qizarib ketgan edi.
Buni dehqon o'ylarmi?
Dehqon uchun qulayi –
Boy mulkin yiqmoq, yoqmoq,
Shundan ko'ngli xush bo'lar!
Qishloqdan o'tishga ham
Uyalasan, kuyasan;
Mujik gerdaganicha
Qimir etmas, qo'zg'olmas,
Ko'ksingda oljanob
Fypyp emas, o't yonar –
Zahar yonar ko'ksingda.
O'rmonda ovchilarning
Jarang burg'usi emas,
Qaroqchi boltasining
Ovozi jaranglaydi. –
Ermakdir-da!.. Yo tavba!
O'rmonga qorovulmish!

Dala-tuz haydalmagan,
Bir kaft don ekilmagan,
Yoppasi beboshvog'liq
O, onajon! O, vatan!
O'zimiz uchun emas,
Kuyamiz sening uchun,
Sen, o'ksik beva kabi,
Taroqsiz, to'zg'ib ketgan
Soch yoyiq turmoqdasan!

Koshonalar buzilib,
Ularning o'rniga-chi,
Tikkayar qovoqxona!
Bebosh, beboshvoq elga
Ichkizishar, buzishar
Ham xizmatga undashar',
Savodga o'rgatishar, –
Ne kerak elga savod!
Yuzingda, ey ona-Rus,
Jinoyatchi dog'idek,
Yo otdagi tamg'adek,
Ikki so'z o'yilgandir:
«Xohlasang – uyingga ol,
Xohlasang – shu yerda ich!»
Shu so'zni o'qish uchun,
Dehqonga o'zi qiyin.
Savod bermoq na darkor?..

Bizga quruq yer qoldi...
Ey sen, pomeshchik yeri!
Sen hozir ona emas,
O'gay onasan bizga...
Ko'p laqma yozuvchilar
Baqirishar: «Kim axir?
O'z onangizni muncha
Qo'rqiitmoq, zo'rlamoqqa –

¹ ...Na slujbu zemskie – mahalliy muassasa ma'nosida.

Buyruq bergan kim o‘zi?»
Men deyman: Kim kutgandi?
Oh! Bu nasihatgo‘ylar!
Dodlashar: «Bas, to‘ralik!
Yetar biylik, kattalik!
Ko‘zingni och, ey g‘ofil,
Yer egasi bo‘lganlar!
Qo‘zg‘ol! O‘qi, mehnat qil!...»
Mehnat qil emish! Qarang,
Kimga va’z-u nasihat
Qilmoq bo‘ladi bular...
Men – choriqli dehqonmas,
Xudoga shukurki, men,
Rossiya dvoryani!
Rossiya nemis yurtimas,
Bizda adab, nazokat
Ham g‘urur tuyg‘usi bor!
Bizdag‘ oliy nasab
Mehnatga muhtoj emas!
Bizda jo‘n amaldor ham
Uy sahnini supurib,
Pechka yoqib o‘tirmas...
Sizga maqtanmay aytasam,
Mana, qirq yil chamasi,
Hech qayonga bormayin,
Qishloqda kun ko‘raman.
Holbuki, arpa yoki
Javdari boshog‘imi,
Hanuz qilolmayman farq,
Tag‘in: «Mehnat qil!» emish...

Agar haqiqatan ham
O‘z burchimizni soxta,

Yolg‘on tushungan bo‘lsak,
Ham bizning qimmatimiz –
Hayyo-hu ovlar bilan,
Qiyqiriq bazmlar bilan,
Dabdaba, ziynat bilan –
O‘z qadim nomimizni,
Dvoryanlik obro‘sins,
Qo‘llashda emas bo‘lsa,
O‘zga mehnati bilan
Yashashda emas bo‘lsa,
Ilgariroq aytmoqlik
Darkor edi-da, axir...
Men nimaga o‘qidim?
Ne ko‘rdim tevarakda?..
Tangrining osmoniga
To‘ldirdim qora tutun,
Podshoh libosin kiydim,
Xalq xazinasin sochdim,
Ham o‘lguncha shu yo‘sun,
Yashayman deb o‘yladim...
To‘sat... Yo parvardigor!

Gap shu yerga kelganda,
Pomeshchik ho‘ngravordi.

Ko‘ngilchan dehqonlar ham
Ko‘zga jiqqa yosh olib,
Sal qoldiki – yig‘lasa,
O‘zlaricha o‘ylashar:
«Uzildi qadim zanjir,
Ham kelib tegdi rosa:
Bir uchi dvoryanga,
O‘zga uchi dehqonga!...»





PROLOG

«Baxtlini tokay erlar –
Orasidan izlaymiz,
So‘raylik xotinlardan!» –
Shu qarorga kelishib,
Xotinlardan so‘rashga
Yo‘lga tushdi sayyoohlar.
Yalang‘och qishlog‘ida
Cho‘rt kesib aytdilarki:
«Bizda unaqasi yo‘q,
Klin¹ qishlog‘ida bor:
Ayol emas! U govmish
Sigirmi, deysan ko‘rsang;
Undan aqli rasoroq,
Tekisroq ayol bo‘lmas.
Matryona Timofeyevna
Korchaginani so‘rang,
O‘zi jo‘n ayol emas,
Begoyim laqabi bor...»

Jindak o‘ylashdilar-u,
Xo‘b deb yo‘lga tushdilar.

Boshqlar donga to‘lgan,
Zar ustunday sip-silliq,
Boshida oltin toji,
Xomush qichqiriq bilan

Shivirlagan sara payt!
Bundan sho‘xroq, orasta,
Farovon mavsum bo‘lmas!
«Ey, g‘alla to‘liq dala!
Endi o‘ylamaysan ham –
Sen tekis va salmoqli
Boshoq tortib, to‘lishib,
Shu ko‘rkka kirguningcha,
Qo‘shchining ko‘z o‘ngida:
Shoh oldida lashkarday,
Saf chekib turguningcha,
Tangrining bandalari
Nechog‘lik zahmat chekdi!
Iliq shudringlar emas,
Dehqon yuzidan oqqan
Terlar senga berdi nam!...»

Mannun bo‘lib sayyoohlar,
Goh javdari, goh bug‘doy,
Goh arpani oralab,
Solib ketar edi yo‘l,
Bug‘doy shig‘a bitgan-u,
Lekin ko‘zni to‘ydirmas:
Dehqon oldida bug‘doy,
Shuning-chun aybdorsan,
Sen – tanlab to‘yg‘azasan;

¹ Klin – suyri yer, pona ma’nolarini anglatadi. *Tarjimon.*

*Hammani to 'yg 'azuvchi –
Javdaridan ko'z uzmay,
Suqlanib qarashardi.*

«Zig‘ir ham bitibi xo‘b...
Eh! Sho‘rlik! O‘ralibdi!»
Ham zig‘irga o‘ralmish –
To‘rg‘ay uchurmasini
Roman avaylab, shu payt,
Bo‘shatdi-yu o‘pdii: «Uch!»
Qushcha uchdi osmonga,
Dehqonlar qarashardi,
Ketidan mehri jo‘shib...
No‘xat pishibdi rosa!
Chigirkalar singari
Paykalga yopirildilar:
No‘xat – go‘yo ko‘hlik qiz,
O‘tgan chimchilab o‘tar!
Hozir hammada no‘xat:
Keksada ham, yoshda ham,
Yer-u ko‘kka, yeypver, deb,
No‘xat sochib qo‘yganday!

Hay, hay, polizni ayting,
Pishibdi sabzavot ham;
Go‘daklar yayrab qolmish,
Kim sholg‘om, kimdir sabzi,
Ko‘tarib chopqillashar
Hamda pista¹ chaqishar.
Ayollar esa, bu vaqt,
Lavlagi yulishmoqda,
Shunday yaxshi lavlagi!
Poyma-poy qizil etik
Yotganday egatlarda.

Yetti sayyoh yo‘l yurdi,
Yo‘l yursa ham mo‘l yurdi,

Klinga yetib keldi.
Oddiy, ko‘rimsiz qishloq:
Hassa tutgan gadoydek,
Har bir uyda tiragich,
Tomga bosilgan povol–
Molga yegizilibdi.
Yalang‘och qovurg‘aday –
Tizilmish qashshoq uylar:
Xuddi yog‘ingar, kech kuz,
Zog‘cha uchib ketganda,
Shamol yo‘l ustidagi
Qayinlarning bargini
Tamom yerga to‘kkanda,
Zog‘larning uyaları –
Huvullab qolar shundoq...
El dalada – ishga band.
Qishloqning orqasida,
Tepada yakka qo‘rg‘on
Ko‘rinardi, qani deb,
Aylanishga ketdilar.

Keng hovli, katta qo‘rg‘on,
Hovlining o‘rtasida –
Juda katta hovuz-u
Atrofida majnuntol.
Baland ravoqi bor-u,
Gir aylanma shiyponlar,
Ravoqning tepasida
Uzun yog‘och tug‘ turar...

Darvozada ularga –
Duch keldi mirsak kiygan
Bir yugurdak: «Kim kerak?
Xo‘jayin chet o‘lkada,
Qo‘ra bordi-keldisin
Boshqaruvchi korchallon –
Qattiq og‘rib yotipti!»

¹ Aslida *Podsolnechnik* – kungaboqar, pista.

Ham burilib jo'nadi.
Uning mirsagin ko'rib,
Piqillab kuldil yettov:
Yugurdak yelkasida
Sher surati bor edi.

– «Ajabo, bu nimasi!»
Qanday g'alati kiyim,
To ziyrak, sezgir Paxom –
Jumboqni yechmaguncha,
Uzoq dovlashdi yettov:
«Bu pastkash ayyor ekan:
Gilam o'g'irlabdi-yu,
Bosh siqqunday teshibdi,
Bo'yniga ilib olib,
Yuribdi yallo qilib!..»

Suvaraklarni dehqon,
Muzlatib qirmoq uchun,
O'z xonasiga olov –
Yoqmayin qo'yganida,
Suvaraklar sanqishib,
Sulayishib qoladi;
Shunday, bu qo'rg'onda ham
Xo'jayin tashlab ketgach,
Och malaylar, navkarlar,
Tentirashib qolgandi,
Hammasi qiltillagan,
Qarigan, og'riq, notob,
Jo'giday juldurvoqi,
Yirtiq-yamoq kiyimda;
Hovuzga to'r tashlashib,
Beshovi tortmoqdaydi.

«Hormanglar, hov, ov qalay?
Bir nima ilindimi?»

– Bor-yo'g'i bir chavaq!¹
Burun besanoq edi,
Biz ham xo'b yopirildik-da,
Hozir yuz to'r solsang ham,
Itbaliq tutolmaysan!

«Uch-to'rtta tushsa ham
Baharnav, yaxshi edi!» –
Dedi qирг'оqda unnab,
O'choqni puflayotgan
So'lg'in, ikkiyat xotin.

– Bu chopilgan yog'ochlar
Ayvonning ustunidir,
Ho, otincha? – dedilar.
«Ha, ayvondan!» – dedi u.
«O'zi quruq ekan-ku,
Qiltiriqlar utilib,
Baliq sho'rva bo'lguncha,
O'zi tutashib ketar,
Sen hadeb puflayverma!

«Kuta-kuta ko'z toldi.
Nuqul qoq non yeyverib,
Mitenkam quruqshadi,
Tur mush emas, tashvish bu!»

Shiryalang' och bolani
Siladi xotin shu payt.
(O'tirardi zang bosgan
Tosda puchuq bir bola).

«Temir tos bola uchun,
Ehtimolki, sovuqroq»,
Deb Provushka dag'al

¹ Karas – kichkina, ko'rimsiz baliq. Tarjimon.

Bolani o'z qo'liga
Olmoqchi bo'lgan edi, –
Yig'i boshladi go'dak,
Ona esa, baqirar:
«Taqlima, tegma unga!
Ko'rmaysanmi? Ot qo'shib,
O'ynayapti ko'nglida,
Ha, ha! Ha, chuh! Bu – axir
Uning aravasi-ku...»

Har qadamda dehqonlar
Uchrar ajoyib holga:
– Tong qolgudek, g'alati
Ish borardi atrofda.
Bir xizmatkor eshikka
Yopishib jez tutqichin
Burardi; o'zga biri –
Koshinlarni eltnoqda.
«Ko'chirib oldingmi, Yegor?»
Hovuzdan so'rashdilar.
Go'daklar bog' ichida –
Olma qoqishar edi.
«Olma oz, amakijon!
Hozir faqat tepada
Bitta-yarimta qoldi,
Avval besanoq edi!»

– G'o'r olma-ku, yemanglar!
«Borini aytmaysizmi?
Shunisiga ham shukur!»
Bog'ni ham aylanishdi:
«Ehe, ana tomosha!
Tag'in bir marmar hovuz...
Talay-talay oqqushlar
Yuzishgandir bir mahal?
Shiypon... To'xta! Xati bor!»
Demyan – savodli dehqon,
Xatni o'qir hijjalab.

«Yolg'on!» Kular sayyohlar...
Yana o'shaning o'zin
O'qir ularga Demyan.
(Arang o'ylab topdilar,
Tuzatilgan xat ekan:
Ikki-uch harf o'chipti,
Durustgina bir so'zdan –
Chiqipti buzuq ma'no!)

Dehqonlarning bilimga –
Havasin sezib qolgan –
Keksa bir qarol darrov
Kitob ko'tarib keldi:
«Sotib oling!» Nechog'lik
Unnasa hamki Demyan,
Chigal sarlavhasini
Chiqara olgani yo'q:
– O'zing, pomeshchik bo'lib,
Jo'kalar soyasida –
Kursiga o'tirgin-u,
Bu kitobni o'qiy qol!

«Yana savodxon emish! –
Alam va o'kinch bilan
Ming'irlab oldi qarol –
Bu hikmatli kitobning
Sizga ne keragi bor?
Sizga qovoqxonaning
Lavhalari bo'lsa, bas,
Ustunlarga qoqilgan –
«Mumkin emas!» degan so'z
Sizga kattakon kitob!»
Yo'lkani axlat bosgan!
Haykal qizlarning burni –
Urib, sindirilipti!
Mevali daraxt qolmay,
Qu qushlar, g'oz, o'rdaklar
Bundagi navkarlarning

Jig‘ildonidan o‘tmish!
Popsiz – cherkov bo‘ldimi,
Dehqonsiz – yer bo‘ldimi,
Pomeshchiksiz – bog‘ netar! –
Sayyoohlар aniqlashdi:
Boy puxta qurgan ekan,
Uzoqni ko‘rgan ekan,
O‘rnashgan ekan mahkam,
Ammo... (Oltovi kular,
Yettinchisi: mung‘ayar)
To‘sat yuksakdan, shu payt,
Jaranglab ketdi qo‘shiq!
Dehqonlar ko‘tardi bosh:
Ravoq aylanasida,
Panjaralik ayvonda,
Uzun to‘n kiyib olgan
Bir odam yurar edi,
Va hadeb kuylar edi...
Kechqurungi havoda,
Kumush qo‘ng‘iroq kabi
Yangrar bir yo‘g‘on ovoz...
Yangrar ham sayyoohlarning
Yuraklarin ezardi:
So‘zлari ruscha emas,
Lekin undagi hasrat,
Naq rus qo‘shiqlarida –
Eshitilganday munglug‘,
Uchsiz, qirg‘oqsiz edi...
Shundoq ohangdor, ravon,
Yig‘loqi, dil o‘rtovchi...
«U kishi kim, otincha?» –
Mitenkasiga issiq
Baliq sho‘rva ichkizgan
Ayoldan so‘rar Roman.

– Novo-Arxangelskiy
Yoqdan kelgan qo‘shiqchi,
Uni Malorossiyadan,

Aldashib, yo‘ldan urib,
Keltirgandi janoblar.
Italiyaga olib
Boramiz, deyishdi-yu,
O‘zлari jo‘nab qoldi...
(Italiyada netsin?)
Qaytadan Konotopga
Yetib olsa – vaqtı chog‘,
Unga ish yo‘q bu joyda...
Uyni tark etdi itlar,
(Xotin xo‘p g‘azablandi)
Kimning ishi bor bunda?
Bu odamning davlati –
Jaranglagen ovozi,
O‘zga hech nimasi yo‘q...

«Ovoz desa degulik!
Tiniq avji bor ekan!»
– Bir kech qo‘nib qolsangiz,
Boshqasin ham tinglaysiz;
Uch chaqirimcha nari
Bitta so‘fi yashaydi...
Hay, hay, uning ovozi,
Tong otarda ikkovi
O‘ziga xos ovozda
Bir-birin ayqiradi,
Go‘yo salomlashadi.
Bu – ravoqqa chiqadi,
Baralla ovoz bilan,
Unisidan so‘raydi:
«Sog‘misan, I-pat-ota?»
Oynaklar dirillaydi!
So‘fi u tomondan der:
«Sog‘misan, bulbulimiz!
Kelgin, araq ichaylik,
Kutaman!» – Ha boraman!
Boraman degan so‘zi –
Rosa bir soat o‘zi



Sado berar havoda...
Ana shundoq kishnashar!..

Uy-uyga qaytar poda,
Katta yo'l changib ketdi,
Sut hidi anqib ketdi,
Mitenkaning onasi
Ezilib, oh chekadi:
Xo'jayin hovlisiga
Bir sigir kirsa koshki!
«To'xta! Qishloq ketidan –
Qo'shiq ovozi kelar,
Yaxshi qol, e bechora,
Biz ketdik xalqqa tomon».

Yengil tortdi sayyoohlar:
Zorlanib, ingraguvchi
Qo'shchi-qulanchidan so'ng,
Sog'lom va kuylaguvchi
O'roqchi va mashoqchi
To'p-to'p odam ko'rindi,
Har ishga chiroylilik
Berguvchi – qizlarjon ham,
(Suluv qizsiz olomon –
Bo'tako'zsiz bug'doyzor).

– Yo'l bo'lsin! Kimdir bunda
Matryona Timofeyevna?»

«Ne kerak, azamatlar?»

Matryona Timofeyevna,
O'ttiz sakkiz yoshida,
Keng o'mrov, pishiqlar, tijin,
Rosa qomatli xotin,
O'zi go'zal, sochida
Ko'rinadi oz-moz oq,
Ko'zlari katta, jiddiy,

Kipriklar uzun, quyuq,
O'zi bug'doyrang, sipoh...
Egnida oq ko'ylagu
Qisqagina sarafan,
Yelkasida o'roq bor.

– Ne kerak, azamatlar?

O'zga ayollar bir oz –
Oldin ketgungachayin
Jim turdi yetti sayyoh,
Keyin berdilar salom!
«Biz – olis ellardanmiz,
Yuribmiz bir tashvishda,
Shundoq katta tashvishki,
Uyimizga kirkizmas,
Ishga ham qo'l urgizmas,
Hatto xo'rak yegizmas...
Kuyunchak dehqonlarmiz,
Muvaqqat qarzdorlardan,
Sho'rpeshona tumanı,
Bo'sh-taqir volostida, –
Yonma-yon qishloqlardan –
Yamoqzor, Julduravot,
Yalang'och, Ushuktepa,
Kuygankent, Yutoqsaroy
Hamda Qahatqo'rg'ondan.
Ketardik yo'l-yo'lakay,
Duch kelib qoldik to'sat,
Duch keldik-u, dovlashdik:
Rusiyada kim xushvaqt,
Dorilamon yashaydi?
Roman dedi: pomeshchik,
Demyan dedi: amaldor,
Luka dediki: yo'q, pop.
Qorni katta savdogar,
Dedilar aka-uka –
Ivan bilan Mitrodor.
Paxom dedi: shavkatli,

Oliy mansab zodagon,
Chorning inoq vaziri.
Prov bo'lsa, dedi: chor...
Dehqon – ho'kizday qaysar:
Biron devona xayol
Boshiga o'rnashsa, bas,
Pona qoqsang ham chiqmas!
Dovlashsak ham nechog'lik,
Kelisha olmadik hech!
Dovlashib – tentaklashdik,
O'lquday kaltaklashdik,
Kaltaklashib – o'yashdik:
Dovni hal etmaguncha,
Aslo tarqab ketish yo'q,
Uy-uyiga qaytish yo'q,
Xotinlarni ko'rish yo'q;
Go'daklarni o'pish yo'q,
Chollarni sog'inish yo'q,
Toki chinakam, ayon
Va to'liq bilmaguncha:
Rusiyada kim xushvaqt,
Dorilamon yashaydi?..

Popdan buni so'radik,
Pomeshchikdan so'radik,
Ham to'g'ri keldik senga!
Amaldor yo savdogar,
Yoki chor vaziriga,
Yo chorga uchrasholib,
Bu gapni so'raguncha,
(Bizdaqa dehqonlarni
Dargohiga yo'l berib,
Qabul etarmidi chor?)
Bizni qutqaz, yordam et!
Ovozang va dovrug'ing
Tarqalmish keng dunyoga, –
Sen – xushbaxt, dorilamon
Yashar emishsan... Aytgin,

Aytib ber – xudo haqi,
Baxting nedan iborat!

Matryona Timofeyevna
Tangirqab qolgani yo'q,
Nechundir, xafa bo'ldi
Va og'ir o'yga toldi...

«Bu ishlaring – ish emas!
Yig'im-terim mavsumi,
Bekor gap ishga yuk-ku?...»

– Poshsholikning yarmini
Kezib chiqdik piyoda,
Hech kishi qaytargan yo'q! –
O'tindi yetti sayyoh.
«Bosholqlar to'kilmoxda,
O'roqchi kam, azizlar...»
– Axir, biz-chi, egachi?
O'roq, chalg'i top! Yettov
Erta ertalab tushsak,
To kechqurun bo'lguncha,
Javdarigni batamom
O'rib, bog'lab beramiz!

Timofeyevna sezdiki,
Ish juda bop bo'lguday.
– Mayli, roziman, – dedi, –
Azamatsiz, tantisiz,
O'n bog'dan o'rib qo'yib,
Sezmasdan ham qolarsiz. –

– Dilda bor gapingni ayt!

«Hech nima yashirmayman».

Toki Timofeyevna
Uyini-ro'zg'orini –



Saranjom qilgunicha,
Dehqonlar uy ketida
Tanolashdi xo‘p yaxshi joy:
Bunda bug‘doyxona-yu,
Zo‘r ikki g‘aram kanop,
To‘kin-sochin bo‘ston bor.
Ham baland, ko‘rkam eman;
Naq shu eman tagida
Davra qurdi yettovlon:
«*Ochil dasturxon, ochil,
Dehqonlarni mehmon qil!*»

Ochildi keng dasturxon,
Qaydandir paydo bo‘ldi,
Kattakon ikkita qo‘l –

Bir chelak sharob qo‘yib,
Nonni ham tog‘day uyib,
G‘oyib bo‘ldilar tag‘in...
Qah-qahlashib kulardi –
Ivan bilan Mitrodor:
Tomorqadan olibdi
Bir sholg‘omki – juda zo‘r!

Uy bekasi kelganda
Va bizning sayyoohlarga
«Dilidagi bor gapni
Ayta boshlaganida»,
Yulduzlar ko‘m-ko‘k ko‘kda
O‘z joylarin olardi,
Yuzardi yuksakda oy.



1 b o b

ERGA CHIQQUNCHА

– Menga qiz chog‘imdayoq
Baxt kulib boqqan edi:
Yaxshi xonadon edik,
Bizda hech kim ichmasdi.
Otam, onam bag‘rida,
Tashvish bilmay, g‘am bilmay
Yashardim, azamatlar.
Otam – saharda turib,
Erkalab uyg‘otardi;
Akam –kiyinar ekan,
Menga quvnoq ashula
Kuylardi: «Uyg‘on, singlim!
Hamma kiyinib bo‘ldi,
Hamma qilur ibodat,
Sen ham uyg‘onaqolgin!
Podasin haydab cho‘pon –
Jo‘nadi allaqachon,
Maymunjon termoq uchun –
Egachi-singillaring
Ketdi o‘rmonga tomon,
Dalada ishlar dehqon.
O‘rmon kesuvchilarning
Yangrar bolta ovozi!»
Mehribon onam bo‘lsa,
Idish-tovog‘in yuvib,
Ham supurib-sidirib,

Xamirin gupurtirib,
Kelar, lekin uyg‘otmas,
Qaytaga o‘rab, chirmar;
«Uxlaybergin, jonginam!
Uxla, oromingni ol!
Begona oilada
Uzoq uxlayolmaysan!
U yerga borganingda,
Kech tunda yotgin, derlar,
Sahar uyg‘ongin, derlar.
Qo‘lingga savat berib,
Bitta ko‘mach tutqazib,
Shuni kavshayqolgin-da,
To‘lguncha tergin!» – derlar.

O‘rmonda tug‘ulmadim,
To‘ngakga yukunmadim,
Uzoq uxlamas edim.
Simeon kuni¹ otam,
Bo‘z sigirga mindirib,
Qizim, katta bo‘lding deb,
Irim-sirim o‘tkazdi.
Shunda to‘rt yoshim to‘lib,
Beshga qadam qo‘ygandim.
Yetti yoshga kirganda,
Bo‘z sigirni podadan

¹ Simeon kuni – 14-sentabr (eski hisobda birinchi sentabr).

O'zim haydab kelardim;
Otam uchun dalaga
Nonushta oborardim,
O'rdaklarni boqardim.
Keyin qo'ziqorin-u
Meva terdim o'rmonda,
Keyin: «Ayrini ol-da,
G'aramni ag'dar,sovur!»
Ishlariga o'rgandim...
Yaxshi mehnatkash, dastyor,
Qo'llari guldakkina,
O'yinqaroqroq edim.
Kunduz dalada ishlab,
Kirga botib qaytasan,
Hammom qayoqda deysiz?

Terlab-pishib o'ynaysan,
Qayin bargak ko'tarib,
Muzdak buloq boshida
Bir cho'milib olasan,
Tag'in oppoq va yengil,
O'rtoqlaring yonida
Urchug'ingni yigirib,
Tong otguncha kuylaysan!

Yigitlarga kelganda
Ko'p surkanchoq emasdym,
Biror surbet, xirasi
Yopishsa, jerkib tashlab,
Yuvoshrog'i gapirsra –
Pichirlab der edimki:
Yuzimni shuvut qilma,
Onam bilib qoladi.
Taqilma! Ket! – der edim,
Darrov jo'nab qolardi.

Yigitlardan qochsam-da,
Buyurganim bor ekan,
Bosh-ko'zimni tindirdi.
Sho'rimga – o'zga yurtlik!
Ismi Filipp Korchagin –
Piterda ishlar ekan.
Hunari – pechkachilik¹,
Yig'ladi onaginam;
O'ksib-o'ksib aytardi:
«Yoshsan, qizim, pisharsan.
Bu taptingdan tusharsan,
Zangor dengizda yuzgan
Baliq kabi sho'ng'irsan,
Uchurma bulbul kabi
Uyangni tark etarsan.
Harholda – begona yurt,
Shakar sepilgan emas,
Asal to'kilgan emas!
U tomon – sovuq, qahat,
Oppoq bo'luq yuzingni,
Do'nduqqina qizimni
Qor va bo'ronlar yalar,
Yoprilar shum qarg'alar,
Akillar baroq itlar,
Odamlar qilgay mazax!...»
Otam – sovchilar bilan
Ichib, shirakayf bo'ldi.
Men esa, g'amga botdim,
Uxlolmadim tun bo'yi...

Men qizda ne yaxshilik
Topaqolding, hoy yigit!
Qayda ko'rganding meni?
Yo mavlud bayramida² –

¹ Aslida pechkasoz – pechkachi usta.

² Mavlud bayramida – Iso tug'ilgan kun munosabati bilan bo'ladigan bayram (Ikki hafta).

Qiz-u yigit aralash,
Qah-qah urib, gur kelib,
Qorda o'ynab, tepadan –
Siyg'anib tushganimda
Ko'ribmi qolgan eding?
U mahal, ho er yigit!
Xatoga yo'l qo'yibsan,
Bilmas eding, qiz yuzi
O'yindan, siyg'anishdan,
Chopqillashdan, ayozdan –
Bo'g'riqib ketganini!
Yoki jimjit shiyponda –
Ko'zing tushdimi menga?
Yasangandim unda men,
Husnim kamolga yetib,
Yetilgandi qish bo'yi,
Dalada qizg'aldoqday
Yal-yal yonib turardim.
Men zig'ir yanchganimda,
Yoki bog'-bog' bug'doyni
To'qmoqlagan chog'imda –
Ko'zing tushsaydi menga...
Yoki o'z uyimizda –
Ko'zing tushdimi noxos?
Oh, bilmabman! Bilsaydim,
Shaharga jo'natardim
Lochin ukamni darhol:
«Ukajon! Ipak keltir,
Yetti rang yung ip keltir,
Ham yashil mato keltir!»
Tikardim shundoq kashta –
Burchaklarida: Moskva,
Podshoh bilan Malika,
Kiiev bilan Sargrad,
Qoq o'rtaida – quyosh, –
So'ngra men shu kashtani
Derazamga osardim,
Gar sen termilib qolsang,

Yalt etgan jamolimdan
Bebahra qolar eding!

Tun bo'yi xayolimda
Yigitga yolvorardim:
Bilagimni ushlama,
Meni chohga tashlama!
O'z erkimga qo'yib ber!
Tepamizda xudo bor!»

– Juda olisdan keldik,
Yuraver! – dedi Filipp, –
O'ksitgani qo'yemasman!
Achchig'-achchig' yig'ladim,
Qattiq qayg'urdim, lekin,
Qizlik – qizligin qildi,
Tanti – bo'shligin qildi:
Qiya-qiya qaralab,
Kiprik aro mo'ralab,
Taqdir qo'shgan qo'shoqqa
Suqlanib qarar edim:
Ko'rkam – qip-qizil edi,
Norg'ul – pahlavon edi,
Sochlari – qo'ng'ir edi,
Muloyimso'zlik edi,
Filippni sevib qoldim!

«Turgin, hay yaxshi yigit,
Qarshimda to'g'ri, raso,
Bo'yim bo'yingga tengdur!
Tiniq ko'zlarimga boq,
Olmaday yuzimga boq,
Esingni bir yerga yig':
Keyin o'kinib yurma.
Qo'sha qarimoq uchun,
Men senga yor tutindim,
Ko'zimga yosh ilmagin...
Mening bor-u yo'g'im shu;
Dunyoda armonim shu!»



– Sen bilan yor tutingan
O'ksitib qo'yarmikan!
Ko'zingga yosh ilmayman,
Bevafolik qilmayman! –
Dedi menga Filippjon.

Tegajoqliq boshlandi,
Men: «Nariroq tur!» deyman,
Filipp: «Beri kel!» deydi,
Oshiq-ma'shuq so'zida
Ma'lumku: «Chiroyligim,
Sevikligim... Lobarim...»
– Voy!.. dedim, irg'ib qochdim...
«To'xta, ena polvon!» deb,
Belimni chirmab oldi,
Bilagimdan tutmasa,
Matrenaning umrbod
Diydoriga zor edi,
Azamat yigit ekan!
O'sha-o'sha bo'ldi-yu,
O'sha toleim bo'ldi.
Endi o'ylab qarasam,
Qolgan butun umrimda
Boshqa quvонch ko'rmabman...

Esimda: o'sha kecha,
Osmon to'la yulduzlar
Bu kungiday parpirab,
Yarqirab turar edi...

Uh, deb Timofeyevna,
G'aramga yonboshladi,
Mungli va sekin-sekin,
Qo'shiq aytdi o'zicha:

O'zim qishloqi qizman,
Bo'ynimda marjonim yo'q,
Qiltiragan jonim yo'q,

Qulog'imda sirg'am yo'q,
Yo boshimda jig'am yo'q;
Kumushim, oltinim yo'q,
Sen nega sevib qolding,
Shaharlik barno yigit?
– Kumushdan tozaroqsan,
Oltindan oruroqsan,
Ko'zingdan yirik-yirik
Oqqan har qatra yoshing
Mening uchun injudir! –

Dadamning ra'yи bilan
Onam berdi fotiha,
Eman stol yonida
Turg'uzdilar meni tik.
May quydilar limmo-lim:
«Ol, mehmonlarni siyla,
Salom berib, kosa tut!»
Birinchi gal bosh egdim –
Bardam oyoqlarimga
Qaltiroq tushdi darrov;
Ikkinci gal bosh egdim –
Gul yuzimdan o'chdi rang,
Uchinchi gal bosh egdim –
Erkim ham qiz boshimdan
Yumalab tushdi – ketdi...

– To'uda yo'q ekanmiz-da?
Yaxshilikning kechi yo'q,
O'tgan to'yin to'ylashib,
Biz ham jindak ichaylik! –
Gap qistirdi Mitrodor.

– Qani! Bitta to'ldirib,
Egachiga uzat-chi!
– Araq ham ichasizmi,
Bekam, Timofeyevna?
«Kampirlar ichmaydi, deb,
Sizga birov aytdimi!»



U b o b

QO'SHIQLAR

«Sudyasiga bormayman,
Oyoqcham og‘riydi,
Tillaqoshin kiymayman,
Boshginam og‘riydi,
Boshginam og‘riydi;
Qora savdo kelib,
Boshimga tushdi;
Eski, yomon qo‘sishiq
Yodimga tushdi.
Kelin tushdiga
Mehmonlar keldi,
Kuyov – qaylig‘in
Keltirdi uyga,
Urug‘-aymog‘i
Ko‘tardi g‘avg‘o!
Qayin inisi –
Barakasiz, der.

Qayin singlisi –
Tantiq, satang, der.
Qayin ota der –
Urg‘ochi ayiq,
Qayin ona der –
Odamxo‘r qayliq,
Biri – isqirt der,
Biri – no‘noq der...

O‘sha qo‘shiqda
Neki aytilsa,
Hammasi hozir
Mening boshimda!
Kuylagandirsiz?
Bilarsiz, balki?..
– Boshla ayajon!
Biz bo‘lamiz jo‘r.

MATRYONA

Uyqu bosar, yosh kelinman,
mudrayman,
Bolishimga egiladi
boshginam,

Johil qaynatam yangi
dahlizda,
Sanqib yurar nari-beri,
dam-badam

S A Y Y O H L A R

(*Hammasi birdan*)

Taqillatar, gumburlatar,
tek yotmas,
Kelinni hech uxlatmas:
– Turgin, turgin, turgin
uyquchi kelin!

– Turgin, turgin, turgin ey
mudroq kelin!
Uyquchi-yu mudroq ham no‘noq
kelin!

M A T R Y O N A

Uyqu bosar, yosh kelinman,
mudrayman,
Bolishimga egiladi
boshginam,

Johil qaynatam yangi
dahlizda,
Sanqib yurar nari-beri,
dam-badam.

S A Y Y O H L A R

(*Hammasi birdan*)

Taqillatar, gumburlatar, tek
yotmas,
Kelinni hech uxlatmas:
– Turgin, turgin, turgin
uyquchi kelin!
– Turgin, turgin, turgin ey
mudroq kelin!
Uyquchi-yu mudroq ham no‘noq
kelin!
«Katta xonadon edi –
Urishqoq, janjalga o‘ch...
Erka qizlikdan – to‘g‘ri
Do‘zaxga tutuldim men!
Erim ishga jo‘narkan
Uqtirdiki: chidagin,
Har qalay indamagin;
Qizib turgan temirga
Tupursang jazillaydi!
Qaynata, qaynana,

Qayin egachilar-la
Yolg‘izbosh o‘zim qoldim
Bitta iliq so‘z qani,
O‘rgulay, deguvchi yo‘q,
Nuqlu achchiq kesatiq,
Qayin egachim bo‘lmish
Taqvodor Marfa uchun –
Men nima-yu cho‘ri kim,
Qaynatam orqasidan
Kuzatmasam bo‘lmaydi,
Ko‘zdan g‘oyib bo‘ldimi,
Qovoqxonadan qarzdor,
Ajratis kelish kerak.
Uy bo‘lmay qurib ketsin,
Hammayoq irim-chirim,
Sal qing‘irroq bosdingmi,
Qaynanang o‘shqiradi,
Qaysi em-tum yodimda?
Bir irimi – xo‘b mayli,

Bir irim qurib ketsin!
Shunday bo'ldi: qaynana –
Qaynatam qulog'iga
Quyibdiki – javdari
O'g'rilik urug'likdan
Ekilsa mo'l bitarmish.
Tixonich ketdi tunda,
Qo'lga tushdi, o'lguncha
Do'pposlashib, nuqishib,
Saroyaq irg'itishib,
Ketishdi – allakimlar...

Erim aytganday qildim.
Tilimni tishlagancha,
Dardim ichimda qoldi.
Birontasiga achchiq,
Ortiqcha so'z aytmadim.
Qishda Filippjon keldi,
Sovg'asi – ipak ro'mol
Yekaterina kunida!
Chanada sayr etdik xo'b,
Qayg'ular uchdi go'yo!
Kuyladim, o'z uyimda
Kuylagandek bemalol,
Biz ikkov yoshdosh edik,
Hay, hay, bizga tegmanglar,
Qo'shilganlar quvnasin,
Doim payrov ikkimiz,
Bir xil chiqar so'zimiz,
To'g'risi – Filippjonday
Er topolmassan aslo –
Kunduz chiroq yoqsang ham...

– Bir chertmagan ekan-da?
Lol bo'ldi Timofeyevna,

Ozgina ijirg'anib,
Yetti sayyohga aytdi:
– Bir marta urgan, xolos.

– Vaji nima edi? – deb,
So'rab qoldi yettovlon.
«Bilmaganday so'raysiz,
Qishloqdag'i janjallar
O'zingizga ma'lum-ku!
Erimga mehmon bo'lib,
Kelgan edi opasi.
Boshmog'i teshilibdi.
– Xotin! Boshmog'ingni tez
Olenaga yechib ber!
Darhol bermadim javob.
Xum ko'tarib turgandim,
Shundoq ham zil ediki,
So'zlashga yo'qdi majol.
Filipp Illich xit bo'ldi,
To men o'choq oldiga
Xumni o'rnatgunimcha –
Indamay kutib turdi,
Shundan so'ng qarsillatib
Chakkamga rosa urdi.
«Ajab qilib, kelibsan,
Boshmoqsiz ham jin urmas», –
Dedi Filippning hali
Er olmagan singlisi.

Filipp xotinchasiga
Tag'in tarsaki urdi...

– Ko'rishmagandik uzoq,
Bilganda – qilish qayda! –
Dedi shunda qaynana.

¹ Yekaterina kuni — qorda ilk sayr kuni (*Muallif izohi*).

Filyushka urdi tag'in...
Shu – xolos! Er kaltagin –
Sanash – xotin uchun ayb;
Ammo, hali aytdim-ku,
Hech nima yashirmayman!»

– Obbo, siz xotinlar-ey!
Bunday makkor ilonlar
Qarshisida o'lgan ham
Gavron ko'tarib qolar!
Matryona indagan yo'q,
Dehqonlar xushvaqt bo'lib.
Suhbatdan ko'ngli to'lib,
Bir davra ko'tardilar,
Keyin, ipak qamchi-yu,
Erning uruuq-aymog'i
To'g'risida kuylashdi,
Hammalari jo'r bo'lib.

* * *

Badfe'l erim
O'midan turar:
Ipak qamchisin
Qo'liga olar.

X O R

Urdi beomon,
Sachrab ketdi qon...
Voh! Yalli, yalli,
Sachrab ketdi qon...

* * *

Qaynatamga
Bosh egib, dedim:

– Qaynotajon,
Battol erimdan,
Yovuz ilondan
Qutqargin meni!
Qaynota der:
– Badtarroq urgin,
Qon talashtirgin!

X O R

Urdi beomon,
Sachrab ketdi qon...
Voh! Yalli, yalli,
Sachrab ketdi qon...

* * *

Qaynonamga
Bosh egib, dedim:
– Qaynonajon,
Battol erimdan
Qutqargin meni!
Qaynonam der:
– Badtarroq urgin,
Qon talashtirgin!

X O R

Urdi beomon,
Sachrab ketdi qon...
Voh! Yalli, yalli,
Sachrab ketdi qon...

«Navruz bayrami kuni¹
Tag'in jo'nadi Filipp.
Maryam ona kunida²

¹ Aslida *Blagoveşene* – 7-aprel kuni, diniy bayram.

² Aslida *Kazansk*. Bojya materi. – Maryam onaga bag'ishlangan kun. Maryam – Isoning onasi. (Diniy afsona).

Men o‘g‘il ko‘rdim – to‘ng‘ich.
Suluv edi Dyomushka!
Quyoshday yuzi yorug‘,
Qordan oq – menazi bor,
Lablari qizil lola,
Qoshlari qunduz kabi,
Lochin ko‘zli o‘g‘ilcham!
Bahor chog‘ida quyosh –
Dalalarda qor qo‘ymay,
Eritib – oqizganday,
Farishtaday kulimsib,
Qayg‘imni yuvar edi...
Tashvish tortmayin qo‘ydim.
Ne buyursalar – qildim,
Ming so‘ksinlar – jim
bo‘ldim.
Attang, kulfat bor ekan,
Yurgan ekanman bilmay:
Abram Gordeich Sitnikov,
Xo‘jayinning sarkori,
Bezor qila boshladi;
Tegishib qo‘ymas edi:
– Sen chiroylik bekamsan,
Sen – qizargan mevamsan...
«Bas, uyatsiz, qo‘y meni!
Sen o‘ylagan o‘rmonda
Pishgan meva emasmen!»
Axir, qayin singlimga
Yolbordim, bormay qo‘ydim –
Majburiy qarz ishiga.

U bo‘lsa – uyga kelar!
Saroyga yashirinaman,
Omborga berkinaman,
Qaynonam topib chiqar:
«Olov bilan o‘ynashma!»

– Haydагin, qaynonajon,
Urib hayda, yo‘qolsin!
«Soldat xotin bo‘lmoqqa
Havasing zo‘r shekilli?»
Men – boboya kelardim:
– Nima qilay? Kengash ber.

Erim urug‘laridan –
Qaynotamning otasi,
Bitta Saveliy bobo
Menga achinar edi...
O‘sha bobo haqida –
So‘zlaymi, azamatlar?

– Ichki siring qo‘ymay ayt!
Uyat bo‘lsa ham mayli!
Mayli, biz ikki bog‘dan
Qo‘shib o‘rib beramiz, –
Deb qistashdi yettovlon.
«Yo‘q, yo‘g‘e! Bu boshqa gap,
Ammo bobo to‘g‘rida
Aytmasligim gunohku,
Baxtiyor edi u ham...»



III b o b

SAVELIY – QUTLUG‘ RUS BAHODIRI

Ehtimol, yigirma yil
Qaychi, ustara ko‘rmay,
Bir quchoq bo‘lib o‘sgan,
Soqol-u uzun sochlik,
Yoldor Bobo – ayniqsa –
O‘rmonzordan engashib
Chiqqanida, ayiqqa
O‘xshab ketardi biroz.
Beli – do‘g‘aday egik,
Avval qo‘rqib yurdim men,
O‘z pastak xonasiga
Kirganda – o‘ylardimki:
Birdan qaddin ko‘tarib,
Men yotgan shu xonaning
Devoriga bosh urib,
Tuynuk ochsa bu ayiq,
Ne bo‘lar deb cho‘chirdim!
Lekin bobo bechora
Qaddin tiklay olmasdi,
Aytishlariga ko‘ra –
Yuzga kirgan edi chol,
Yashardi xos xonada,
Farzandlarin suymasdi,
O‘z uyiga qo‘ymasdi;
Bola-chaqasi bo‘lsa,
Achchig‘iga chidolmay,
Itday qopishar edi:
«Tamg‘a bosilgan, surgun,

Qarg‘ish tekkan, badnom chol!» –
Deb so‘kardi o‘z o‘g‘li,
Ya‘ni mening qaynotam.
Saveliy achchig‘lanmas,
O‘z xonasiga ketar,
Injil o‘qir, cho‘qinar,
Ham quvnab derdi bordan:
– Tamg‘a bosilgani rost,
Shukurki, qul emasman!
Bezor qilisha bersa,
Tegishardi: «Qaranglar,
Sovchilar kelishmoqda!»
Eri yo‘q qayin singlim
Deraza tomon chopar:
Sovchi qayda – gadoylar!..
Qo‘rg‘oshin tugmachadan –
Bir tangalik kumushga
O‘xhash pul so‘kipti-yu,
Yo‘lakka tashlapti chol,
Qaynotam topibdi-yu,
Mayxonaga jo‘napti!
Mayxonadan mast bo‘lmay,
Kaltak yeb, bazo‘r keldi!
Kechki ovqat ustida
O‘tirishar, un chiqmas:
Qaynotam qovoq solib –
O‘tirar xit va tajang,
Chol yuzida kulgisi –
Rang berar kamalakday...

Bahordan – kech kuzgacha,
 Bobo qo'ziqorin-u
 Jelak meva terardi,
 Qiltuzoq qo'yib, yakkash
 Karqur, chilqush tutardi,
 Qishda pechka ustida,
 Vaysab yotardi yolg'iz...
 Bordi sevgan so'zları,
 Va har soat bittasin
 Aytib qo'yardi bobo:

 «O'lganlar... Mahv bo'lganlar...»

 «Eh, sadqayı askarlar!
 Chol-u kampirlar bilan –
 Urishmoqqa yaraysız!»

 «Chidolmasang – bir balo,
 Rosa chidash ham – balo!»

 «Eh, juldur to'n, qutlug' rus
 Bahodirin qismati!
 Umrbod yulqilashar,
 Goho o'lging keladi –
 Jahannam azoblari
 Kutar u dunyoda ham».

 «Qaror qildi Qing'irkent,
 Ha, bo'l! Ha, bo'l! Ha, balli!»

 Shunday gapi ko'p edi!
 Men unutib qo'yibman...
 Qaynotam – janjal qilsa,
 Men yoniga chopardim.
 Eshikni berkitardik.

Men ishlardim, Dyoma-chi,
 Keksa olma daraxti
 Uchidagi olmadek,
 Boboning yelkasida
 O'ynar – sog'lom, qip-qizil...
 Bir gal men so'rab qoldim:
 – Nega, Saveliy bobo,
 Badnom, surgun, la'nati,
 Deyishar seni mudom.
 – Surgunda bo'lganman-da.
 – Rostmi, bobo?
 – Rost, bo'tam!
 Xristyan Xristianich
 Fogel degan nemisi –
 Tiriklay ko'mganim-chun,
 Tamg'alangan surgunman.
 – Hazilingni qo'y, bobo!
 – Yo'q, hazilmas! Eshitgin!
 Ham so'zlab berdi tugal.
 «Qadim zamonda biz ham
 To'raga qaram edik;
 Lek pomeshchiklarni ham,
 Nemis sarkorlarni ham –
 Bilmas edik biz u vaqt.
 Na tekinga ishlardik,
 Va na to'lardik o'lpon¹.
 Esga tushib qolganda:
 Uch yil o'tgandan keyin
 Irimiga bir nima –
 To'lov yuborar edik!»

¹ Aslida *obrok* – majburiy to'lov; krepostnoy dehqonlarning zamindorlarga to'lovi.

— Xo'sh, qanday, Savelyushka?

«Ha, shunday rohatijon,
Yaxshi vaqtlar edi-da.
Bejiz emas – maqol bor:
Biz yashagan o'sha joy –
Gadoy topmas joy edi,
Hatto shaytonni o'zi
Uch yil izlagan emish...
Aylana – quyuq o'rmon,
Aylana – teran botqoq;
Na otliq o'ta olar,
Na piyoda yo'lovchi!
Xo'jayin Shalashnikov,
It topmas so'qmoqlardan
(O'zi – harbiy ham edi)
Qo'shini bilan bir kez –
Bizni topmoq bo'lipti,
Ko'p unnapti, oqibat
Chang'isini qaytarib,
Ketga jo'nab qolipti,
Hatto mahalliy mirshab
Kelolmasdi yil bo'yi.
Qanday soz vaqtlar edi!
Hozir to'ra yoningda,
Yo'l – yoziq dasturxonday...
Tfu! Uni yer yutsin!
Tashvishga solar edi
Bizni faqat ayiqlar...
Ha, ayiqlarni oson
Sarishta qilar edik.
Tig'-u nayza olardim,
Shoxdor bug'iday¹ qo'rqinch
Bo'lib, men iz tushmagan
So'qmoqlardan yurardim,

Hoy-hoylardim: «O'rmonim!»
Bir marta qo'rqdim faqat,
Uxlab yotgan ayiqni
Bosib oldim o'rmonda.
Shunda ham qochganim yo'q,
Rosa nayza sanchdimki,
Sixga tortgan jo'jaday
Aylanar, bo'sholmasdi,
Bir soat o'tmay o'ldi!
Ayiq bilan olishib,
Umurtqam lat yegandi,
Yigit ekanman, og'rib
Qo'yardi o'qtin-o'qtin,
Mana, qariganimda
Kamalakday bukilib,
Obkashga² o'xshab qoldim,
Shundog'-a, Matryonushka?»

— Boshladingmi – tugal ayt!
Qiynalmay yashabsiz, xo'sh,
U yog'i nima bo'ldi?

«Ba'zi vaqt Shalashnikov
Topardi yangi nayrang,
Bizga buyruq yozardi:
«Keling!» depti, bormadik,
Qimirlamay yotdik jim –
Botqoq makonimizda.
Qurg'oqchilik yil edi,
Mirshablar keldi bosib,
Baliq berdik, bol berdik,
Shunday to'ladik o'lpon!
Tag'in bostirib keldi,
Do'q urdi: haydataman,
Yasovullar ham tayyor...»

¹ Aslida Soxatiy (*los*) – bug'u nasliga mansub ulkan shoxdor hayvon.

² Ochep – qishloq qudug'i ustiga o'matilgan bukri yog'och.

Biz – mo‘yna-yu terilar,
Berib qutuldik bu gal!
Uchinchil gal – hech nima!
Oyoqda po‘stloq choriq,
Boshlarda – juldur qalpoq,
Yelkada – yamoq chakmon.
Barimiz shu zaylda,—
Qo‘zg‘aldik-ku Qing‘irkent!..
Keldik... (xo‘jayin bu vaqt
Qo‘shini-la turardi –
Viloyat markazida.)
«O‘lpón!» – Qayoqda o‘lpón!
– Don bu yil bo‘lgani yo‘q...
Baliq tutulgani yo‘q...
«O‘lpón!» – Qayoqda o‘lpón!
Shundan so‘ng qahri kelib,
Adi-badi demasdan,
Askariga buyurdi:
«Ho, oldinda turganlar!»
Ular qamchilay ketdi.

Qing‘irkentlik kissasi –
Pishiq tugulgan hamyon!
Xo‘jayin pishiq edi:
Kallaga qamchi tushsa,
Til galdirab qolarkan,
Miya aynib qolarkan.
Bahodirlilik chidami
Boshqa-yu, qamchi boshqa;
Choramiz nima edi!
Qichqirdik: bas, muddat ber!
Paytavaga tikilgan
Jangir-jungirni so‘kib,
To‘raga – yarim qalpoq
«Oltin tangalar» tutdik.

Yovqur xo‘jayin nafsi,
Shundan so‘ng orom oldi.

U ham bizlarga tutdi –
Taxir va achchiq sharob,
Bo‘ysungan Qing‘irkent-la
Kosa cho‘qishtirdi-yu,
Sharob ichdi o‘zi ham:
«Ha, xayriyatki, barvaqt
Taslim bo‘ldingiz menga!
Yo‘qsa – xudo haqi – men
Teringizni batamom
Shilib olmoqchi edim...
Nog‘ora qoplatardim.
Askarlarga berardim!
Xo‘p do‘mbira bo‘lardi!
Ha-ha! Ha-ha! Ha-ha! Ha!
(O‘ylab topgan gapidan
Zavqlanib kuldil rosa.)
«Xo‘p nog‘ora bo‘lardi!»

Boshimiz quyi tushib,
Uyga qaray yo‘l soldik.
To‘ngak kabi ikki chol
Yaxtagin astariga
Tikilgan yuz so‘mlikni
Pisanda qilgan kabi,
Olib qaytishar ekan,
Kulishar... Eh, to‘ngaklar!
Hech kimga qo‘l tekizmay,
Oyoqlarin tirashib,
«Biz gadoy» – deyishipti,
Axir qutulishipti. –
O‘shanda o‘yladimki:
– Ha, mayli! Jin urganlar.
Bundan keyin senlarga
Kalaka bo‘lmasmanov, –
Deb dilimdan o‘tkazdim.
Nomus ezib yuborgach,
Hammamiz cherkov borib,
Bir yo‘l qasam ichdikki:

Bundan buyon qamchi yeb,
O‘lib ketsak ham mayli,
Ammo bundoq sharmanda
Bo‘lmaymiz, xudo haqi!»

Qing‘irkent tangalarin
Xo‘jayin sevib qoldi,
Har yil chorlatib olib,
Kaltaklaydigan bo‘ldi...

Xo‘p kaltaklar edi-yu,
Lekin ololmas edi –
Maqtangulik daromad:
Joni bo‘sbroq kishilar
Taslim bo‘lgani bilan,
Kuchliroq kishilar-chi,
Tuqqan yer, el-u yurt deb,
Bardam turish berardi,
Men ham jabr-u jafoga
Turish berib, o‘ylardim:
«Ming ursang ham, itvachcha,
Jonimni ololmaysan,
O‘zimga ham qoladi!»
Xo‘jayin o‘lpone olgach,
Jo‘naymiz – chekdan o‘tib,
Qoldiqni teng bo‘lamiz.
«Hoy, ahmoq Shalashnikov,
Pul degan bu bo‘ladi,
Naqdina bu bo‘ladi».»
Xo‘jayinni mazaxlab,
Butun qishloq kulardi!
Odamga yarashkulik
Mag‘rurlik bu bo‘pti-da!
Hozirgi odamlarga
Bitta tarsaki ursang,

Hokimga, xo‘jayinga
Eng so‘nggi chaqasini
Keltirishib berishar!

Ammo biz savdogarlar
Singari yashar edik.

Yaqin edi go‘zal yoz,
Yorliq kutardik... keldi...
Yorliqda aytilganki,
«Janobi Shalashnikov
Varnoda¹ halok bo‘ldi».
Uncha achinmasak ham,
Dilimizga cho‘kdi g‘am:
«Dehqon farog‘atiga –
Kelmoqda so‘nggi soat!»
O‘ylaganday bo‘ldi-yu,
Bu dunyoda misli yo‘q
Chora topdi merosxo‘r:
Nemis yubordi bizga.
Teran botqoqzorlardan,
Ham qalin o‘rmonlardan –
Yayov yo‘l topib, bir kun –
Yetib keldi haromi!
Chimchiloqday yop-yolg‘iz;
Qalpog‘u tayog‘i bor,
Tayog‘ining uchida
Baliqqa qarmog‘i bor.
Avvallar yuvosh bo‘ldi:
«Iloj boricha to‘lang!»
– Hech qanday iloji yo‘q!
«Men to‘raga chaqaman!»
– Chaqaver!.. Gap ham tamom!
Kun ko‘rib yurdi shunday;
Baliq yer edi ko‘proq;

¹ 1828-yilda Rus-Turk urushi vaqtida. Qora dengiz bo‘yidagi Varno qal’asini olish vaqtida.

Qarmog‘in suvgə tashlab,
O‘tirar soy bo‘yida,
O‘z burni, manglayiga
Urar dam-badam – tars-tars!
Kulardik biz: «Qing‘irkent
Pashshasini sevmaysan,
Yoqmaydi-ya?» Nemisvoy
Kezar edi qirg‘oqda,
Kulardi yot ovozda,
Hammomda kulgan kabi
Berardi aksi sado...

Yigit-u qizlar bilan
Do‘stlashib olgan edi,
Kezar edi o‘rmonda...
Bejiz kezmas ekan-da!
«Gar to‘lay olmasangiz,
Ishlang!
– Xo‘sh, ishing nima?
«Botqoqda zovur qazmoq
Lozim edi...» Qazdik biz...
«Endi o‘rmonni kesing...»
«Ha, mayli!» – Kesdik o‘rmon,
Nemisvoy ko‘rsatardi,
Qaydan kesishni bizga...
Ko‘rsak: ochilipti yo‘l!
Yo‘lni tozaladik xo‘b.
– Botqoqzorga shu yo‘ldan
G‘o‘la tashninglar, – dedi.
Xullas, yo‘l bitganida,
Xatomizni tushundik, –
Nemis aladapti rosa!

Shundan so‘ng, qo‘sh ot qo‘shib
Shaharga jo‘nab ketdi!
Ko‘rsak, shahardan ortib
Kelar quti, to‘shaklar;
Yalangoyoq nemisda,

Qaydandir bola-chaqa
Ham xotin paydo bo‘ldi.
Uyezd mirshabi bilan,
O‘zga hokimlar bilan –
Boshladi bordi-keldi.
Hovli mehmonga to‘ldi!

Qing‘irkent dehqoniga –
Shu mahaldan boshlandi
Og‘ir qamoq mehnati,
Ipimizgacha oldi;
Ham qildi xonavayron!
Rahmatlik xo‘jayindan
Badtarroq urar edi...
Xo‘jayin jo‘nroq edi:
O‘z qo‘shinin kuchini
Ko‘rsatar, hujum etar!
O‘ldirar deb o‘ylasang,
Pul olardi, tinchirdi,
Go‘yo it qulog‘iga
Yopishgan kana kabi,
Qonni shimbib bo‘lganda,
To‘yib, tushardi o‘zi...
Nemis badtarroq keldi:
Bizlarni xonavayron –
Qilmaguncha tislanmay,
Yopishib, so‘rardi qon!»

Shuncha jabr-u jafoga
Chidadingizmi, bobo?

«Shu vajdan chidadikki,
Bizlar bahodirlarmiz.
Rus botirligi shunda.
O‘ylaysanki, Matryonushka,
Dehqon – bahodir emas!
Hayoti – harbiy emas!
U jangda ham o‘lmaydi,
Chunki dehqon bahodir!

Qo'lida zanjir, bo'g'ov,
Oyoqda – temir kishan,
Belidagi kuchni ayt...
O'rmonlar og'irligin
Ko'tarib, sindirguday!
O'mrovin aytmaysanmi?
Agar ko'ksi ustidan
Ilyos payg'ambaringning
Olovli do'ngalagi¹
Yanchib o'tsa, chidaydi.
Rus shunaqa bahodir!
Qayishar, lekin sinmas,
Sinmas yo qulab ketmas...
Nahot bahodir emas?»
Men dedim: Boboginam,
Hazilkashlik qilmagin,
Sen aytgan botirlarni
Kalamush kemirmasin?

«Bilmayman, Matryonushka,
Og'ir va mudhish yukni
Ko'tarishga – ko'tarib,
Ko'ksidan yerga botib,
Turipti hozircha u!
Bahodirning yuzidan
Yosh emas – qon oqmoqda!
Bilmayman, aytolmayman:
Ne bo'lsa xudoyimdan!
O'z-o'zimga deymanki;
Qish chog'i, qor-bo'ronlar
Guvullab esganida,
Shu keksa so'ngaklarim
Zirqirab og'riganda,
Pechka ustida yotdim;
Yotdim-u surdim xayol:
Qayon ketding quvvatim?

Yarading ne ishga ham?
– Qamchi, kaltak ostida,
Mayda-chuydaga ketding,
Isrof bo'lding behuda!»

– Nemis ne bo'ldi, bobo?

«Nemismi, ha, nechog'liq –
Hukmini yurgizmasin,
Kutdik vaqt kelguncha,
Sabr kosa to'lguncha!

Chidadik o'n sakkiz yil,
Nemis fabrika qurdi,
Quduq qaz, deb buyurdi.
Kavlardik to'qqiz kishi,
Ishladik tushga qadar,
Nonushta qilmoqchidik,
Nemis keldi: «Shu xolos?»
Ham o'z tilida, shoshmay,
Vaysab urishaketdi.
Biz turardik, och edik,
Nemis hadeb so'kardi,
Nam tuproqni oyoq-la
O'raga irg'itardi.–
Ne bo'ldi-yu, men sekin
Turtib qo'ydim yelkam-la,
Keyin turtdi o'zgasi,
Turtdi uchinchisi ham...
Biz uni o'rab oldik...
Ikki qadama – o'ra...
Biz bir so'z ham demadik,
Ko'z ko'zga tushgani yo'q...
Hammamiz to'dalashib,
Xristian Xristianichni
Avaylab turtar edik,

¹ Aslida *kolesnitsa* – ikki g'ildirakli qadimiy harbiy arava.

Siltardik o‘ra tomon...
O‘ra tomon dam-badam...
Nemis ham gup etdi-yu.
O‘raga tushdi-ketdi,
Baqirar: Arqon! Shoti!
To‘qqiz belkurak bilan
Biz unga berdik javob.
– Ha, de! Ha, bo‘l! – dedim men,
So‘z aysang – ruslar totuk,
Tez va ahil ishlashadi, –
– Ha, bo‘l! Ha, bo‘l! Bo‘ldirdik,
Shunday ham bo‘ldirdikki,
Go‘yo o‘ra yo‘q edi,
Yer bilan tekis bo‘ldi!
Bir-birimizga shunda,
Ko‘z tashlashdik, qarashdik».

To‘xtab qoldi Saveliy.
– Xo‘sh, u yog‘i?
 «Pachava!
Mayxona... Qamoqxona,
U yerda savod oldim,
Hukm chiqqanga qadar.
Hukm chiqdi: badarg‘a,
Oldin xo‘b kaltaklashdi,
Kaltak emas – xuddi yog‘,
Kaltaklashni u yerda
Uncha bilishmas ekan!
Keyin... Surgundan qochdim...
Qo‘lga tushdim! Bunda ham
Boshimni silashgan yo‘q!
Zavod kattakonlari –
Kaltaklashga xo‘p usta,
Sibirda nomi chiqqan!
Xo‘jayin og‘ritibroq
Urardi – zavoddagi
Kaltakdan diksinqadim.
Tirishgan yo‘q manglayim!
Xo‘jayin Shalashnikov

Urishga usta ekan,
Terimni shunday iylab,
Pishitib qo‘yiptiki,
Yuz yilga chiday oldi!

Hayot – yengil emasdi!
Yigirma yil – badarg‘a
Og‘ir va mudhish zahmat,
Ham shuncha yil erksizlik.
Men asta pul jamg‘ardim,
Chorning manifesti-la
Yurtimga keldim tag‘in,
Shu uyni qurib oldim,
Ancha bo‘ldi, yashayman.
Cho‘ntakda pul borida –
Hurmat qilishar edi,
Silar-siypashar edi,
Hozir – ko‘zga tuflashar!
Ey! Satqayi askarlar!
Chol-u kampirlar bilan
Urishmoqqa yaraysiz...»

Savelyushkaning gapi –
Shu yerda bo‘ldi adoq.

– Ha, xo‘sh? – dedi sayyohlar,
Tamom so‘zla, bekajon,
So‘zlagin o‘z qissangni!

– Uyog‘i badtar g‘amgin,
Bir balodan xudoyim
O‘zi qutqarib qoldi:
Sitnikov – vabo tegib,
O‘ldi-yu, lekin boshim
Ming baloga uchradi.

«Qani, gapni to‘xtatma!» –
Deydi yettita sayyoh.
Qissa yoqdi shekillik!
Andak ichdilar tag‘in...

IV б о б

DYOMUSHKA

Yalt etgan yashin tushib,
Yondirdi bo'y yog'ochni,
O'sha yog'ochda esa,
Bulbul uyasi bordi.
Yonar va ingrar daraxt,
Yonar va ingrashardi
Bulbul bolalari ham:
«Hay, onajon! Qaydasan?
To uchirma bo'lguncha,
Bizni parvarish qilgin:
Uchirma bo'ldikmi, bas,
Yashil vodiyilar tomon,
Jimjit to'qaylar tomon –
O'zimiz ham ucharmiz!»
Batamom yondi daraxt,
Bulbul bolalari ham ...
Shu vaqt keldi ona qush.
Na daraxt... Na uyasi...
Va na bolalar qolmish...
Sayrar, chorlar ona qush...
Sayrar, bo'zlar, charx urar,
Shunday gir aylanarki,
Sizg'irar qanotlari!..
Tun tushib, olam jimjit,
Zor yig'lar qushcha yolg'iz,
Oqarib tong otguncha –
O'lgan bolalariga
Yetgani yo'q ovozi!

Dyomushkani har kuni
O'roqqa oborardim...
Erkalar, ovutardim...
Zahrin sochdi qaynonam,
Baqirib, qarg'ab qoldi:
«Bobo yonida qolsin,
Bolaga ankor bo'lib,
Ko'p o'roq o'rolmaysan!»
Qo'rqib qolgan edim men,
Kamsitilgan edim men,
Qarshi so'z aytolmadim,
Bolamni tashlab ketdim.

Javdari o'sha yili,
Bitgan edi juda ham;
Yerga o'g'it bergandik,
Xo'p parvarish qilgandik,
Erimmagan edik hech, –
Qo'shchi mehnati og'ir,
O'rib olish nash'alik!
Shotilik aravaga
Bog'-bog' yuk bosardim men,
Ham kuylardim, yigitlar.
(Aravaga ortganda
Doim quvnoq kuylaysan,
Chenaga yuk ortganda
Joning achib, o'ylaysan:
Arava – uyga eltar,

Chana – bozorga eltar!)
To'sat nola eshitdim:
Surunib va emaklab
Kelar Saveliy bobo,
Oqargandi o'likday:
«Kechirgin, Matryonushka! –
Quladi oyog'imga;
Ayb menda, gunoh menda,
Yaxshi qaray olmadim!..»

Hoy, qaldirg'och! Hoy, tentak!
Tik qirg'oqqa in qo'yma!
Kun sayin daryoda suv
Ko'payar: suvga cho'kar
Axir bolajonlaring!
Hoy, sho'rmanglay yosh juvon!
Kelin – uyda eng tuban,
Eng tuban – badbaxt cho'ri!
Zo'r ofatlarga chida,
Kaltaklarga bardosh qil,
Lekin, hali esi yo'q
Go'dakdan uzmagin ko'z!..

Chol uxbabdi oftobda,
Cho'chqalarga yem qilib,
Qo'yibdi Dyomushkani,
Go'l bobo, anqov bobo!..
Koptokday yumaladim,
Chuvalchangday to'lg'andim,
Oh urdim, uvvos tortdim,
Dyomushkani uyg'otdim –
Lekin, vaqtি o'tgandi!..

Jim! Tuyoq tovushlari,
Jim bo'l! Oltin jabduqlar
Jiringlar... Tag'in balo!

Go'daklar ko'p qo'rqishdi,
Uy-uyiga qochishdi,
Keksalar uymalashar
Derazalar yonida.
Qishloq bo'y lab oqsoqol
Chopar, tayog'i bilan
Darchalarni qoqardi,
Dalaga-yu o'tloqqa –
Yugurardi... El – yig'in:
Kelishar-inqillashar!
Balo bo'ldi! Xudoyim
Qahriga bo'ldik duchor;
Chaqirilmagan qo'noqlar,
Adolatsiz sudlarni
Yuboripti biz tomon!
Pul tugaganga o'xshar,
Etiklar to'zgan o'xshar,
Ochqab kelishgan o'xshar!..

Fotihasiz, duosiz,
Mahkama stoliga
Yondashib o'tirdilar.
Minbar va but qo'ydilar.
Guvoohlarga qasamyod
Qildirdi Ivan ota¹.

Avval bobodan so'roq
Qilishdi, keyin meni
Chorlab ketdi o'nboshi.
Mirshab² xona ichida
Yurardi nari-beri,
O'rmonda yirtqich kabi
O'kirardi darg'azab...
«Ey! Juvon! Iqror bo'lgin,
Dehqon Saveliy bilan
Umr qilganing rostmi?»

¹ Bu yerda ota so'zi mulla ma'nosida (Otes Ivan).

² Aslida Stanovoy – politsiya boshlig'i (mingboshi).

Ohista berdim javob:

– Voy, o'lay! Qanday xo'rlik,
Tegishayapsiz, to'ram!
Men erimga sodiqman,
Chol Saveliy – yuz yoshda...
O'zing ham bilasanku?
Boylodagi taqalik
Ot singari tepdi er,
Zarang yog'och stolga
Sharaqlatib urdi musht:
«Ovozing o'chir! Bas qil!
Dehqon Saveliy ham sen –
Yakdil va inoq bo'lib,
O'ldirgansizlar-da, ha!?.»
Yo, Bibi Maryam! Qo'lla!
Nimalar o'yplashipti!
Baloxo'rni, sal qoldi,
Bedin atay yozdim men,
Tutoqib ketdim rosa...
Ha, tabibni ham ko'rdim:
Pichog'u qaychilarin –
Qayrab ovora edi.
Jonimga larza tushdi,
Esimni yig'dim darhol:
– Yo'q – dedim, – Dyomushkani
Sevardim... Asrardim men...
«Zahar ichirmadingmi?
Margimush bermadingmi?»
Yo'q! Yo'q! Xudo saqlasin! –
Ojizona yolvordim,
Bosh urdim oyog'iga:
– Rahming kelsin, ayagin!
Buyur – beobro'y qilmay,
Go'dagimni ko'mayin!
Men, axir onasiman!.. –
Yalinishdan foyda ne?
Ko'kraklarida qalb yo'q,

Ko'zlarida uyat yo'q,

Bo'yinlarida – but yo'q!

Ham yupqa yo'rgagidan
Olishib-ag'natishib,
Dyomushkaning oq tanin
Nimta-nimta bo'lishib,
Qiymalashga tushdilar.

Ko'zimga olam qora,
Ho'ngrar edim beqaror:
– Ey, yovuzlar! Jallodlar!..
Ey, mening ko'z yoshlari,
Yerga-yu suvga yog'mang,
Ibodatxonaga ham
To'ppa-to'g'ri yovuzning
Xuddi qalbiga yog'ing!
Kiygani kafan bo'lsin,
Telba, bevatan o'lsin –
Menga yovuzlik qilgan!
Huv, sening xotining ham,
Beaql, tulum tug'sin!
Zorimni eshit, Tangrim,
Onaning ko'z yoshini,
Duosini qabul et,
Ham yovuzga jazo ber...¹

– Jinni bo'lgan shekilli?
Nega aytmading oldin? –
Der hokim yuzboshiga;
Ey, bog'latib qo'yaman,
Ko'p vag'illay bermagin!..

Chetroqda o'tirdim men,
Bedarmon, titrar edim.
Titrayman, qaltirayman,
Ham tabibga qarayman:
Ko'kragida fartugi,

¹ Xalq yo'qlashidan o'zgartmay olingen. (*Muallif izohi.*)

Bir qo'lida oshpichoq,
Bir qo'lida – oq dastmol,
Oq dastmol qon ichida,
Burnida-chi, ko'zoynak!
Uy – shundoq jim ediki...
Hokim og'iz ochmasdi,
Qitirlardi qalami;
Ivan ota harsillab
Chubug'ini chekardi,
Tiq etmay, qovoq soliq
Turishardi dehqonlar...
«Yuraklarning sirini
Tig' urib o'qirkansiz», –
Dedi Ivan tabibga,
Dyomushkaning, u yovuz,
Yurakkinasin yorib,
Nimta-nimta qilganda
Men tag'in sachrab turdim,
Dod-u voy soldim tag'in...
«Jinni bo'lgani aniq!
Bog'lab qo'y!» – o'nboshiga
Shunday o'shqirdi boshliq.
So'radi guvohlardan;
«Qishloqi Matryonada –
Ilgari ham jinnilik
Sezilgan edimi?»
– Yo'q!

Qaynotam, qaynag'amdan,
Qaynona, qayin singlimdan
So'rashdi:
– Sezmagandik!

Chol bobodan so'rashdi:
– Sezmovdim! Raso edi...
Faqat: Boshliq yoniga
Qup-quruq kelgani bor...

Yonida na so'lkavoy,
Na yangiroq bir buyum,
Biron siylov olmayin
Kelgan bu noshud juvon!

Ho'ngrab yig'ladi bobo.
Boshliq qovoq soldi-yu,
Bir og'iz so'z degan yo'q.
Xatomni bildim shunda!
Tangrimning g'azabi-da:
Aqlimni olgan! Axir, –
Qutida yangi mato
Bor edi, tayyor edi!
Kech edi pushaymonlar.
Ko'zim oldida tabib
Dyomushkani nimtalab,
Tilim-tilim qildi-yu,
Bekitdi bo'yra tashlab.
Men xuddi qoq yog'ochday
Qotib qoldim: ko'rdimki,
Tabib qo'llarin yuvib,
Araq ichdi. Mullaga
Dedi: Ayb etmagaysiz!
Mulla dedi: «Nega ayb.
Gunohkor bandamiz-da,
Kaltaksiz-u qamchisiz,
Chaqirmasang ham barcha
Bu suvloqdan suv ichar!»

G'azabdan qaltirashib,
Dehqonlar qattiq turdi,
Naq o'limtik ustiga
Duv yig'ilgan kalxatday,
Tamagir bo'lmay o'ling!
Cherkovsiz cho'qindilar,
Ham butsiz egdilar bosh!
Quyunday bosib kelar –
Soqolin yular boshliq,
Yirtqich hayvonday sachrar,



Oltin uzuklarini
 Sindirguday darg‘azab...
 Keyin ovqat yedi u.
 Ichdi-yedi bemalol,
 Mulla bilan so‘zlashdi,
 Men eshitdimki, mulla –
 Unga asta pichirlab;
 Qildi ancha shikoyat:
 «Bizda yurt – tamom yupun,
 Yoppasiga araqxo‘r,
 Nikohni tekin o‘qib,
 Tavba bersang ham tekin,
 Bir chaqa daromad yo‘q!
 Eng so‘nggi tiyingacha
 Qovoqqa elitadi!
 Mullaga esa, faqat
 Gunoh yuklab kelishar!»
 Keyin eshitdim qo‘shiq,
 Bari tanish ovozlar,
 Qizlarning ovozları:
 Natasha, Glasha, Daryusha...
 Hay, jim! Uyun! Hay, jim!
 Qo‘y!.. Bari ham tindi to‘sat...
 Uxlab qoldim shekilli?
 Birdan yengil tortdim men,
 Birov egilib, go‘yo,
 Pichirlaganday bo‘ldi:
 «Uxla, ey, alamdiyya!
 Uxlugin, ey jafokash!»
 Cho‘qinar edi o‘zi...
 Qo‘ldan tushdi arg‘amchi...
 Keyin nima bo‘lganin
 Sira eslay olmayman...
 Hushga keldim – ko‘z ochdim.
 Darchadan boqqan edim –

Zim-ziyo qora kecha!
 Qaydaman? Ne bo‘lganman!
 Esda yo‘q, o‘ldirsang ham!
 Ko‘chaga chiqdim – jimjit!
 Osmonga ko‘z tashladim –
 Na oy bor va na yulduz.
 Yaxlit va qora bulut –
 Osilib turar edi
 Qishloqning tepasida.
 Uylar qorong‘i edi,
 Faqat boboning uyi –
 Qasr yanglig‘ charog‘on.
 Kirdim – butun voqeа
 Esimga tushaqoldi:
 Shamlar yoqilgan edi,
 Uyning xud o‘rtasida
 Turardi bolut stol,
 Unda – zig‘irdak tobut,
 Yopilgandi dasturxon,
 Boshda Iso surati¹...
 «Hay, duradgor – ishchilar!
 Qandaqa uy qurdingiz –
 Mening o‘g‘ilginamga?
 Derazalar ochmabsiz,
 Oynaklar ham qo‘ymabsiz,
 Pechka ham yo‘q, kursi ham!
 Na par yostiq, par to‘sak...
 Muncha qattiq, zulmatda
 Dyomushka qo‘rqadi-ku!

«Yo‘qol!» – baqirdim to‘sat,
 Boboga ko‘zim tushdi:
 Ko‘zoynak taqqan edi,
 Qo‘lida – ochiq kitob,
 Tobut yonida turar,
 Ham duo o‘qir edi.

¹ Sanam – but, payg‘ambar (Iso) surati.

Yuz yashar cholni so'kdim:
Tamg'a bositgan, surgun!
Badjahl mudhish baqirdim:
«Yo'qol! Sen o'ldirgansan!
La'nati... yo'qol!» – dedim.

Chol joyidan tebranmas,
Cho'qinar, duo o'qir...
Biroz tinchigan edim,
Bobo yondashdi menga:
– Qishda men, Matryonushka,
Sarguzashtim aytgandim,
Lekin, tugal emasdi:
O'rmonlar bizda – qalin,
Ko'llar – xoliy, odamsiz,
Xalq esa, bizda vahshiy,
Kasbimiz ham ayovsiz,
Qushni tuzoq bilan bo'g',
Nayza bilan ayiq so'y,
Xato qilsang – ketasan!
Xo'sh, janob Shalashnikov,
Qo'shini, zo'rliqi-chi?
Xo'sh, azroil¹ nemis-chi?
Keyin qamoq, badarg'a...
Toshga aylangandim men,
Yirtqichdan ham yovuzroq,
Battolroq bo'lgan edim,
Bilib qo'y, nevarajon!
Go'yo – yuz yil qo'zg'almay,
Qish yotardi qalbimda.
O'sha muzni eritgan
Sening Dyomang – botiring!
Bir kez, tebratganimda,
Iljaymasmi Dyomajon...
Iljaydim unga men ham!
Go'yo mo'jiza bo'ldi:

Men uch kun roppa-raso
Olmaxonni ko'zlardim:
Butoqda o'ynar edi,
Mushukday panjasida
Yuzini yuvar edi...
Otmadim: yasha, mayli!
To'qayda, o'tloqlarda –
Kezaman va har gulga
Ko'z solaman suqlanib.
Uyga kelaman, tag'in
Dyomushka bilan o'ynab,
Kulaman, quvonaman...
Xudoga ayon – qanday
Sevardim go'dakni men!
Men – o'zim, bu begunoh –
Bolani nobud qildim,
Men – o'zim, gunoh menda,
Ta'na qil va jazo ber!
Tangri shunday xohlapti,
Tangriga qarshi borma,
Tur! Dyoma uchun yolvor!
Tangri qilmishin bilar:
Shuncha jafolardan so'ng,
Dehqon umri – shirinmi?

Ham bobo uzoq-uzoq
Dehqon achchiq qismatin,
So'zladi g'amga botib...
Moskva savdogarları,
Yo davlat arboblari,
Hatto chorning o'zi ham –
Mundoq jo'yalik, yotiq
Yaxshi so'z aytolmasdi!
«Hozir sening Dyomushkang
Jannatda – yengil, yorug'...»

¹ Azroil – jon olguchi ma'nosida.

Yig'ladi keksa bobo.

– Noshukurlik qilmayman, –
Dedim men, – Tangri oldi, –
Faqat – ne vajdan ular
Beobro'y qilishdilar?
Shunisi – og'ir alam!
Qora qarg'alar kabi,
Oq tanini parchalab,
Tildilar, nechun axir!
Nahot, na Parvardigor,
Na poshsho yon bosmasa?..

«Tangri ko'kda, shoh uzoq...»

– Mayli: o'zim boraman!

– Xah! Ne bo'ldi? Nevaram!
Sabr etgin, ey g'amzada!
Sabr etgin, ey jafokash!
Biz uchun haqiqatni –
Topmoqlik g'oyat qiyin!»

– Nega axir, bobojon?

«Sen axir krepostnoy,
Bitta cho'ri xotinsan!» –
Javob berdi Saveliy.

Uzoq, achchiq o'yladim...
Qaldiradi qaldiriq,
Derazalar titradi,
Men ham seskanib tushdim...
Kichik tobut yoniga
Yetaklab keldi bobo:
«Duo o'qi, yolvorgin,
Toki Dyomani Tangri
Farishtalarga qo'shsin!»
Ham yonib turgan shamni
Qo'limga berdi bobo.

Oqarib tong otguncha
Yolvordim, nola qildim.
Cho'ziq, ravon ovozda,
Dyomushka tepasida –
Oyat o'qib chiqdi chol...

V b o b

ONA BO'RI

Mana, yigirma yilki,
Dyomushkam uxlab yotar
Ajriq ko'rpa tagida,
Hali ham dilim achir!
Unga duo o'qiymen,
Hayitgacha og'zimga
Aslo olma olmayman...¹
Tez o'zimga kelmadim.
Birovga so'z demadim;
Saveliy cholni esa,
Ko'rishga ko'zim yo'qdi.
Ishni ham tashlab qo'ydim,
Qaynatam no'xta bilan
Adab bermoqchi bo'ldi,
Men berdim shunday javob:
«O'ldir!» – Bosh egib turdim:
– «O'ldir! Baribir menga!»
No'xtani osib qo'ydi.
Men Dyomaning go'rida
Yashardim kecha-kunduz.
Ro'mol bilan go'rini
Supurib-sidirardim,
O't o'ssin, derdim, tezroq,
Unga o'qirdim duo,
Ham otamni-onamni
Sog'inib, qayg'urardim:

O'z qizin unutdilar!
Itlarimdan qo'rqarsiz?
Uyimdan jirkanarsiz?
– Oh, yo'q, jigaporam, yo'q!
Itlaring qo'rqinchlimas,
Uy iching jirkanch emas,
O'z dardimizni senga
Aytay desak – yo'l uzoq,
Sening dard-u g'amingni
So'ray desak, bo'z biya –
Ko'taram, holi ayanch!
Borardik allaqachon,
O'ylab qolamiz lekin,
Borsak – yig'lab, siqtarsan,
Ketar bo'lsak – ho'ngrarsan!

Qish keldi: kulfatni men
Erim bilan bo'lishdim,
Saveliy xonasida
G'am chekardik ikkovlon!

– Nima, bobo o'ldimi?

Yo'q! U o'z qaznog'ida –
Olti kun yotdi jilmay,
O'rmonga ketdi keyin;

¹ Xristianlik e'tiqodiga ko'ra go'dagi o'lgan ona hayitgacha olma yesa, xudo o'lgan go'dakka u dunyoda o'ynash uchun olma bermasmish...

Shundoq kuylardi bobo,
Shundoq yig'lar ediki,
Nola chekardi o'rmon!
Kuzda – tavba qilgani
Monastirga yo'l soldi.

Otam, onamni ko'rdik,
Filipp ikkimiz borib.
Shundan so'ng ishga tushdim.
Mening hisoblashimcha,
Hafta ketidan hafta,
Uch yil bir xilda o'tdi;
Har yili bola ko'rdim,
O'ylashga ham yo'qdi vaqt,
Qayg'uga ham yo'qdi vaqt,
Ish unsa-yu, cho'qinib
Olishga fursat yetsa,
Xudoga shukur derdik!
Kattalar, go'daklarning
Sarqitini yer edim,
Og'risam – uxlar edim...
To'rtinchchi yil – badtarroq
Balo keldi boshimga, –
U – kimga ilashsa, bas,
To o'lguncha qutulmas!

Oldingda uchar – shunqorday
sara,
Ketingda uchar – qarg‘aday
qora,
Oldingda uchar – nari
o‘tmaydi,
Ketingda uchar – qolib
ketmaydi...

Ota-onam ham o‘ldi...
Qoldim o‘ksik va yetim,
Nolamdan zada bo‘ldi –
Qora tunlar, bo‘ronlar,

Sizga so'zlash – ne hojat...
Dyoma go'riga bir kun,
Yo'qlagani borgandim,
Ko'rsam: go'r supurilmish,
Yog'och butda – zar hallik
Bibi Maryam surati
Qoqilipti tup-tuzuk,
Surat oldida bo'lса,
Uzala tushgan cholni
Ko'rdim. – Ho, Saveliy bobo,
Qayqdan yel uchirdi?

«Men monastirdan keldim ...
Sho'rlik Dyomushka uchun,
Zahmatkash-u jafokash
Butun rus dehqonlari
Uchun toatga bandman!
Ham sajda qilamanki,
(Bu safar Savelyushka
Suratga egmadi bosh)
Alamlik ona qalbin
Tangrim yumshatsin... Kechir!»

- Kechirganman-ku, bobo!
Bir uh tortdi Saveliy...
«Neverajon! Nevararam!»
- Nima edi, bobojon?
«Avvalgi vaqtdagiday
Ko 'zga tikilib qara!»

Men tikilib qaradim.

Saveliy ko‘zlarimga
Tikilib qoldi uzoq;
Qaddini rostlash uchun
Urinib ko‘rdi ozroq,
Chol rangi o‘chgan edi.
Sho‘rlikni quchoqladim,
Ikkoylon but oldida

O'tirib qoldik xiyla,
Ham to'yguncha yig'ladik.
Boshimga tushgan yangi
Kulfatni aytdim unga...

Ko'p yashagan yo'q bobo.
Kuzda uning bo'ynida,
Qandaydir, yomon yara
Paydo bo'lди; sho'rlikning
O'limi og'ir bo'lди:
Yuz kun tuz totgani yo'q;
Kun sayin ozib, to'zar,
O'z holidan kulardi:
«Qing'irkent pashshasiga
O'xshayman – oriq, ozg'in,
To'g'rimi, Matryonushka?»
Ba'zan ko'ngilchan, yuvosh,
Ba'zan darg'azab, injiq,
Bizni qo'rqitar edi:
«Yer haydama, don sepma,
Hoy, dehqon!.. Mukka tushib,
Charx yigirma, ish tikma,
Hadeb, hoy dehqon ayol!
Yuz unnang, yuz qiyinaling,
Taqdirda ne yozilsa –
O'sha bo'lar, tentaklar!
Erkaklarga uch yo'l bor:
Mayxona, qamoq, surgun.
Ayollarga Rusiyada
Uch sirtmoq bor: oq ipak,
Ikkinchı – qizil ipak,
Uchinchi – qora ipak,
Xohlaganingni tanla,
Xohlaganingda bo'g'il!»
Shundoq kuldiki bobo,
Hujrada o'tirganlar
Taniga titroq tushdi, –
O'zi o'shal tun o'lди.

Vasiyatin bajardik:
Dyoma yoniga ko'mdik...
Yuz yetti yoshda edi.

Egizaklarday bir xil,
Tinch to'rt yil, birin-ketin,
O'tdi chol o'Igandan so'ng...
Har baloga bo'ysundim:
Hammadan burun turib,
Hammadan so'ng yotdim men;
Hamma uchun ishladim,
Hamma uchun kuydim men,
Qaynonam, mast qaynotam,
Ham ersiz qayin egachim,
Etiklarin tortdim men...
Faqat go'daklarimga
Ozor bermasanglar, bas!
Asrardim jon ayamay...
Bir kuni uyimizga
Otin keldi, yigitlar,
Shirinso'z, jahongashta –
Bibiga quloq soldik,
Bizni xudo yo'liga
Soldi avliyo xotin,
Hayit kuni namozga
Olib borardi... Keyin,
Ro'za kuni go'dakka –
Ko'krakdan sut emizmang, –
Dedi u, – emizmang hech! –
Qishloq qiy-chuv, to'polon!
Payshanba-yu jumada
Och qolgan go'dakjonlar
Yig'lashar, dod solishar!
Ba'zisi – yig'lab turgan
Go'dagining holiga
Chidolmay yig'lar o'zi.
Ham xudodan qo'rqardi,
Ham go'dagin qizg'anar!

Men qulq solganim yo'q,
O'zimcha o'ylardimki:
Nima azob bo'lsa ham
Ona ko'tarsin, mayli,
Tangriga, bolam emas,
Men gunohkorman, axir!

Tangrimning g'azabiga –
Duch bo'lism shekillik men.
Dyomadan so'nggi o'g'lim
Sakkiz yoshga to'lgan kun.
Cho'pon yoniga qo'shib,
Ishga soldi qaynotam.
Fedotushkamni kutib,
O'tirardim, bir kun men,
Poda qaytgandi, shu payt,
Chiqdim ko'chaga tomon,
Besanoq odam ko'rdir!
Ozroq qulq soldim-u,
Olomonga tashlandim.
Qarasamki, bo'zargan –
Fedotjon qulog'ini
Burab turar Silantiy.
– Bolaga ozor berma,
Qulog'in qo'yvor, hoy!
«Savamoqchimiz andak:
Adabin bermoqchimiz,
Bo'rilarни ziyofat
Qilmoqchi bo'lipti bu!»
Fedotni qutqardim tez,
Ne qilsa onaman-da,
O'zimda yo'q, urinib,
Oqsoqol Silantiyni
Qulatib yuboribman.

G'alati hol ro'y bermish:
Cho'pon ketib, Fedotjon
Podada qolmish yolg'iz.

«Tepada o'tirardim, –
O'g'ilcham mana shundoq
Hikoya qildi menga, –
Qaydandir paydo bo'ldi,
Kattakon ona bo'ri,
Ham Marya qo'zichog'in
O'ngarib, jo'nab qoldi!
Ketidan quvlay ketdim,
Baqirdim, qiy-chuv soldim,
Qamchini qarsillatdim,
Ko'ppakni gij-gijlatdim...
Yugurishda o'zg'irman,
Qanday yetasan, axir,
Bolalamagan bo'lsa,
Mayli edi-ya, badbaxt:
Emchagi sudralardi.
Qonli izdan, onajon,
Quvdim ketiga tushib!

Sekin yo'rtmoqqa tushdi,
Yo'rtar, aylanib qarar,
Tag'in yo'rtar sur hayvon,
Men badtar tushiraman!
Cho'nqaydi... qamchi urdim:
«Qo'zini ber, la'nati!»
Bermas, cho'nqayar hamon...
Qo'rqqanim yo'q: «O'lsam-da,
Tortib olaman!» Shundoq
Bosdim-u, tortib oldim...
Haytovur tishlagan yo'q!
Arang qimirlar, nimjon,
Tish g'ijjillatar, xolos,
Ham og'ir nafas olar.
Emchaklarin tikonlar
Tilgan edi, tagidan
Daryo qon oqar edi,
Qovurg'alar sanog'liq;
Boshin ko'tarib qarar,

Qarardi ko‘zlarimga...
Ham birdan uvladi-ku!
Uvladi – ingragandek.
Qo‘zini paypasladim,
O‘lgandi allaqachon...
Uvlar, mungli boqardi
Ona bo‘ri... Onajon!
Qo‘zini otdim unga!»

Mana, bola boshiga
Tushgan hodisa shundoq.
Qishloqqa kelipti-yu,
Oqizmay va tomizmay
Aytipti o‘zi, tentak,
Shundan so‘ng kaltaklashmak
Bo‘lishib turgan ekan.
Xayriyat, ulgurdim men...
Silantiy xit baqirdi:
«Nega sen suqulasan?
Yo seni savaylikmi?»
Marya o‘zinikin der:
«Qo‘yaber, esi pastning
Adabini berishsin!»
Ham Fedotni tortqilar.
Fedotim qo‘rqanidan
Yaproqday titrar edi.

Burg‘u yangrab ketdi,
Ovdan kelar pomeshchik,
Men unga panoh izlab,
Qarshisiga yugurdim:
– Kaltaklatma! Ora tush!
«Nima gap?» Oqsoqolni
Chaqirdi-yu o‘sha payt,
Masalani etdi hal:
«Cho‘pon norasida-ku,
Hali go‘dagu tentak,
Shu vajdan kechirils...»

Bu beadab ayolni
Ibrat uchun jazolang!»

«To‘ram!» – deb quvonchimdan,
Yerimda o‘ynoqladim.
Fedotni etdim xalos!
«Uyga jo‘nagin, Fedot!»

– Buyruqni bajaramiz! –
Dedi xalqqa oqsoqol, –
Ey, bevaqt o‘ynoqlama!
Qo‘shni ayol dediki:
– Oqsoqol oyog‘iga
Yiqil, kechirim so‘ra...

«Uyga jo‘nagin, Fedot!»

Bolani siladim men:
«Ketingga qaramagin,
Xafa bo‘laman... Jo‘na!»

Aytayotgan qo‘sidiqdan
Biror so‘z tushib qolsa,
Qo‘sidiq rasvo bo‘ladi,
Rost aytsam, azamatlar,
Toza do‘pposlashipti,
Behush yotib qolibman.

.....
Fedot yotgan hujraga
Buqib kirdim mushukday:
Bola uxlari, alahlar,
To‘lg‘anardi betoqat:
Bir qo‘lchasi osilmish,
O‘zga qo‘li – ko‘zida,
Uni musht qilib yotar:
Yig‘ladingmi, boyoqish?
Uxla! G‘am yema! Keldim!
Dyomaning hasratida,



Yurganimda shu bola,
Bo'yimda bo'lgan edi,
Shuning-chun birozgina
Nimjon tug'ilgan edi,
Lekin, xo'b ziyrak chiqdi:
Alferov fabrikasida,
Otasi bilan borib,
Ulkan mo'ri qurdilar...
Tong otguncha bolaning
Boshida o'lтирдим men,
Sevikli cho'ponimni
Quyosh chiqmay uyg'otdim,
Chorig'ini kiygizdim,
Chipta kavush, qalpog'in,
Dudugin ham qamchisin
Berdim-u yo'lga soldim.
Turdi butun uy ichi,
Lekin men ko'rinnmadim,
Bormadim o'roqqa ham.

Shoshqin soyga bordim men,
Butazor dalasida
Xoli bir joy tanladim.
O'tirdim bo'z toshloqda,
Boshimga qo'lni tirab,
Zor yig'ladim men uzoq,
Yetimgina jonginam!

Otamni chorlardim men,
Butun dovshim boricha:
Kelgin, panohim-otam!
Sevgan qizing holin ko'r...
Chorlar edim behuda...

Ulug' himoyachim yo'q,
Urug'im, aymog'im yo'q,
To'ng bo'y, beboshvoq mehmon,
Daydi, bevatan mehmon –
Ya'ni o'lim ertaroq
Oldi aziz otamni!

Onamni chaqirdim men,
Butun dovshim boricha:
Bo'ronlar, olis tog'lar –
O'kirib berdi javob,
Lekin onam kelmadi!
Uzun kunlar – g'amdidam,
Uzun tunlar – sajjadan
Bosh ko'tarmagan onam!
Diydoringni hech qachon
Ko'rolmasman, azizim!
Notanish, borsa-kelmas,
Olis yo'lga ketding sen,
Uchib, yetolmas shamol,
Yelsa, yetolmas jonivor...

Ulug' himoyachim yo'q!
Bir darak olsayingiz,
Qizingizni kimlarga
Tashlab ketgan ekansiz,
Qanday badbaxtman sizsiz.
Tunda – yig'layman yolg'iz,
Kunduz – ko'kat singari
Yastanaman yo'llarda...
Dardimning zo'rligidan
Boshim bukuk, dilim qon...

VI b o b

OG'IR YIL

O'sha yili osmonda,
Yurdi ajoyib yulduz;
Ba'zilar bunday dedi:
Ko'kda Tangri sayr etar,
Farishtalari bo'lsa,
Tangri yurajak yo'lni
Olov supurgi bilan¹
Supurib, Tangri uchun
Ko'kda keng yo'l ochmoqda.
Boshqalar bunday dedi:
– Bu badbaxt kofirlarning
Isoga munkirlarning
Shumligidan nishona!
Aytgandak – qahatchilik,
Don tanqisligi keldi!
Aka ukaga qitdak
Sindirib bermadi non!
Shunday og'ir yil bo'ldi...
Fedot ko'rgan anavi
Och, oriq ona bo'ri –
Tushdi mening yodimga,
Go'daklarim-la men ham
Och bo'rige o'xshardim...
O'lganni tepgan kabi,

Irimchi qaynonam –
Xolis xizmat qildi-ku,
Qo'shnilarga chaqipti:
Yemish baloga sabab
Men emishman! Xo'sh, ne gap?
Mavlud kuni men yangi
Ko'yak kiygan emishman...²
Erim daldasida men
Qutilib qoldim oson;
Naq o'shal kun oq ko'yak,
Kiygan o'zga bir ayol –
Kaltak ostida o'ldi.
Och bilan o'ynashma hech!..

Bu balo ham oz ekan:
Ocharchilikdan andak
Najot topay deganda,
Yoppa chaqiriq³ keldi:
Men xotirjamroq edim:
Filipp xonadonidan –
Ukasi askarlikka
Oldinroq ketgan edi.
Yolg'iz o'tirib uyda,
Ishlamoqda edim men;

¹ Quyruqli yulduz chiqqan edi.

² *Mavlud* – Iso tug'ilgan kuni yangi ko'yak kiyilsa, qahatchilik bo'larmish. (Diniy afsona).

³ Aslida *Rekrutchina* – askarlikka odam olish.

Ikki qayininim-u
Erim tongda ketishgan,
Qaynotam yig‘inga
Jo‘nagandi, ayollar
Qo‘shnilar uyidaydi...
Birdan qattiq og‘ridim,
Liodorushkaga men
Ikkiqat edim u payt,
Oxirgi kunlar edi...
Go‘daklarni tinchitib,
Katta uyg‘a kirdim-u
Ustimga po‘stin tashlab,
Pechka ustida yotdim.
Ayollar qaytdi shomda,
Faqt qaynotam yo‘q,
Ovqatga kutishmoqda. —
Keldi: «Uh! Charchab ketdim,
Ish o‘ngmadi, ish chatoq,
Barbod bo‘ldik-ku, xotin!
Kim ko‘rgan, kim eshitgan:
Tunov kun to‘ng‘ich ketdi,
Kichigin ham olmoqchi!
Hali yoshligin aytdim!
Yurt oldida tiz cho‘kdym,
Bizdag‘i yurt-u elning
Jo‘n ahvoli ma‘lum-ku!
Burmistrdan¹ o‘tindim.
Qasam ichib dediki,
Attang, lekin chora yo‘q!
Mirzadan ham so‘radim,
Lekin muttahamdan hech
Adolat umid qilma,
Devordagi soyaga
Yuz bolta ur – tebranmas.
Undanadolat kutmoq –
Naq shuning o‘zginasi!

Bari pora bilan to‘q...
Hokimga arz qilsaydik,
Ko‘rsatib qo‘yar edi!
Bor-u yo‘g‘i – o‘tinch shu,
Bizning deparamizda –
Navbatdag‘i ro‘yxatni
Tekshirishga bersin amr!
Lekin, yetishmoq mahol!»

Qaynonam, qayinsinglim
Boshlashdi yig‘i... Men-chi...
Boya sovqotmoqdaydim,
Hozir yonaman o‘tda!
Yonaman... Xudo bilar,
Nimalar o‘ylashdaman...
O‘y emas... Bosinqirash...
Yetimchalarim qator,
Ko‘z o‘ngimda turar och...
Uy ichi bemuruvvat,
Bemehr o‘qrayishar;
Ular – uyda sershovqin,
Ko‘chada manjalaqi,
Dasturxonda – xo‘b mechkay...
Chimchilashga tushdilar,
Urdilar boshlariga...
Jim turaber, tul² ona!

.....
Qishloqdagi yerga ham,
Cherkov binosiga ham,
Kiyimga ham, molga ham –
Endi men sherik emas.
Endi – bor davlatim shu:
Uch ko‘l to‘lib-toshgulik
Qaynoq ko‘z yoshi to‘kdym,

¹ Burmistr – oqsoqol, gumashta, ishboshi (Eski zamonda).

² Aslida Soldatka-mat – Soldatga ketganning xotini.

Uch egat balo ekdim!

.....
Endi – gunohkor kabi
Turaman qo'shnilarim
Qarshisida: kechiring!
Men gerdagan ekanman,
Men qaqqaygan ekanman,
Yetim, tul qolarman, deb,
O'ylamabman – men nodon...
Kechiring, ey yaxshilar,
Farosat – aql bering,
Men qanday umr ko'ray?
Go'daklarimni qandoq
Boqay ham katta qilay?

.....
Go'daklarni noiloj
Gadoylikka jo'natdim:
Tilaning bo'yin egib,
O'g'rilik qila ko'mrang!
Go'daklar yig'lar: «Sovuq!
Egnimiz yupun, yirtiq,
Eshikma-eshik daydib,
Sillamiz quriydi-ku,
Derazalar tagida
Sovqotib, yer teparmiz...
Boydan so'rash qo'rqinchli,
«Tangri o'zi bersin!» deb,
Javob berar qashshoqlar...
Qo'l quruq uyga qaytsak,
O'zing koyib berarsan».

.....
Kechki ovqatni qilib,
Qaynonam, qayinsingillar
Ham qaynimni chaqirdim,
O'zim cho'ridek pastda
Tippa-tik turibman och,
Qaynonam o'shqiradi:
«Ha, mug'ombir! O'ringa

Kirmoqchisan-da tezroq?»

Qaynim esa bunday der:
«Sen ko'p ish qilganing yo'q!
Xarilar soyasida
Quyosh botishin kutib,
Oqshom tushkuncha turding!»

.....
Tuzukroq kiyindim-u
Cherkovga jo'nab qoldim,
Orqamdan kulishdilar!
Sen yaxshi kiyinmagin,
Tozaroq yuvinmagin;
Qo'shni ayollar ko'zi
O'tkir va tili achchiq!
Ko'chada yurgin asta,
Boshingni solib pastga,
Shod bo'lsang-da – kulmagin,
Qayg'udan hech yig'lama!

.....
Qish ham juda cho'zildi,
Ko'k dalalar, o'tloqlar
Qoldilar qor tagida. –
Hammayoq oq kafanda,
Qitdak erigan qor yo'q,
Eri askar onaga
Dunyoda sirdosh – yor yo'q!
Kim bilan o'ylashasan?
Kim bilan so'ylashasan?
Qashshoqlik chorasi ne?
Qayg'ular, alamlarni
Qayga sochasan axir?
Gar o'rmonga sochilsa,
O'rmon qurib qolardi,
Gar o'tloqqa sochilsa,
Kuyib ado bo'lardi!
Sho'x daryoga, deysizmi?
Daryo to'xtardi tamom!
Sho'rlik soldat xotini,

To go'rga kirguningcha
Qayg'ungni ko'tar o'zing!

Erim, jonkuyarim yo'q!
Jim! Do'mbira! Soldatlar
Kelmoqda... To'xtashdi ham ...
Tizilishdi safma-saf.
«Tezroq!» – Filippni darrov
O'rtaga chiqardilar:
«Ey! Tomoshani boshlang!» –
Qichqirar Shalashnikov.
Sho'rlik Filipp yiqilib,
Yalinar: «Rahm eting!» der.
«Totib ko'r! – Ko'nikasan!
Ha-ha! Ha-ha! Ha-ha! Ha!
Bahodirona quvvat,
Qamchi emas bu menda!»

Ham men pechka ustidan
Sakrab tushdim, kiyindim.
Quloq soldim ancha vaqt –
Jimjit, uy ichi uxlar!
Eshikni qiya ochib,
Chiqdim ayoz kechada...
Qishloq yigit-qizlari
To'planib, gashtak qurgan
Domina kulbasidan –
Yangradi jo'r va ravon,
Men yaxshi ko'rgan yalla...

«Tog' boshida turar archa,
Etagida yolg'iz uycha,
Uycha ichida Mashenka.
Keldi izlab otajoni
Uyg'otar ham qistar nuql:

Sen, Mashenka, uyg'a yurgin!
Yefimovna, uyg'a yurgin!

Bormayman ham, qistamang
ham:
Tun qorong'i, oydin emas,
Daryo toshqin, qayig'i yo'q...
O'rmon xoli, qorovul yo'q!

Tog' boshida turar archa,
Etagida yolg'iz uycha,
Uycha ichida Mashenka.
Keldi izlab onajoni,
Uyg'otar ham qistar nuql:
Mashaginam, uyg'a yurgin!
Yefimovna, uyg'a yurgin!
Bormayman ham, qistamang
ham:

Tun qorong'i, oydin emas,
Daryo toshqin, qayig'i yo'q,
O'rmon xoli, qorovul yo'q.

Tog' boshida turar archa,
Etagida yolg'iz uycha,
Uycha ichida Mashenka.
Keldi izlab Petrjoni,
Petrjon, janob Petrovich,
Uyg'otar ham qistar nuql:
Mashajonim, uyg'a yurgin!
Yefimovna, uyg'a yurgin!
Boramjan janob, tayyorman:
Tun nechog'lik yorug' oydindan
Daryo ham tinch, qayiq ham bor,
O'rmon xoli, qorovul bor!»

VII b o b

BEKA

Qishloqdan shoshib-pishib,
Chopib o'tdim men, – go'yo
Yigit, qizlar kuylashib,
Ketimdan quvmoqdaydi.
Klin¹ dan o'tgandan so'ng
Yon-berimga qaradim:
Tep-tekis qorli sahro,
Beg'ubor ko'k, yorug' oy,
Men, ham mening ko'lankam.
Qo'rqinch ham, vahima ham
Ketdi birdan – naq ko'ksim
Quvonchdan to'lqinlanar.
Qulluq qish shamoliga!
U go'yo men betobni –
Muzdek suvgaga qondirdi:
Jafokash boshginamga
Salqini berdi orom,
Qora xayollarimni
Taratdi, olib ketdi,
Aqlimni yig'ib oldim,
Qor ustida tiz cho'kdum:
O'zing ayt, bibi Maryam,
Ne sababdan Tangrining
G'azabiga uchradim?
Maryam ona! Sinmagan
Suyak qolgan yo'q menda,

Cho'zilmagan payim yo'q,
Buzilmagan zig'irdak
Qon ham qolgan yo'q menda,
Chidayapman, zorim yo'q!
Tangri bergen bor kuchim
Mehnatga, zahmatga band,
Mehrim go'daklarga band!
Bari o'zingga ayon,
Har narsaga qodirsan,
Qo'llovchim, yorlaqovchim!
Cho'ringa bergin najot!..

O'shal choqdan beri men –
Seryulduz ayoz tunda,
Tangri ko'ki ostida
Topinishni sevaman.
Balo kelganda – eslangu,
Xotinlarga uqdiring:
Hech qayda va hech qachon
Bundan ham ixlosmandroq
Topinib bo'lmaydi hech.
Qancha ko'p sajda qilsam,
Shuncha yengil tortardim,
O'tday yongan boshimni
Oq dasturxondek qorga

¹ Aslida *Klin* – suyri qishloq.

Urganim sari, go'yo
Qo'shilardi kuchga kuch ...
Shundan so'ng yo'lga tushdim,
Menga tanish yo'l edi!
Ilgari ko'p yurgandim.
Kech kirmay yo'lga tushsang,
Ertasi tong paytida,
Quyosh bilan barobar
Bozorga ulgurasan...
Kechasi bilan yurdim,
Uchratmadim tirik jon;
Shaharga oz qolganda,
Boshlandi qator karvon.
Biri biridan baland
Yuklik aravalarda –
Nuqlul dehqon pichani,
Otlarga kuydi jonom:
O'z yemi-xashagini,
O'z rizq-u nasibasin
Hovlidan eltishmoqda,
O'zlari esa keyin
Och qolar, bechoralar!
O'yladim – bari shundoq:
Cho'vir ot chaynar somon,
Salt ot-chi, yeydi suli!
Qashshoqlik va chipta qop
Sudralmoqda yonma-yon;
Qoplardagi un, axir
Ortib qolgani emas,
Qarz qistasa ne qilsin,
O'lponga ne to'lasin!
Shahar chekkasidayoq,
Guzardan, ravotlardan
Savdogarlar – alloblar
Chopdi dehqonlar tomon,
Bor, baraka top, ha bo'l;

Dehqonlarni aldashar,
Unashmasa – so'kishar.
Shaharga men kirganda,
Ertangi ibodatga
Cherkov chaldi qo'ng'iroq.
Cherkovning yonidagi
Maydonni izlardim men;
Hokimning xos o'rdasi –
Shu maydonda – bilardim.
Qorong'i, xoli maydon,
O'rdanining xud oldida
Yurar tunqotar askar.
– Aytchi, hokim ertaroq
Uyg'onarmi, yasovul!
«Bilmayman. Ket bu yerdan!»
Bizga birovlar bilan
So'zlashmoq mumkin emas!»
(Unga bir tanga berdim):
«Munaqangi ish uchun
To'rada bor xos darbon».«
– Qayda u? Oti nima?
«Makar Fedoseyevich...»
Narvon tomonga borgin!»
Bordim, eshiklar bekik,
O'tirib, xayol surdim,
Tong yorisha boshladи.
Narvon ko'tarib keldi,
Fonuschi bu maydonga:
Ikki xira chiroqni
O'chirdi puflab darhol.

«Hey! Nega sen bu yerda
Yalpayib o'tiribsан?»

Sakrab turdim, qo'rqidim men:
Eshikda turar edi,

Chopon kiygan kal odam.
Makar Fedoseichga
Bir so'lkovoy uzatdim,
Bosh egib qildim salom:

– Hokimga arzim bordi,
Shunchayam zarur arzki,
Etib o'lsam roziman.

«Sizni kirgizish – mamnu,
Ha... Mayli! Aylanib kel...
Ikki soatdan keyin...»
Ketdim. Sudraldim sekin...
Turar edi maydonda
Xud Saveliy boboday,
Misdan quyma – dev dehqon.

– Bu haykal kim?
– «Susanin!»
Oldida turdim uzoq,
Keyin bozorga bordim.
U yerda qattiq qo'rqedim,
Nega deng? Ishonmaysiz,
Hikoya qilsam hozir:
Oshpaz bola qo'lidan –
Yulqinib qochdi, noxos,
Bir qora erkak o'rdak,
Bola quvlar, tutmoqchi.
O'rdak qiyqiriq soldi!
Shundoq ham qiyqirdiki,
Jonimga larza tushdi,
Qulab ketayozdim men,
O'lim oldida faqat
Qiyqiradilar shundoq!
Axir tutib oldilar!
Bo'ynini cho'zib o'rdak,

Sho'rlik, oshpaz bolani
Qo'rqiitmoqchi bo'lgandek,
O'shqirar, do'q urardi,
Nari qochdim, o'yladim:
Bo'z o'rdak tinib qolar,
Qiyma chopqi tagida.

Hozir hokim saroyi,
Peshayvon-u manora,
Ajib gilam to'shalgan
Zinapoyasi – bari
Ko'rinar menga ayon.
Derazalarga boqdim:
Darpardalar toshlog'lik.
«Sening xos xonang qaysi?
Shirin uyqudasanmi?
Qanday tush ko'rayapsan,
Ey, mening ko'z tutganim!»

Gilam ustidan emas,
Avaylab, chetdan yurib,
Darbonxonaga o'tdim.

«Erta kelibsan, quda!»

Men tag'in qo'rqb ketdim,
Makar Fedoseichni
Tanimay qoldim avval,
Soch-soqolin qiripti,
Xos kiyimin kiyipti¹.
Qo'lida darbon cho'pi².
Boshining qashqasi ham
Asti yo'qday bo'lipti.
Kular: «Nedan cho'chiysan?»
– Charchaganman, jigarim!

¹ Aslida *Livrey* – faqat darbonlar kiyadigan, darbonlik belgisi taqilgan kiyim.

² Aslida *Bulava* – darbon asosi.

«Qo‘rqma! Tangri qo‘llagay!
Yana biror so‘m cho‘z-chi,
Do‘ndiraman – ko‘rasan!»

Yana so‘lkavoy cho‘zdim.
«Mening hujramga yurgin,
Choy ichib, kutib turgin!»
Hujra – zina tagida:
Krovat va temir pech,
Samovar, shamdoni bor.
Burchakda lip-lip yonar,
Devorda talay surat.
«Mana u! – dedi Makar, –
Zoti oliylari shu!»
Barmog‘i bilan chertib,
Yulduz taqqan, azamat
Harbiyni ko‘rsatdi u.

– Rahmdilmi? – dedim men.

«Kayfiga bog‘liq! Bugun –
Mana men ham yaxshiman,
Ba‘zi vaqt bo‘ladiki,
Ko‘ppakday qopishim bor».

– Zerikarsan, amaki?
– Yo‘q, bunda boshqa gap bor,
Zerikishmas bunda – jang!
Ham o‘zi¹, ham odamlar
Ketishadi kechqurun,
Fedoseich uyiga
Yov² kirar – jang qilamiz!
Rosa o‘n yil jangdaman.

Oshiqroq may³ ichasan,
Xo‘p tamaki chekasan,
Manov pech ham qiziydi,
Qorayadi sham yonib,
Keyin chidab ko‘r, qani...

Bobom bahodirligi
Yodimga tushdi shu payt:
– Sen, amaki, – dedim men, –
Bahodir bo‘lsang kerak.

«Botir emasman, jonim,
Uyquni yengolmagan –
Maqtanmasin, zo‘rman deb!»

Kimdir eshikni qoqdi,
Makar chiqdi... Men uzoq,
Uzoq kutib, zerikdim,
Eshikni ochdim qiya,
Zinapoya yonida
Turar edi kareta⁴.
– O‘zimi⁵ ketayotgan?
«Yo‘q, beka!» – dedi Makar,
Ham chopdi zina tomon.
Zinadan tushmoqdaydi,
Suvsar po‘stinklik xonim,
Yonida past amaldor.
Ne qilganim bilmayman.
(Chog‘imda, aql berdi –
Bibi Maryamning o‘zi!)...
Men beka oyog‘iga
O‘zimni tashladim-ku:
«Qo‘llagin! Bolalarim

¹ O‘zi – hokim demoqchi.

² Yov – bu yerda, birinchidan, uyqu, ikkinchidan, alvasti, ajina ma’nosida.

³ May – ichkilik, araq.

⁴ Kareta – to‘rt g‘ildirakli, bezakdor soyabon arava.

⁵ O‘zimi – ya‘ni hokimmi.

Otasin, boquchisin,
Nohaq va aldov bilan
Askarlikka oldilar!»

– Qayerliksan, azizim?

Javoblarim jo‘yalik
Bo‘ldimi – eslolmayman...
Bo‘g‘di o‘lim azobi –
Boshlangan edi
To‘lg‘oq...

Yasog‘liq, yorug‘ uyda
Ko‘z ochdim, azamatlar,
Men yotgan krovatda
Parda tortig‘liq edi,
Qarshimda bir yasangan,
Yana tillaqosh kiygan
Enaga¹ o‘tirardi,
Quchog‘ida chaqaloq:
– Do‘ndiq oyi, bu kimning
Bolasi? – deb so‘radim.
«Seniki». – O‘pdim darrov
Tug‘ilgan bolani men...
Bekaning oyog‘iga
Tashlanib, yig‘laganda,
Arzimni so‘zlaganda,
Charchoqlik ta‘sir qilib,
Sillamning qurigani –
Qaqshatib qo‘ygan ekan,
Ko‘zim yorib qolipti.
Qulluq bo‘lsin bekaga –
Aleksandrovnaga,
Xuddi tuqqan onaday.

Minnatdorman yuz qatla!
Bolani yuvgan o‘zi²,
Liodorjon, deb tag‘in,
Nom tanlab qo‘ygan o‘zi...

– Xo‘sh, ering nima bo‘ldi?

«Klinga chopar ketdi,
Surishtirib, aniqlab,
Haqiqatni bildilar –
Filippni qutqardilar.
Yelenaxonim o‘zi,
Erimni, azizimni,
Qo‘lginasidan ushlab,
Olib kirdi yonimga.
Oq ko‘ngil ham aqllik,
Chiroylik, sog‘lom, lekin,
Farzand ko‘rmagan ekan!
Uyida mehmon bo‘lib,
Turganimda, hamavaqt
Liodorjoni boqar,
O‘z arzandasasi kabi
Sevardi Yelenaxon.

Uyga qaytganimizda
Boshlangan edi ko‘klam,
Barg yozgandi qayin ham...

Olam qanday keng,
Yorug‘ va ko‘rkam,
Yurak yengil, sho‘x,
Yaxshi juda ham.

Biz yuramiz yo‘l,
To‘xtab, mehr qo‘yib,

¹ Bekani aytmoqchi.

² Aslida *krestila* (krestit) – cho‘miltirib, cho‘qintirish. (Diniy marosim.)

O'rmon yoqlarga
Ham o'tloqlarga
Qaraymiz to'yib;
Qaraymiz to'yib,
Salamiz qulqoq,
Ko'klam suvlari
Shaldiryoq, ildam,
To'rg'ay ham sayroq,
Yangraydi biram!
To'xtab qolamiz,
Nazar solamiz...
Ko'zlar uchrashar –
Shod jilmayamiz
Bir-birimizga,
Liodorjon ham
Jilmayar bizga.

Gadoy chol ko'rsak
Beramiz chaqa,
Xayr-u sadaqa:
«Biz uchun emas, –
Deymiz u cholga, –
U Yelenajon,
U tengsiz jonon,
Aleksandrovna
Uchun bag'ishla
Duongni, hey chol!

Cherkovni ko'rsak,
To'xtaymiz uzoq,
Ham cho'qinamiz:
«Xudoyo, baxt ber,
Suyunar vaqt ber,
Yuvosh, mehribon
Aleksandrovnaga!»

Ko'karar to'qay,
Ko'karar o'tloq,
Har bir hovuzcha –
Ko'zgu – yarqiroq!
Olam qanday keng,
Yorqin va ko'rakam.
Yurak yengil, sho'x,
Yaxshi juda ham!
Suvlarda oqqush
Bo'lib yuzaman,
Cho'lida bedana
Bo'lib kezaman.
Bo'z kaptar bo'lib,
Uchib ham qo'nib,
Keldim men uyga...
Bosh egdi menga –
Ham qaynatam,
Ham qaynanam,
Ham kuyovlari,
Qaynilar bari
Berdilar salom,
Ana, ehtirom!
O'tiring mundoq,
Menga bosh egmang,
Men nima deyman?
Siz soling qulqoq:
«Menden kuchliroq,
Mehribonroq kim, –
Shunga bosh egmoq,
Maqtamoq lozim!
Axir o'sha kim?
Beka, bekajon,
Yuvosh, mehribon
Aleksandrovna! –
Gubernatorning
Suygan xotini!»

VIII b o b

AYOL KINOYASI

Timofeyevna jim qoldi.
Ma'lumki, yettovlon ham
Paytni qo'ldan bermayin,
Bekaning sog'ligiga
Bittadan oq ko'tardi.
Matryonaning g'aramga
Yonboshlaganin ko'rib,
Uni o'rab oldilar:
– Xo'sh, keyin? – «Bilasiz-ku:
O'sha zamondan buyon
Laqabim beka bo'ldi,
Emish – men baxtli ayol,
Bo'hton, g'iybat, badnomlik...
Keyin? Ro'zg'or tebratib,
Bola o'stirmoqdaman...
Quvonch uchunni? Siz ham
Bilarsiz, totkandirsiz.
Besh o'g'il! Ustimizda,
Ya'ni dehqonlar uchun
Amri farmon eskicha,
Tartibga tushgan emas.
Bir o'g'limni soldatga
Olib ulgurdilar ham!»

Quyuq kipriklarini
Pirpiratib qo'ydi-yu,
Shoshib-pishib g'aramga
Bosh qo'ydi Timofeyevna.
Yettovlon tortinishib,

Ko'p turdi, pichirlashdi:
– Tag'in nima aytasan,
Bizlarga? Xo'sh Matryonka!
«Aytadiganim shuki,
Ayollar o'rtasidan –
Baxtiyor topamiz, deb,
Ish boshlabsiz behuda!...»

– Tugal aytdingmi, axir?

«Nimasin aytay tag'in?
Uyimga ikki qatla
O't ketkanin aytaymi,
Xudo bergen dard ekan,
Kuydirgi degan yara,
Uch qatla bizga qo'noq,
Bo'lganini aytaymi?
Ot ko'tarmas zil yuklar,
Tushdi bizning yelkaga;
Axta otday, molaga
Qo'shildim, mola tortdim!..

Oyoqda toptalmadim,
Chilvirda bog'lanmadim,
Ignalab sanchilmadim...
Sizga tag'in ne darkor?
Ko'nglimda gap qoldirmay,
Ochib tashlayman devdim,
Ocholmadim shekilli, –

Kechiring, azamatlar!
Tog‘lar o‘rnidan ko‘chib,
Boshimga qulagan yo‘q;
Tangri g‘azab ustida,
Yashin kabi o‘q otib,
Ko‘kragimni tilgan yo‘q,
Ko‘zga ko‘rinmas, unsiz
Bir ofat, jon qiynog‘i
Bag‘rimni ezib o‘tdi.
Qanday ko‘rsatish mumkin?
Men xo‘rlangan onadan.
To‘ng‘ich o‘g‘limning dardi,
Yanchilgan ilon kabi,
Qonim quyqalab o‘tdi.
Qasosi olinmagan,
O‘limdan zo‘r alamlar,
Qamchilab o‘tdi meni.
Shukurki, nomusimni
Saqlab qolaoldim men,
Yo‘qsa dog‘ bo‘lar edi,
Rasvo uyatdan pokman!
Shukur! O‘ldi Sitnikov!
Siz – baxtdan gapirasiz,
Tiqilinch qilasiz-a!
Ranjitmang, azamatlar!
Amaldorga boringlar,
Boy on, to‘ra oldiga
Hamda chorga boringlar,
Biz ayollarga tegmang,
Xudo haqi! O‘lguncha
Topolmaysiz baxtiyor!
Bir kech tunadi bizda
Xudojo‘y bitta kampir:

Sho‘rlikning umri o‘tgan
Ro‘za-yu ibodatda,
Qiynoqda, riyozatda,
Iso qabrin ziyorat
Qilgan-u hamda Afon
Cho‘qqilariga chiqqan,
Iordan daryosiga
Sho‘ng‘igan ezgu xotin¹,
O‘sha tabarruk kampir
Menga aytgandi shundoq:
«Ayol baxti kalitin,
Erkimizning kalitin
Yitirgan va yo‘qotgan,
Boshda Tangrining o‘zi.
Xilvatnishin otalar²,
Begunoh xotinlar ham,
Mullalar, qorilar ham
Izlashar – topisholmas!
Bedarak! Mo‘ljal shuki,
Yutib yuborgan baliq...
Cherkovning zanjirida³
Xo‘b riyozat chekkanlar,
Ochlar-u yalang‘ochlar –
Tangrining lashkarlari
Dashtlardan, shaharlardan
O‘tdilar, axtardilar,
Folbinlardan so‘rashdi,
Yulduzlarni sanashdi,
Ko‘p unnashdi – kalit yo‘q!
Keng jahonni tintdilar,
Tog‘lardan, yer tagidan,
Ham jarlardan izlashdi...
Axir topdi yoronlar!

¹ Afon cho‘qqisi va Iordan daryosi – diniy afsonaga ko‘ra Iso hayoti haqidagi afsonaga bog‘liq ezgu joylar nomi.

² Xilvatnishin – tarkidunyo qilib, toatga mashg‘ul bo‘lgan chollar.

³ Cherkovlarda o‘zini qiynash, riyozat chekish, Tangriga ma‘qul bo‘lish uchun maxsus kishanlar.

Bebaho kalit ekan,
Ammo, baribir – umas!
Tangri sevgan bandalar
Kelishdi eng oqibat, –
Buyuk tantana bo'ldi, –
Erksizlar – qullar tomon:
Lang ochildi zindonlar,
Bir uh tortdi keng olam,
Shunday qattiq va quvnoq!
Ayol baxtin ochishga
Ochqich topilmas hali!
O'sha ulug' hamkorlar,

Urinishar hozir ham –
Dengizga tushadilar,
Osmonga chiqadilar –
Ochqich topilmas hali!
Topilishi dargumon...
U qadrli kalitni
Qanday baliq yutgani,
Ham o'sha baliq qanday
Dengizlarda yuzgani –
Tangrining esida yo'q!...»

1873





DUVARAK

(Ikkinci bo limdan)



O'raza kunlari-yu¹,
Juda issiq vaqt edi,
Qizg'in pichan o'rog'i...

Besavod tumanida,
Eski-qoloq yurtida,
Katta-Lapashang degan
Qashshoq qishloqdan o'tib,
Volga bo'yiga keldi
Yetti sargardon sayyoh...
Volga ustida uchar
Chaykalar; sayozlikda
O'ynashar loyxo'raklar².
Kechagina soqoli
Olingan so'fi kabi,
Chakkalari tap-taqir,
O'tloqda tupap edi –
«Knyazya – Volkonskie»,
Ham turar yonlarida –
Otasidan burunroq
Tug'ilgan bolalari³.

– Chalg'ilar yayrab o'tgan
O'tloq ekan bu yerlar!
Bu yerda el bahodir! –
Der Paxom Onisimich.

Mitrodor bilan Ivan
Kular: g'aram ustida
Ko'rindi novcha dehqon,
Qo'lida yog'och chelak,
U ichar, xotin bo'lsa,
Qo'lida ayrisi bor –
Boshin ko'tarib baland,
Eriga qarab turar,
G'aramga yondashdilar –
Dehqon ichardi hamon!
Toza suvsagan ekan,
Tag'in ancha yo'l o'tib,
Qayrilib boqdi yettov:
Boyagiday tik turib,
Ichmoqda edi dehqon,
Yog'och chelakning tagi
To'nkarilib ko'rinar...

Qirg'oq tagida bo'lsa,
Chodirlar qurilgandi:
Kampirlar-u go'daklar,
Bo'sh aravalik otlar,
Ko'rinar edi bunda.
O'rilgan o'tloqlarda –
Ungan maysadan nari,
Uymalashar qalin el!

¹ Petr kuni oldidan tutiladigan ro'za.

² Loyxo'rak – suv qushi.

³ Volkonskiy knyazlarining yo'g'on, barvastaligiga ishora. Asl gap g'aramlar to'g'risida.

U yerda – ayollarning
Oq engil-boshlari-yu,
Erkaklar egnidagi
Ola-bula ko‘ylaklar;
G‘ovur-g‘uvur sadolar,
Ham qayqi o‘roqlarning
Jarangi... «Hormanglar-o‘!»
– Bor bo‘ling, azamatlar!

To‘xtashdi darbadarlar...
Keng quloch bilan chalg‘i
To‘g‘ri tushar ketma-ket,
Birdan tushgan chalg‘ilar
Yarqirar, jarang berar,
Qalin o‘t bir zum titrar,
Ham yostanar shuvillab!

Volganing past qirg‘og‘i
Bo‘liq o‘tlarga makon,
O‘roq vaqt – quvnoq vaqt!
Chidalmadi sayyoohlар:
«Ko‘p bo‘ldi ishlamadik,
Keling, o‘raylik biz ham!»
Yetti ayol o‘rog‘in
Tutqazdi yettovlonga,
Ular unutayozgan
Mehnat qilish odati
Uyg‘ondi va jo‘sh urdi.
Ochiqqan chakak kabi,
Epchil va chaqqon ishlar
Yetti sayyoh qo‘llari,
Qoloqlar yurtiga yot,
Begona kuy kuylashib,
O‘sha kuyga ohangdosh
O‘sinq o‘tni o‘rishar;
Qadrdon qishloqlari:
Yamoqzor, Juldurravot,
Yalang‘och, Ushuktepa,

Kuygankent. Yutoqsaroy
Hamda Qahatqo‘rg‘onda –
Esuvchi qorbo‘ronlar,
Quyunlarni eslatgan

Kuya jo‘r o‘rishar o‘t...
Ko‘ngil ochib va horib,
G‘aramga yaqin borib,
O‘tirdilar tushlikka.

«Qayerdansiz, yaxshilar?» –
So‘radi sayyoohlardan
Chol dehqon – (Vlasushka
Atar uni ayollar)
Yo‘l bo‘lsin, qay tomonga?

– Biz... dedi-yu, sayyoohlар,
To‘xtab qolishdi bordan:
Eshitildi musiqa!
«Bizning pomeshchigimiz
Ko‘ngil ochib yuripti!» –
Deb Vlas yugurgancha
Chopdi ishchilar tomon:
Ag‘raymang! O‘ring tezroq!
Ayniqsa – pomeshchikni
Xafa qila ko‘rmanglar.
Achchig‘lansa, ta‘zim qil!
Maqtasa – ura qichqir...
Xotinlar, qiy-chuv qilmang!
Baqaloq va sersoqol –
O‘zga dehqon ham xuddi
Shundoq amr etdi elga;
Ham uzun chopon kiyib,
Chopdi to‘raga peshvoz.
«Qandoq balo odamsiz? –
Deb baqirdi choparkan,
Hayron, lol sayyoohlarga, –
Qalpog‘ingizni oling!»

Naq shu choq uch kemani
Qirg'oqqa bog'ladilar.
Birida cho'rilar-u
Sozchilar, o'zgasida –
Bolalik bo'ydon xotin,
Qari enaga, tag'in –
Yuvosh yalmog'iz oqsoch,
Uchinchida janoblar:
Ikki chiroylilik bekach
(Nozikrog'i oltin soch,
To'larog'i – qora qosh),
Ikki mo'ylov dor barin,
Birin-ketin tug'ilgan
Uch go'dak-boyvachcha-yu
Munkillab qolgan bir chol:
Ozg'in! Qish quyonidek –
Engil-boshi oq, hatto –
Shapkasi ham oq, baland,
Jiyagi qizil movut¹.
Qayrilma burni bo'lsa,
Xuddi qirg'iy tumshug'i,
Mo'ylov lari oq, uzun,
Ko'zlar esa har xil:
Bir ko'zi sog' – yiltirar,
Chap ko'zi esa – xira,
Bulutli, beharakat;
Qalay chaqaning o'zi!

Yonlarida: laychalar –
Jig'achalar taqilgan,
Bari oq, bari baroq,
Bari ingichka oyoq...
Chol qirg'oqqa chiqdi-da,
Yumshoq, qizil gilamda
Juda uzoq dam oldi,

Shundan so'ng pichanzorni
Aylanib chiqdi tamom:
Qo'ltig'idan suyardi –
Goh mo'ylov dor barinlar,
Goh chiroylilik bekachlar, –
Butun jilovdorlari,
Go'daklar, enagalar,
Yuvosh yalmog'iz oqsoch,
Emizak xotinlar-u
Oq laychalar ham hamroh,
O'rilgan yerni tugal
Aylandi chol oqibat...
Dehqonlar bosh egdilar,
Oqsoqol (yetti sayyoh
Payqashdiki, baqaloq
O'sha dehqon oqsoqol)
Pomeshchik qarshisida,
Tongi ibodat chog'i
Iblisdek beqarordi,
O'ta lagabardordi:
«Ha shunday! Bosh ustiga!»
Boshi yerga tekkunday
Egilardi dam-badam.

Bugun, boy a uyilgan –
Kattakon bir g'aramga
Pomeshchik tekkizdi qo'l,
Go'yo pichan edi ho'l,
Qahri o't oldi shu choq:
«Xo'jayin davlatini
Chiritmoq? Muttahamlar,
Hali men o'zingizni
Chiritarman mehnatda,
Qayta quriting darrov!...»
Pitirlardi gumashta:

¹ *Qizil movut jiyakli baland, oq qalpoq* – dvoryanlik belgisi hisoblanadigan maxsus shapka.

«G'ofil qolibman andak!
To'g'ri, ho'lroq: ayb menda!»
Xalqni to'pladi darhol,
G'o'laday bahodirni'
Panshaxalar bilan yurt
Titib, yoyib tashlashdi.
Pomeshchik ko'ngli to'ldi.

(Sayyoohlar ko'rdi kelib:
Pichan qup-quruq edi!)

Yugurar oqsoq malay,
Yelkasida sochig'i:
«Taom tayyor! Marhamat!»
Butun jilovdorlari,
Go'daklar, enagalar,
Yuvosh yalmog'iz oqsoch,
Emizak xotinlar-u
Oq laychalar ham hamroh,
Pomeshchik tushlik uchun
Ketdi, ishlarni ko'rib...
Daryoda, qayqlardan –
To'ralar hurmatiga
Musiqa yangrab ketdi,
Qirg'oqda ko'rinardi,
Oppoq yoyiq dasturxon...

Hayron bo'lgan sayyoohlar,
Vlasni qistashardi:
– Tushuntirgin, otajon!
Qandoq tartib, qandoq hol?
Qandoq g'alati chol bu?..
– Bizning pomeshchigimiz,
Utyatin knyaz o'zi!

– Nega kattalik qilar?
Yangi tartib-ku hozir,

Chol bo'lsa – burungidek
O'jar, tentak, bema'ni:
Pichan quruq-ku axir,
Quriting, deydi tag'in!

«Tag'in qizig'i shuki,
Pichan ham, pichanzor ham
Unikimas!»

– Kimniki?
«Bizning jamoa mulki!»

– Nega u galdirayapti?
Yoki siz Yaratganga
O'gay bandalarmisiz?
«Yo'q, biz ham Yaratganning
Marhamatida hozir –
Erk olgan dehqonlarmiz,
Bizda ham boshqalardek,
Tartib yangi-yu, lekin –
Bu bir alohida gap!...»

– Qandoq alohida gap?

Chol xud g'aram tagida
Yonboshlab, yotib oldi,
Ortiq so'z aytmadni hech!
Sayyoohlar ham naq o'sha
G'aramning daldasidan
Joy olib, sekin dedi:

– *Ochil dasturxon, ochil!*
Dehqonlarni mehmon qil!
Ochildi keng dasturxon,
Qaydandir paydo bo'ldi
Kattakon ikkita qo'l:
Bir chelak sharob qo'yib,

¹ Bosilib qo'yilgan g'aramni aytmoqchi.

Nonni ham tog‘day uyib,
G‘oyib bo‘ldilar tag‘in...

Cholga andak ichirib,
Qistashdi tag‘in yettov:
«Kel, ayttaqol, Vlasushka,
Qandoq gap o‘zi bu, xo‘sh?»

– He, bo‘lmaq‘ur gap! Hatto –
Aytishga ham arzimas...
Xo‘sh, o‘zlarizingiz qandoq
Odamlarsiz? Qaydansiz?
Yo‘l bo‘lsin, qay tomonga?..

«Biz o‘zga yurt odami,
Ko‘p bo‘ldi, muhim ishda –
Uylarni tark etganmiz,
Katta tashvishimiz bor...
Shundoq katta tashvishki,
Uyimizga kirgizmas,
Ishga ham qo‘l urgizmas,
Hatto ovqat yegizmas...»

Sayyoohlar qolishdi jim.

– Ne harakatdasizlar?
«Aytmaymiz! Ovqatlandik,
Hordiq olmoq ham darkor».
Cho‘zilishdi. Indashmas!
Ha, shundoq deng! Bizningcha,
Boshladingmi, ayt tugal!
«O‘zing ham aytmading-ku,

Biz – senday emasmiz, chol!
Mayli, aytaylik, bilgin,
Bizlar, Vlas amaki,
Kaltaklanmagan aymoq,
Talanmagan Tumanda,
Mo‘l-to‘kin qishlog‘ini
Axtarib yurganlarmiz!...»
Ham aytishdi sayyoohlar:
Birdan duch kelganlarin,
So‘z talashib, mushtlashib,
So‘ng va‘da bergenlarin,
Sho‘rpeshona, O‘qegan
Aymoqlarida gangib,
Rosa ham kezganlarin.
Rusiyada kim xushvaqt,
Dorilamon yashashin –
So‘roqlab yurganlarin...

Vlas quloq soldi ham
Tikildi ajablanib:
«Ko‘rib turibman, siz ham,
G‘alati odamlarsiz! –
Dedi nihoyat u chol, –
Biz ham ancha ajoyib,
Siz esa – ajoyibroq!»

«Xo‘sh, axir o‘zi nima?
Yana ozroq ich, bobo!»

Ikki piyola ichib,
Vlas gapiraketdi:

II

Bizning pomeshchigimiz
Juda g‘alati kishi,

Davlati o‘lchovsiz mo‘l,
Martabasi ham baland,



Amaldorlar zotidan,
Qariguncha qilgani
Tentaklik va ahmoqlik.
Birdan guldirab ketdi
Yashin-momoqaldiyoq...¹
Ishonmaydi hech: yolg'on,
Aldashar qaroqchilar!
Dallol-u bosh mirshabni
Haydab soldi uyidan!
Tag'in eski tentaklik.
Shubhasi oshib ketdi,
Ta'zim qilmasang – urar!
Gubernatorning o'zi
Keldi cholning yoniga:
Uzoq so'z talashdilar,
Mehmonxonada turib,
Cholning tajang bo'lganin,
Baqirib-chaqirganin
Qarollar eshitipti.
Shuncha tajang bo'lganiki,
O'sha kuni kechqurun
Miyasiga urdi qon!
Chap yarimi bo'ldi shol:
Hech narsa sezmas, jonsiz,
Yerday unniqib ketgan...
Bekorga mayib bo'ldi!
Davlatiga cho'pcha ham
Futur yetgan yo'q, ammo,
Manmanligi o'zining
Yetaqoldi boshiga!
– Pomeshchiklar odati –
Mana qandoq, ajoyib! –
Gap qistirdi Mitrodor.

«Faqat pomeshchikdamas,
Odat – dehqonlarda ham

Ko'p kuchli, – dedi Paxom, –
Bir kez shubha bilan men
Qamoqxonaga tushdim,
O'sha yerda ko'rgandim,
Bitta g'alati dehqon,
Ot o'g'irlagani-chun
Qamalgan edi chog'i,
Ismi ham Sidor edi,
O'sha dehqon qamoqdan
O'zining to'rasiga
Yuborar edi o'lpon!
(Bandining daromadi
Ma'lum-ku: xayr, sadaqa,
Yo ishlab topar ozroq,
Yo o'g'irlaydi buyum.)
O'zgalar kular undan:
– Olisga surgun qilar,
Pullar qolar behuda!
– Yaxshilikka buyursin! –
Der edi tentak dehqon».

– Xo'sh, qani, gapingizni
Davom qiling, otaxon!
«Cho'p-u xasni yer tug'ar,
Ko'zga tushgani – balo;
Qulab eman daraxti
Sokin dengizga tushdi,
Ham dengiz yig'lar butun –
Chol yotar behush, notob.
(Ular, deb o'ylagandek!)
Kelishdi o'g'illari.
Qora mo'ylab askarlar.
(Ularni pichanzorda
Ko'rdingiz boyaga siz ham,
Suluv bekachlar bo'lsa,
O'shalarning xotini.)

¹ Gap - dehqonlarning «ozod» etilishi haqidagi xabar haqida. Bu xabar pomeshchik uchun dahshatli bo'ldi, demoqchi.

To‘ng‘ich o‘g‘il qo‘lida –
 Mulklarning merosxo‘ri,
 Degan tilxat bor edi,
 O‘sha tilxat bo‘yicha,
 Vakil o‘rtaga tushib,
 Vasiqa yozganida...
 Chol qurg‘ur birdaniga
 Ko‘zini ochib qoldi!
 Jindak shama qilgandik...
 Yo tavba, muni qarang,
 Yaralangan yirtqichday
 O‘zini urdi haryon,
 Momoqaldiroq kabi
 Guldiradi baralla!
 Yaqinda o‘tgan ishlar,
 U vaqt oqsoqol¹ edim,
 Pomeshchiklarni qandoq
 So‘kkinan eshitdim men;
 Oqizmay ham tomizmay
 Saqlaganman yodimda:
 «Juhudlarni koyishar,
 Isoni sotganlar deb...
 Xo‘sh, siz nima qildingiz,
 Asriy, qadimiy ravshan –
 Dvoryanlik haqlarin
 Sotganlar – siz bo‘lasiz!...»
 O‘g‘illariga dedi:
 «Pastkash va qo‘rqoqlarsiz.
 Mulla zotidan chiqib,
 Poradan boyib, keyin,
 Dehqonlar sotib olgan –
 Mayda odamlar bo‘lsa,
 Mayli... Bu kechirgulik!
 Siz... Utyatinlarmisiz?
 Knyaz avlodidan-a!

E, sadqayi U-tya-tin!
 Keting, ko‘zdan yo‘qoling,
 Zinodan tug‘ilganlar!
 Mening bolam emassiz!»

Cho‘chishdi merosxo‘rlar:
 O‘lish oldida bu chol
 Merosdan mahrum etib,
 Qo‘ysa-ya?.. Ozmi o‘rmon,
 Ozmi yer otasida?
 Jamg‘arilgan pul, davlat,
 Mol-u mulk qayon ketar?
 O‘yla! Uning Piterda
 Uch haromi qizi bor²,
 Kuyovlari general,
 Ularga yo‘q demasdi!

Chol tag‘in og‘rib qoldi...
 Faqat vaqt ketmasin-chun
 O‘yashar: ne qilaylik?
 Qaysi bekach, bilmayman,
 (Oltin soch bo‘lsa kerak:
 Eshitgandim, o‘sha vaqt,
 Boyoqish, notob cholning
 Chap yonboshin uqalab,
 Cho‘tka bilan ishqarkan –)
 Cholga valdirabdiki:
 Dehqonlarni boylargacha
 Qaytarishga farmon bor!

Ishonmish! Go‘dakdan ham
 Battar holatda edi –
 Kasallik zarbasidan!
 Yig‘labdi! But oldida,
 Bola-chaqasin jamlab,

¹ Gumashta, ishboshi (starosta).

² Nikohsiz tug‘ilgan qizlari.

Duo o'qishga tushdi:
Shukrona ibodatga
Qo'ng'iroq chalinsin, deb,
Cherkovga buyruq berdi!

Qayta kuchga kirgandek,
Tag'in musiqa ham ov;
Xizmatkorlarni bo'lsa,
Tayoq bilan uradi,
Dehqonlarni chaqirib,
Farmon beradi tag'in. —

Qo'shchi-ko'lanchi bilan
Merosxo'rlar yashirin
Kelishganlar albatta,
Bittasi bor (chochiqlik —
Boya u chopib keldi),
Uni ko'ndirish uchun
Hojat ham yo'q: to'rani
Juda yaxshi ko'radi!
Ipat u malay nomi,
Erk berilayotganda
U sira ishonmadi:
«Bekor gap! Utyatinlar
Mol-u mulksiz qolmaydi!
Mulknii tortib olishga
Qo'ling kaltalik qilar!»
Keyin «qoida»¹ keldi,
Ipat dediki: «Mayli,
Sho'xlik qilabering siz!
Utyatinlar uchun men
Qul edim — qulman, gap shu!»
To'ra marhamatlarin
Unutolmaydi Ipat!
Go'dakligu yigitlik,

Qariligi haqida,
Ipat esdaliklari —
G'alati qissa bari:
(Ba'zan to'rani izlab
Dargohiga kelasan,
Kutasan, ko'z tutasan...
Beixtiyor Ipatning
Tuturuqsiz so'zlarin
Yuz martadan bo'lsa ham
Eshitishga majbursan):
«Men go'daklik chog'imda,
Boyvachchaning o'zları —
Kichkina aravaga
Qo'shgan edilar meni;
Sho'x o'spirin chog'imda —
Boyvachcha dam olgali
Uyiga qaytib keldi,
Ham andak mast bo'ldi-yu,
Meni, men tuban qulni,
Qishda, o'pirilgan muzda
Cho'miltirdi o'zları!
Qiziq bo'ldi nechog'lik!
Ikki joyda teshik muz:
Keng to'rga solib meni,
Bir teshikdan tushirar,
Ham ikkinchi teshikdan
Tortib olar bir zumda —
Ham araq tutar menga!
Qariy boshlagan chog'im.
Qish paytida yo'llar tor,
U bilan kezardik ko'p,
Besh ot qo'shib — g'oz qator.
Bir kun, u sho'x-da o'zi!
Meni, men tuban qulni,
Ilg'or otga o'tqazib²,

¹ Pomeshchiklar va «ozod» etilgan dehqonlar o'rtasidagi munosabatni belgilagan hujjat-qoida.

² Aravaga 7–8 otni tirkab qo'shganda, eng oldindagi ot.

Qo'limga soz tutqazib,
«Chalgin, Ipat!» qistardi,
Musiqaga o'ch edi.
Aravakashga bo'lsa,
Baqirardi: cho'h de, ha!
Qor-bo'ron hiyli edi,
Men chalardim, qo'llar band,
Ot qoqilar, surinchoq,
Qulab tushdim axir men!
Turgan gapki, chanalar –
Ustidan bosib o'tdi,
Ko'ksimni yanchib ketdi,
Mayli edi bu balo:
Ayoz ham qora sovuq,
Qotasan – hech najot yo'q,
Aylana – sahro va qor...
Yulduzga qarab, deyman:
Gunohlarimga tavba!
Ne bo'ldi degin, oshnam?
Qo'ng'iroqlar jarangi
Keldi quloqlarimga,
Dam sayin yaqin, aniq!
Qaytdi u (shu o'rinda
Malayning ko'z yoshlari
Tomchi-tomchi to'kilar,
Qancha takror aytmasin,
Shu o'rinda yig'lar u.),
O'rab-chirmab isitdi
U meni, noloyiqni,
Xud o'zları yonida,
Chanada olib keldi!»
Qah-qahlab kului yettov...
To'rtinchi marta ichib,
Davom etdi Vlasvoy:
«Merosxo'rlar bosh urdi,
Xalqqa ham kelib axir:
– Otamiz holiga voy,

Yangi tartibga bardosh
Berolmaydi u aslo!
Otaxonga achining!
Gap qaytarmang, bosh eging,
Qahrin qo'zg'atmang, notob,
Biz to'laymiz sizga haq!
Ortiqcha tekin mehnat,
Hatto, so'kkani uchun,
Bari uchun to'laylik!
Ko'p yashamas, bechora,
Ikki-uch oydan oshmas,
Aytdi doktorning o'zi!
Xo'b deng ham quloq soling,
Volga qirg'og'idagi
Suvga mo'l o'tloqlarni
Sizga qilamiz tortiq,
Vakilga darrov qog'oz
Jo'namatamiz, to'g'ri gap!»

Xalq yig'in, g'ovur katta!

O'tloqlar (shular o'zi).
Arag'u bir qop va'da,
Shundoq qarorga keldik:
Chol o'lguncha yurt aslo
Indamaydigan bo'ldi.
Bordik o'sha vakilga:
Kuladi: «Xayrlik ish!
O'tloqlar ham joyida,
Laqillatmoqchimisiz,
Mayli, xudo yor bo'lsin!
Bilasiz, rus elida –
Indamaslikka yo'l keng,
Bosh egish ham bemalol,
Hech kimga taqiq emas!»
Biroq men qarshi turdim:
Siz dehqonlarga qulay,

Og‘ir-ku menga axir?
Ne hodisa bo‘lsa ham –
Oqsoqolni chaqirar!
Fikriga ne kelsa ham,
Odam yuborar menga!
Bema’ni so‘roqlarga
Qandoq javob beraman!
Ahmoqona buyrug‘in
Qandoq qilgayman ado?

«Sen uning qarshisida
Qalpoqsiz, boshyalang tur,
So‘z qaytarma, ta’zim qil,
Oldidan jim chiqib ket,
Ish ham shu bilan tamom.
Chol notob, shalayim, bo‘sh,
Bari yodidan chiqar!»

To‘g‘ri gap: mumkin edi!
Telba cholni aldamoq,
Uncha qiyin ish emas.
Lekin, to‘g‘risin aytsam,
Men, rasvo masxaraboz
Bo‘lishni istamasdim,
Usiz ham umrim bo‘yi –
Peshayvonning yonida,
Ham to‘ra qarshisida
Tik turib charchaganman,
Jonimga tekkan rosa.
Agar yurt (dedim shunda
Jamoaga egib bosh)
Bo‘shatilgan to‘raga
So‘nggi nafaslarida
Bema’nilik qilishga
Ijozat berar ekan,
Indamay, mayli, men ham,
Mayli, bo‘yinsunaman,

Faqat bu vazifadan
Bo‘shatib qo‘ying meni!

Ish buzilay deganda,
Qutqardi Klim Savin:
«Oqsoqol qiling meni!
Men sizni ham, cholni ham
O‘bdon rozi qilaman...
Ko‘p o‘tmas, duvarakni
Tangri chaqirib olar,
O‘tloqlar shu jamoa
Mulki bo‘lib qolgusi.
Shunday boshqaraylikki,
Shunday mustahkam tartib,
Qoida o‘rnataylikki,
Toki butun jamoa,
Terga tushsin... Ko‘rasiz!»

Xaloyiq o‘yladi ko‘p,
Harqalay, Klim dehqon,
Jonidan to‘ygan, bebosh,
Mayparast, qo‘li egri,
G‘alamis, buzuq edi.
Ishga qo‘l urmasdi hech,
Lo‘lilar bilan inoq,
Kezar edi ovora,
Nodon tabib-u, sayoq!
Mehnatlashdan kulardi:
Mehnatlashdan yuz uringin,
Hech qachon boy bo‘lmaysan,
Faqat bukri bo‘lgaysan!
Lekin savodxon edi;
Moskvada bo‘lgandi,
Piterni ham ko‘rgandi,
Savdogarlar yonida
Sibirga ham borgandi,
Attangki, o‘sha yoqda

Qolib ketmagan butun!
Aqliglu, qo'lida –
Sariq chaqa tutolmas,
Mug'ombir-u, ko'p mahal
Pand yeb qolganin bilmas!
Maqtanchoq odam o'zi!
Talay dabdabali so'z
Yodlab olgandi: Vatan,
Moskva – bosh poytaxt;
Velikorus yuragi.
«Men bir rus dehqoniman!»
Ovozi juda qo'pol,
Bo'g'iz yirtib baqirar,
Yarimtani manglayga
Bitta urib ochar u,
Karnay qilib ichardi.
May uchun kim bo'lmasin,
Obdastaday boshini
Egishga tayyor edi,
Pul bo'lsa – bo'lishadi,
Kim uchrasha ham mayli,
Birga ichar – pul tamom!
Shovqin solishga abjir,
Ham usta askiyaboz,
Chirigan molni esa,
Aldab sotishga epchil.
Maqtashni kelishtirar,
Sharmanda qila qo'ysang,
Hazil bilan qutilar;
Surbet maqollar aytar,
Ya'ni: «To'g'ri so'z hech vaqt
Tuqqanining yoqmaydi!»
O'yashib, qoldirdilar
Oqsoqollikda meni:
Hozir ham ishboshiman.

Qari to'ra oldida –
Klimni oqsoqol deb
Ko'rsatishdi. Mayliga!
To'raga bop oqsoqol!
Duvarak orqa qilgan –
Eng pastkash, tuban odam!

Klimda vijdon – sopol,
Ham Mininday sersoqol,
Ko'rganda o'ylaysanki,
Mundan sipoh, hushyorroq
Dehqonni topmoq mahol.
Merosxo'rlar Klimga
Kiygizdilar chakmon ham¹,
Engil-bosh ham berdilar,
Tarallabedod Klim –
Klim Yakovlich bo'ldi,
Birinchi nav oqsoqol.

Eski tartiblar tag'in
Joy-joyida qoldi.
Badbaxtlikni qarangki,
Bu duvarak to'ramga –
Buyurilgandi sayr-u gasht.
Har kun qishloq oralab –
O'tar bo'ldi fayton².
Tik tur! Qalpog'ingni ol!
Nimadan boshlaydi dov,
Bilar xudoning o'zi,
So'kadi, topadi ayb.
Do'q urib, surib kelar –
Baribir – jim turaber!
O'z yerin ishlayotgan.
Dehqon ko'rsa bas yo'lida,
Itdan battar akillar:

¹ Oqsoqol, gumashtaga xos uzun chakmon.

² To'rt g'ildiraklik, yumshoq, bejakdor soyabon arava.

Yalqovlar ham biz emish,
Ishyoqmas ham biz emish!..
Yer bo'lsa xo'b ishlangan,
Hech qachon to'ra uchun
Mundoq ishlamas dehqon,
Duvarak fahmlamaski,
Yer – qachonlardan buyon
Unikimas, bizniki!

To'plansak – avj qahqaha!
Telba chol borasida
Har kimda bir qissa bor:
O'ylaymanki, qulog'i
Xo'b qizib tursa kerak!
Klim Yakovlichni deng:
Kelar xo'jayinnamo,
Bu ahmoq, mag'rur cho'chqa...
Boyning peshayvoniga
Ishqalangani uchun
Baxtliman deb taltayar!
Baqirar: «Jamoaga
Farmon!» Solamiz quloq,
Farmoni qandaqa deng:
«To'raga arz qildimki,
Beva Terentyevnaning
Uyi buzilib ketdi,
Sho'rlik, sadaqa so'rab,
Tentirashdi uyma-uy.
Chol shundoq berdi farmon:
O'sha beva ayolni
Gavrilo Jukov olsin.
Uyni yangilab bering,
Kun kechirsinlar uyda,
Bola-chaqa ko'rsinlar.
Ham xo'jalik yukini'
Ko'tarsinlar barobar!»

Beva esa yetmishda,
Kuyov-chi: olti yashar!
Turgan gapki, qahqaha!
Yana farmon: «Sigirlar –
Kecha tong otar choqda,
Boy qo'rasni yonidan
Haydalibdi yayloqqa,
Juda xunuk, bemaza
Ma'rashipti tentaklar.
Chol uyg'onib ketipti,
Cho'ponlar bundan keyin
Sigirlarni tiysinlar! –
Tag'in kular jamoa.
Nega kulasiz? Farmon
Har xil bo'ladi axir:
Yakutsk viloyatida
Hokim ekan general,
Nuqlu u sigirlarni
Qoziqqa o'tqazardi.
Aytganin qilardilar:
Petrograd shahrining
Haykallari singari –
Jazolangan sigirlar
Bilan o'z shaharlarin
Toza bezatiptilar,
Keyin payqashsa, hokim
Aqlidan ozgan ekan!» –
Yana farmon: «Qorovul
Under¹ Sofronov iti –
Beadab ham qopog'on:
To'raga vovullabdi.
Under haydalsin darhol,
Pomeshchik qo'rasiga
Qorovul belgilansin
Yeryomka!...» Qotib-qotib
Kular dehqonlar tag'in:

¹ Xo'jayin foydasiga majburiy tekin xizmat, o'lpon ma'nosida.

Yeryomka tug‘ilgandan
Kar-soqov ham g‘irt ahmoq!

Klim xushvaqt. O‘ziga
Mos amal topib oldi.
Maynabozlik avjida,
Hamma ishga bosh suqar!
Hatto kam ichar bo‘ldi!
Chechan bir ayol bordi:
Orefevna – Klimning
Enagasi² sanalar;
Klim-la inoq bo‘lib,
Ikkovi xo‘jayinni
Laqillatishga tushdi,
Ayollarning ishi o‘ng!
Cho‘zim, bo‘z, qo‘ziqorin,
Yo yertuti ko‘tarib,
Chol qo‘rasiga chopar:
Bekachlar hammasini
Sotib olishar qo‘ymay,
Mehmon ham qilar hatto!
Shundoq kulishib yurdik,
Askiyasiz kun o‘tmas,
Chuvi chiqdi-ku birdan:
Bizda tajang va dag‘al
Bitta dehqon bo‘lardi,
Oti ham Agap Petrov,
Koyirdi bizni doim:
«Ey, dehqonlar! Hay attang!
Poshsho-ku rahm etdi-ya,
Siz bo‘lsa, ixtiyoriy
Bo‘yinturuq kiyasiz...
Sabil qolsin o‘rog‘i!
Boylarga ishim yo‘q hech!»
Faqat may quyib berib,

Uni tinchlanrir edik,
(Mayni yaxshi ko‘rardi).
Jin urib bir kun noxos,
To‘raga duch kelmasmi:
O‘rmongan yog‘och ortib,
Kelmoqda ekan Agap,
(Esi pastni qarangki,
Go‘yo tun kamlik qilib,
O‘g‘irlilikka boripti
O‘rmonga kuppakunduz!)
Noxos qarshi kelipti
Unga o‘sha fayton,
Unda o‘tirarkan chol:
«Shundoq yaxshi yog‘ochni
Qaydan ortding, hoy dehqon?»
Qaydan ortganligini
Payqapti chol tovonda,
Agap indamas: yog‘och
Xo‘jayin o‘rmonidan,
Nima ham aytar edi!
Chol jerkishga boshlapti,
Xo‘b so‘kipti sanog‘lab,
Toza beripti ozor,
O‘zining dvoryanlik
Huquqlarin sanapti.

Dehqon chidamlik, chayir,
Balogha bardosh berar,
Lekin vaqt kelganda,
Taps yoriladi tosh ham.
Agap – ovqat qilmayin,
Uydan chiqqan saharda;
Unsiz ham ko‘ngli aynib,
Behuzur ekan o‘zi,
O‘lganni tegpan kabi,

¹ Kichik ofitser.

² Aslida Kuma – bolasini yuvib, cho‘qintirgan ayol.

To‘raning va’zi bitmas,
Xud qulog‘i tagida
Xira pashshaday g‘ing-g‘ing...
Qahqah uripti Agap!
«Sen, telba masxaraboz,
Ablah!» – deb boloxonador
Qilib so‘kib ketipti!
To‘raning o‘zi tugul,
Yetti ota-bobosin
Go‘riga g‘isht qalapti!
Ma‘lumki, jahlimizga
Ozroq erk berdingmi, bas!
Xo‘jayin haqorati –
Pashshaning nayzasiday,
Dehqonni ki esa-chi,
Qishloqi boltasining
Qirrasiday beayov!
Dovdirab qolipti chol!
O‘q yomg‘uri tagida,
Yo toshbo‘ron tagida
Turmoq yengilroq bundan!
Gangihti qondoshlari,
Kelinlar Agap sari
Yalinib yugurishsa,
U rosa baqiripti:
Yondashma, o‘ldiraman!..
«Qo‘lbola musallasday,
Muncha bijg‘ib ketayapsiz,
Harom jomashovdagi
Mag‘zavalar! Bas! Ablah!
Dehqonlarning joniga
Hukmfarmolik tamom!
Duvaraksan! Duvarak!
Bizning tentakligimiz,
Yumshoqko‘ngilligimiz
Daldasida sen bugun
Kattasan, ertaga-chi
Duvarakka bir tepki –

Shu bilan bazm ham adoq!
Uyingga jo‘na tezroq,
Dum qisib, xonalarda
Yuraver, lekin bizga
Tega ko‘rmaxin, ablah!»
– Isyonkorsan! –depti chol,
Bo‘g‘ilib, titroq bosib,
Ham qulapti chalajon!
«Bu gal o‘ldi!» Xud shundoq,
O‘ylashgandi harbiylar,
Mo‘ylov dor o‘g‘illari,
Ham chiroylik bekachlar,
Yo‘q, o‘lmadi bu gal ham!

Farmon: el-yurt oldida,
Pomeshchik ko‘z o‘ngida,
Mislsiz dag‘alligi,
Adabsizligi uchun
Agapga qattiq jazo!..
Merosxo‘rlar, bekachlar,
Agapga, Klimga ham.
Menga chopib kelishdi!
«Qutqaring, azizlarim,
Bizni qutqarib qoling!»
Ranglari o‘chib yurar:
«Hiylamiz oshkor bo‘lsa,
Tugal xarob bo‘lamiz!»
Oqsoqol ishga tushdi.
Oqshomgacha o‘tirib,
Agap bilan may ichdi,
Ikkovi quchoqlashib,
To yarim tunga qadar
Aylandilar qishloqda,
Tun oqqandan so‘ng tag‘in
Agapga xo‘b ichkizib,
To‘raning qo‘rasiga
Olib keldi mast-alast!
Ajab tomosha bo‘ldi:

Duvarak zinasida
Turardi qo'zg'ololmay,
Tajang edi shuncha ham ...
Ammo Klim ishi o'ng!
Gunohkorni dog'uli
Boshladi otxonaga,
Oldiga qo'ydi araq:
«Ichgin-u faryod solgin!
Rahm eting! – deb yolborgin!
Otaxon! Onajon!.. de!»
Agap ham unayqoldi,
Dodlar, o'kirib yig'lar!
Duvarakka bu fig'on
Musiqaday yoqardi,
Sal qoldi qahqah ursak,
Chol takrorlar ediki:
«Ag'anat! Ha, qa-roq-chi,
To'-pa-lon-chi!.. Ag'anat!»
Xud kaltak yeayotgandak,
Baqirar edi Agap;
Aroq adoq bo'lguncha,
Jinnilik qildi talay:
Otxonadan o'likday –
Mast Agapni to'rt dehqon
Ko'tarib chiqishganda,
Hatto chol rahmi keldi:
«O'zing aybdor, Agapjon!» –
Dedi chol ko'p muloyim...

– Obbo, oqko'ngil chol-ey,
Rahmi ham kelipti-ya, –
Dedi shu yerda Prov.
Vlas javob berdiki:
«Battol emas... Maqol bor:
O'tni maqta g'aramda,
To'rani – o'lgan damda!
O'lsa – soz bo'lardi-ku...
Agap nobud bo'ldi-da...»

– Qandoq! Nahotki o'ldi?
«Azizlar, shundoq bo'ldi:
O'ldi, xuddi o'sha kun!
Kech kirganida Agap
Boshladi oh-u nola,
Yarim kechada popni
Chaqirdi o'z yoniga,
Tongotarda berdi jon:
Ko'mdik, boshiga qo'ydik –
Dalda berguchi bir but...
Nedan o'ldi? Bilmaymiz,
Yolg'iz xudoga ayon!
Biz-ku, nainki qamchi,
Barmog'imizni hatto
Tegizganimiz yo'q-di.
Harqalay o'ylaysanki:
Shum hodisa bo'lmasa,
O'lmas edi Agap ham!
G'o'r va bemisol dehqon,
Bo'yinsunmas, tikka bosh,
Nahot: borsa-yu, yotsa!
Deylikki, bu mojaro
Tinchib ketardi shundoq,
Lek Agap o'ylaganki:
Agar o'jarlik qilsam,
Jamoa g'azablanar,
Jamoa ola-g'ovur,
Jonimdan bezor qilar!
Hammasi nogahoniy
Shundoq, voqe bo'ldiki:
Suluv bekachlar hatto,
Cholni o'pmoqchi bo'ldi, –
Ehtimolki, ellik so'm
Qistirgandir hamyonga,
Eng to'g'risi: beinsof,
La'nati yovuz Klim,
May ichkizib uzluksziz,

Nobud qildi-da axir!
– Ana, yugurdak kelar,
Demak – nahorlik tamom!

Oqsoqolni chaqirgan
Bo'lsa kerak, boray-chi,
Nima derkin u yelim!»

III

Vlas ketidan ketdi,
Ergashib yetti sayyoh;
Birga qo'zg'oldi talay
Kelinlar, yigitlar ham,
Ayni tush – hordiq payti,
Hadeguncha olomon
To'plangandi ko'rmakka!
Turishar hamma qator,
Odob-la qo'lin bog'lab,
Janoblardan olisroq...

Turli-tuman yegulik,
Ham ichkulik tuzilgan
Uzun va oq stolda –
Davra qurib, kayf surib,
O'tirardi janoblar:
Eng to'rda qari knyaz,
Soch-soqoli oppoq,
Engil-boshi ham oqdan,
Yuzlar qiyshaygan-u,
Poyma-poy chog'ir ko'zlar,
Bog' ichida oq but bor,
(Vlasning aytishicha:
G'olib Georgiy buti.)
Stol yonida Ipat,
Bo'ynida oq bo'yinchoq
Jonboz, ixlosmand malay,
Pashshalarni haydardi.
Cholning' ikki yonida –
Ikki chiroyli kelin:
Bittasi qorasochli,
Dudoqlari qirmizi.

Qizil lavlagi kabi,
Har ko'zi bir olmaday!
Boshqa kelin – zarcha bet,
Oltin sochi to'zg'igan,
Oh, sochlar! Oltin misol
Tovlanardi quyoshda!
Uch baland kursilarda
Yasatilgan uch bola:
Bo'yinlariga sochiq
Bog'langan edi oppoq,
Uch bolaning yonida
Qari enaga tayyor.
Nariroqda turli-tuman
Cho'rilar, xizmatkorlar:
O'qituvchi xonimlar,
G'arib qo'shchi-ko'lanchi,
Duvarak qarshisida –
Mo'ylovdor ikki harbiy,
O'zining o'g'illari!

Har kursi orqasida
Yaproq yelpig'ich tutgan
Bitta qizaloq turar,
Yoki ayol tik turib,
Pashshalarni haydashda.
Stol tagida bo'lsa,
Baroq jun – oq laychalar,
Haligi uchta go'dak
Ularni giz-gizlatar.

Qarshisida turardi,
Boshi yalang oqsoqol:

«Pichan o'rog'in tezda
Tugatamizmi?» – dedi.
Pomeshchik kavshab turib,
– Qaydam, qandoq buyurasiz:
Qoidaga qarasak –
Haftada uch kunimiz
To'raniki, har uydan:
Bitta odam, bitta ot,
Bitta o'smir yo ayol,
Bitta kampir har kuni.
Xo'jayinning muddati
Tugay deb qoldi hozir...

«Tss! Tss! – deb bir o'qraydi,
Katta knyaz – Utyatin,
Go'yo o'zga kishining,
Nozik bir nayrangini,
Tutib olgan kishiday:
Xo'jayinning muddati?
Bu o'zi qanaqa gap?
Bu gapni qaydan topding?»
Ham sodiq korchalonni
Sinoqqa olgan kabi
Ko'ziga lo'q tikildi.

Oqsoqol bo'yin solib:
– Buyurganlari bo'lgay!
Ikki-uch kunning ichi
Xudoyim madad bersa,
Janoblari, pichanni
O'rib-yig'ib olamiz.
Nima deysiz o'g'lolnlar? –
Dedi-yu dehqonlarga
Yalpoq yuzin o'girdi,
Hamma dehqonlar uchun
Javob berdi tortinmay,
Burro Orefyevna –

Oqsoqol enagasi:
«Aniq, Klim Yakovlich,
Havo aynimay turib,
To'raning pichanini
O'rib, yig'ib ololsak,
Juda ma'qul bo'lardi,
Bizniki – kutib turar!»

«Ayol-ku, sendan tuzuk!
Chol og'zi qulog'ida,
Kulaboshladi birdan:
Ha-ha! Ahmoq! Ha-ha-ha!
Ahmoq! Ahmoqsan! Ahmoq!
Xo'jayin muddatimish!
Xa-xa! Ahmoq! Xa-xa-xa!
Xo'jayinning muddati –
Qullarning umriga teng!
Esingizdan chiqdimi:
Tangrining inoyati,
Qadimgi shoh yorlig'i,
Ham zotim, xizmatim-la
Men sizga hukmdorman!...»

Vlas yastanib oldi.
– Ne gap? – dedi sayyohlar.
«Dam olsam – vaqt yetkulik!
Gapda uloq chopadi,
Tushmaydi hali-beri
Sevgan otidan bu chol!
Bizga erk berilmoqchi,
Degan ovozadan so'ng –
Chol gapi faqat bitta:
«Ya'ni, qiyomatgacha –
Dehqon qolar, shubhasiz,
To'raning panjasida!...»

Rostdan: raso bir soat
Uzoq gap sotdi g'irrom,

Tilin to'xtatolmasdi:
Sachrardi tupuklari,
Jovrardi, o'shqirardi!
Shu qadar xit ediki,
O'ng ko'zi kosasidan
Chiqib ketkuday bo'lar,
Chap ko'zi yum-yumaloq,
Kengayib ketardi-yu,
Xuddi ukki ko'ziday,
Parrikabi tinmagur,
O'ng-u ters aylanardi,
Asrlar bo'yi ezgu –
Dvoryan huquqlarin,
Qilingan xizmatlar-u,
Eski-tuski otlarni
Pomeshchik vaysar edi.
Dehqonlar bosh ko'tarsa,
Chorning g'azablarini,
Haq-taolo qahrini
O'rtaqa pesh keltirib,
Do'q urar edi uzoq;
Qat'iy buyurardiki,
Behuda xayollarga
Bormasin ham beboshlik
Qilmasin jamoa hech,
Faqat xo'jayinlarga
Itoat qilsinlar-u
Quloq solsin, bo'ysunsin!

– Otalar! – dedi Klim,
Ovozida qandaydir,
Bir chiyillash bor edi,
Go'yoki xayoliga
Pomeshchiklar tushganda,
Po'kan qat qorinlari
Katta huzur topganday, –
Sizdan o'zga kimga ham

Quloq solardik, axir?
Kimni yaxshi ko'rardik?
Dehqonlar sizdan o'zga
Kimga bag'ishlar umid!
Balolardan bezdi jon.
Ko'zimizdan oqar qon.
Biz qayda-yu, hazratim,
Bosh ko'tarmoqlik qayda?
Bor-yo'g'imiz sizniki:
Xaroba uylarimiz,
Betob, sho'rlik jonimiz,
O'zimiz ham – sizniki!
Yerga ekkan donimiz,
Sabzavot – bo'stonimiz,
Hatto dehqon boshida
Taralmagan sochlar ham –
Barchasi sizga qaram!
Bari – xo'jayinniki!
Go'rda yotgan bobolar,
So'rida yotgan chollar,
Hali beshikda yotgan
Aziz jigargo'shalar –
Barchasi sizga qaram!
Bari – xo'jayinniki!
O'z uyimizda – durust,
Egaligimiz bor, ammo,
Sizning amringizda-chi,
To'rga tushgan baliqday!

Korchalonning bunchalik
Shikasta aytgan so'zi
To'raga yoqib tushdi:
Ko'radigan tek ko'zi
Sarkorga siylab qarar,
Chap ko'zi xira ko'kda
To'lin oyday qoldi tek!
O'z tabarruk qo'lida –



– Ko‘p lof urding-da o‘zing!

«Eh, Vlas Ilich! Lof qayda?
Dedi oqsoqol xafa, –
Shularning panjasida
Ekanimiz yolg‘onmi?..
So‘nggi soat ham kelar,
Barcha go‘rga kirgusi,
Qaytib chiqmasmiz aslo,
Zim-ziyo jahannamga
Qularmiz, u yerda ham
Dehqonni to‘ra uchun
Mehnat kutib turibdi!»
– Ne qipti, Klimushka?
«Buyurgani bo‘ladi:
Ular doshda qaynarkan,
Biz o‘t qalab turamiz!»

(Dehqonlar kulishadi.)

Chol o‘g‘illari keldi:
«Eh, Klim! Tentak Klim!
Kulgining vaqtimidi?
Chol yubordi bizlarni;
Gunohkor kelmayapti,
Deb qahri qistamoqda...
Ishni rasvo qilgan kim?»

– Rasvo qilganni to‘g‘ri
Sudrash kerak edi-ku,
Ishni buzadi tamom!
Boy dehqon... Shahar ko‘rgan.
Qarang, ne balo bo‘lib,
Elga qayta qolibdi!
Bizdagи soz tartiblar –
G‘alati ko‘rinmoqda,

Shu vajdan qotib kului!

Biz uchun bo‘ldi balo!

«Unga tegmayoq qo‘ying,
Yaxshisi, chek tashlashing,
Mana men, deb kim chiqsa,
To‘laysiz, mana besh so‘m!»

– Yo‘q, hamma qochib ketar...

«Bo‘lmasa cholga aytинг:
Beadab qochipti!» – deng.

– Erta ham so‘raydi-ku,
Unda nima aytamiz?
Gunohsiz o‘lgan Agap
Yodingizdan chiqdimi?
«Endi nima qilamiz,
Boshga balo bo‘ldi-ku!»

– Qog‘oz pulni cho‘zing-chi!
Men sizni qutqazaman! –
Dedi-yu chechan, dadil,
Oqsoqol enagasi
Yugurib, pomeshchikning
Oyog‘iga yiqildi.
«Yorqin quyosh! Kechirgin,
Etmagin xonavayron!
Noma‘qulchilik qilgan –
Mening o‘g‘lim, yolg‘izim!
Xudo shunday yaratgan,
Es-hushi yo‘q, tentak!
Hammomga tushib kelib,
Qo‘tirday qichinadi.
Suvsasa, cho‘mich emas,
Chorig‘ida suv ichar.
Shundoq ters, shundoq qaysar!

Ishlashga – ishlamaydi:
Tishlarini ko‘rsatib,
Tirjaygani tirjaygan!
Uyda-ku xushvaqtlik yo‘q:
Qulayin deb turibdi,
Ba’zida och qolasan –
Bu hadeb irjayadi!
Birov bir tiyin bersa,
Yo qoq boshiga ursa,
Uning uchun farqi yo‘q,
Xandon tashlaydi ahmoq!
Xudoyim bergen qiliq,
Kuladi... Ne qilaylik.
Esi past odamga g‘am –
Aynan kulgi bo‘larmish!»

Chunonam olg‘ir ayol!
Yolg‘ondakam ho‘ngrashi –
Nikoh kuni qiz kabi!
Boy oyog‘in o‘pardi.
– Tangri yorlaqasin! Bor! –
Yuvosh tortdi duvarak. –
Ahmoqqa jahl qilmayman,
Ahmoqlarning holiga
O‘zim kulaman qotib.
«Qandog‘am rahmdilsan!» –
Dedi qorasoch kelin.
Ham cholning oppoq sochin
Silab qo‘ydi. Mo‘ylovdor
Harbiylar ham qotdi so‘z:
– Bu laqma qishloqlilar,
Xo‘jayin so‘zlariga –
Qaydan tushunar edi,
Shunchalar ham ma‘nilik
Duvarak so‘zlariga?
Klim hayosiz ko‘zin

Movut etakka artib,
Akilladi: «Otalar!
Vatanning o‘g‘illari!
Jazoga tortmoqlik ham,
Gunohni kechmoqlik ham –
Qo‘llaridan keladi!»

O‘bdan xushvaqt bo‘ldi chol,
So‘rab qoldi to‘satdan
Vijillab turgan sharob,
Ochganda po‘kaklari
Otildi baland-baland.
Ham ayollarga tegdi.
Ayollar ham cho‘chishib,
Qiy-chuv, to‘zg‘ib ketdilar.
Chol qotib-qotib kuldil!
Chol ketidan – bekachlar
Kuldilar xandon urib,
Ulardan so‘ng – erlari,
Keyin fidokor malay,
Keyin enagalari,
Undan keyin – butun xalq!
Xursandchilik boshlandi!
To‘raning buyrug‘icha
Bekachlar u-bu tutib,
Dehqonlarni siylashdi:
O‘smirlarga bo‘g‘irsoq,
Qizlarga shirin sharob;
Ayollar ham ichishdi
Bir qultum jo‘nrog‘idan...

Chol cho‘qishtirib ichar,
Chiroylik kelinlarin
Chimchilab qo‘yar edi.
«Shundoq-da! Cholga qarang,
Dori-darmon o‘rniga
Qadahlarni to‘ldirib,

May ichar, – dedi Vlas: –
Allaqachondan beri.
G'azab qilganida ham,
Xushvaqt bo'lganida ham
Chek bilmaydi duvarak!»)

Volga ustida yangrar,
Sho'x musiqa sadosi.
Kuylab, o'ynaydi qizlar –
Xullas, juda katta bazm!
Qizlarga yondashay, deb,
O'rnidan turgandi chol,
Lekin umbaloq oshib,
Qulashiga sal qoldi,
O'g'li qo'litiqlab oldi.
Chol tik turar: depsinib,
Ohista hushtak chalar!
Ohista chertmak chalar;
Ko'zi esa, tek turmas –
Aylanardi parrakday!

«Siz nega o'ynamaysiz? –
Dedi chol kelinlar-u
O'g'illariga qarab. –
O'ynang siz ham!» – Nachora,
O'yinga tushdi to'rtov.
Ermak qilib kular chol! –
Bo'ron payti kemaning
Sahnida turgan kabi,
Tengsalardi tinmay chol;
Tasavvur etardiki,
Uning zamonasida
Ko'ngil ochish bu bo'pti!
«Qo'shiq aytib ber, Lyuba!»
Zarrin sochlari yosh kelin
Kuylamoqchi emasdi,

Lekin chol qistab qoldi.
Xo'b soz kuyladi bekach!
Muloyim, nafis u kuy,
So'lim, nozli u ohang –
Go'zal yoz oqshomida
Baxmal o'lanzor bo'y lab
Esgan salqin yel kabi,
Ko'klam yomg'irlarida
Barglar shiviri kabi
Juda yoqimli edi.

O'sha soz kuy ostida
Duvarak uxlاب qoldi.
Uni katta qayiqqa
Yotqizdilar avaylab.
Ko'k soyabon ko'tarib,
Turar chol tepasida.
O'sha fidokor malay,
Bir qo'lida yelpig'ich,
Tinmay chivin haydardi.
Jimjit o'ltirishardi
Azamat qayiqchilar;
Musiqa ohanglari
Yoyilar sekin-sekin...
Qayiq asta qo'zg'alib,
Suza ketdi bir tekis...
Zarcha betlik bekachning
Oltin sochlari yelda –
Hilpiragan bayroqday
O'ynar, tovlanar edi...

– Cholning ko'nglini topdim, –
Dedi Klim. – Mayliga!
Manmanlik qil, boshvoqsiz!
Kattalik qil, baqiroq chol!
Yangi erkdan bexabar,

To'ralikda o'lib ket;
Qulchilik qo'shib 'imiz,
Qarollik musiqamiz
Ohanglari ostida –
Qandoq yashagan bo'lsang,
Shundoq o'l, lekin tezroq! –
Dehqon ham hordiq olsin!
Hey, yor-u birodarlar!
Ta'zim qilinglar menga,
Qulluq, Vlas Ilich, de!
Jon kuydirdim el uchun!
Duvarakka ro'baro'
Turish o'zi badbaxtlik...
Tiling galdirab qolar,
Kulging qistaydi, xolos!
Chap ko'zi... aylanishga
Boshlasa ham – bir balo!
Qaraysan-u o'ylaysan:
«Yo'l bo'lsin, yolg'iz do'stim!
Qayerga ketayapsan,
O'z ishing qistadimi,
Yo birovning qulligi?»
Yo, chopar yorlig'ini'
Topganga o'xshaysan-a!..»
Kulgim qistadi bir gal,
O'zimni bosdim zo'rg'a!
O'zim-ku mast-alast,
Tuturiqsiz dehqonman:
Omborda bitta qolmay,
Kalamush ochdan o'ldi,
Uyim ham qup-quruq, bo'sh,
Lekin, xudo ursinki,
Bundoq surgun haqiga
Ming so'lkavoy bersa ham –

Bormas va qilmas edim;
Duvarak qarshisida
Turibman-u... u yolg'iz
Mening ixtiyorimda,
Bemazalik qilyapti;
Shuni aniq bilmasam,
Yondashmas edim aslo...

Vlas o'ychan dediki:
«Maqtan!.. Biz-ku yaqinda,
Faqat biz ikkov emas,
Butun jamoa – shu el...
(Butun rus dehqonlari!)
Hazil emas, chinakam,
Pul uchun emas, tekin,
Uch yoki to'rt oy emas,
Umrbod... gap na hojat!
Maqtanmasak ham bo'lar,
Landovurmiz-ku axir,
Laqab ham bejiz emas!»

Klim Lavinni, lekin,
Shirakayf talay dehqon
Siyplashdi: «Ko'tar baland!»
Ko'tarishdi ham... «Ura!»
So'ng tul Terentyevnachi,
Go'dak Gavrilo bilan
Yonma-yon o'tqazdi-yu,
Kuyovni qayliq bilan
Qutlashga tushdi Klim.
Dehqonlar horiguncha
Laqillashdi, kulishdi.
Xo'jayinlar sarqitin
Yeb, ichdilar batamom,

¹ Harbiy choparlarga manzillarda navbatsiz ot olishga huquq bergan hujjat – yorliq (qadimgi Rossiyada).

Qishloqqa keldilar
Sudralishib kech oqshom.
Uydagilar og‘zida –
Hech kutilmagan xabar:
O‘libdi chol Utyatin!
– Qandoq axir? – «Qayiqdan
Olib chiqishgandayoq
O‘lgandi – ikkinchi gal
Tutibdi tutqanog‘i!»

Dehqonlar ong-tong bo‘lib,
Qarashdi... cho‘qinishdi...
Bir xo‘rsinib olishdi...
Hech qachon bunday inoq,
Bunday teran va raso
Nafas olmagan edi –
Besavod aymog‘ida
Sho‘rlik Lavang qishlog‘i...

Landovurlar sevinchi
Cho‘zilgan yo‘q ko‘p uzoq.
Duvarak o‘lgandan so‘ng,
Bitdi erkalashlar ham:
Karaxt Lavang qishloqqa –
Es-hushin yig‘gani ham
Vaqt bermadi askarlar¹.
O‘tloqzor uchun bo‘lsa,
Merosxo‘rlar dovlashar
Dehqonlar bilan hanuz!
Vlas dehqonlar uchun
Arza ko‘tarib sarson,
Yashaydi Moskvada...
Piterga borib keldi,
Lekin, nechundir naf yo‘q!

1872

¹ Cholning ikki o‘g‘li.



OLAMGA
TATIRLIK
BAZM

(Ikkinci bo Timdan)



Sergey Petrovich Boshkinga
bag'ishlayman

KIRISH

Aholisi azaldan
Yo dehqon, yo smolokur'
Vaxlaki – Lapashangkent
Qishlog‘ining chetida,
Kentlilar hayotiga
Boshdan bosh sodda guvoh –
Juda qadimgi – qari
Bir majnuntol bo‘lardi;
Bayramlar-u yig‘inlar
Shu majnuntol tagida
O‘tar edi hamma vaqt.
Shu majnuntol tagida
Kunduzlari mushtlashib,
Kechqurun tushganida,
O‘pishar, uzr aytishar!
Bugun ham naq shu joyda
Olamga tatigulik
Kattakon bazm borardi!
Qanaqa ish bo‘lmasisin,
Piterda ko‘rganidek,
Boshqarishga o‘rgangan;
Nutqlar so‘zlanguchi,
Olqishlar aytilguchi

Oliyjanob bazimlarni
Ko‘p ko‘rgan Klim Yakovlich –
Bu joyda jo‘raboshi.
Shu orada sochilgan
G‘o‘la-yu xarilarga,
Uy qurganda kesilib
Tashlangan yog‘ochlarga –
O‘tirishdi mujiklar!
Bizning yetti sayyoh ham
Oqsoqol Vlas bilan
O‘tirishardi shu yerda.
(Ular har joyda tayyor.)
Ichishmoqchi bo‘ldilar,
Vlas mitti o‘g‘liga
Aytdi darrov: «Chopgin tez,
Trifonni chorlab kel!»
Jamoa dyachogi²,
Oqsoqolning jo‘rasi
Maishatparast Trifon,
Ikki o‘g‘li yonida,
Bazmga yetib keldi:
Savvushka va Grisha,
Ikkalasi seminarist³,

¹ Smolokur – qora yog‘ochdan mum, qatron chiqarib, shu kasb bilan kun ko‘rguchi.

² Dyakon – unvonsiz ruhoni. Butxonaning kichik so‘fisi.

³ Seminarist – o‘scha vaqtida ruhoniylar yetkazadigan muktab talabasi.

Kattasi o'n to'qqizda,
Hozirdanoq bosh so'fi',
Grigoriysi bo'lsa,
Ozg'in va juda rangpar,
Sochining tolalari –
Juda ingichka, nozik,
Jingalak, rangi qizg'ish.
Ikkalasi ham yuvosh,
Sodda yigitlar edi,
Ekinda-yu o'roqda
Baravar ishlashardi,
Bayramlarda ular ham
Dehqonlardan qolishmay,
Araq ichishar edi.

Qishloqning naq ketida
Volga daryosi oqar,
Daryoning u yuzida
Kichik shahar bor edi.
(Anig'ini aytganda,
O'sha payt bu shaharning
Nomi o'chgandi butun,
Chala yongan to'ngakday
Qorayib ko'rinaldi:
Uch kun avval o't ketib,
Yongandi shahar tamom!)
Lapashangkentlilarning
Tanish-bilishlari-yu,
Boshqa yo'lovchilar ham
Shu yerda qo'nib o'tar,
Otlariga yem berib,
Sol kutishar edi.
Tentiragan gadoylar,
Jovroqi sayyoohlar-u
Yuvosh xudojo'ylar ham
Bu yerga kelishardi.

Keksa knyaz o'lgan kun
Dehqonlar bilmasdiki:
Yoyloq, o'tloqlar emas,
Katta dov ortdirdilar.
Ozroq ichishgandan so'ng,
Hamma gapdan oldinroq
O'sha o'tloq haqida
So'z talashga tushdilar.

Ey Rus, hamma yerlaring
Aldoqchi tanobchining
Qo'lidan o'tganmas-ku:
Totuv va tuzukkina
Maqttagulik burchaklar
Topiladi, albatta!
Biron tasodif bilan,
Yo uzoqda yashovchi
Pomeshchik bilmay qolib,
Yo vakil xato qilib,
Yo dehqonlardan chiqqan
Ishboshilarning ko'p vaqt
Uddaburroligidan,
Har qalay dehqonlarga
Bir burda o'rmoncha ham
Tegardi onda-sonda...
U yerda mujik mag'rur,
Ellikboshi mujikning
Darchasin qoqsin, qani,
O'lpon so'rab ko'rsin-chi,
Mujikning jahli qistar!
Vaqt yetkuncha bir javob:
«Sen o'rmonni sotaqol!»
Lapashangkentlilar ham
Yaylov, o'tloqlarini
O'lpon to'lovi uchun
Alishmoqchi bo'ldilar:

¹ Aslida protodyakon.

Chamalashib ko'rganlar,
Hisobini olganlar,
O'lpon-u obrokidan¹
Ortib qoladi sotsa...
«Shunday emasmi, Vlas?»

– O'lpon to'landimi, bas,
Salom-alik yo'q menda!
Hushim kelsa – ishlayman,
Bo'lmasa, xotin bilan
Yumalashib yotaman,
Yo bo'lmasa, to'p-to'g'ri
Ichkuxona boraman!
Jami lapashangkentli
Klim Savin so'ziga
Qo'shilib: – Shundoq! – dedi, –
O'lpon to'lansin shundoq!
«Hoy, sen – Vlas amaki,
Bu gapga nima deysan?»

– Klim uncha sergapmas,
Ammo, churq eta qo'ysa,
Mayxona viveskasi
Singari tushunarlik;
Klimchaning fe'llari
Shu turganlarga ayon –
Qizlarni yetaklashdan
Ishini boshlaydi-yu,
Ichkuxonaga borib,
Cho'ntagin qoqib chiqar!
Mana shundoq tegishib,
Kulib qo'ydi oqsoqol.

«Qayda qoqib chiqardim?
Zindonda emas, axir!
Ishing haq bo'lgandan so'ng,

Qarg'aday qag'illamay,
Dangal hal qilaber-da!»

Vlas qag'illaydigan
Chol emas edi biroq,
Ko'ngilchan, kuyunchakdi,
Bir o'z o'yi uchunmas,
Butun lapashangkentlik
Xaloyiqning joniga
O'rtanguchi chol edi,
Qattiqqo'lli barinda
Xizmat qilar kan, Vlas,
Vijdoni og'risa ham,
Shu muttaham zolimning
Buyrug'in bajarardi.
Yosh ekan, yaxshi kunlar
Kelar deb ko'z tutdi u,
Ma'lumki, bu zamonda
Kutunmaklik doimo
Yo hech, yo falokat-la
Oxirga yetardi!
Vlas esa, bunchalik
Tiqin-tiqin va'daga
Cho'chib, ishonmas edi,
Yangilikdan tonardi.
Vlas shunaqa edi,
Qovog'i soliq edi!
Chol tushmagur bu navbat
Chidab turolgani yo'q.
Kimlar-kimlar o'tmagan,
Belokamenniy degan –
Serqatnov, katta yo'ldan,
Shu dehqonning qalbidan
Ezib, yanchib, tepkilab
O'tgan javr-u jafoning
Sanog'i oshar edi!

¹ Obrok – o'sha vaqtda mahsulot solig'i (Natural soliq).

Hazil ish emas, axir!
 Hamqishloqlar sho'xligi
 Qitiqladi uni ham!
 Beixtiyor o'yldi:
 «To'lovsiz... ham o'lponsiz...
 Kaltaksiz... yo Parvardigor!
 Shunday kun kelarmikin?»
 Iljayib qo'ydi Vlas.
 Shundoq, ba'zida quyosh,
 Haroratlik osmondan
 G'uj o'rmon orasiga
 Nur sochar – u yerda-chi,
 Go'yo mo'jiza bo'lar:
 Olmos poralar kabi
 Tovlanadi shudringlar,
 Yashil po'panak bo'lsa,
 Porlar oltin rangida.
 «Ich, ha, ich, qandingni ur!
 O'ynab qol Lapashangkent!»
 Xursandlik avj olgandi:
 Hammasing ko'nglida
 Yangi his o'ynar edi.
 Tagsiz jar taglaridan –
 Qudratli to'lqin go'yo,
 Ularni yorug'likka
 Olib chiqib, tugalmas
 Bazm bermoqda edi,
 Ziyofat qilmoqdaydi!
 Tag'in bir chelak chog'ir
 Keltirdilar o'rtaga,
 Tinimsiz g'ala-g'ovur
 Ham qo'shiqlar oldi avj.

O'lganni ko'mgandan so'ng,
 Qavm-u qarindoshlari
 Ma'rakaga yig'ilib,
 Tovoqlar bo'shab, toki,
 Uyqusi kelmaguncha,
 O'lganni eslashadi.
 Bunda ham xuddi shundoq.
 Majnuntol soyasida
 Ichishar, vaqillashar,
 Go'yo, bari pomeshchik
 Ma'rakasida hozir.
 Dyachokni, ham uning
 O'g'illarin qistashar:
 «Shodiyona kuylang tez!»
 Kuylashdi azamatlar.
 (El o'zi to'qimagan –
 Bu kuyni, birinchi gal,
 Lapashangkent eliga
 Trifonning kichigi
 Groriy kuyladi.
 Xalqdan krepni¹ olgan
 Chor «qoida»sidan keyin,
 Mastona bayramlarda,
 Poplar-u qo'lanchilar,
 Sho'x o'yin ohangida
 Bu qo'shiqni kuylardi, –
 Lapashangkent kuylamas,
 Faqat quloq solishar
 Ham yer depsinishardi,
 Hushtak chalishar edi;
 «Shodiyona!» deyishgani
 Bejiz emas-da, axir!)

¹ Krep – krepostnoy huquq.

I. OG'IR ZAMONLAR – MUNGLI QO'SHIQLAR

SHODIYONA

– Yovg‘on icha ber, Yasha!
Sutimiz yo‘q, oppog‘im! –
«Sigirimiz qayoqda?»
Oldilar-ku, chirog‘im!
To‘ra, urchitaman deb,
Oldi tug‘ar chog‘ida.
Maqtuguday yashar xalq,
Qutlug‘ Rus tuprog‘ida.

«Tovuqlarimiz qani?» –
Qizchalar shovqin soldi.
– Shovqin solmang, tentaklar!
Ularni sudya oldi,
Arava ham oldi u.
Bir talay quruq va’da.
Maqtugulik yashar xalq
Qutlug‘ Rus tuprog‘ida.

Belim og‘riydi, belim,
Kutmas achigan xamir.
Katerinasin eslab,
Yig‘lar ayol besabr.
– Bir yilki, qizim – cho‘ri...
Xo‘jayin qarmog‘ida.
Maqtugulik yashar xalq,
Qutlug‘ Rus tuprog‘ida.

Tarqab ketar bolalar
Bo‘yi sal cho‘zilmayin,

O‘g‘illarni chor olar,
Qizlarni-chi, xo‘jayin!
Bironta tug‘ma mayib,
Qolar qaramog‘ingda.
Maqtugulik yashar xalq,
Qutlug‘ Rus tuprog‘ida!

So‘ng lapashangkentlilar
O‘zlarining qadrondon
Qo‘sishqlarin aytdilar:
Davra olib, dur kelib,
Hazin va mungli edi,
O‘zgasi hozircha yo‘q.
Hayron bo‘lgulik hol-ku?
Rus tuprog‘i keng, cheksiz,
Unda xalq son-sanoqsiz,
Lekin, biron ko‘ngilda
Ko‘p zamonlardan buyon
Quvnoq va yorug‘ kunday
Beg‘ubor biron qo‘sish
Yalt etib, yangragan yo‘q!
Hayron bo‘lgulik hol-ku!
Qo‘rqib ketgulik hol-ku?
O, zamon! Yangi zamon!
Seni ham qo‘sishqlarda
Kuylab qoladi bu xalq,
Lekin, qanaqa degin?
Xalqning sezgir ko‘ngliga

Tegishib bo'larmikin?
Qani, jur'ating ko'rsat,

Sho'x qo'shig'ing aytvor!
Kuylab o'rgangan xalqim!

B A R S H C H I N A Q O ' S H I G ' I

Klinushkani qarang, sochlari
taralmagan,
Kambag'al ahvoliga hech zamon
qaralmagan,
Gavronlarning izi bor
yag'rinida, quymichida,
Qon talashib ketgan-u, lekin
ko'yvak ichida

Tovondan yoqagacha –
Terisi parcha-parcha,
Qorni yeypberib kepak –
Gupuripti pufakdak!

Balolarga yo'liqqan,
Kaltaklangan, so'liqqan,
Yursa, chalishib ketar
sho'rlikning oyoqlari,
Tanda mador qo'ymapti
xo'jayin tayoqlari.

Alamini oladi,
Qovoqxonaga borib,
Araqfurushga bo'lsa,
Ming yalinib, yolborib,
O'lgudayin ichadi.
Shanba kuni baqirar,
O'zi og'ilxonada –
Xotinini chaqirar.

«Ajoyib qo'shiq ekan!
Yodda qolsa yaxshiydi!»
Eslari kaltaligin

Hasrat qildi sayyoohlar.
Lapashangkentlilar-chi,
Maqtanchoqliq qilishar:
– Biz majburiy qarz dorlar!
Biznikidan tatib ko'r,
Chiday olarmikinsan!
Biz majburiy qarz dorlar!
Biz pomeshchik tumshug'i
Tagida o'sganlarmiz;
Kunduz – surgun mehnati,
Tundachi – badtar azob!
Rasvolik, sharmandalik!
Biz turgan qishloqlarga
Qiz qidirib uch otliq,
Aravada choparlar,
Kelar edi kechasi!
Bir-birimizni u payt
Tanimay qolar edik,
Ko'zimiz yerga boqar;
Tillarimiz tutilib,
Nomusdan indayolmay,
So'z aytolmay qolardik.
Indamay ichishardik,
Indamay o'pishardik,
Indamay so'kishardik.
– Buni gapirmayoq qo'y!
Bizdagisi badtarroq! –
Dedi qo'shni volostdan
Yem-xashak ortib kelgan
Bir dehqon so'z qistirib.
(Muhtojlik shunchalarki,
Yetilmagan pichanni
O'ripti-yu ortipti,

Bozorga elitmoqda!)
– Bizning bekamiz bo‘lmish
Gertruda Aleksandrovna –
Kim dag‘al so‘zlab qo‘ysa,
Ayovsiz kaltaklatmoq,
Adabin bermoq bo‘ldi.
Rostdan to akillashni
Qo‘ymaguncha urdilar.
Mujik akillamasa –
Joni bo‘g‘ziga kelar!
Indamaslik ham azob!
Jondan ham bezor bo‘ldik!
Erk olgan kunda bo‘lsa,
Bayramdagи singari
To‘yguncha so‘kishdik-a!
Hattoki, o‘sha kuni
Qo‘ng‘iroqday guvlagan
Bizning u so‘kishlardan
Xafa bo‘ldi pop Ivan.

Birin-ketin shundog‘am
G‘alati sarguzashtlar
Aytibaloshladiki...
Ajablanish ne hojat?
So‘z axtarib, olisga
Borish ham kerak emas,
Hammasin o‘zi ko‘rgan,
Yelkasida ko‘targan.
Yelkasiga yozilgan –
O‘z umrining qissasi.

«Bir taajjub voqeа
Bo‘lib o‘tdi bizda ham,
Undaqasi bo‘lmaydi!»
Chakka sochlari o‘sinq –
O‘zi qora soqollik,
Novcha, baquvvat yigit
Gapni boshladi shundoq:

(Bu yigitning boshida
Chambarak shlyapa-yu,
Shlyapada belgi bor.
Egnida qizil nimcha,
O‘ntacha oq tugmalik.
Cholvori kanapdan-u,
Kovushi – chipta kovush.
Bu yigit shu turishda
Daraxtga o‘xshar edi:
Go‘yo, sho‘x cho‘pon bola
Bo‘yi yetgan joygacha
Po‘stloq qo‘ymay shilgan-u,
Balandrog‘i – qolgan sog‘;
Teparog‘ida bo‘lsa,
Qarg‘a hech hazar qilmay
In qursa arzigulik.)
– Qani, xo‘sh, og‘aynijon,
Hikoyangni davom et!
«To‘xtang-chi, chekib olay!»
U tamaki chekarkan,
Vlasdan sekingina
So‘radi yetti sayyoh:
– Bu beta’sir kim o‘zi? –
«Jafokash musofir-da.
Kelib, shu bizning volost
Hisobiga o‘tgandi.
Baron Tizengauzenda
Xizmatkor bo‘lgan ekan,
Otini so‘rasangiz –
Vikentiy Aleksandrovich.
Sakrab, jilovdorlikdan
Dehqonchilikka o‘tdi.
Laqabi ham «Jilovdor!»
O‘zi baquvvat, lekin –
Oyoqlari bedarmon,
Doim qaltirab turar.
Xo‘jayinning xotini
To‘rt otni qator qo‘shib,

Qo'ziqorin tergani
Karetada borarkan...
Aytadi! Quloq soling!
Maqttagulik esi bor, –
Zag'izg'on tuxumini

Yegan bo'lsa ehtimol!»¹
Vikentyi Aleksandrovich
Chambarak shlyapasin
To'g'rilaq, gapga tushdi.

VAFODOR HAM MAQTOVLIK MALAY YAKOV HAQIDA

Bo'lar edi past nasabdan bir
 xo'jayin,
Sotib olgan pora pulga kichik
 qishloq,
O'ttiz yilcha yashar chetga hech
 chiqmayin,
Achchiq sharob ichar, o'jar ham
 beboshvoq.
Ochko'z, ziqna... dvoryanlarni
 suymas edi,
Singlisiga borar faqat
 ichmoqqa choy.
Tug'ishganga hatto jindak
 kuymas edi,
Unga qaram dehqonlarning
 holiga voy!..
To'ydan keyin bevaj urib o'z
 kuyovin,
Qip-yalang'och haydab soldi qiz
 ikkovin.
Yakov degan unga ham qul, ham
 xizmatkor,
Ham maqtovlik, ham vafodor,
Qoq tishiga tepib, doim berar
 ozor!
Xo'jayiniga jon ayamas
 xizmatkorlar –
Ba'zan-ba'zan it singari
 ko'p beorlar;

Jazo og'ir, kaltak og'ir
 bo'lgan sayin,
Unga yaxshi ko'rinadi ters
 xo'jayin!
Shundoqlarning biri edi
 Yakov yoshdan,
Pastkashlikdan xursand edi
 avvalboshdan:
Xo'jayinni siylar, saqlar,
 farmonbardor.
Ham jiyanin allalaydi...
 ne armon bor!
Shunday qilib, qaridilar
 ikkovi ham,
Xo'jayinning oyog'iga tegdi
 kasal.
Ko'p boqtirdi, lekin illat
 bo'lmadi kam!
Bas, ishratlar, qiyqiriqlar...
 chol yotar shol!
Ko'zлari-ku ravshan hali,
Yuzlari ham chaman hali,
Qo'llari ham yumri, semiz,
 qanday oppoq,
Lekin, kishan urilganday
 ikki oyoq!
Yotar edi pomeshchik tek to'n
 yopinib,

¹ Esi butun bo'lmoqlik uchun zag'izg'on tuxumini yer emishlar (*muallif izohi*).

Shum qismatin qarg‘ar...
Jilmas Yakov qarol:
Xizmat qilar vafodor qul naq
topinib,
Do‘stim, inim – atar uni
yotoloq chol. –
Qish ham, yoz ham ikkov birga –
boy-u malay.
Qarta o‘ynar ko‘p vaqt... Ko‘ngil
ochish uchun –
Chol singlisin yo‘qlab borar
ikkov talay,
O‘n-o‘n ikki chaqirimlab
yog‘insiz kun,
Yakov uydan dast ko‘tarib chiqar
olib:
O‘rar, chirmar... Aravada eltar
uzoq,
Kampiriga olib kelar qayta
solib,
Mana shunday yashardilar
ikkov inoq.

Yigit bo‘ldi Yakov jiyani,
oti – Grisha,
Cholga boshin bukib aytar:
«Uylanaman!»
– Qaylig‘ing kim ekan, qani,
xo‘sh? – «Arisha!»
Chol der: «Bas qil! Yo‘qsa seni
o‘ldiraman!»
Arishaga ko‘z tikkandi,
o‘ylardi chol:
«Oyog‘imga Tangri tezroq
bersin shifo!»
Jiyan uchun ko‘p o‘tindi sho‘rlik
qarol.
Askarlikka jo‘natdi tez chol
bedavo.

Shundai qilib – ham quli,
ham xizmatkorin,
Ham maqtovlid vafodorin,
Juda qattiq ranjiti chol
xo‘jayini.
Shundan keyin qo‘zib ketdi
qarol jini!
Nuql ichar... Chol Yakovsiz
qynalardi,
Kimki xizmat qilsa – so‘kar:
Rasvo! Ahmoq!
Hammaside ko‘pdan buyon bor
o‘ch dardi,
Qo‘rs gap aytar, o‘ch olishar,
payti shundoq!
Chol o‘tinar, ba’zan qopar,
xuddi ko‘ppak,
Shundai qilib, bir-bir o‘tdi
o‘n besh kun ham.
Vafodor qul qaytdi birdan
avvalgidak...
Qo‘sh bukilar, ta’zim qilar
sho‘rlik qaram.
Oyoqsizga ko‘ngli achib kelgan
emish:
Undan boshqa kim kuyarmish
boyga shuncha?
«Esdan chiqsin ayovsizlik va
o‘tgan ish,
Bo‘ynimda but o‘z qabrimga to
kirguncha!»
Tag‘in yotar pomeshchik tek
yopinib to‘n,
O‘tiradi boy poyida – jilmas
qarol.
Do‘stim, inim – atar tag‘in
sodda-yu, jo‘n.
«– Xafasan-ku, Yasha?» – Yo‘g‘-a,
shayton battol!

Qo'ziqorin tizdi ipga ikkov
ancha.
Tag'in qarta o'ynadilar, choy
ichdilar.
Ichimlikka jelak, olcha soldi
qancha.
Ovungali singil uyiga
ketdilar.
Chol chekardi, cho'zilgandi
beparvoroq,
Ko'ngil ochar yashil o'tloq,
ochiq havo.
So'zlagusi kelmas, Yakov qo'rs-u
chatoq,
Titramoqda qo'lidagi jilov
bejo.
Cho'qinadi: «Bas, ey mal'un!
Qoch, ey shayton!»
Pichirlaydi: «O'lib ket-e!»
(aldar iblis.)
Ketishmoqda... o'ng tarafda
xilvat o'rmon,
Qadim nomi – Shayton jari...
pastqam, olis!
Ot boshini Yakov o'shal jarga
burar,
Chol dovdirab so'rар: «Qayon,
axir qayon?»
Javob bermas Yakov; otlar
sekin yurar,
Talay chaqirim o'tar – yo'li
juda yomon.
Chuqur-chandir, singan daraxt,
oqar toshqin
Jar tagida... shuvullaydi
qarag'ayzor...
Otlar to'xtar – nari yurish
ortiq qiyin,

Qarag'aylar turardi zich, go'yo
devor...
Qirin boqmas Yakov bu vaqt
lol choliga,
Otlarini aravadan chiqarmoqda.
Titroq, rangpar, jon
ayamas qaroliga
So'z qotmoqda, yalinmoqda,
yolvormoqda. –
Va'dalarni tinglab Yakov
kuldi qo'pol:
«O'ldirmoqchi emishman-a?
Qo'rqmagil, bas!..
Qo'limni ham bulg'atmayman,
bilib qo'y, chol!
Yo'q, o'lmaysan! Ajal senga
kelgan emas!»
O'rmaladi Yakov ulkan
qarag'ayga,
Jilovini berch bog'ladi
baland joyga,
Cho'qindi-yu, ko'z tashladi
quyosh tomon,
Ham sirtmoqda berdi u jon!..

Yaratganga ne ham deysan!
Boy lol qolar,
Tepasida chayqalar qul bir
tekis, jim.
To'lg'anar chol, ho'ngrar,
dodlar, ayhos solar,
Aksi sado... lekin javob
bermas hech kim!
Bo'ynin cho'zib, dodlar nafas
o'tgan sari,
Baqirig'i benaf, kelmas edi
birov.

Oq kafanga o'ralgandi
Shayton jari,
Tunda tushar bunda qalin
shudring, qirov.
Tim qorong'i! Uchar, tinmas
gala boyqush,
Qanotlarin keng-keng yozib,
yerga urar.
Eshitilar ot barg yegan
kart-kart tovush,
Qo'ng'iroqlar sekin jarang
berib turar.
Chugunkaning¹ ko'zlariday yonar
yorqin –
Ana qo'sh ko'z, misoli cho'g',
yum-yumaloq.
Uchar tag'in bir gala qush
solib shovqin,
Butoqlarga qo'nar bari –
emas yiroq.
Yakov uzra bir qarg'aning
qag'illashi!
Eha! Ko'p-ku!.. Yuz chamali...
Ol-ha, yeysan!..
Kisht-kishtlar chol... Yangrar
tayoq taqillashi...
Do'q urar chol... Yaratganga ne
ham deysan!
Chol kechasi jar tagida yotdi
shundoq,
Qushlardan-u bo'rilardan
qo'rib o'zin.
Nogoh ovchi ko'rib qoldi
ertasiyoq.
Qaytar ekan, yig'lab aytar
manov so'zin:

«Gunohkorman, gunohkorman!
Bering jazo!»
Sen – chol, Yakov xizmatkorni,
Jon ayamas, vafodorni –
To qiyomat unutmassan – aslo,
aslo!

«Gunoh! Gunoh!» – shu ovoz
Yangradi to'rt tarafdan:
«Esiz Yakov! Cholga ham
Iching achib ketadi.
Qanday jazo o'ylapti!»
«Achin!» – deydi bittasi.
Tag'in o'shandoq uch-to'rt
Qo'rqinch qissa tinglashib,
Kim hammadan gunohkor? –
Degan so'roq ustida
So'z talashib ketdilar.
Biri der: «Araqfurush!»
Biri der: «Pomeshchiklar!»
O'zgasi: «Mujiklar!» – der.
Bu – Ignatiy Proxorov –
Kirakash, sipoh, kamgap,
O'ziga to'q bir dehqon.
U ko'pni ko'rgan edi,
Viloyatni batamom
Aylanib chiqqan edi.
Quloq solmoq lozimdi.
Lekin, Lapashangkentning²
Jahli shundoq chiqdiki,
Ignatni bir og'iz ham
So'zlagani qo'ygan yo'q.
Ayniqsa, Klim Yakovlev
Jinniligin boshladi:

¹ Chugunka – parovoz.

² Bu yerda aholi ko'zda tutiladi.

«— Sen – ahmoq ekansan-ku!»
— Avval qulog solsang-chi...
«Ahmoqsan-da,
...Har qalay,
O'zim ko'rib turibman.
«Asti ahmoq o'zingiz!» —
Dedi shu payt Yeremin —
Savdogarning ukasi,
Aytib qo'ydi qo'pol so'z,
O'zi ham olibsotar;
Nimaiki uehrasa,
Buzoqmi, chiptakovush,
Ituzummi, bari bir,
Sotib olguchi edi;
Ayniqsa, o'lpon payti,
Lapashangkent bor-yo'g'in
Bozorga eltganida,
U qulay fursat poylab,
Arzon sotib olishga
Juda ham usta edi.
— Janjal-ku boshladningiz,
Lekin ma'ni chiqqan yo'q!
Axir o'ylab ko'ring-da!
Eng gunohkor kim bo'ldi? —
«Xo'sh, kim axir? Sen ayt-chi!»
— Kimligi juda aniq:
Yo'lbosarlar gunohkor!
Klim javob aytadi:
«Siz – qaram bo'lmasansiz,
Krepostnoy bo'lmasansiz,
Krepostnoylik azobi
Boshingizga tushmagan!
Hamyoning to'lipti-da!
Qayga borma, ko'zingga
Yo'lbosar ko'rindi,
Talon – alohida gap,
Bu suhbatda eslama!»
— Qaroqchi qaroqchining

Yonini olayapti! —
Dedi jallob, Klim-chi,
Irg'ib, o'midan turdi,
Yakanchining og'ziga
Musht urib dedi: «Yolvor!»
— O'ldim deyver bo'lmasa!
Yakanchi musht tushirdi.
— Jang mundoq bo'lipti-da!
Obbo azamatlar-ey! —
Dehqonlar tislanishdi,
Hech kim gij-gijlagan yo'q,
Ajratis ham qo'yan yo'q.
Musht tushardi do'l kabi:
«O'ldiraman! Uyingga
Xat yozgin – o'lmay turib!»
— O'ldiraman! Pop chaqir! —
Axiri Klim Savin
Jallobni xippa bo'g'ib,
Sochini yulib, tortib,
Egdi o'z oyog'iga,
Ham dedi: «Qani, egil!
Oyog'im o'p, tavba qil!»
— Bo'ldi, bas! — dedi jallob.
U dilozor bo'g'zidan —
Qo'lini oldi Klim,
G'o'laga o'tirdi u,
Kattakon, katak-katak
Dastro'molini olib,
Yuzin artarkan, dedi:
— Sen ustun kelding, to'g'ri.
Ajablanmoq ne hojat?
Sen qo'sh ham haydamaysan,
Sen o'roq ham o'rmaysan,
Hunaring – ot tabiblik,
Yallo qilganing qilgan,
Nega kuching oshmasin?
(Dehqonlar kuldilar.)
— Tag'in mushtlashmaysanmi?

Dedi kekkayib Klim.
 – Bo'lmasam-chi! Kelaver!
 Uzun movut chakmonin
 Ehtiyot bilan yechib,
 Kaftiga tufladi-yu,
 Tayyorlandi yakanchi.
 «Gunohkor lablarimni
 Ochishga navbat keldi:
 – Eshiting! Qulq soling!
 Yarashtirib qo'yaman! –

Dedi shu payt Ionushka».
 U hamavaqt indamay,
 Uh tortib va cho'qinib,
 So'z tinglab o'tirgandi,
 Yuvosh, taqvodor edi.
 Savdogar xursand bo'lidi;
 Klim ham indagan yo'q,
 Hammasi o'tirdilar,
 Suv quyganday jimjitlik.

II. SAYYOHLAR VA XUDOJOYLAR

Uysiz, urug'-aymoqsiz,
 Tentiragan odamlar –
 Oz emas Rusiyada,
 Ular qo'sh haydashmaydi,
 O'roq ham o'rishmaydi,
 Mita, sichqondan tortib –
 To besanoq askarni
 To'ydirguchi kattakon
 Nonxonadan yeysi non,
 Omborni to'ldirguchi –
 O'troq dehqon bo'ladi!
 Butun-butun qishloqlar
 Kuzda, unumlik kasbday,
 Gadoylikka ketishi –
 Xalqqa ma'lum bo'lsa ham
 Sadaqa berishadi!
 Xalq vijdonda o'ylarki:
 Bu – aldab yeuish emas,
 Bu baxtsizlik balosi!..
 Ko'p vaqt taqvodor kampir –
 O'g'ri chiqib qoladi;
 Hojisimon daydilar –
 Mozorbosdi non uchun –
 «Maryam ko'zyoshi» uchun
 Ayollarning yigirgan

Iplarin o'lja qilar.
 Keyin ma'lum bo'larki,
 O'sha Hojiman degan
 Troysi-Sergiyadan
 Nariga o'tmagan hech!
 Aldashsa ham, baribir,
 Sadaqa berishadi!
 Bir chol qo'shiqchi bordi.
 Ajoyib kuylar edi,
 Xalq uni sevar edi;
 «Krutie zavodi» degan
 Qishloqda o'sha mahal,
 Onalar roziligin,
 Olib bir talay qizga,
 Kuy o'rgata boshladi;
 Qo'shig'i – diniy qo'shiq!
 Qish bo'yi suluv qizlar,
 Chol yonidan chiqmasdan,
 Saroyda¹ o'tirdilar;
 U yerdan kuy yangrardi,
 Ammo, kulgi-yu qiy-chuv
 Eshitilardi ko'proq. –
 Axiri ne bo'lди deng?
 Qo'shiq o'rgatmapti chol,
 Hamma qizni buzipti.

¹ Saroy – bedaxona yoki yanchilmagan bug'doy turadigan katta uy.

Shunday korchalonlar-u,
Shunday ustalar borki,
Bekalarga darrovoq
Yoqib tushaqladi:
Xotin-xalaj orqali
Avval cho'rixonaga,
Keyin, naq begoyining
Xonasiga yo'l topar!
Shundan so'ng ko'rasizki,
Qo'lida talay kalit –
Shildiratib, hovlida
Kezar xo'jayin kabi,
Dehqon yuziga tuflar;
Xudojo'y kampirni-chi,
Egar qo'chqor shoxiday!
O'sha darbadarlarning
O'zgachalari ham bor,
Xalq buni ayon ko'rар.
Cherkovlarni qurgan kim?
Monastir kosalarin
Limmo-lim to'ldirgan kim?
Ba'zisi bor – kishiga
Yaxshilik qilmaydi-yu,
Yomonlik ham qilmaydi.
Ba'zisini tushunmaysan.
Fomushka degan biri
El-u yurtga tanig'liq:
Tanida ikki putday
Riyozat kishanlari,
Qish-u yoz yalangoyoq,
Nuqlu dovdirab yurar,
Lekin taqvodor yashar:
Boshida taxta-yu tosh,
Ovqati-chi, quruq non.
Uni hayron qoldirar,
Esidan chiqmas aslo –
Kropilnikov degan
Eski dindor bir kishi,
O'zi chol, butun umri –

Goh erkda, goh qamoqda.
Usolovo deydigan
Qishloqqa kelipti-yu,
Dinsizlar, deb hammani
Urisha ketipti chol.
Gunohdan arish uchun
O'rmonlarga chorlapti.
Mirshab shu yerda ekan,
Barini eshitipti:
– So'roqqa olib yuring!
Chol bo'lsa tik aytipti:
«Sen Iso dushmanisan,
Bedinlar elchisisan!»
Yuzboshi-yu oqsoqol
Ko'z qisishipti cholga:
– Ey, bosh eg! Quloq solmas!
Qamoqqa jo'natipti,
Chol boshliqni so'kipti,
Aravada tik turib,
Qishloqilarga depti:

«Sho'rliklar, sho'rlik boshlar,
Tag'in adoq bo'lasiz!
Juldurvoqi edingiz –
Qip-yalang'och qolasiz,
Qamchi-yu gavron bilan
Urishgan bo'lsa avval,
Temir chiviqlar bilan
Urishar sizni bu gal!..»

Qishloqlilar cho'qindi,
Boshliq jarchini urdi:
«Ierusalim sudini
Eslaysanmi, la'nati!»
Aravakash bolaning
Tizgini tushib ketdi,
U juda qo'rqqan edi,
Sochi tikkaygan edi!
Qarangki, chol aytgandek,

Xuddi ertasigayoq
Askarlar yetib keldi:
Ustoy degan yonma-yon
Qishloqqa soldat tushdi.
Tergovlar! Kaltaklashlar!
Alg'ov-dalg'ov boshlandi!
Yo'l-yo'lakay Uslovo
Qishlog'i ham qolgan yo'q,
Ko'rgiligin ko'rdiralar:
Ters chol payg'ambarligi –
Sal qoldiki yuz bersa.
Yefrosinyushka degan
Shaharli beva ayol
Xalq esidan chiqmas hech:
Tangrining elchisiday
Naq vabo kelgan yili
Paydo bo'ldi u kampir;
Kasallarni emlardi,
O'lganini ko'mardi,
Girgitton bo'lar edi.
Dehqon ayollar unga
Cho'qinguday sevardi...

Ey, sen notanish qo'noq!
Eshik qoqib kelaber!
Kim bo'lsang ham mayliga,
Qishloqi eshigini
Dadil qoqib, kiraver!
Tubjoy dehqon ko'ngilchan,
Sendan shubha qilmaydi;
To'q va boy odamlarday –
Notanishni ko'rganda,
G'arib, yuvosh kelganda,
O'g'ri emasmikan, deb,
Dehqon o'ylamaydi hech.
Ayollari bo'lsa-chi,
Qo'noq kelsa – suyunar,
Qishda, butun uy ichi –
Qorachiroq yonida

O'tirib, ishlashadi,
Yo'lovchi qissa aytar.
Hammomda xo'p yuvinib,
O'z qoshig'ini olib,
Tabarruk qo'li bilan,
To'yguncha terlab-pishib,
Baliq sho'rvani ichar.
Ozroq ichgan araq ham
Badanin jimirlatar,
Gap – daryo bo'lib oqar.
Uyda hech kim qimir etmas,
Hamma qotib qolganday:
Yamayotgan chorig'i
Tushar cholning qo'lidan;
Moki ham chiq-chiq etmas,
Dastgohda to'qiyotgan
Ayol ham, ancha bo'ldi,
Qo'noqqa quloq solar:
Shu uyning to'ng'ich qizi –
Yevgenyushka ag'rayib,
Chimchiloqqa juvoldiz
Sanchib oldi-yu, bilmas,
Og'rig'ini hech sezmas,
Bo'rtmasidan qon oqar,
Tikishi tizzasidan
Yerga tushib ketgan-u,
Ko'zlarin katta ochib,
O'tirar jim va hayron...
Go'daklar ham tiq etmas,
Arxangelskdan nari –
Muzlarda mudraguchi
Ayiq, baliqlar kabi,
Boshlarin shalviratib,
Yuztuban yotib olib,
Qarashar so'rillardan.
Yuzlari ko'rinmaydi,
Sochlari osilgan-u,
Yuzlarin to'sib turar;
Yuzlarning so'lg'inligin

Aytmasak ham bo'ladi.
To'xtang! Yo'lovchi hozir
Afon qissasin aytar:
Isyonchi monaxlarni –
Turklar oldiga solib,
Dengizga haydashganin,
Monaxlar bo'ysunishib,
Yuzlab g'arq bo'lishganin,
Aytib tamom qilmoqda...
Vahmali pichirlashar,
Ko'zlarda qo'rquv va yosh!
Qo'rqinch minut ham keldi,
Uy bekasin urchug'i
Tizzasidan yumalab
Yerga ham tushib ketdi.
Vaska¹ ham poylab turib,
Sakradi urchuq tomon!
O'zga vaqt bo'lsa edi,
O'yinqaroq, sho'x Vaska
Baloga qolardi-ya,
Hozir hech kim payqamas:
Abjir panjasin cho'zib,
Urchuqqa tegdi avval,
Keyin sakrashga tushdi,
To yigirilgan ip tugal
Chuvalib bo'lgunicha
Yumalay berdi urchuq.
Bittasi ham ko'rgan yo'q.

Dehqonning xonadoni –
Kelib-ketib yurguchi
G'ariblar qissasiga
Qanday quloq solganin
Kim ko'rib yurgan bo'lsa,
Tushunib oladiki:
Na mehnat, na zahmatda,
Na mangu tashvishlarda,

Na qullik kishanida,
Na-da qovoqxonada
Rus xalqi uchun hali
Chegara qo'yilganmas:
Uning oldida keng yo'l!
Ko'p zamon ekilgan yer –
Unum bermayin qo'ysa,
O'rmon tevaragidan
Parcha-parcha yer haydar.
Bu yerda ish yetkulik,
Har qalay yangi shudgor.
O'g'it sochmasang hamki,
Mo'l-to'kin hosil berar...
Rus xalqining qalbi ham
O'sha ezgu tuproqday...
O, ekinchi! Kel tezroq!..
Boyagi Ionushka –
(Lyapushkin ham o'sha)
Lapashangkentga ko'pdan
Kelib-ketib yurardi.
Xudogo'y bu sayoqdan
Dehqonlar jirkanishmas,
Balki, har kim eng oldin
Mehmon qilishni ko'zlab,
O'zaro talashardi.
Ularning janjalini
Lyapushkin o'zi yechardi:
«Ey! Xotinlar! Tez Iso
Suratin olib chiqing!»
Olib chiqishar edi;
Har surat qarshisida
Iona yer o'paridi:
«Talashmang, qaysi biri
Yoqimtoy ko'z tashlasa,
O'shang ergashaman,
Tangrim o'ziga ayon!»
Ko'p vaqt g'arib bir surat

¹ Vaska – mushuk.

Ketiga tushardi-yu,
G‘arib uyga borardi.
Shundan so‘ng o‘sha uyning
Hurmati oshib ketar,
Tugunchaklar, tovalar
Ko‘targan xotin-xalaj
Shu uyga chopishardi.
Iona iltifotidan

O‘sha g‘arib, qashshoq uy
To‘lib-toshib ketardi.
Bu gal ham Ionushka
Ixlos bilan cho‘qinib,
Shoshilmay va g‘ovursiz,
«Ikki ulkan gunohkor»
Hikoyasin boshladi:

IKKI ULKAN GUNOHKOR TO‘G‘RISIDA

Yaratganga yolboraylik-da,
Qadim naqllardan qilaylik
 bayon:
Solovkada aytib bergandi,
Pitirim atalgan monax bir
 zamon.

O‘n ikki qaroqchi bo‘lardi
 bir vaqt,
Qo‘rboshisi edi Kudeyar.
Qanchalab xristian qonini
 to‘kar,
Qancha begunohga berardi ozor.
Talay mol-u davlat
 jamg‘arishgandi,
Kun ko‘rishar qalin o‘rmonda
 xushhol,
Qo‘rboshi Kudeyar Kiyev
 tomondan,
O‘ngarib kelgandi
 bir sohibjamol.
Kunduz ma’shuqasi bilan
 ovunib,

Kechasi boshlardi bosqin-u
 talon,
Qaroqchining dilida Tangri,
Insif uyg‘otipti nogahon. –
Uyqusi qochipti; jonga tegipti –
Mastlik, bazm, qon to‘kish,
 g‘orat va bosqin.
O‘liklar ko‘lkasi kelar ekan,
Sanoqsiz qo‘shinday oqin va
 oqin.

Uzoq olishgandi, Yaratganiga
Terslik qilgan edi u
 yirtqich – odam,
Axir ma’shuqasin oldi boshini,
O‘ldirdi tig‘ tortib yasovulin
 ham. –

Yovuzdan zo‘r keldi vijdon
 azobi,
Tarqatib yubordi o‘z to‘dasini.
Yiqqan mol-u mulkni berdi
 cherkovga,

Tol tagiga ko'mdi dudamasini.
 Keyin, gunohlardan pok
 bo'layin deb,
 Ezgu sag'anaga yo'l soldi uzoq,
 Tentirab, topinib, tavba
 qildi ko'p,
 Lekin, baribir qalbin
 tirnardi qiynoq.

Monax jandasida – qariganida
 O'z uyiga qaytdi axir gunohkor,
 O'rmonda, qadimiy eman tagida
 Holiy bostirmada topti u qaror.

Kecha-kunduz birday ibodat
 qilar,
 Gunohim kechir, deb so'rар
 xudodan,
 Mayli, tanim cheksin riyozat,
 lekin,
 Jonimni qutqazgin o'zing
 balodan.

Tangri rahmi keldi –
 zahmatlar uchun
 Qutulmoq chorasin bunga
 qildi pesh:
 Chol kechasi bedor topinar ekan,
 Ko'z o'ngida paydo bo'ldi bir
 darvesh;
 U dedi: «Tangrining xohishi
 ekan,
 Eman tagi senga boshpana
 bu gal,
 O'sha dudamangni qo'lga ol
 tag'in,

Kesmoqqa boshlagin emanni
 tugal.
 Bu zahmat ham senga ko'p og'ir
 bo'lur,
 Ammo, zahmat uchun olursan
 in'om:
 Eman ag'darilib tushgan
 kuniyoq
 Gunoh bo'g'ovlari uzilur
 tamom!»

Emanni o'lchashga tushdi
 sho'rlik chol,
 Eman yo'g'onligi keldi uch
 quloch.
 Duo o'qib, kesaboshladi darhol,
 Dudamasin ishga soldi noiloj.

Kesar tarang daraxt tagini
 bir-bir,
 Tangriga shukrona kuylar
 dam-badam,
 Yillar o'tmoqdalar asta,
 ketma-ket,
 Ish ham asta oldin tashlashda
 qadam.
 Eman yo'g'on edi, pahlavon edi,
 Nima ham qilardi ojiz, xasta
 chol?
 Temirdek qayrilmas kuch
 kerak, axir,
 Ham yigitlik kerak, chol-chi
 bemajol!
 Ko'nglida bir shubha tug'ilib
 yashirin,

Asta kesar ekan, eshitar ovoz:
 «Nima qilayapsan bunda, ey
 keksa?»
 Bir cho‘qinib oldi chol ham
 turib g‘oz.
 Ko‘z solib ko‘rdiki – o‘ngida
 turar,
 Pan Gluxovskiy – tagida bedov,
 Pan – badavlat, mashhur
 o‘sha yoqlarda,
 Unga bas kelarday yo‘q edi
 birov.
 Uning battolligi, zolimligidan,
 Qilmishidan bu chol xabardor
 edi;
 Ham gunohkor panga sirini
 ochib,
 Pand-u nasihatdan talay so‘z
 dedi.

 Pan-chi, kulib qo‘ydi: «Ko‘p
 vaqt bo‘ldikim,
 Tavbaga ishonmay qo‘yanman
 taqsir,
 Mening yoqtirganim dunyoda
 faqat;
 Oltin, suluv xotin, obro‘ ham
 chog‘ir.

Chol, mendaqa yashash kerak
 olamda:
 Zaptimda jon berdi qancha
 qul, qarol;
 Qiynayman, bo‘g‘aman, dorga
 osaman,
 Baribir uxlayman tinch ham
 bemalol!»

 Darvesh cholda xuddi mo‘jiza
 bo‘ldi:
 Tuydi bir quturgan g‘azab,
 hayajon,
 Gluxovskiyga tashlandi darrov,
 Yuragiga xanjar sanchdi
 beomon.

 Qoniga belangan pan holdan
 toyib,
 Egari ustiga qulagan zamon –
 Ulug‘vor eman ham qulab
 tushdi-da,
 Yangiroqlaridan titradi o‘rmon.

 Eman quladi-yu, chol topti najot,
 Aridi gunoh-u tashvishlar bari.
 Yaratganga yolvoraylikki:
 Nodon bandalarmiz, yorlaqa
 Tangri!

III. ESKISI HAM, YANGISI HAM

Iona o‘z naqlini
 Tugatdi-yu cho‘qindi:
 Xalq jimjit o‘ylanardi,
 Birdan jallob ayqirib,
 Hammaning o‘yin bo‘ldi:
 «Ey, siz mudroq makiyonlar!

Parom, ha tezroq, pa-rom!»!
 – Tong otguncha, yuz ayqir,
 Baribir – parom bo‘lmas!
 Qayiqchilar kunduz ham
 O‘tgani qo‘rqishadi,
 Paromlari yaramas,

Sabr et! Kudayar haqida...
 «Parom! Pa-rom! Parom! Hov!»
 Aravasi yonida
 Ovora edi jallob,
 Aravaga bog‘langan
 Sigirini tepdi bir;
 Aravasi ichida
 Tovuqlar qaq-qaqlardi,
 Ularga qarab dedi:
 «Esi pastlar! Bo‘ldi! Bas!»
 Buzoq ham kaltak yedi,
 Xuddi qashqa joyidan.
 Saman ot sag‘risiga
 Bosib qamchi urdi-yu,
 Qo‘zg‘aldi Volga tomon.
 Yo‘l ustida yuzar oy,
 O‘sha oy yorug‘ida –
 Jallobdan hech qolishmay,
 Chopar edi soyasi –
 Shundog‘am g‘alatiki!...

«Mushtlashdan bosh tortdi-ya?
 So‘z talashmayin desa,
 Talashar so‘z qolgan yo‘q. –
 Dedi Vlas: – Ey, Tangrim!
 Dvoryan gunohi ulug‘!»
 – Ulug‘, lekin baribir,
 Dehqonnikiday emas. –
 Ignatiy Proxorov
 Shu so‘zni aytdi takror,
 Chidami qolmagandi.
 Klim tupurib, dedi:
 «Gapirmasa – o‘ladi!
 Har kimning o‘z orzusi,
 Bizning zag‘chaga bo‘lsa,
 O‘z uchirmalaridan –
 Azizroq hech nima yo‘q...
 Qani, xo‘sh, aytajolgin,
 Qanday zo‘r gunoh ekan?»

DEHQON GUNOHI

So‘qqabosh bir admirall
 dengizda yuzar edi,
 Dengizda yuzar edi – kema
 yurgizar edi,

 Ochakovo yonida turklar
 bilan qildi jang,
 Shikast yeb ham yengilib,
 dushman holi bo‘ldi tang,

 Shundan keyin malika berdi
 katta armug‘on;
 Ya’ni, kattakon yer-suv ham

raso sakkiz ming jon.
 O‘sha katta mulkida, yalla
 aytib, xotirjam,
 O‘z umrini o‘tkazdi so‘qqabosh
 admiral ham.
 O‘larkan, Gleb degan oqsoqolga
 admiral
 Oltin quticha berib, dedi:
 «Hoy, sen – oqsoqol!
 Qutichani yo‘qotmay, ehtiyyot
 saqlagaysan,
 Bu oltin qutichada mening
 vasiyatim bor:

¹ *Parom* – daryodan ot-arava va yuk o‘tkazuvchi yassi qayiq.

Krepostnoy – qullikdan
hammani bo'shatdim man,
Ya'ni sakkiz ming jonga
berdim erk-u ixtiyor!»

So'qqabosh u admiral tobutda
yotar bukun,
Uzoq bir qarindoshi shoshib
keldi dafn uchun:
Dafn etdi-yu, unutdi! Chaqirdi
oqsoqolni,
Uni ko'p gapga soldi,
o'smoqchilab gap oldi;
Hamma sirni bildi-yu,
aynitdi Gleb – cholni,
Erk berdi, aldab-suldab, axir
ters yo'lga soldi.
Gleb – ochko'zroq edi – gapga
uchdi, aldandi,
Vasiyatnoma yondi!

O'n yillab o'sha yovuz, to so'nggi
vaqtgachayin,
Sakkiz ming jon ustidan
bo'lib turdi xo'jayin,
Urug'-aymog'i bilan, sho'rli
xalq holiga voy!..
Sho'rli xalq holiga voy! Suvga
ketdi soyma-soy!
Har qanday gunohni ham
kechirar emish xudo,
Ammo, sotqin gunohi
kechirilmaydi aslo!
Hoy, mujik! Mujik! Mujik!
Sening gunohing zo'rroq,
Shu sababdan boshingda doimo
o'ynar tayoq!

Achchig'langan va dag'al
Ignatiy o'z gapini –
O'kirib va baqirib,
Shu yerda qildi tamom.
Olomon irg'ib turdi,
Xo'rsindi hamma birdan,
Eshitildi shunday gap:
«Dehqon gunohin qarang!
Chinakam qo'rquday-a!»
– Chinakam: umr bo'yi
Qiynog'u azob, evoh...
Dedi oqsoqol o'zi,
Uni yana bosdi g'am;
Vlas yaxshilik kunga
Umid bog'lamas edi;
G'amga ham, sevinchga ham
Tez berilib ketardi,
Ko'ngli bo'sh va kuyunchak.
«Zo'r gunoh, og'ir gunoh!» –
Dedi g'ussalik Klim.
Volga qirg'og'idagi
Oydinda yorug' sayhon
Birdan o'zga tus oldi;
Ko'kraklari kerilgan,
Gurs-gurs qadam tashlagan
Odamlar g'oyib bo'ldi;
To'yib non yemaganlar,
Tuzlik osh ichmaganlar –
Yalqovlar qoldi tag'in;
Bularni endilikda
Xo'jayini o'miga –
Kaltaklaydi mingboshi;
Qahatchilik xavfi bor:
Cho'zildi qurg'oqchilik;
Bular kamlik qilganday,
Firibgar-u yalmog'iz
Savdogar ham bir balo!

Lapashangkent ko'z yoshi,
Og'ir mehnati bilan
Topilgan qatronga ham
Bahoni qirqaman, deb,
Maqtanadi savdogar;

Qirqsa – ixtiyorida,
Keyin ta'nasi ham bor:
«Nega ortiq to'layin?
Molingiz – bexarid mol,
O'zingizdan oftobda,
Naq qarag'ay singari,
Qatron erib oqadi!»

Tag'in tagi yo'q jarga
Qulaganday sho'rliklar,
Jim bo'lib, holdan toyib,
Yuztuban cho'zildilar;
Yuztuban cho'zilishib,
Uzoq o'y o'ylashdilar
Va birdan kuylashdilar.
Bulut bosib kelganday,
Sekin-sekin va cho'ziq
Oqar edi so'zları.
Shundoq kuy to'qishdiki,
Bizning sayyohlar darrov
Uqib, yodlab oldilar.

OCHARCHILIK YALLASI

Tik turar dehqon –
Asta silkinar,
Sal yurar dehqon –
Nafasi tinar.
Shishgan, rangi oq,
Dardga mubtalo,
Qiynagan qiynoq,
Hasrat-u balo.

Mastda ham bundoq
O'chiq rang bo'lmas.
Shishaday, ochqoq,
So'liq rang bo'lmas.
Yurar – harsillar,
Yurib, mudraydi.
Javdari tomon
O'zin sudraydi.

Ekin boshida
Haykalday qotar,
Imillab, zo'rg'a

Qo'shig'in aytar:
«Javdari – ona!
Yetil, pishgin bot!
Ekkaning menman –
Sho'rlik Pankrat.
Naq tog'day uyib,
Butun non yezman,
Tepaday uyib,
Suzma-non yezman.

Yeyman bir o'zim,
Barini yeyman.
Onam so'rasha,
O'g'lim so'rasha,
Nari tur, deyman».

«Voy, otajon, ochiqdim!» –
Dedi sekin bir mujik,
Xaltasidan bir burda
Non topib, yeya boshladi.

– Tovushsiz kuylashar-u,
Ammo eshitgan sayin,
Tanga titroq tushadi! –
Dedi o'zga bir mujik.
Darhaqiqat, tovushsiz –
Lekin, dildan o'rtanib,
O'zlarining qo'shig'in –
«Ocharchilik yallasin»
Kuylardi Lapashangkent.
Shundoq kuylashar ekan,
Bittasi tikka turib,
O'sha bedarmon mujik,
Och, sust va nimjon mujik –
Qanday sudraldi yo'lda,
Qanday chayqaldi elda –
Ko'rsatib bermoqdaydi;
O'sha mujik singari
Imillar, zo'rg'a yurar,
So'lg'in va jiddiy edi...
«Ocharchilik yallasin»
Kuylab bo'lishdi-yu,
Xuddi kaltak yeganday,
Tengsalib, chayqalishib,
Turnaqator bo'lishib,
Chelak tomon keldilar,
Ichdilar birin-ketin.
«Dadilroq!» – dedi so'fi
Qo'shiqchilar ketidan;
Oqsoqol cho'qintirgan –
So'fi o'g'li – Grigoriy
Hamqishloqlar yoniga
Kelgan edi o'sha payt.
«Araqdan ichasanmi?»
«Shu ichganim – yetadi!
Nima hodisa bo'ldi?

Suvga pishilgan kabi,
Avzoyingiz bundog'roq!»
– Bizmi?.. Nima deyapsan...
Hushyor tortdilar darrov,
Krestnik¹ yelkasiga
Kaftini qo'ysi Vlas.

«Qullik qayta keldimi?
Yana tekin ishlashga
Haydashmoqchimi sizni?
O'tloqlarni qaytadan
Tortib oldilarmi?»
– O'tloqlar? Hazilni qo'y! –
«Bo'lmasa ne hodisa?..
«Ocharchilik yallasin»
Hadeb aytayotipsiz,
Tag'in ofat-u qahat
Chaqirmaq istaysizmi?»
«Darvoqe, hech gap yo'g'a! –
Dedi Klim shoshilib;
Qanchasi boshin qashir,
Pichir eshitiladi:
«Darvoqe, hech gap yo'g'a!»

– Kuyla, hey Lapashangkent,
Tomoshangni qilaver!
Hamma ish o'z joyida,
Xuddi biz xohlagandek,
Xuddi biz o'ylagandek,
Boshingni balandroq tut!
– Xuddi biz xohlagandek
Deysanmi, Klimushka?
Xo'sh, Gleb?..

¹ Krestnik – Grigoriy oqsoqol cho'qintirgan, halollagan bola.

Aytildi-ku,
 Axir qancha gap bo'ldi,
 Chaynab, og'zingga soldik,
 Badbaxt Gleb-chun, axir,
 Ular javobgar emas,
 Hamma gunoh – qullikda!
 «Ilon – tug'adi ilon,
 Qullik-chi¹, pomeshchikning
 Gunohlarin tug'adi,
 Baxtsiz Yakov gunohin,
 Gleb gunohin tug'adi!
 Qullik bo'lmasa edi –
 Vafodor o'sha qulning –
 O'z-o'zini sirtmoqda
 Bo'g'ishiga sababkor –
 Pomeshchik ham bo'lmasdi;
 Qullik bo'lmasa edi –
 O'z-o'zini o'ldirib,
 Yovuzdan kek olguchi
 Malay ham bo'lmash edi;
 Qullik yo'q bo'lsa agar –
 O'zga Yakov va Gleb
 Bo'lmaydi Rusiyada!»
 Grishaning so'zlarin –
 Ayniqsa, diqqat qilib,
 Tikilib, xushvaqt bo'lib,
 Eshitgan Prov bo'ldi:
 Iljayar, do'stlariga
 Der edi u baralla:
 «Yodlab olsang – arziydi!»²
 – Demakki, bundan keyin,
 «Ocharchilik»ni hech ham

Aytmasak bo'larkan-da?
 Ey, jo'ralar! Sho'x kuylang,
 Sho'x qo'shiq kuylang, qani! –
 Deb qichqirdi Klim shod...
 Qullik to'g'risidagi
 Haligi durust, haq gap –
 Olomon o'rtasida
 Takror bo'lmoqda edi:
 «Ilon bo'lmasa agar –
 Ilon ham tug'ilmaydi!»
 Klim Ignatni tag'in
 So'kdi: xo'p ahmoqsan-da?
 Sal qoldiki – mushtlashsa!
 So'fi o'z o'g'lin aytib,
 Ho'ngrab yig'lamoqdaydi:
 «Tangri xo'b bosh bergen-da!
 Moskvaga boraman,
 Novorsitetga³ kiraman,
 Deyishi bejiz emas!»
 Vlas-chi, Grishaning
 Boshidan silab, derdi:
 – Xudoyim davlat bersin!
 Aqli, o'zi sog'lom
 Qayliq bersin, Grisha! –
 «Davlat kerakmas menga!
 Xudoyo, o'zing qo'lla,
 Mening hamqishloqlarim,
 Hattoki, har bir dehqon –
 Dorilamon yashasin,
 Ham shodumon yashasin
 Bu qutlug' Rusiyada!»
 Qiz singari qizariib,

¹ *Qullik* – bu o'rinda krepostnoy huquq ma'nosida.

² Aslida «Motayte-ka na us». Lug'aviy ma'nos – mo'ylovingga o'rab ol, ya'ni, eslab qoladigan gap ekan-da! Zap ma'qul gapirdi-da!..

³ *Novorsitet* – Universitet so'zining buzilib aytilgani.

Dilida saqlaganni
Grigoriy aytdi-yu,
To'xtamay jo'nab qoldi.

Tong yorishmoqda edi.
Aravakashlar bo'lqa,
Yo'lga tayyorlanmoqda.
– Ey, Vlas Illich! Bu kim?
Beri kelib, bir ko'r-chi! –
Dedi Ignatiy Proxorov
Xarilarga suyalgan
Do'g'ani qo'lga olib.
Vlas keldi, ketidan –
Shoshib keldi Klim ham,
Klim ketidan bo'lqa,
Sayyoohlар yetib keldi,
(Ular har joyda tayyor):
Gadoylar yumalashib,
Kech kirganda uxlashgan.
Xarilarning ketida –
Kaltaklangan va abjaq:
Bir odam yotar edi:
Egnida yangi kiyim,
Lekin yirtilgan tamom,
Bo'ynida alvon ipak,
Kiyipti alvon ko'yak,
Nimchasi, soati bor.
Savin uxluguchiga
Enkayib ko'z soldi-yu,
Birdan baqirdi: «Ha, ur!»
Ham bitta tepdi o'zi.
Novcha, baquvvat odam
Sakrab o'midan turdi,
Artdi xira ko'zlarin,
Bu mahal Vlas Illich

Jag'iga urdi raso.
Qopqonga tushib qolgan
Kalamushday chiyillab
O'rmonga qochib qoldi!
Oyoqlari uzun-di,
Qochar – titrar edi yer!
Novcha odam ketidan
Quva ketdi to'rt yigit,
Yigitlar ham, qochqin ham
To o'rmonga kirib,
Ko'zdan g'oyib bo'lguncha –
Xalq: «Ur!» deb shovqin soldi.

«Qanday odam edi bu? –
Nechun uni urishar?»
Sayyoohlар oqsoqoldan
Surishtira boshladi.

– Kimligini bilmaymiz,
Tiskovo qishlog'idan
Aytib qo'yilgandiki,
Agar Yegorka Shutov
Ko'zga ko'rinish qolsa,
Qayda bo'lsa ham uring!
Shu sababdan urdik-da.
Tiskovlilar kelganda
Sababini aytishar.
Yigitlar qaytib keldi.
– Adabin berdinglarmi? –
Ulardan so'radi chol.
«Yetdik, adabin berdik,
Kuzmo-Demyansk tomon
Qochdi, naq o'sha yerda
Volgadan o'tish uchun
Urinib ko'rsa kerak». – G'alati odamlar-a!
Uxlovchini urishar,

Sababini bilishmas...
«Jamoa aytgandan so'ng,
Ur! – degan so'ng – urdik-da!
Demak, bir sababi bor!–
Sayyoohlar tomon qarab,
Baqirib aytdi Vlas: –
Tiskovlilar yengiltak,
Tuturiqsiz el emas,
Kaltaklash tez-tez bo'lib
Turar unda... Ah, Yegor!
Past amal – pastkash xizmat
Pastkash-u rasvo odam!..
Xo'sh, uni urmaganda,
Kimni urmoqlik kerak?
Faqat bizlarga emas,
Volganing shu bo'yida –
O'n to'rtta qishloq bo'lsa,
Hammasinga aytganlar,
O'n to'rt qishloq hammasi –
Xud qatordan quvganday,
Quvib solgan deyvering!»

Sayyoohlar jim qoldilar.
Bu qanday qiliq o'zi,
Bilishni istashadi,
Lekin, Vlas amaki –
Jahli qistab turipti.

Tong otdi, olam yorug',
Ayollar erlariga
Nonushta keltirdilar:
Suzmalik non, g'oz go'shti.
(G'oz haydashib o'tganda,
Uch g'oz charchab qolipti,

Mujik uchchovini ham
Qo'lтиqlab kelar edi:
«Shaharga yetkuningcha,
O'ladi-ku, sotib ket!»
Sotib olishdi arzon!)
Mujikning-ku ichishi
Haqida gap juda ko'p,
Lekin, qandoq yeyishi –
Hammaga ma'lum emas.
Mol go'shtiga, vinodan
Ochko'zroq mukka tushar.
Shu yerda ichmaydigan
Bitta toshchaqar bordi,
G'oz go'shtidan andak yeb,
Shundoq ham kayf qildiki,
Vinong nimaga lozim!
Jim! Birov baqirmoqda:
«Qarang, kim kelayapti-ya!»
Lapashangkent shodligi
Avj olib ketdi tag'in.
Pichan ortgan arava
Yaqinlashib kelardi:
Pichan tepasida-chi,
Shu atrofda yashovchi
Mujiklarga tanig'lik,
Soldat Ovsyanikov bor.
Soldat yonida esa,
Yetim qolgan jiyani,
Chol soldat suyanchig'i –
Ustinyushka o'tirar.
Moskva-yu Kremlni
Chodir xayol-qutida –
Elga ko'rsatib, kezar,
Shundan kun eltardi chol;
Qutisi sinib qoldi,
Yangisiga puli yo'q!

Uch dona sarg'ish qoshiq
Sotib oldi-yu, lekin –
Ilgarigi hijjalab,
Yodlab olgan so'zları –
Bema'ni luqmalari –
Bu yangi musiqaga
Mos kelabermas edi,
Xalqni kuldirmas edi!
Soldat mug'ombir va quv! –
Yangi so'zlar to'qidi,
Qoshiqlar ishga tushdi. –
Chol soldat kelganidan
Quvonib qoldi hamma.
«Omonmisan, hoy bobo!
Qani, sakrab tushaqol,
Biz bilan jindak ichgin,
Keyin, qoshiqlaringni
Bir shaqillatib qol-chi!»
– Chiqishga-ku chiqqanman,
Lekin, qanday tushishni
Bilmay turibman... – Bilar!
«Tag'in pensiya uchun
Shaharga ketayapti,
Shekillik soldat bobo?
Shahar yonib ketdi-ku!»
– Yonsa, ajab bo'lipti!
Men Piterga boraman!
U yerda jo'ralarim
To'liq pensiya olib,
Yallo qilib yuripti,
U yerda surishtirib,
Ishimni o'nglasharlar. –
«Cho'yan yo'lida ketarsan?»
Askar pishqirib qo'ydi:

– Pravoslav xalqiga
Uzoq xizmat qilmading,
Basurman¹ cho'yan yo'li!
Moskvadan Pitergacha
Faqat uch so'm haq olib,
Eltib turgan chog'ingda –
Bizga yoqar eding sen,
Hozir yetti so'm bo'ldi,
Alvastilar chalsin-e!

«Qani, qoshiqlaringni
Shaqillatib yubor-chi! –
Dedi soldatga Vlas, –
Ko'ngil ochib yurgan xalq
Hozir ancha-muncha bor,
Shoyad ishing o'nglansa!
Tezroq boshlavor, Klim!»
Vlas Klimni jek ko'rар,
Lekin, qiyin ish chiqsa,
Darrov: «Boshlavor!» derdi.
(Klim esa, bundan shod!)

Soldatni yuk ustidan,
Tushirdilar ko'plashib.
Chol soldat oyoqlari
Zaif, kuvarak edi;
Novcha-yu juda oriq,
Egnida qator medal
Taqligan syurtugi² ham –
Xodada osilganday,
Osilib turar edi.
Yuzini ham yoqimli
Deb bo'lmasdi, ayniqsa,
Og'rig'i tutganida,

¹ Basurman – g'ayridin.

² Syurtuk – etagi keng, uzun kamzul.

Shaytonga o'xshardi chol,
Tishlarin tirjaytardi,
Ko'zlar – bamisoli cho'g'!...
Soldat qoshiqlarini

O'ynata boshlagandi,
Qirg'oqqacha o'tirgan
Odam bari jam bo'ldi,
Qoshiqlarga – qo'shiq jo'r:

SOLDAT QO'SHIG'I

O'lim yana yo'q!
Faqat uch Matryona bor,
Luka bilan Petr bor,
Hech esimdan chiqmaydi.
Luka bilan Petrda –
Tamaki hidlashamiz;
Uch Matryonada bo'lsa,
Bir yemak didlashamiz.
Birinchi Matryonada
Yirik qo'ziqorin bor,
Ikkinci Matryonada
Ushalmagan, butun non,
Uchinchi Matryonadan
cho'michda ichaman suv!
Suv desang – buloq suvi;
ko'ngli ochiq, bori – shu.
Olam jirkanch, tor,
Dilda ranj – ozor,
Haqiqat ham yo'q,
Halovat ham yo'q!
Askarga titroq tushdi;
Ustinyushkaga suyanib,
Ko'tardi chap oyog'in,
Tosh qo'ygan tarozudek
Tebrata boshladi chol;
O'ng oyog'in ham shundoq
Ancha tebratib oldi,
Keyin, so'kinib qo'ydi:
«La'natি tirikchilik!»
Keyin, ikki oyog'in
Birdan bosib, tik turdi.

«Boshla, Klim!» Pitercha
Boshladi ishni Klim:
Cholga-yu qizga berdi.
Bittadan yog'och tovoq,
Ikkovin qator qo'ydi,
O'zi xari ustiga,
Sakrab chiqib oldi-yu,

Xaloyiqqa jar soldi:
«Qani, quloq solinglar!»
(Askar tek turolmasdi,
Klimning gaplariga
Hadeb luqma solardi,
Qoshiqlarga urardi.)

K L I M

Hovlimda dub g'o'la bor,
Yotadi ko'pdan buyon,
Yosh chog'imdan g'o'lada
O'tin yordim ko'p zamon;

Lekin o'sha g'o'la ham
Janobi askar kabi
Bunchalik abjaq emas,
Qarang-chi, qandoq jon bu!

S O L D A T

Nemis o'qlari.
Ham turk o'qlari,

Farang o'qlari,
Rus tayoqlari!

K L I M

Shundoq bo'lsa ham, qarang,
Butun pensiya tegmapti,
Cholning jami yarasi
Yaroqsiz topilipti,

Tabibning yordamchisi
Ko'z qirin tashlab depti:
«Yaralari o'rtacha,
Pensiya ham o'shancha!»

S O L D A T

To'la pensiyaga bergen yo'q
farmon,
Chunki, o'q teshmapti, yuragi
omon!
(Chol askar yig'lavordi,

Qoshiqlarni o'ynatmoq
Bo'lgan edi – to'satdan
Ikki bukilib qoldi.
Ustinyushka bo'lmasa,
Qular edi sho'rlik chol.)

K L I M

Arizasin ko'tarib,
Boripti soldat tag'in.
Shunda yaralarini
Vershok-vershok o'lchashib,
Har yara uchun bir tiyin

Baho belgilashipti.
Bozorda yoqalashgan
Mujiklarning yarasin
Mirshab o'lcharди shundoq:
«O'ng ko'zining tagida

Kattaligi tangaday
Terisi shilinipti,
Manglayi o'rtaida
Kattaligi bir so'mday
Bir tuynuk ochilipti,
Shundoq qilib, hammasi:
Bir so'm-u o'n besh tiyinlik

Tarsaki-yu musht yepti!»
Bozorda bo‘ladigan
O‘shanday ur-qoch jangni –
Sevastopol yonida
Soldat o‘z qonin to‘kkan
Jang bilan tenglash tirmoq
Qanday to‘g‘ri kelarkin?

SOLDAT

Tog‘larga oshmadik, tekisdan
bordik.
Qal’alarga bo‘lsa – xuddi
quyonday,
Yovvoyi mushukday, yo
olmaxonday –
Irg‘ib oshardik,

O'shanda oyoqdan ayrilgan edim,
Zambarak do'zaxday pishqirar
edi.

Axiri bo'lib kar,
Ikkala qulqoqdan ayrilgan edim,
Rus ochligidan ham o'layozdim
men!

KLIM

Piterda – mayiblarning
Komitetiga borib,
Uchrashi juda zarur,
Lekin, piyoda yurib,

Moskvagacha yetadi,
U yog‘iga netadi?
Cho‘yan yo‘l asta-sekin
Chaqib olaboshladi!

SOLDAT

Kekkaygan boyvuchcha,
gerdaygan beka!
Ilonday shuvillab, aylanib
yurar:
«Qurib ket! Qurib ket!» –
deydi baqirib,
Rusning qishlog‘iga shunday
do‘q urar:
Dehqonning yuziga tuflar,
pishqirar,
Ezar, shikast berar, tepar,
o‘shqirar,
Butun rus xalqini ha-hu
deguncha,

Shipirib tashlamoq bo‘ladi
buncha!

Chol sekin yer tepinar,
Qup-quruq so‘ngaklari
Bir-biriga tegardi,
Shaqir-shuqur ovozi
Eshitilib turardi.

Klim-chi, hozir jimjit:
Xalq esa, cholga tomon
Yaqin kelmoqda hozir.
Bir tiyin, ikki tiyindan
Hamma berdi har qalay,
Yog‘och kosa ichida
To‘plandi axir bir so‘m.

IV. YAXSHI ZAMONA – YAXSHI QO‘SHIQLAR

Oqliqlar-u tabriklar
Ham yallalardan keyin,
So‘z talashib, mushtlashib,
Axiri tong chog‘ida
Tamom bo‘ldi ulkan bazm!
Xalq tarqalib ketmoqda.
Bizning sayyoqlar bo‘lsa,
Majnuntolning tagida
Uxlashib qolgandilar,
Taqvodor Iona ham
Shu yerda uxlari edi.
Savva bilan Grisha –
Otasin qo‘ltiqlashib,
Uyiga ketmoqdalar
Va qo‘shiq aytmoqdalar.
Volganing tepasida,
Tiniq, ko‘m-ko‘k havoda –
Kuchli, jo‘r ovozlari
Bong urilgan singari
Gurullar, yangrar edi:

Xalqning qismati,
Baxt-saodati –
Hammadan burun –
Erk va yorug‘ kun!

Biz-chi, xudodan
So‘ramaymiz ko‘p:
Halol mehnat ber,
Qo‘lga quvvat ber,
Do‘ndiraylik xo‘p!

Mehnat hayoti,
Do‘sning ko‘ngliga
Eng to‘g‘ri yo‘l shu!
Ey qo‘rqoq, yalqov!
Qoch, bo‘lmaq g‘ov!
Jannatmasmi bu!

Xalqning qismati,
Baxt-saodati –
Hammadan burun –
Erk va yorug‘ kun!

Eng qashshoq dehqondan ham
Qashshoqroq va g‘aribroq
Yashar edi Trifon.
Top, bo‘g‘iq ikki hujra –
Bittasi pechkaligu,
Doim tutab yotadi;
O‘zgasi – yozlik xona,
Kengligi ham bir quloch,
Bori-yo‘g‘i shu, xolos;
Sigiri yo‘q, oti yo‘q,
Zudushka degan iti,
Mushugi bor edi-yu,
Bezib ketgan ular ham!

Savvushka otasini
O‘rniga yotqizdi-yu,
Kitob o‘qishga tushdi!
Grisha o‘tirolmay,

Dalaga, o'tloqlarga
Chiqib ketdi hujradan.

Grisha so'ngaklari
Yirigu, yuzi oriq,
Ochko'z, o'g'ri ekonom
To'yg'izmasdi hech qachon...
Seminariyada yasharkan,
Tun yarimda uyg'onar,
Shundan so'ng tong otguncha
Ko'ziga uyqu kelmas, –
Ertan beriladigan –
Kepaksiz bir burda non
Va asal sharbatini
Kutib o'tirar edi.
Lapashangkent nechog'liq
G'arib, qashshoq bo'lmasin,
Har qalay to'yishardi,
To'yib non yeishardi,
Otaxoni – Vlasga
Va mujiklarga balli!
Osh-u nonlari uchun –
Kuchlarini ayamay,
Ishlashib berishardi;
Shaharda ham ikkovi –
Hamqishloqlar kam-ko'stin
Bitirishar yo'q demay.
Dyak – o'g'illaridan
Rozi va bino qo'yar,
Lekin, och-to'qligidan
Xabar olmay qo'ygandi.
O'zi mudom och edi,
Qaydan is chiqarkin, deb,
Axtarardi uzun kun.
Yengiltabiat edi;
Boshqaroq bo'lsa bormi,
Soqoli oqarguncha

Yashashi gumon edi.
Xotini Domnushka-chi,
Kuyunchak, urinchoqdi,
Shuning uchun ham xudo
Umrin uzoq qilmadi.
Sho'rlik to o'lgunicha
Tuz, tuz, tuz deb o'tdi-ya:
Uyda noni yo'q bo'lsa –
Kimdandir so'rab olar,
Lekin, tuz uchun axir,
Pul to'lashi kerak halol,
Barshchinaga haydalgan
Lapashangkentda bo'lsa,
Pulning urug'i kamroq!
Yaxshiki, Lapashangkent
Nonidan bo'lib berar,
Domnadon non ayamas!
Lapashangkentli qo'li
Ochiq bo'lmasa edi,
Saxiy bo'lmasa edi,
Bo'lib bermasa edi –
Sevgan o'g'illari ham
Allaqachon go'rlarda
Chirib ketgan bo'lardi!

Og'ir va qora kunda
Kimki bir nima bersa,
Domna o'shaning quli,
Yuvosh cho'risi edi;
O'lguncha tuz deb o'tdi.
Kir yuvgan chog'ida ham,
O'roq o'rganida ham,
Sevgili Grishaga
Alla aytganida ham –
Tuzni o'ylar edi u,
Tuzni kuylar edi u.
Domnaning qo'shig'ini

Eslab, dehqon ayollar
Kuylashib bergenida,
Bola ko'ngli nechog'liq

Buzilib ketar edi!
(«Sho'rtak» deb nom qo'yipti
Lapashangkentli topqir.)

S H O ' R T A K

Xudoning o'zi!
Kichkina o'g'lim –
Yemas va ichmas,
O'layapti jim!

– Jindak non yegin,
Yeyqolgin, chiroq!
Yemas, baqirar:
«Tuz sepkin ozroq!»

Tuz o'lgur qayda!
Yo'q bir chimdim ham!
«Un sepib bergin!»
Pichirlar egam.

Bir-ikki chaynar:
«Aynidi ko'nglim,
Yana tuz sepkin!»
Baqirar o'g'lim.
Tag'in o'sha un...
Oqar betinim –
Ko'z yoshim nonga!
Yedi-ku o'g'lim.
Maqtanar ona –
O'g'lin qutqazgan...
Ma'lum bo'ldiki,
To'kkani ko'z yoshi
Sho'r, sho'rtak ekan!

Grisha shu qo'shiqni
O'rganib olgan edi;

Qorong'i, muzday sovuq,
G'amgin, qattiqqo'l va och –
Seminariyada yasharkan,
Duo o'qigan kabi,
Ohista kuylar edi:
Onaginasin o'ylab,
Non, tuz berib boquchi,
Onasiday mehribon
Lapashangkentni o'ylab,
Bola qayg'urar edi.
Bolaning qalbidagi
G'arib ona sevgisi –
Lapashangkentga bo'lган
Sevgi bilan chirmashib,
Erib, birlashdi tezdan!
O'n besh yoshga kirganda,
Grisha qat'iy, aniq
Bilib olgan ediki,
G'arib, qashshoq va nodon,
Tuqqan qishlog'i uchun,
O'shaning baxti uchun
Yashagusi dunyoda!

Yetar, beayov iblis
Jazo qilichin ushlab,
Rusiya osmonida
Uchib yurmasin ortiq!
Yetar qullik jafosi –
Faqtat-faqat aldovchi
Va giriftor etguchi,
Oshkor, yomon yo'llarni

Tutmasin Rusiyada!
Uyg'onayotgan Rusiya
Osmonida o'zgacha
Bir qo'shiq yangramoqda:
Bu – shafqat farishtasi,
Ko'zga ko'rinnmay uchar
Rusya osmonida,
Irodasi zo'rlarni
To'g'ri yo'lga undashda:

O'nqir-cho'nqir olamda
Erkin yuraklar uchun –
Ikkita yo'l bor.

Mag'rur kuchni chamala,
Irodangni chamala,
Qaysi yo'l darkor?

Bittasi – keng, serqatnov,
Ko'p toptalgar, buzuq yo'l,
Changi chiqib ketgan yo'l.

Unda – sonsiz, sanoqsiz
Vasvasaga aldangan,
Ho-yu havaslar quli –
Olomon borar.

Unda – nomusli hayot
Va ulug'vor maqsadni
O'yash kulgulik!
Omonat va baqosiz
Baxt-u mo'Ichilik uchun
U yo'lda qaynaydi jang.

Yomon jang, ayovsiz jang,
Adovat va dushmanlik!
U yo'lda qalblar tutqun,
Gunohlarga botadi.

Usti yaltiroq yo'l u,
Ichi qaltiroq yo'l u,
Yaxshilik, ezzulik yo'q!

O'zga yo'l bor – torroq yo'l.
Torrog'u, nomuslik yo'l,
U yo'lidan yurishadi –

Ruhan botir kishilar,
Dilda sevgisi toshqin,
Mard, azamat kishilar;

E'tiborsiz qolganlar
Va aldanganlar uchun,
Jabr ko'rganlar uchun,
O'sha safga tur sen ham!

Tahqirlanganlarga bor,
Alam chekkanlarga bor,
Unda sen darkor!

U shafqat farishtasi
O'spirin rus boshida
Bu undovchi qo'shiqni
Bejiz kuylamayapti –
Manglayida yarqirab,
Illohiy nur barq urgan –
O'zining o'g'llarin –
Orlik-nomuslik yo'lga
Yo'lladi talay-talay
Qutlug' Rusiya!
(Ular oqqan yulduzday
Yaltirab, so'nar ekan.)
Aza tutdi, yosh to'kdi,
Motam tutdi qutlug' Rus.
Lapashangkent nechog'liq
Nodon, qoloq bo'lmasin,
Barshchina qiyognog'ida,
Qullik iskanjasida

Nechog‘liq ezilmasin,
Nechog‘liq yanchilmasin,
Baribir, u sho‘rlik ham –
Grigoriy Dobrosklonovda
O‘z botir elchisini
Etaoldi namoyon.
Elga jon ayamovchi,
Xalqi uchun fidokor,
Bu yigit uchun taqdir –
Shonli yo‘l va ulug‘ nom,
Sil va Sibirga surgun
Tayyorlamoqda edi.

Quyosh ko‘tarilmoqda,
Erkalab, nur to‘kmoqda,
Salqin tong shabadasi
Aylanada o‘rilgan
O‘lanlarning atrini
Taratib, sho‘x esmoqda.

Grigoriy o‘ylanib,
Xayol surib, dastavval
Kattakon yo‘ldan yurdi:
(Bu yo‘l qadimiy edi:
Ikki yonida baland,
Qalin, serbang qayinlar,
O‘zi o‘qday to‘g‘ri yo‘l!)
Dam ko‘ngli quvnab ketar,
Dam qayg‘uga botardi.
Lapashangkent bazmidan
To‘lqinlangan xayoli,
Hayajonli o‘ylari,
Tinimsiz ishlar edi;
Ko‘ngildagi zorini
Qo‘sishqa etdi izhor:

«Mungli minutlarda, o
ona-Vatan!
Mening xayollarim uchadi
baland,
Uchadi olg‘a!
Hali ko‘p jafolar chekarsan,
garchand,
Lekin, o‘lmaysan,
Halok bo‘lmaysan,
Bilaman, yetasan baxt-u
kamolga!

Boshingda nodonlik – tim
qora ko‘lka,
Diqqinafa edi g‘aflat
uyqung ham;
Baxtsiz bir o‘lka;
Xarob etgan edi,
Yanchib ketgan edi –
Qullik kishanlari va og‘ir
alam!

Yaqin zamonlarda, el-yurting
butun
Xo‘jayinning rasvo havasi
uchun
O‘yinchoq edi-ku?
Sharmanda hayot...
Tatarlar urug‘i qul slavyanni,
Sho‘rlik insonni
Bozorda sotardi bamisol ot;

Rus qizi nomusin toptashdi
qandoq,
Yelka-yu boshlarda, jindak
cho‘chimay,
Zarra achimay,
O‘ynatar edilar qamchi-yu tayoq!

«Nabor» so‘zi xalqda qo‘zg‘agan
qayg‘u,
Alamli qo‘rquv –
Jazo qo‘rquvsidan edi
badtarroq!

Yetar! O'tmish bilan tugadi
hisob,
Xo'jayin bilan ham oramiz
ochiq!
Rus xalqi yig'moqda o'z
quvvatini,
Zo'r qudratini!
Grajdan bo'lishga intilar aniq;
Slavyanning qadim yo'ldoshi –
taqdir,
Balolar yukini yengillatmoqda!
Bukun oilada cho'risan, lekin,
Erta erkin o'g'il uchun onasan,
Yop-yorug' kelajak seni
kutmoqda!

Bug'doyzor o'rtasida
Uzoq-uzoq cho'zilgan –
Egri-bugri so'qmoq yo'l
Grishaga xush keldi;
O'sha so'qmoqdan yurib,
Cheki yo'q ang'izlardan
O'tloqlarga tushdi u.
Pichan quritayotgan
Ayollar Grishani
Sevgan qo'shig'in aytib,
Kutib oldi o'tloqda.
Yigitchaning yodiga
Alamdiyya onasi
Tushib, qayg'uga botdi;

Badtar jahli chiqdi-yu,
O'rmonga qaray ketdi.
O'rmon ichida esa,
Bug'doyzorda sayrashgan
Bedanalar singari –
Go'daklar ayhoylashib,
Daydib yurishar edi.
(Kattaroqlari bo'lsa,
Pichan ag'darishardi.)
Go'daklarga qo'shilip,
Po'stloq savat to'lguncha
Qo'ziqorin terdi u;
Kun qiziy boshlagandi,
Yo'l soldi daryo tomon;
Grisha cho'milmoqda,
Uning ko'zi o'ngida –
Uch kun avval o't ketgan
Va ko'mirga aylangan
Shaharning manzarasi:
Tikkaygan bitta uy yo'q,
Lekin qamoqxona-chi,
Yong'indan saqlanipti,
Yaqinda oqlanipti,
Yaylovda yakka turgan
Oq sigirga o'xshaydi!
Boshliqlar, kattakonlar
O'sha joyga qochishgan;
Fuqaro-chi, qirg'oqda,
Qo'na tushgan qo'shinday,
Ochiq havoda yashar;
Hali hamma uyquda,
Uyg'onganlar juda kam:
Ikkita sud mirzası –
Uzun choponlarining
Etaklarini tutib,
Javonlar, o'rindiqlar,
Tugunlar, aravalar
Oralab o'tishmoqda,

Chodir – qovoqxonaga
Ketishmoqda ikkovlon.
Bukchaygan tikuvcchi ham
Gazini, dazmolini,
Qaychisini ko‘tarib,
Yaproqday dir-dir titrab,
O‘sha tomon ketmoqda.
Baland bo‘yli, basavlat
Prottoyerey¹ Stefan –
Uyg‘onib cho‘qinmoqda,
Ham qiz bola sochiday
Uzun sochini yoyib,
Silkitib taramoqda.
Mudroq Volga yuzida
O‘tin ortilgan sollar
Cho‘zilib, sekin oqar,
O‘ng qirg‘oq tagida-chi,

Turar uch yuk kemasi:
Qo'shiq aytishib, kecha,
Uchchovin ham bu yerga
Burlaklar² tortib keldi.
Mana shulardan biri –
Holdan toygan soldovchi!
Naq hayitlab yurganday
Yangi ko'yłak kiyipti,
Cho'ntakda chaqalarin
Jiringlatib o'tmoqda.
Grigoriy ketarkan,
Bu xushvaqt soldovchiga
Qarab-qarab qo'yardi;
Uning labidan esa,
Goh sekin, goh qattiqroq
Shu so'zlar uchmoqdaydi,
Qo'shiq to'qimoqdaydi:

BURLAK

«Yelkasiga, o'mroviga bog'lab
arqon –
Yuk kemasin tortib keldi,
zo'riqib jon,
Tush paytining oftobida
kuydi tani,
Ter deganni ariq-ariq quydi tani.
Yuz yiqilar, yuz surinar,
turar, yurar,
«Dubinushka»³ aytar bo'g'uq,
ohlar urar.
Yuk kemasin manzilgacha
keldi tortib,
Bahodirday hordiq oldi uzoq
yotib,

Erta bilan tushib keldi
hammomga ham,
Pristanda kezayapti, mana,
beg'am.
Kamariga uch so'lkavoy tikib
olgan,
Cho'ntagida to'rt-besh chaqa olib
qolgan;
Bir zum o'ylab, qovoqxona
tomon yurdi,
Ter, qon to'kib, topgan sariq –
chaqasini –
Mayfurushga irg'itdi-yu,
jimjit turdi,
Ham miriqib ichdi, qo'y may
qatrasini!

¹ *Protoyerey – cherkovda bosh ruhoniy.*

² Burlak – kema tortuvchi, soldovchi.

³ *Dubinushka – burlaklar qo'shig'i.*

Cho‘qindi u cherkov tomon qarab
 quvnoq:
 Yo‘lga tushmoq kerak hozir!
 Yo‘lga tushmoq!
 Tetik borar, sovg‘asi bor,
 chaynar oq non,
 Xotiniga bir ko‘ylaklik
 cho‘zim alvon,
 Go‘daklarga toycha nonlar zar
 o‘rog‘liq,
 Singlisiga durra... Qanday
 vaqtichog‘liq!
 U uyiga ketayapti – yo‘llar
 uzoq.

Hordiq olsin, o‘z yurtiga yetib
 tezroq!»

Grishaning xayoli
 Burlakdan – naq jumboqday
 Keng, mo‘l Rus tuprog‘iga,
 Keyin xalqiga o‘tdi.
 Grisha xayol surib,
 To‘lqinlanib, o‘ylanib,
 Qirg‘oqda kezdi uzoq;
 Og‘riq va tolg‘in boshi
 Shu yangi qo‘shig‘idan
 Orom oldi oqibat.

RUS

Sho‘rlik jon ham – sen,
 Farovon ham – sen,
 Pahlavon ham – sen,
 Notavon ham – sen,
 Onajonim – Rus!

Qullikda omon qolgan
 Yuragi erkin –
 Xalqning yuragi toza
 Oltindir, oltin!

Xalqning kuchi, qudrati,
 O‘zi bir jahon –
 O‘lmaydi haqiqati,
 Tinch va pok vijdon!
 Kuch-qudrat haqsizlik-la
 Inoq yasholmas!
 Haqsizlik qurbanlarga
 Sabab bo‘lolmas –
 Rus – qimir etmaydi,

Rus – go‘yo bejon!
 Yashiringan uchqun-chi,
 Yondi nogahon –

G‘ofillar uyg‘ondi,
 Chaqirilmaganlar-chi,
 Keldi beso‘roq;
 Bir dondan keltirib,
 Uydilar tog‘-tog‘!

Lashkar qo‘zg‘almoqda –
 Behad, beomon,
 Qaqshamas, qudratini
 Ko‘rsatar ayon!

Sho‘rlik jon ham – sen,
 Farovon ham – sen,
 Pahlavon ham – sen,
 Notavon ham – sen,
 Onajonim – Rus!

V

«Zap qo'shiq to'qidim! – der –
 Grisha irg'ib-irg'ib: –
 Haqiqat ayon bo'ldi butun
 qudratin yig'ib!
 Lapashangkentlilarga
 ertagayoq kuylayman,
 Yetar mungli qo'shiqlar...
 Hadeb shuni o'ylayman!
 Shuni elga so'ylayman!
 O'yindan, chopqillashdan
 qizarganday yonoqlar,
 Yaxshi, tetik qo'shiqdan
 g'ariblar-u qashshoqlar
 Xushvaqt qad ko'tarishar...
 «Yangi qo'shig'ini u –
 Akasiga o'qidi. (U dedi:
 «Chiroylik-ku!»)
 Uxlamoq bo'lib yotdi, uyqusi
 kelmas edi,
 Qo'shig'i uyquda ham hech
 tinchlik bermas edi,

Avvalgidan go'zalroq to'qir
 chala uyquda,
 Yana tantanaliroq o'qir bola
 uyquda.
 Grisha hayajonin anglay olsa
 edi, oh,
 To'xtovsiz uylariga qaytardi
 yetti sayyoh,
 O'z ko'ksida o'lchovsiz bir kuch
 his etar yigit;
 Rohatbaxsh, farog'atbaxsh ovoz
 eshitar yigit,
 Mardona qasidaning¹
 shu'lador ovozi bu,
 Xalq baxtining mujassam va
 jarangdor sozi bu, –
 Yigitcha kuylamoqda,
 Xalq baxtin o'ylamoqda.

1876, Yalta.







SHAHARDAN TASHQARIDA

«Qiziq, bizni quvontirar olis jilg‘a jildirashi,
Hatto keksa shu emanning sirli-sirli shildirashi.
Eritadi ko‘nglimizni hazin-hazin kuylab, qurg‘ur,
Bu bekorchi o‘smirlardek oqshom palla tinmay bulbul.
Olis ko‘kning bu gumbazi to‘lib yulduzlar-u sir-la,
Nazdimizda nurli qo‘lin bizga cho‘zar mehr bir-la.

To‘lin oydan maroqlanib, olislarga tikilgan dam,
Biz sezamiz ko‘nglimizda bir xo‘rsiniq, g‘alati g‘am.
Shundoq g‘amki, baxtdan totli, qaydan kelar bunday tuyg‘u,
Xo‘sish, nimadan buncha shodmiz, axir go‘dak emasmiz-ku?
Og‘ir mehnat, quvonchlarga rag‘batimiz ko‘ngillardan –
Quvolmadi, nahot, butkul... yana bizdek yo‘qsillarga
Kim qo‘yibdi tabiatdan huzurlanib bu yayrashni,
O‘zi qisqa erkimizni bunday benaf sarflashni?»

– Ey, bo‘ldi, bas qilinglar-ey, rostin aytsam, dardim oldi –
Qishloq, barcha g‘am-g‘ussani ko‘nglimizdan haydar soldi,
Esdan chiqdi, ruhni ezar oxiri yo‘q og‘ir mehnat,
Jonga tekkan qambag‘allik va uzlucksiz azob, zahmat...
Ha, yozildi ko‘ngil jindek... ha, yaxshisi, keling, shu kun
Madh etaylik qismatimiz qashshoq qilib yaratgan-chun.
Ko‘rmasak-da farovonlik hamda erkning ne’matin biz,
Tabiatning dafinasin g‘oyatda tez his etamiz.
Bu boylikni Yer yuzining to‘q, zo‘rlari ko‘rolmaydi,
Kambag‘al-u yo‘qsillardan uni tortib ololmaydi.



* * *

Bilmam, qandoq o'zgalarning fikrati,
Menga yoqar Yerning turli ne'mati.
Shu aziz Yer, shu oftobda yayrayman,
Xohish, ishonch, hisga to'lib yashayman.
Qulqoq dingdir hamda chanqoq bu ko'zim,
To'yolmasman bu hayotga hech o'zim.
Unda doim neni qo'msab yig'layman?
Hech nafi yo'q dard-la dilni tig'layman.
Nima uchun izlamay baxt-barorim,
Katta yo'lidan yurib ko'plar qatori?..





ELEGIYA

1

Mayli, bizga desinlar; odatlar boqiy emas,
«Jafokash xalq» mavzusi eskirdi bu kunda, bas,
She'riyat ham gar uni unutsa, bo'lmas yomon...
Yo'q, ishonmang, siz yoshlar, u eskirmas hech qachon.
Eskitolsa, eh, qani, uni o'tgan bu yillar,
Dunyo rivoj topardi!.. Afsuski, hamon ellar
Qashshoqlikda sudralar, darraga tobe bari,
Taqir o'tloqda yurgan oriq poda singari.
Qarg'ab ular qismatin, ilhom xizmatda har chog',
Yer yuzida yo'q o'zga bundoq puxta ittifoq.
Xalqning nochor holidan kiborlarga urar dam,
Ular aysh-u ishratda yayrab, bazm qurar dam.
Maqsadi – xalqqa burish zo'rlar diqqatin mudom,
Shundoq ulug' xizmatga hamisha shaydir ilhom.

2

Men barcha ijodimni o'z xalqimga baxsh etdim,
Ulgurmasdan u tanib, ehtimol, o'lib ketgum.
Xizmat qildim astoydil, shundan ko'nglim tinchdir sal,
Mayli, ziyon bermasin jangda yovga har askar.
Lekin jangga kirish shart, jang taqdirni hal qilar,
Men g'aroyib tush ko'rdim, Rossiyada yo'qmish qul!
To'kdirim quvonch yoshlarin, ko'nglim bo'shab, deng biram.
«Xomxayolni qilgil bas, laqma bo'lma sen ko'p ham! –
Ilhom menga shundoq der: – Fursatidir, olg'a, qalq!
Ozod bo'lishga bo'ldi, baxtlimikan, illo xalq?

O‘roqchilar kuylarmi yayrab o‘rim kezida,
 Chol yurarmi qo‘sh haydab asta omoch izidan.
 Chopib-o‘ynab yurarmi oshib o‘tloq, dalalar,
 Ota nonushtasidan qorni to‘ygan bolalar?..
 Yaltirarmi chalg‘ilar, o‘roqlar shaymi ishga,
 Men javob qidiraman xayolimni junbushga –
 Keltirgan so‘roqlarga: «So‘nggi yillar, so‘nggi payt
 Jindak yengil tortdingmi, dala ishi, qani ayt.
 Uzoq qullik o‘rniga kelgan ozodlik axir,
 Keltirdimi o‘zgarish yo yengillik biror-bir...
 Turmushda, qo‘shiqlarda biror yangilik bormi,
 Yo qo‘shiqlar hali ham g‘ussali, azadormi?..»

Oqshom tushib boradi, orzu jo‘shgay bu damlar,
 Ekinzor-u o‘tloqda qator-qator g‘aramlar,
 Kezinaman o‘y surib g‘ira-shira pallada,
 O‘z-o‘zidan yaralar qo‘shiq bu on kallada.
 Kechdag‘i o‘y har holda chiqqan bugun ro‘yobga,
 Men suqlanib qarayman, ko‘zim quvnab atrofga,
 Orzularim timsolin bunda ko‘rgan bo‘laman,
 Qishloqni, mehnatkashni suyub, duo qilaman.
 Xalqimni ezganlarga yo‘llayman tavqi la‘nat,
 Uni qo‘llaganlarga tilayman kuch-u qudrat.
 Yangrar shunda qo‘shig‘im! Uni tinglar qir, o‘tloq,
 Unga javob beradi aks sado-la olis tog‘,
 O‘rmon ham javob bergay, meni tinglar tabiat...
 Ammo U... jononni kuylayman ushbu fursat,
 Faqat unga tegishli shoir qilgan bu xitob,
 Faqat o‘sha eshitmas ham bermas menga javob.



* * *

Urush dahshatiga kelsa-da vahmim,
Har yangi qurban ni eshitgan im dam, –
Do'sti, xotiniga lek kelmas rahmim,
Rahmim kelmas hatto o'shal mardga ham.
Sababi, ayollar ko'nikib ketar,
Do'st-chi, do'st unutgay yaqin do'stni ham.
Ammoki, qaydadir munis jon yashar,
O'sha to o'lguncha tutadir motam.
Bizning bu g'alamis, razil hayotda
Turli tubanlikka duch kelib yurib,
Bir marta hayratda qolgan im yodda
Samimi y to'kilgan ko'z yoshni ko'rib –
Ha, u ko'z yoshiydi majruh onaning...
Onalar unutmas aslo bolani,
Qonli janggohlarda bo'lsa-da uvol...
Qandoq ko'tarmasin, axir majnuntol,
O'zining egilgan shoxi-novdasin...

* * *

Soat olti larda men kuni kecha
Somon bozoriga kirsam, kech tomon,
Bir dehqon xotinni qiynaganicha
Janob darra bilan urardi yomon.
Hech uni chiqmasdi ayolning, biroq
Darra «shig'-shig»iga qulqoq to'lardi...
Ilhom parisiga dedim o'sha chog':
«Bu ayol tug'ishgan singling bo'ladi».



ROMCHI AYOL

Bizga yaqin bir qishloqda romchi ayol bor,
Dam uradi suv, aroqqa, ne bo'lsa duchor.
Allaqanday giyoh bilan fol ko'radi u,
Bu yaramas solar dilga hamisha qo'rqu.
Bashorati nuqlul kulfat, yaxshi gapi kam,
Yig'la desa, yig'lavorsa kerak dengiz ham.
Tangri bizga ko'p mehribon, rus xalqi biroq
Yig'lashni deng yoqtirmaydi, kuylaydi ko'proq.
Bir baqiroq yigitga der bir kun jodugar, –
Itxonaga bopsan, to'ram olsalar agar.
Qarasalar, bir oy o'tgach hammasi bo'lib,
O'rmonda u it sovitib yurar, bo'kirib.
Stepanga debdi birda: «Ko'p kerilasan –
Ko'k oting-la, lekin undan tez ayrilasan!
Ayrilmasang, balo bo'lar boshingga bu ot!..»
Stepanni cho'chitdilar rekrutlik*-la bot.
Otni sotdi, pora berib arang qutuldi,
Bu follardan butun atrof ko'p hayron bo'ldi.
«Shoshma, men ham borib ko'ray bir o'shang, vey...
Deb o'yabdi keksa dehqon, sodda Panteley.
Kimga neni u oldindan qilsa bashorat,
Shu hodisa bo'p turibdi, juda alomat.
Yo ichida shaytoni bor, aytib o'tirar?!

U manzilga yetib kelib, bir chetda turar.
Kutar, romchi huzurida bor ekan qizcha,
Ko'rgan sari ko'rging kelar, yuzlari kulcha.
Yonboshida yigit ham bor, turqidan – qarol.
Qizga romchi der: «U bilan bog'lanma zinhor!
O'zgachadir peshonangga yozilgani ul –

* Rekrutlik – majburiy harbiy xizmat.

Jindak azob, keyin ozod bo'lasan butkul».
Bu mujdadan qarol hang-mang. Romchi unga der:
– Hoy yigitcha, baxting kulmas, gapga qulq ber.
– Aytaver!..
– Ha, aytuvraymi... Seni shu qishda
Jazolashar, so'ng qo'yasan ruju ichishga,
Soch-soqoling o'sib uyda yotasan, magar
Atrofingda bazm qurar shaytonvachchalar.
Seni xo'r lab sudrashadi jahannam tishga,
Sen ulardan yuztachasin shisha idishga,
Qamaysan-u cho'p tiqasan og'zi – teshikka!..»
Panteley-chi, shu dam urar o'zni eshikka.
– Nima bo'ldi, hoy oqsoqol, to'xta, fol ko'ray.
– Keragi yo'q, – to'ng'illar chol, – bir o'ylab qo'yay...
Bizdan ne ham topar eding, yoshlarga ko'r fol,
Men hozircha sabr qilgum...ey, shayton ayol.
Sen topag'on bo'lsang agar, bizga ayt-chi bot:
Axir qachon to'ralardan bo'lamiz ozod?





VIDOLASHUV

Ajralishdik yarim yo‘ldayoq,
Judolikmi buyog‘i, hayhot!
Biz o‘yladik, kechar yengilroq.
So‘nggi razil «kechir» u «nahot?..»
Yig‘lashga ham holim yo‘q, inon,
Xat yozib tur... yozib tursang bas.
Xating menga aziz, muqaddas –
Gullar kabi qabrdan chiqqan,
Yuragimning qonli qabridan...





AXLOQLI KISHI

I

Men bir umr axloqqa muvofiq yashab,
Qilmaganman birovga yomonlik sira.
Xotinim-chi, yuziga vual*ni tashlab,
Kechda ketdi o'ynashin uyiga qarab,
Tun og'dirib, mirshab-la bostirib bordim,
Fosh qildim, u tashlandi, men og'ir bo'ldim.
Xotin esa, yotvoldi shu kundan boshlab,
So'ng nomusdan bo'ldi yer, g'amnok, dilxira...
Men bir umr axloqqa muvofiq yashab,
Qilmaganman birovga yomonlik sira.

II

Qaytarmadi qarz olib vaqtida oshnam,
Eslatsam ham olmadi gapni quloqqa,
Bu mushkulni qonunga oshirdim men ham,
Qonun tiqib qo'ydi deng uni qamoqqa.
O'lib qoldi u yerda, bermay bir chaqa,
Garchi haqim bo'lsa-da, bo'lmadim xafa.
Qarzidan-ku, kechvordim shu kun bir sira
Ham esladim uni ko'p diydamni yoshlab.
Men bir umr axloqqa muvofiq yashab,
Qilmaganman birovga yomonlik sira.

III

Oshpazlikka topshirdim dehqon bolani,
Yaxshi oshpaz bo'ldi u, bu qanaqa baxt!

* *Vual* – yuzga tutiladigan to'r.

Biroq tez-tez tark etib u oshxonani,
Ko‘cha-ko‘yda daydishni qilvoldi odat.
Bilsam, bachki ishlarga qilibdi ruju –
Kitob o‘qib, aqlini charxlar emish u.
Po‘pisa-yu koyishdan axir charchab, shu –
Otalarcha bir-ikki urdim, shu sabab
O‘zin tashlab daryoga o‘ldi... yuzqora.
Men bir umr axloqqa muvofiq yashab,
Qilmaganman birovga yomonlik sira.

IV

Yolg‘iz qizim bo‘lardi, domlasin sevib,
Kelishibdi u bilan qochishga, qarang,
Qarg‘ayman, deb cho‘chitdim bu ishni sezib,
Bo‘yin egdi, so‘ng uni ko‘ndirib arang,
Berdim keksa bir boyga ... turmushiydi soz,
Illo Masha toliqib yurdi-da biroz,
O‘ldi sildan yil bo‘lmay ... yosh ham bokira.
Ketdi dog‘da qoldirib, ko‘zimiz yoshlab...
Men bir umr axloqqa muvofiq yashab,
Qilmaganman birovga yomonlik sira.





KECHIR

Kechir, unut tushkun kunlarni,
Hasrat, g'ussa, dilgir unlarni.
Unut ko'z yosh, iztiroblarni,
Rashk atalmish ul azoblarni.
Ishq quyoshi lek boshimizga,
Chiqqan damlar nur sochib bizga.
Ikkimiz ham xushvaqt, baxtiyor –
Bo'lgan kunni unutma zinhor.





* * *

(*LERMONTOVGA O'XSHATMA*)

O'sdim olis ovloqda, yarim vahshiy qishloqda,
Kishilar ichida johil-u bebosh.
Taqdir menga g'oyat zo'r himmat qildi u chog'da –
Bir to'p itboqarga bo'lib qoldim bosh.
Qaynar edi telegramda girdob – g'iybat, uyatdan –
Yo'qchilik hirslari xo'p tug'yon urar,
Ko'nglimga-chi, u xunuk va bema'ni hayotdan
O'tirib borardi yomon quyqalar.
Bu gaplarga yetguncha aql-u farosatim, man –
Bir go'dak, nimayam qila olardim.
Illat esa, kun sari zaharli nafas bilan
Butun vujudimni egalladi jim.
Shu ekan-da hayot deb, hovliqib, fikr qilmay,
Sho'ng'idim va loyqa oqimda oqdim.
Guldek hur yoshligimni goh bilib, gohi bilmay,
Fahshning behayo o'tida yoqdim.
Yillar o'tdi... u tanish davradan uzdim oyoq,
Eski oshnalarni qilib darg'azab,
Hamon-hamon eslasam, benaf bo'lsa-da, biroq,
U bebosh yoshlikni qo'yaman qarg'ab.
Qarang, birdan tanimga qaytdi kuch ham mador,
Ularni qaytargan emas hasratim,
Mudhish jimlik va sovuqlik o'rmin qayta bor
Oldi yoshligimning zabti, g'ayrati.
Yana yo'lga shaylandim, bu jonimni o'rtagan
Dard bilan, birorta mo'ljalsiz u dam,
O'ylar edim, bu yurak bemavrid o'ldirilgan,
Qayta tirilmagay endi sira ham.
Ammo seni uchratib, tuydim dilda hayajon,

Tirildi ko'ksimda yurak shu fursat.
Avvalgi iztirob-u dardlar izini shu on,
O'chirib tashladi dildan muhabbat.
Yana orzu-umidlar, xohishlar menga yo'ldosh,
Meni sevmasang ham mayliga zarra.
Lekin tushun, bu tanish uqubat hamda ko'z yosh,
Menga yolg'izlikdan afzal ming karra.



SUDXO'R

Yoshim to'rtga yetgach, otam –
Berdi maslahat:
Bu dunyoning bori bekor,
Boylik yig' faqat.
Otamning bu dono so'zi
Menga kor qildi,
Tongda turib cho'ntagidan
Besh tiyin shildim.
Ana shundan boshlandi bu
Pul yig'ish dardi,
Laycha kabi boy, to'raga
Xo'p suykanardim.
Yalar edim qo'l, oyog'in
Tap tortmay hech ham.
Shunday qilib, yetti yoshda
Bo'ldim muttaham.
Rosti, elda shundoq derlar,
Lek o'shanda ham,
Tomorqada bo'lar edi
Ko'milgan aqcham.
Bor deydilar havas, tuyg'u –
Bilmayman nedur,
Hayot – men-chun pul undirish
San'ati erur.
Qonim erta sovitganmi
Xasislik behad –
Tez angladim yo'q gapligin
Nomus, muhabbat.
Bildim, dunyo bir ko'l magu
Do'st-yor – firibgar.

Cho'ntagingga tushish uchun
Pinjingga kirar.
Bildim, badkor or-nomusdan
Naf olmaysan, bas,
Aqchasi yo'q ekan razil,
Qalbi yo'q emas.
Ziqnalikka shu alpozda
Ko'nika bordim,
Va otamni ol, deb har shom
Rabga yolbordim.
Yaxshi edi, ko'p mehribon
Ham saxiy u zot,
Chorbog'dagi uyda o'ldi,
Kuni bitgach bot.
Og'ir bo'ldi... men murdaga
O'zni tashladim,
Bor kissasin yig'lab turib
Kavlay boshladim.
Keyin sotdim pulga arzir
Bo'lsa ne bisot,
So'ng pullarni ishga soldim,
Qilib ehtiyot.
Boy bo'lishga jahd ayladim
Sholg'om, piyoz yeb,
Na qo'l, na bel, na yuz qoldi
Boy bo'laman, deb.
Patin yulib, so'ng jo'natdim
Qo'lga tushsa kim,
Sochidan ham kal bo'lguncha
Foiz undirdim.
Soch o'stirsin xohlagancha,
Deya qo'lladim,
Tushgan pulni sartaroshga
Har yil pulladim.
Shundan, hozir, yosh o'tsa-da,
Uncha-muncham bor.
Mayli, ulus deyaversin
Muttaham, ayyor.

Ayyor emish! Yo‘q, avloman!
Bu gaplar – ayon:
Pulni sochib bir ziyofat
Bersammi, shu on
Bu «ayyor»ning pinjiga, deng,
Kiralrar chaqqon:
Kimdir menga avlod chiqar,
Kim – do‘sit, kim – oshna,
Va eng halol, eng yaxshi – men!..
Shundoqmasmi, a???





TEMIR YO'L

I

Ajoyib kuz keldi. Shifobaxsh, toza
Horigan tanlarga bag'ishlar darmon.
Hali daryo muzlab, qotmagan rosa,
Turar eriyotgan oppoq qandsimon.
O'rmon tevaragi go'yo par to'shak,
Uxlamoq mumkindir erkin, bermalol.
Hali yaproqlardan rang ko'chmagandek,
Gilamday to'shalmish sarg'ish va zilol.
Ajoyib kuz keldi! Tunlari ayoz,
Kunduz esa sokin, tiniqliki biram.
Tabiat naqadar osoyishta, soz,
Hattoki to'ngaklar, botqoqliklar ham –
Bari oy nurida ko'rinar go'zal,
Hamma yerdan qondosh Rusni ko'raman.
Cho'yan izlarda tez uchganim mahal,
Fikrga g'arq bo'lib, xayol suraman!

II

Eh, mehribon padar g'aflat qo'ynida,
Aqli Vanyani saqlaysan nechun?
Ruxsat bering menga oyning nurida,
Unga haqiqatni ko'rsatay butun.
Eh, Vanya! Bu mehnat bo'ldi ko'p og'ir,
Bir kishi qo'lidan kelmas hech qachon!
Dunyoda bir shoh bor – u beshafqatdir,
Ochlilik deb atalur, juda beomon!
Dengizda kemalar, quruqda qo'shin,

Uning ixtiyori bilan yuradi.
Elni korxonaga haydaydi har kun,
Omoch tepasida o'zi turadi.
Toshyo'nar va kosib uning qo'lida.
O'sha xaloyiqni quvdi bu tomon.
Ko'plar shu dahshatli kurash yo'lida,
O'z mehnat rohatin ko'rmay berdi jon.
O'q kabi to'g'ri yo'l – yo'qdir poyoni,
Simyog'och ko'priklar, ko'tarma tepa.
Rus suyaklaridan har ikki yoni...
Vanya, bilasanmi, naqadar ko'p-a?
Quloq sol, eshitilar dahshatli xitob,
Oyoqlar dupurlar, g'ijirlar tishlar...
Muzlagan oynada soya behisob...
Nima gap? Murdalar to'dasi ular.
Ba'zan temir yo'lni aylanar kezib,
Ba'zan chopishadi yonma-yon, yiroq...
Quloq sol qo'shiqqa: «Oydinda nasib –
Bo'lmish o'zimizning mehnatni ko'rmoq!
Doimo qad bukib kechirdik umr
Kunning qizig'ida, sovuqda nochor.
Ochlikka so'z bermay, yashadik chuqur –
Yerto'lada ivib, sovuq yeb, bemor.
O'nboshilar bizni taladi bari,
Toptadi boshliqlar, ezdi muhtojlik...
Mehnat bolalari, Tangri qullari,
Hamma-hammasiga ko'ndik, chidadik.
Do'stlar! Samaramiz sizgadir ravo,
Biz yerda chiriyimiz, taqdirimiz shu...
Biz bechoralarni eslarmisiz, yo –
Esdan chiqardingiz ko'pdan va mangu?»
Ularning qo'shig'i yovvoyi, qo'rqma,
Ular Volxov to Volgaga qadar,
Okadan, shu ulug' davlatning hamma
Burchidan yig'ilgan mujik birodar!
Yashirma yuzingni, hayiqsang uyat,
Sen kichik emassan!.. Sochi qo'ng'ir tus,
Ko'rdingmi qarshingda tutib turar qad,

Bezgak yenggan notob, novcha belorus:
Lablari qonsizdir, yuzida qayg‘u,
Ozib-to‘zib ketgan, qo‘llari yara,
Tizzadan suv kechib, umr ko‘rgan u,
Oyoqlari shishgan, sochi tasqara.
Ko‘ksi ichga botgan, kun osha battar,
Umrlar alami unga bo‘lgan jo.
Diqqat bilan, Vanya, tashlagin nazar,
Bir burda non uchun qanchalar jafo!
Hali bukri qaddir rostlagancha yo‘q,
Hamon sukut saqlab turgani turgan.
Beixtiyor zangli belini taq tuq
Muzlagan tuproqqa urgani-urgan.
Mehnatni sevmaklik – bu yaxshi odat,
Biz ham qabul qilsak bo‘lmasdi yomon.
Xalq boshlagan ishga tila saodat,
Mujikni hurmat qil, siyla har qachon.
Sevikli yurt uchun qo‘rqmagil aslo...
Rus xalqi chidadi hammasiga ham.
Temir yo‘l qurish-chun chekdi ne jafo,
Taqdirda boriga chidaydi bardam.
Bariga chidaydi – o‘z ko‘ksi bilan
O‘ziga yo‘l ochar keng, yorug‘, ko‘rkam,
Esiz, o‘tdi umr, bu go‘zal zamon.
Yashash nasib bo‘lmash ikkimizga ham.

III

Hushtak churilladi, shu lahza birdan,
O‘liklar bo‘lishdi ko‘zlardan g‘oyib.
Vanya dedi shunda, uxbab turarkan,
«Dada, bir tush ko‘rdim, juda ajoyib,
Besh ming mujik, Rusning urug‘-aymog‘i,
Turli tabaqalar bo‘lmish namoyon.
Bizning temir yo‘lni quruvchilar shu!..» –
Deb aytди. General tashladи xandon.
– Yaqinda Vatikan devoriga man
Bordim, Kolizeyda kezdim ikki kun.

Venada turardi buzruk Stefan,
Nahot xalq yaratgan bularni bugun?
Kechiring, qo'lingiz shuncha dag'alki,
G'ayritabiyyidir mulohazangiz.
Yoki, siz Apollon Belvederskiy
Sopol tuvakdan ham xarobmi deysiz?
Bu sizning xalqingiz – ajib san'atni,
Oynaband hammomni talagan urib!
«Vanya uchun aytdim bu hikoyatni,
Sizgamas...» Ammo der general turib:
– Sizning slavyanlar, anglo-saks, german,
Buzishga chechandir, boshqani bilmas.
Paytidir Vanyusha, ishni boshla san,
Ular vahshiylardir! Doim mast-alast...
Qayg'u va o'limni tomosha qilmoq,
Bola yuragini ezadi hayhot,
Koshki, ko'rsatsangiz go'dakka shu choq,
Yorqin tarafin ham!..

IV

Ko'rsataman shod.
Azizim, quloq sol: u mash'um ayyom
O'tib ketdi – nemis yotqizmoqda iz.
Murdalar ko'mildi, xullasi kalom,
Xastalar yerto'la ichida tig'iz.
Mahkamada bo'lsa, ishchilar to'p-to'p...
Bo'shamay qoldi-ku bosh qashishdan qo'l.
Pudratchi tutmoqda o'z hissasin ko'p,
Hordiq kunlariga chiqarmish bir pul.
O'nboshi hammasin daftarga tirkar,
Hammomga bordimi, yotdimi bemor.
«Balki bu yerdan ham bir nima chiqar,
Mana chiqib qoldi...» – lekin u bekor.
Movut chakmon kiygan – turgani savlat,
Yo'g'on va g'o'daygan, misdek rang-ro'yil...
Pudratchi boradi yo'lda betoqat,
O'z ishin ko'rgani, bu uning to'yi.

Xaloyiq yo'l berar unga ta'zimkor,
Terlarin artadi boy o'sha palla.
Atrofga ko'z tashlar yana bir qator,
Deydi: «Barakalla, ha, barakalla.
Uyga qaytish qutlug'! Tangri bo'lsin yor,
(Qalpoqlarni oling men gapirgan on!)
Bir xum to'la sharob siz uchun tayyor.
Surishib ketarmiz, bu esa, ehson».
Kimdir «ura» deya baqirdi nogoh,
Unga boshqalar ham qo'shildi darrov.
O'nboshilar kuylab, tashlasang nigoh,
Xumni dumalatar, ko'rinmas yalqov.
Ot boshin tortib xalq ko'ratdi «ura»,
Hayqiriq yangradi boyga shu mahal.
Tasvir etish uchun quvnoq manzara,
Qiyin bo'lar ekan, rostmi, general?





Qorong'i ko'chadan tunda o'tsam jim,
Havo bulut bo'lsa, uvlasa bo'ron,
Himoyasiz, bemor, bemakon do'stim,
Ko'lagang qarshimda bo'lar namoyon!
Dilozor bir xayol meni ezadi,
Yoshligingdan tole sevmadi sani:
Otang faqir hamda bag'ri tosh edi,
Erga chiqding, ammo sevib o'zgani.
Toleingga yaxshi chiqmadi ering,
Qattiqqo'l, beodob ekan muttaham.
Mahkumi bo'lmaiding va chidab ketding,
Biroq yalchimading menga tegib ham...
Eslaysanmi, bir kun men betob va och,
Juda ma'yus edim, g'amgin, bedarmon.
O'sha o'zimizning sovuq, yalang'och –
Uyda diydirardim, bosib hayajon.
Eslaysanmi, xira uyga tomchilab –
Sachrardi tuynukdan yomg'ir tun-kuni,
Yig'lardi o'g'ilchang, qo'llari muzlab,
Isitarding iliq dampingda uni...
Qayg'u va ochlikdan ertaga biz ham
Xuddi shuning kabi o'lamiz, ayon.
Xo'jayin la'natlab, olar uch tobut,
Birga olib borib qo'yar yonma-yon...
Burchak-burchaklarda turardik mahzun,
Yodimda, sen behol, ranglaring so'lg'in.
Yashirin o'ylaring sochardi uchqun,
Qalbing kurashiga yasarding yakun.
Men mudray boshladim. Asta kiyinding,
Yasanib-tusanib chiqding jim shu dam.

Bir soatdan keyin tobut keltirding
Va otangning kechki xo‘ragini ham.
Ochlikni bir nafas haydading nari,
Qorong‘i uychada yoqdik jinchiroq.
O‘g‘lingni tobutga yotqizding shu choq...
Tasodif qutqazdi bizni? Yo Tangri?
Sen og‘ir, g‘ussada eggan eding bosh,
Men-da so‘ramadim biror narsa ham.
Faqat termulardik – ko‘zimizda yosh,
Qayg‘u va g‘azabda yonardi tanam...
Endi qayerdasan? Ey, baxtsiz gado,
Dahshatli kurashda halok bo‘ldingmi?
Oddiy yo‘lni o‘zga ko‘rdingmi ravo
Va mash‘um taqdiring seni yengdimi?
Kim qilar himoya? Seni odamlar
Dahshatli nom bilan atar, begumon.
Faqat menda bunga nafrat lovullar,
Lovullar-u so‘nar befoyda shu on!..





QIZILBURUN
QAHRATON
SARDOR

Doston





*Singlim Anna Alekseyevnaga
bag'ishlayman*

Tag'in ta'na qilding menga, bir yo'la
Yuzingni ilhomdan o'girding, deya;
Ermagu ovunchlar tashvishi to'la
Odatiy turmushga bo'y berding, deya.

Tirikchilik fikri, qadahlar aslo
Meni eta olmas ilhomimga yot,
Mundoq o'ylab ko'rsam... So'ndimikan yo
Unga meni oshno etgan iste'dod?

Hali odamlarga qondoshmas shoir,
Yo'li ham qat'iymas, mushkul-u purg'am,
Men-ku tuhmatlardan qo'rqedim hech bir,
Ulardan tashvishga tushmaganman ham

Va lekin bilardim zulmat bosgan chog'
Qay dilni yuz pora etganin qayg'u,
Ular kim ko'ksiga qulab misli tog',
Kimming hayotiga qo'shganin og'u.

Garchand chetlab o'tdi meni nogahon
Boshimda charx urgan bulutlar, biroq
Bilardim, kimlarning duosi u chog'
Taqdirning o'qiga bo'lganin qalqon...

Yillar ham o'tdilar – men charchadim, ha...
Men beminnat jangchi bo'l madim, ammo
Komil ishonardim ko'p narsalarga,
Bir qudrat sezardim dilda doimo,

Endi gal o'limga – udir hukmdor...
Yo'lga chiqilmagay, axir, hech qachon,
Yagona sevguvchi yurakda takror,
Qo'zg'atmaklik uchun mash'um hayajon...

Yuvosh tortib qolgan ilhomni, inon,
Bazo'r erkalayman mening o'zim ham...
Men so'nggi qo'shiqni kuylayman bu on,
Sen uchun va senga bag'ishlab, erkam.

Sho'x-u shan bo'l magay bu qo'shiq, ammo,
Avvalgi kuylardan dardchil, serfiroq.
Chunki yuragimda zimiston dunyo,
Istiqlolda esa bundan battarroq...

Bo'ron uvlar bog'da titratib tanni,
Cho'chiyman, u nogoh sindirmasin deb,
Otamiz o'tqazgan keksa emanni,
Onamiz o'tqazgan, huv, tolni egib,

Shu tolni... Ajab, sen nechundir unda,
Ko'rmishding qismatga eng mos timsolni:
Shu tolni, onamiz jon bergen kunda –
Bir tunda barglari sarg'aygan tolni...

Titrar-u qorayib oqarar oyna...
Boq! Qanday taraqlar do'llar basma-bas!
Azizim, bilasan ko'pdan, bu joy na? –
Bunda faqatgina toshlar yig'lamas...





DEHQON
O'LIMI

Birinchi bo 'lim



I

Qorga botib to‘xtadi saman;
Sovuq olgan to‘rt tuyaq noshud,
Chiqib turar mo‘jaz chanadan,
Chipta bilan yopilgan tobut.

Beso‘naqay qo‘lqopli kampir,
Otni qistay deb tushdi birpas.
Kipriklari shovush kabidir,
Bu – sovuqdan bo‘lsa, ajabmas.

II

Shoir o‘yi, odatdagidek,
Uchmoq istar kampirdan avval:

Kafandek qor ostida tund, tek,
Kulba ana – qismatda ajal.

Uy ichida – burchakda buzoq,
Darcha tagi, kursida – o‘lik;
Go‘daklari sho‘x, o‘yinqaroq,
Faqat yig‘lar xotini sho‘rlik.

Laxtak-laxtak surupdan ayol
Kafan tikar, ignasi chaqqon,
To‘xtov bilmas yomg‘irdek, xiyol
Sas chiqarib chekadi fig‘on.

III

Uch og‘ir nasiba taqdirda enchi,
Birinchi nasiba, bu qulga tegmoq,

Qulvachchaga ona bo‘lmoq – ikkinchi,
Uchinchi – bir umr qulga bosh egmoq.

Bular bari – uch dahshatli dor:
Rus ayoli yozmishida bor.

Asrlar baxt sari intildi xilqat,
Xilqatdan neki bor – o‘zgardi, faqat,
Xudo o‘zgartmakni unutdi tamom,
Dehqon ayol shum toleini.
Ha, bugun slavyan ayol degan nom
Siyqalashdi – bilamiz uni.

Tasodify taqdir qurboni!
Jim chidading oh-faryodlarga,
Qonli kurash, o‘tli fig‘onni
Bildirmading oliv zotlarga.

Menga oshkor aylaysan, biroq!
Bolalikdan biz do‘st tutindik.
Bor vujuding – jam bo‘lgan titroq.
Bor vujuding – asriy horg‘inlik!

Kim qoshingda to‘kmabti ko‘z yosh,
Demak, bilki, uning bag‘ri tosh!

IV

Ha, darvoqe, boshlovdik avval
Dehqon ayol haqida doston –
Ki, ulug‘vor slavyan ayol
Ozmi-ko‘pmi topilar hamon.

Bundaylar ko‘p rus qishlog‘ida,
Oqqush kabi siyo go‘zallar,
Yurish-turish, husn bog‘ida
Shohona-yu tanho go‘zallar, –

Faqat ko'rlar ularni ko'rmas,
Ko'rgan esa shunday sharh etar:
«O'tar ekan – quyosh ham abas!
Boqar ekan – tuhfasi dur, zar!»

Ular ham shu – xalq oqimi jo
Bo'lgan yo'lda shaxt qadam tashlab,
G'arib hayot dog'larin go'yo
Yuqtirmaslar o'ziga. Yashnar –

Lol boqadi dunyoi azal:
Sarvqomat, yuzlari shirmon,
Qay libosda bo'lmasin – go'zal,
Qaysi ishda bo'lmasin – chaqqon.

Na qahraton, na qahat kuni
Noligay u – borlig'i chidam...
O'rim payti ko'rganman uni:
Bir sermasa – tayyordir g'aram!

Havol tortgan durra ostidan,
Yoyilar-u kokili, yashnar.
Bir sho'x yigit kelib ortidan,
Ul kokilni oshirib tashlar!

Vazmin, tilla tolalar zumda
To'zg'ib, yopar qo'sh nor ko'ksini,
Oyog'iga kokil ta'zimda,
Qaray desa – to'sar ko'zini.

U kokilin ortga tashlab, jim,
Qosh chimirib yigitga boqar.
Ulug'ver-u sipo, bejirim
Yuzlarida jahl o't yoqar...

Tek turolmas ish qaynog'ida,
Lek tanimay qolasiz uni.
Sho'x tabassum quvgan chog'ida,
Yuzlaridan mehnat muhrini.

Bir kulgiki, samimiy, beranj,
Bir qo'shiqki – soz navo! Uni
Topib bo'lmas pulga ham. «Yupanch!» –
Der mujiklar o'zaro uni.

Poygalarda yigitdan o'ktam,
Chetga burmas xatarda yuzin:
Asov toyni jilovlar ildam,
Dangal urar olovga o'zin.

Ko'p nafisdir tengi yo'q tishlar,
Yashnar yirik injular kabi.
Tishlar ko'rkin hibsda ushlar,
Soqchi bo'lib g'unchadek labi.

U tabassum qilar kamdan-kam...
Gap sotmoqqa unda fursat yo'q.
So'rayolmas qo'shni juvon ham
Biror buyum undan – yuzda cho'g'.

Andishada turar qo'shnisi –
Ahvol shu-da qochsa mehnatdan!..
Vujudida ishchanlik hissi,
Yuzi yonar ichki g'ayratdan.

Chunki unga besh qo'lday ayon:
Har balodan mehnat qutqarar,
Mehnat iqbol etar arg'umon,
Oilasin kuniga yarar:

Uyda olov arimas pechdan,
Non ham issiq, kvas ham xushta'm.
Bolalar to'q, sog'lom-u sho'xchan –
Dasturxonni to'kin har bayram.

Ibodatga, ana, u borar
Oilasi bilan. Ko'ksida
Ikki yashar go'dagi yayrar,
O'ltingandek go'yo kursida.

Olti yashar o‘g‘li yetakda,
Xushnud borar yasangan ona...
Rusni sevgan har bir yurakda,
Bu manzara qo‘zg‘ar shodyona!

V

Shunday chaqqon, xo‘b eding sen ham,
Bilar eding baxtning otini,
Ammo husning so‘rib oldi g‘am,
Marhum Proklning xotini!

Sen mag ‘rursan – yig‘lamayman deb,
Ahd etasan. Kafan bo‘zini
Tikarkansan, ammo bosh egib,
Beixtiyor ho‘llaysan uni.

Sho‘r tomchilar tomar basma-bas,
Qo‘llaringga on sayin tezroq.
Shunday to‘kar tuproqqa besas,
O‘z yetilgan donlarin boshq...

VI

To‘rt chaqirim nari, qishloqda,
Cherkov oldi – xochlar bemajol
Og‘ib, qorga yastangan yodqa
Qabr uchun joy izlaydi chol;

Ishi og‘ir, horidi bisyor,
Har yumushning o‘z hadisi bor: –

Xoch ko‘rinsin yiroqdan yaqqol,
Atrof kungay bo‘lmog‘i kerak.
Tizzagacha qorda turar chol,
Qo‘llarida misrang belkurak.

Qirov bosmish katta qalpoqni,
Soqol-mo‘ylov kumushdek qotgan.

Baland tepa uzra to‘rt yoqni
Kuzatgancha chol o‘yga botgan.

Bir qarorga keldi. Xoch qo‘yib,
Belgiladi qabr o‘rnin chol.
Va cho‘qindi. So‘ng o‘yib-o‘yib,
Qor kurashga tutindi alhol.

Qabriston-ku, emas-ku paykal,
Ko‘p qabrlar joyi nomaqbul:
Faqat xochlar ko‘rinar sal-pal,
Yer xoch bo‘lib yastamish butkul.

Bukib belni, yengib charchoqni,
U qunt bilan kovladi uzoq.
Muzlab qolgan sarg‘ish tuproqni,
Qor ko‘mardi shu zahotiyoy.

Kelib qo‘ndi yoniga qarg‘a,
Cho‘qib ko‘rdi – behuda bari:
Yer temirdek taraqlar, zo‘rg‘a
Umid uzib, chekildi nari...

Tayyor bo‘ldi, mana, qabr ham,
«Mengamidi qazish navbat! –
(Chol ko‘ksidan otildi alam):
Proklgamidi yotish fursati;

Proklgamidi!...» U qalqib tushdi,
Sirg‘aldi-yu, qo‘lidan misrang,
Oppoq chuqur tubiga uchdi,
Ming azobda oldi chol arang.

Yo‘lga tushdi... Odimlar xasta...
Na quyosh bor ko‘kda, na oy bor...
Go‘yo borliq jon berar asta:
Nimqorong‘u... sukunat... qor... qor...

Sariq soyning bo‘yi, pastqamda
 Kampiriga yetib oldi chol:
 «Qalay tobut, durustmi?» – G‘amda
 Dil tirlaldi, bosh egdi xiyol.

Toshdek ko‘kish lablarning tusi
 Sal o‘zgardi titrab: «Yomonmas».
 Jimib qoldi so‘ngra ikkisi,
 Ot-u chana intilar besas –
 Ularda ham bir qo‘rquv hissi...

Garchi ko‘zga tashlanmas qishloq,
 Lekin yaqin chiroqlar – ana.
 Cho‘qinadi kampir jim, nogoh
 Hurkiydi ot, silkinar chana –

Tig‘dor, uzun so‘yil qo‘lida,
 Ham yalangbosh, ham yalangoyoq,
 Paydo bo‘ldi ular yo‘lida
 Eski tanish Paxom ushbu chog‘.

Unga ayol ko‘ylagi – yengil,
 Ko‘kragida jaranglar zanjir;
 Tayog‘ini telba muttasil
 Do‘qillatib, qor, muzga sanchir.

So‘ng ma’rar u ko‘ngli ezilib,
 Xo‘rsinib der: «Hechqisi yo‘q, ha!
 U ishladi doim sizni deb,
 Endi esa, navbat sizlarga!

Tobut olsa onasi unga,
 Otasiga – qabrnii qazish,
 Kafan bichmoq esa – xotinga:
 Hammangizga topib berdi ish!...»

Ma’rar telba, chaqirar yiroq –
O’sha yoqqa chopar, g‘o’ldirar.
Zanjirlarning sasida firoq,
Yalt-yalt etar yalang boldirlar,
Qorni chizib, sudralar tayoq.

VIII

Tark etdi xob chol-kampir uyin,
Qo‘shni uyg‘a olib chiqdilar
Grisha va Mashani, keyin
Kiyintirdi o‘g‘lini ular –

Sekin-asta, qunt bilan, bosh xam,
Borar edi dil ezar yumush:
Aytilmadi ortiqcha so‘z ham,
Hatto ko‘z yosh bilmadi junbush.

Endi uxlар, rosa ishladi!
Endi uxlар, charchadi obdon!
G‘am-tashvishni endi tashladi,
Oq stolda yotadi dehqon!

Qimir etmas, sukut o‘ng-u so‘l,
Lipillarydi boshi uzra sham,
Egnidagi bo‘z ko‘ylak keng-mo‘l,
Hali yangi chipta kavush ham.

Ne-ne ishni joyiga qo‘ygan
Qadoq qo‘llar – yirik va behol,
Chiroyli va azobdan to‘ygan
Yuzidan to qo‘lgacha soqol...

IX

Kiyintirish tugaguncha to
Erk bilmadi alam, xo‘rliklar,
Bir-birining ko‘ziga hatto,
Qaramoqdan qochdi sho‘rliklar,

Keyin esa... tugadi ish ham –
Zarurat yo‘q dardni bo‘g‘moqqa,
Yuraklarda ko‘pchigan motam,
Toshib chiqdi sig‘may qirg‘oqqa.

Chalovzorda uvlagan shamol,
Yo to‘ydagи qiyqiriq emas,
Bu – Prokl dardida behol
Tug‘ishganlar dilidagi sas:

«Ko‘k qanotli kaptarginamiz!
Bizni tashlab, qaylarga uchding?
Tanho edi qishloqda tengsiz
Qaddu qomat, chiroying, kuching.

Maslahatgo‘y ota-onaga,
Dalada xo‘p mehnatkash eding.
Fayz kiritting mehmonxonaga,
Xotiningni, bolangni sevding...

Munchalar tez, muncha yosh ketding!
Ko‘p kezdingmi bu dunyo bo‘ylab!
O‘ylabmi, sen o‘yingga yetding,
Zax tuproqqa vafoni o‘ylab.

O‘ylab bizga buyurding besas,
Yetim bo‘lib qolmoqni magar!
Yuzlarimiz toza suv emas,
Qaynoq ko‘z yosh bilan yuvilar!

Ado bo‘lur onang armonda,
Otangning ham o‘limi tayin,
Ersiz juvon – xuddi o‘rmonda,
Kallaklangan sho‘rlik oq qayin.

Unga shafqat qilmaysan bu gal,
Bolalarga achinmaysan... Tur!
Savil qolgan ul meros paykal,
Yozda, axir, mo‘l hosil berur!

Sor lochindek yozgin quloching,
Bir dam ko'zing yonsin chaqindek,
Silkit, silkit ipakdek soching,
Shirin labing ochgin, qoqindiq!

Qaynatardik ko'ngilni xushlab,
Senga atab sharob-u sharbat,
O'tqazardik qo'lingni ushlab:
Muntazirdir senga bor ne'mat!

Biz qarshingda so'zsiz qotardik,
Uyimizning suyanch-to'sini!
Faqqatgina senga boqardik,
Faqqatgina tinglardik seni...»

X

Chorlagandek bu dod, bu motam,
Hamsoyalar to'p-to'p kelishar:
But tagiga yoqib qo'yib sham,
Sajda uchun jim egilishar,
So'ng qaytishar uyga – boshlar xam.

Bir to'p ketar, boshqasi kelar...
Kelib ketgach, nihoyat, bari,
O'tirishdi stolga ular:
Karam, kvas, non – ovqatlari.

Chol, befoyda g'ussaga, biroq
Bo'y bergisi kelmas biror on:
Cho'pchiroqqa kelib yaqinroq,
Chipta kavush bilan andarmon.

Kampir cho'zib bir uh tortdi va
Mizg'igani pech sari o'tdi.
Darya esa, yoshgina beva,
Bolalarni ko'rgani ketdi.

Tuni bo‘yi jonsiz yigitga
Duo aytdi kashish xirillab,
Pech ortidan qora chigirtka,
Jo‘rlik qildi unga chirillab.

XI

Izg‘irin zor ingrar beuyqu,
Qor sochadi har derazaga.
Ko‘tarildi quyosh serqayg‘u:
O‘sha kuni shohid bo‘ldi u,
Nadomatli bir manzaraga.

Darvozaning oldida chana,
Xomush turar qo‘shilgan saman;
Bir og‘iz ham so‘zsiz shu sana
Opchiqildi tobut – jonsiz tan.

– Chu, tezroq bo‘l, samanjon! Tez yur!
Tarangroq tort xomut ipini!
Xizmat qilding egangga ming qur,
So‘ng bora ham rozi qil uni!..

Chistopoldan, bozordan egang
Keltirganda, sen qulun eding,
O‘stirdi u seni beyugan,
Binoyidek bo‘lib yetilding.

Har bir ishda egangga hamdam,
Egang bilan g‘amlading qishlik.
Bosh berarding bolalarga ham,
To‘pon-u o‘t – shudir yemishlik,
Toza tutding sirtningi har dam.

Dalalarda ish tugagan choq,
Dastlabki qor sochganda uchqun,
Egang bilan ketarding yiroq,
Mardikorlik qilmoqlik uchun.

Axir, bormi ishning osoni –
Tashir eding yuklarki – zil, mo‘l.

Dahshat salsa goh qor bo'roni,
Gandiraklab, yo'qotarding yo'l.

Ichga tortgan biqinda bu dam
Qamchi izi garchi ko'p, biroq
Karvonsaroy oxurini ham,
Sulini ham ko'rgansan bir choq.

Tinglagansan chilla qahrida,
Tun bo'ronin bo'g'iq so'zini.
Va ko'rgansan o'rmon bag'rida,
Och bo'rining yongan ko'zini.

Titratardi qo'rquv tanangni,
So'ngra – bari ortingda edi!
Ha, sho'r qisdi, aniq, egangni,
Qish oyoqdan yiqitdi, yedi!..

XII

Omad qochib, qor tepa aro
Qolib ketdi yarim kun, so'ng u
Uch kun yonib, qaltirab goho,
Tizgin tutib bordi beuyqu.

Yetkazay deb yukni muddatda,
Bechora hech tin olgani yo'q.
Yetkazdi-yu, qaytdi hasratda:
Tomog'ida bo'g'ma, tanda cho'g'.

Kampir sho'rlik to'qqiz g'a rovdan,
Suv ham quydi bosh-u ko'ziga,
Hammomga ham bordi – olov tan,
Hech kelmadi, lekin, o'ziga.

Parixonlar kelishdi – shuncha
Kuf-suflar ham bermadi yordam.
Uch bor terga botgan bo'yincha
Orasida o'tkazdilar ham...

Muzni teshib suvga tushirish...
O‘tqazishlar qo‘noq ostiga...
Hammasiga ko‘ndi boyaqish,
Chatoq, tuz ham solmas og‘ziga.

Kirib qolib maslahat berdi,
Sergachevsklik Fedya bir mahal:
«Tashlab ayiq ostiga, – derdi, –
Suyaklarin ezdiringlar sal...»

Ammo Darya – bemor xotini,
Quvib soldi maslahatgo‘yni:
O‘zga xayol band etdi uni,
Bajarmoqchi bo‘ldi shu o‘yni:

Monastirga yo‘l oldi tunda,
(O‘n chaqirim chamasi yiroq) –
Mo‘jizakor jajji but unda,
Borligini eshitgan bir choq.

Uyga qaytdi but bilan omon,
Bemor esa tilsiz yotardi,
Xotinini ko‘rgani zamon,
Jonholatda ingrab yubordi.

Va uzildi...

XIII

... Samanjon, tez yur!
Tarangroq tort xomut ipini!
Xizmat qilding egangga ming qur,
So‘ng bora ham rozi qil uni!

Chuh! Qarsillar qamchi ikki bor!
Kutib oldi poplar – yur chaqqon!
Ikki suvrat, ikki g‘amguzor –
Chol-u kampir oldda, bedarmon.

O‘ltirardi murda yonida
Ikki go‘dak qunishib, hayron,
Ona qo‘li ot yukanida –
Ona tobut bilan yonma-yon

Borar... Cho‘kkan ko‘zлari purg‘am,
Yuzlarining rangidan alhol
Oq emasdi motam ramzi ham
Boshidagi qordek oq ro‘mol.

So‘ngra borar qo‘shnilar bari –
Sudralardi bosh chayqab to‘da:
Proklning norastalari
Baxti qaro ekan-da juda.

Endi Darya mehnatda ado –
Qora kunlar, og‘ir yumushlar.
«Shafqat qilmas Xudo ham hatto» –
Bir to‘xtamga kelar qo‘shnilar...

XIV

Proklni udum bo‘yicha
Qo‘ydilar, so‘ng tuproq tashlashdi;
Yig‘ladilar uv tortib picha,
Oilaga bardosh tilashdi,
Marhum ruhin maqtab, siylashdi.

Hatto bunda Sidor Ivanich –
Oqsoqol ham oh urar edi:
«Ey Prokl Sevastiyanich,
Joying bo‘lsin jannatda! – dedi, –

Pok yashading, muhim, lekin,
O‘z vaqtida, – Xudo serkaram, –
To‘lar eding xo‘jayin chekin,
Poshsholikning o‘lponini ham!»

Silliq so‘zlar tugab qolganda,
Tomoq qirdi hurmati zo‘r chol:

«Bandachilik, shunday ekan-da!» –
Deb qalpoqni kiydi oqsoqol.

«Yiqilding-a... ey-voy, navqiron!
Bu bizning ham peshonada bor!..»
Cho‘qindi-yu, bir zum olomon,
So‘ng yo‘l soldi uyga kechib qor.

Keksa, novcha, qotma vujudi
Mixlangandek, yalang bosh-u lol,
Farzandining qabrida xuddi
Haykal kabi turar edi chol!

Keyin asta qadam bosdi-da,
Bazo‘r yengib mudhish jabrni,
Kampirining dodi ostida
Shibalashga tushdi qabrni.

O‘g‘lin ko‘mib chol-kampir besas,
Qaytar ekan behol qishloqqa:
«Chayqalishar, qara, xuddi mast!
Tavba!..» – derdi xalq ushlab yoqa.

XV

Uyga qaytdi Darya ham bu kez –
Bolalar och, to‘s-to‘s hamma yoq.
Voy-bo‘y! Xona muncha sovuq! Tez
Kerak pechga o‘tin qalamoq,

Ana xolos – na bitta palyon!
O‘ylar ona – ezilar yurak:
Yolg‘iz qo‘ysa bo‘lmas. Jonajon
Go‘daklarin suymoq ham kerak.

Lekin vaqt yo‘q. Ularni darhol
Topshirdi-da qo‘shni xotinga,
Yana o‘sha chanada ayol
O‘rmon sari ketdi o‘tinga...





XVI

Ayoz. Yalang sayhon mudraydi, oppoq,
Ro‘parada qorayar o‘rmon,
Holsiz sudraladi ikki juft tuyoq,
Ko‘rinmaydi yo‘lda tirik jon.

Qanday jim! Qishloqdan chiqqan har sado
Qulog‘ingga bongdek urilar,
Qo‘schorak ildizga turtinib goho,
G‘ijirlaydi, yurak zirillar.

Atrofga boqsang naq ko‘z o‘yiladi,
Yaltillaydi olmos yalanglik...
Darya ko‘zlariga yosh quyiladi –
Kun tig‘idan, balki bu tanglik...

XVII

Dala jimjit, undan ham o‘ychan
Va yorug‘roq tuyular o‘rmon.
Borgan sari daraxtlar bo‘ychan,
Soyalari – uzun, yotag‘on.

Faqat daraxt, soyalar, quyosh
Va sur ayoz, qabr sukut...
Boq! – Otildi ko‘zga to‘lgan yosh,
Dil ezar dod atrofni tutdi!

Bo‘g‘olmadi Darya faryodni.
O‘rmon esa tinglardi loqayd
Kengliklarga yoyilgan dodni
Va ovozning titrashin bu payt.

Quyosh – ko‘kda bejon, zoldirdek,
Xuddi ukki ko‘zidek za’far.
Nigoh bilan behis va birdek
Sho‘ridan holni kuzatar.

Yana qancha uzildi torlar,
Bilmam, dehqon ayol bag‘rida,
Lekin pinhon qoldi bu zorlar
Gung, kimsasiz o‘rmon qa‘rida.

Norastalar panohi, pushti –
Tul dardini qushchalar takror
Tinglashsa-da, biroq cho‘chishdi.
Uni xalqqa etmakka oshkor...

XVIII

Sakbon emas, burg‘usin chalib –
Shovqin solgan emanzor aro –
Yig‘lab-yig‘lab, xo‘p to‘yib olib,
O‘tin kesar yosh beva tanho.

Shart kesar-u, chanaga tashlar,
Tezroqqina to‘lsaydi, lekin
O‘zi sezmas, ko‘zidan yoshlar
Chakka kabi tomadi betin:

Ba’zi tomchi siltov zarbidan
Yumshoq qorga otilib tushar,
Yonib turgan suyuq, za’far tan
Naq yergacha yo‘lakcha teshar.

Ba’zi biri sachrar daraxtga,
Yo g‘o‘laga – qarabsizki, u
Aylanadi bir zumda yaxga –
Yum-yumaloq, shaffof, qurch inju.

Boshqa biri, ko‘zda yaltirab,
Irmoqchaday choparkan yuzda,
O‘ynab qolar quyosh qaltirab...
Darya shoshar – tugatsa tezda.

Bolta urar, ayozni sezmas
Oyog‘iga so‘zak kirsa ham,
Faqat o‘ylar erini. Besas
So‘zlar unga – u bilan hamdam...

XIX

.....
.....
«Jonom! Yana kelganda ko‘klam,
Mashamizga qo‘shiqlar aytar.
Sho‘x do‘sstlarin davrami xurram,
Qiyqirishib qo‘lda chayqatar!»

Qo‘lda chayqatar,
Ko‘klarga otar,
Qizg‘aldoq atar,
Qizg‘aldoq qoqar!*

Yuzi xuddi loladek yashnar,
Qizg‘aldoq-la chiroy talashar
Moviy ko‘zli, oltin soch Masha!

Raqsga tushar jajji oyoqlar,
Qahqahlar qiz... Biz-chi, o’shal dam
Boqarkanmiz, barcha firoqlar
Unut bo‘lar, mening yagonam!..

XX

Yetmay turib, yiqilding sen,
Tor qabrga tiqilding sen!
Bahor keldi, yayraydi jon,
Quyosh bo‘lib ketdi osmon.

* «Qizg‘aldoq ekish» deb nomlanadigan mashhur xalq o‘yini. Qizg‘aldoq bo‘lib davra o‘rtasida chiroyligina qizaloq o‘tiradi, o‘yin so‘ngida uni birinchi bor ko‘kka otib ilib oladilar, bu bilan qizg‘aldoq qoqish jarayoni aks ettiriladi. Yana, qizcha o‘rnida dovdirroq yigit ham o‘tirishi mumkin, farq shuki, bunda qizg‘aldoq qoqish paytida yigit sho‘rlikka davradagilardan talaygina musht tushadi. (*Muallif izohi*).

Jon baxsh etdi yerga oftob,
Gul-gul yashnar keksa olam,
Omoch so'rar dala shitob,
Chalg'i deydi pichanzor ham.

Men, g'amnishin, tongda turdim
Va taomdan yuzim burdim,
Oqshomgacha omoch surdim,
Tun – chalg'iga bolg'a urdim,
Sahar – o'tloq sari yurdim...

Qoim turing, hey oyoqlarim!
Zirqiramang, oq barmoqlarim!
Kerak o'zim ulgurmog'im!

Dala yolg'iz ayolni ezar,
Chor atrofda vahima kezar,
G'amxo'rimni izlar ko'zim!

Haydalganmi durust yerim?
Chiq, azizim, bir qarab boq!
Emasmikan pichan namroq?
G'ovakmasmi g'aram andak?..
Faqt xaskash bo'ldi to'shak,
Tugaguncha toki o'rim!

Ayol ishin kuzatuvchi yo'q!
O'rgatguvchi, tuzatguvchi yo'q...

XXI

Kez keldi, intilar mollar o'rmonga,
Kez keldi, javdar ham quyular donga.

Xudo berdi hosilni!
Poyalar ko'krakka uradi,
Xudo berdi hosilni
Va lekin umringni bermadi –
Men yolg'iz, na chora, bari – bir jonga!..

Vizillar-u so'na chaqar,
Bosib bo'lmas chanqog'imni,
O'rog'imni quyosh charxlar
Va egovlar qavog'imni.
Egovlaydi bosh, yelkani,
Qo'l-oyoqni kuydiradi,
Eslatadi cho'ng pechkani –
Javdarzor taft ufuradi,
Belda mador odosh butkul,
Oyoq-qo'lga tig' sanchilar,
Ko'z oldimdan ketmas nuql
Sariq, qizil halqachalar...
O'rgin tezroq, shoshmoq payti,
Boq – don to'kar boshq chak-chak...
Birga bo'lsak – o'zgachaydi,
O'zgachaydi – birga bo'lsak...

XXII

O'ng keldi tush, ha, yolg'izim!
Arafada ko'rgan tushim.
Qo'lda o'roq, peshin – dim, jim,
Uyqu bosdi... Uchib hushim,
Tikilaman: atrof nuql
Lak-lak lashkar – kuch beedad –
Dahshat bilan silkirlar qo'l,
Ko'zlar yonar – bari dahshat.
Qochmoq bo'ldim, yo'qdir najot –
Bo'ysunmaydi oyoqlarim,
Qichqiraman, tilab imdad,
Yirtilgudek tomoqlarim.

Qulq tutdim, titraydi yer –
Chopib keldi avval onam,
O'tlar sinar shitir-shitir –
Shoshib keldi bolalar ham.
Shamol yo'q-da, yozmas chaqqon
Qulochini yeltegirmon:
Yonboshlaydi kelib akam,

Sudraladi chol qaynatam.
Yetib keldi bari ular,
Faqatgina azizimni
Bu ko'zlarim ko'rmadilar...
Chorlay ketdim yolg'izimni:
«Qara, axir, atrof nuqul
Lak-lak lashkar – kuch beadad –
Ko'zlar yonar – bari dahshat:
Nechun meni qutqarmaysan?...»
Qarab boqsam men bir zamon –
Yo Xudoyim! – Ketdi qayon?
Nima bo'ldi menga, axir?..
Lashkar yo'q-ku bunda hech bir!
Bular – na shum qaroqchilar,
Na musulmon g'azavoti,
Bular javdar, sabri bitgan
Boshqalarning g'azab oti –
Men bilan jang qilmoqchilar!

Chayqalishar qo'l, yonoqqa
Yopirilib, sancharlar nish,
O'zлari egilib kelar o'roqqa –
Qaqqaymoqliк jonga tegmish!

Men o'rimga tushdim chaqqon,
Oq bo'ynimga har sermashda
To'kiladi yirik, to'q don –
Do'l shunaqa savar dashtda!

Oqib bitar, oqib bitar
Tuni bo'yi rizq-ro'z javdar...
Qaydasan, Prokl Sevastyanich,
Nega rahming kelmaydi hech?

O'ng keldi-ku tushim, evoh, yolg'izim!
O'rayman men endi yolg'iz bir o'zim.

O'zim o'roq sermarman ham,
Dastalarni jamlarman ham,
Yoshim bilan namlarman ham!

Tulning yoshi yum-yum oqar,
Injumas u, u sho'r, taxir –
Xudoyimga nega yoqar,
Nechun unga kerak axir?..

* * * XXIII *

Qish tunlari uzun-uzoq,
Uyqu bermas yorsiz yotoq,
Yosh to'kmasin ko'zlar yana,
Qo'llarimga olay nina.

Surup tikay, ko'proq tikay
Yangisini, puxtasini,
Kamol topib qarchig'ayday,
Aziz o'g'lim kiysin uni.

Bu atrofda topilmagay
Hech unga teng kuyov, hay-hay.
Topilganda yaxshiroq qiz,
Oqil sovchi yuborgaymiz...

To'ng'ichim sochlari taradim o'zim,
Xuddi naqsh olmadek bizning Grishka,
Naqsh olmadek – kelin... Tezroq, azizim!
Oq fotiha bergen ikkala yoshga!..

Bu kunni bayramdek kutgan edik biz,
Grisha ilk bora oyoq bosgan kun
Esingdami, tuni bo'yil gapimiz
To'y haqida bo'ldi butun.
Mol yig'a boshladik baholi qudrat...
Mana, shukr, keldi fursat!

Qo'ng'iroqlar jaranglar, boq!
Ortga qaytdi to'y karvoni,
Qani, peshvoz chiq tezroq,
Kelin – tovus, kuyovki – lochin –
Boshlaridan sochqi sochgin.
Ko'msin xmel, bug'doy doni!..*

* Kelajakda yoshlarning boy-badavlat turmush kechirishlarini niyat qilib, ular boshidan xmel (qulmoq) va bug'doy doni sochiladi. (*Muallif izohi*).

XXIV

Tund o'rmon yonida poda chimdir o't,
Cho'pon bola chipta archar o'rmonda,
Ko'k qashqir chiqadi – ko'zlarida o't.
Kimning qo'yi hayotdan ronda?

Qop-qora, cho'ng bulut – qo'rg'oshinsimon,
Qishlog'imiz uzra osilib turar,
Chaqmoq otiladi gumburlab shu on,
Qaysi uyning kuli sovrular?

Shum xabar chalinar tez-tez quloqqa,
Yigitlar quvonchi bormas uzoqqa,
Tez boshlanur rekrutga ro'yxat!
Bizda-chi, o'g'limiz – yakka shunqordir –
Faqat shu Grisha va bir qiz bordir.
Peshvomizda bormi diyonat:
– Jamoaning hukmi! – der faqat.
Hayf ketar dov yigit bekordan bekor,
Tur, qutqar, o'g'lingga bo'lgin madadkor!
Qutqarishing qiyindir, ammo!..
Qo'lingda jon yo'qdir – zax tuproq og'ir,
Ko'zlarining yumuqdir – zax tuproq og'ir...
Yetimlarmiz, biz, baxti qaro!..

XXV

Yolvormasmidim men qodir Xudoga?
Men erinchoqmi edim?
Shifobaxsh butni deb ul qadamjoga
Tunda qo'rmasdan yeldim.
Shamol shovqin solib, uyar edi qor,
Na oy, na nur yilt etgan!
Ko'kka boqsang, go'yo ulkan tobut bor,
Zanjir-u cho'ng toshlar chiqar bulutdan...

Men uni deb kuymasmidim?
Ayarmidim o'zimni?

Qo‘yarga joy topmas edim,
Jondek sevardim uni!..

Tunni yulduz yoritadi,
Bizni zulmat qaritadi...

Sakrab chiqdi quyon roshga.
Oh, quyonjon, to‘xta, shoshma!
Kesib o‘tma yo‘lni, quyon!

Shukr, ketdi o‘rmon tomon...
Tun yarimda qo‘rqinch bosar –

Quloq tutsam ins-u jinslar
Chopar, yangrar, nedir izlar,
Ho‘ngrashar – yangrar o‘rmon.

Ular bilan ishim nadir?
Tegma menga! Qo‘lda nazir –
Xudo yo‘liga ehson!

Eshitaman – ot dupuri,
Eshitaman – uvlar bo‘ri,
Quvishadi orqamdan –

Yirtqich, menga, qo‘y, otilma!
Yovuz odam daxl qilma,
Dard, zahmat bor chaqamda!

Yozda umri o‘tar ishda,
Bolalarni ko‘rmas qishda,
Uni o‘ylab, men shu ko‘yi
Ko‘z yummashdan tun bo‘yi.
Kelar u, titraydi... men-chi, majruhhol,
Zig‘irga andarmon –
Uning olis-olis yo‘llari misol
Uzun ip tortarman.

Urchug'im aylanar, sakrar bekanda
Va yerga urilar.
Cho'qinar Prokl o'r-jar kelganda,
Do'nglikda samanga hamtuyoq bo'lar.
Yoz ketidan – yoz, qish ketidan – qish,
Shunday bo'ldi bizning yig'inish!..
Bechora dehqonga shafqat qil, shafqat!
Beryapmiz-ku, axir, Egam,
Neki yig'gan bo'lsak – chekib ranj, mehnat –
Tangalab ham, chaqalab ham!..

XXVI

Tugadi so'qmoq oxir!
Tugadi o'rmon.
Tongga yaqin ko'kdan bir
Yulduz nogahon
Uzildi-yu, yerga quladi –
Xudo unga pufladi,
Bir shuv etdi yuragim:
O'ylardim, xotirlardim –
Ne o'y edi miyamda
Yulduz qulagan damda?
Esladim! Yaxlar yurak,
Oyog'imda jon tindi:
Tirik topmasam kerak
Proklimni endi...

Yo'q! Xudo madadkor, bo'lmas u nobud!
Shifo bag'ishlagay mo'jizakor but!
Bir zum cho'qindim-u tek,
Yugurib ketdim yeldek.

Bir polvoncha, axir, kuchi bor,
O'lmas, xudo serkaram...
Mana, oxir, monastir, devor!
Ana, bosh urar bu dam
Darvozasiga soyam.
Ta'zimga egildim darhol men, purxun,

Tiklandim-u, boqsam shu sana
Oltin xochga qo'nib, tikilar quzg'un,
Bir shuv etdi yuragim yana!

XXVII

Qolib ketdim uzoq men – nighun,
Qazo qilgan ekan zohida u kun.
Borardi ibodat,
Cherkov ichra sokin monax singillar,
Qora jubba kiymishdi ular,
Oppoq edi marhuma faqat:
Orom olar – yosh va begunoh,
Biladiki, joyi jannatda.

Men nomunosib ham o'pdim ul oppoq
Qo'llaringni o'shal fursatda!
Yuzingga men uzoq tashladim nazar:
Barcha singillardan munis, ruhafzo –
Go'yo sen – jannatiy bir chinni kaptar
Xonaki, ko'kqanot kaptarlar aro.

Qo'llaringda tasbeh – qoramfir,
Manglaydagi gultojda bitik,
Tobutingga yopiq qora tik:
Faqat hurlar shunday yotadir!

Iltijo qil, Haqqa, oppog'im,
Shu muqaddas pokiza tildan:
Men g'urbatda, o'chib chirog'im,
Tul qolmayin sag'irlar bilan!

Ko'tarib bordilar tobutni boshda,
Ko'mdilar ul hurni cho'mib ko'z yoshda.

XXVIII

Qutlug' but – muqaddas suvrat qo'zg'aldi,
Ketidan singillar kuylab yo'l oldi,
Barcha uni o'par egilib.

Har dilda zo'r edi Xoliqqa hurmat:
Yosh-qari ishini tashlab shu fursat –
Qo'shilardi to'daga kelib.

Olib chiqishardi bemor, majruhn...
Majruhlar tanidan quvding anduhni,
Ko'p ko'zlardan qon – yosh aridi...

Faqat sen bizlarga qilmading karam!

.....

Voy, xudo! Muncha ko'p o'tin kesmasam!
Olib ketish mahol barini...

XXIX

Tugatdi-yu odatiy ishni,
O'tinlarni chanaga soldi.
Xayol qilib yo'lga tushishni,
Beva qo'lga jilovni oldi.

Lekin tag'in bosdi o'ylari,
Beixtiyor olib boltani,
Asta yuksak qarag'ay sari
Yurdi – titrar faryoddan tani.

Bazo'r tutar oyoqlar uni,
Yuragida hazin turg'unlik,
Cho'kdi oxir qayg'u sukuni –
Ixtiyorsiz, qo'rqinchli gunglik!

Qarag'ayning tagida behud,
Turar – na o'y, na yosh, na ovoz.
O'rmon saqlar qabrdek sukut,
Kun yonsa-da, kuchayar ayoz.

XXX

Shamoldanmas o'rmonda g'uluv,
Na tog'lardan soylar yugurar, –
Boq! Qahraton sardor erur bu,
O'z mulkini aylanib yurar.

Ko‘rar – har bir so‘qmoqni bo‘ron
Ko‘mganmikan – ayamay qorni?
Biror tirqish qolganmi omon,
Olachalpoq biror joy bormi?

Qarag‘aylar uchi momiqmi,
Emanlarda go‘zalmi bezak?
O‘tkazmas, a, muzlar sovuqni
Daryo bilan anhorga beshak?

U daraxtlar ustida ketar,
Qisirlatib, kezadi muzda.
Charaqlagan quyosh raqs etar
Uning paxmoq soqoli uzra.

Sehrgarga hamma yer yo‘l-ku,
Bas, Qahraton yaqinlashar, boq!
Mana, nogoh paydo bo‘ldi u,
Beva ayol boshida shu choq.

Minib ulkan bir qarag‘ayga,
Cho‘qmor bilan shoxlarni savar,
O‘zin maqtab paydar-payiga,
Qo‘sish qaytar solgan kabi jar:

XXXI

«Qahratoning kimligin jinday
Ko‘rib qo‘ygin endi, kelinchak!
Chiroyda ham, kuchda ham menday
Biror yigit bo‘lmasa kerak!

Doim bo‘ron, qor va tumanlar
Izmimdadir – chiqmagay so‘zdan,
Keldimmi – bas: daryo, ummonlar
Uzra saroy qururman muzdan.

Daryolarni, istasam bas, ha,
Olgum qahrim domiga oson,

Muz ko‘priklar qurgum birpasda –
Bundayini qurolmas inson.

Kuni kecha shovqin solib xo‘p,
Suv o‘ynagan joylardan shaxdam,
O‘tdi bugun odamlar to‘p-to‘p,
Og‘ir yukli aravalara ham.

Yoqtiraman: men qabrlarda
Murdalarga kiydirsam qirov,
Hukm surib muz tomirlarda,
Miyalar ham yaxlasa birrov.

Yoqtiraman: o‘g‘riga – kulfat,
Qo‘rquv bo‘lib – ot, chavandozga,
Tinch o‘rmonni men kechki fursat
To‘ldirishni qars-qurs ovozga.

Alvasti deb, xotinlar ko‘rsa,
Uyga qochar: ana daxmaza!
Mast, yayov yo otliqni bo‘lsa,
Dovdiratish bundan ham maza.

Oqlagayman aftin ohaksiz,
Burni esa – misoli chiroq,
Soqoli ham jilovga, shaksiz,
Yopishadi go‘yo et-tirnoq!

Sanamayman, xazinam – qoim,
Tugamas sarf, «u-bu»lar bilan;
Men mulkimni bezayman doim
Olmos, kumush, injular bilan.

Yur mulkimga, birga ketaylik,
Malika bo‘l! Bugun qish faqat –
Davr surib shohlik etaylik,
Yozda esa – uyquga navbat.

Yur mulkimga! Erkalab, jonim,
Ajratgayman saroy – xos, zangor...»

Va cho‘qmorni beva uzra jim
Silkitishga kirishdi sardor.

XXXII

«Isidingmi, ko‘hlik kelinchak?» –
Yuqoridan sardor hayqirar.
– Isidim! – der sho‘rlik kelinchak,
O‘zi esa dir-dir qaltirar.

So‘ng sal pastlab Qahraton botir,
Silkitdi-da tag‘in cho‘qmorin,
Shivirladi erkalab, sohir:
«Isidingmi?» – «Issiq, dildorim!»

Issiq – lekin o‘zi muz qotar,
Qahraton-chi, yana ham yaqin:
Har nafasi yuziga botar, –
O‘tkir-o‘tkir ninalar otar
Soqolidan bevaga tag‘in.

Ana, tushdi yoniga, evoh!
«Issiqmi?» – deb luqma tashladi
Va Prokl bo‘lib banogoh,
U Daryani o‘pa boshladi.

Yelkalar-u lab-u ko‘zlardan
Bo‘sа olib oqsoch sehrgar,
To‘y haqida yori so‘zlagan
Ul ahndlarni bir-bir shivirlar.

Uning totli, mayin so‘zlarin,
Tinglayverdi ayol shu holda.
Darya hatto yumdi ko‘zlarin,
Tushib ketdi qo‘lidan bolta.

Sho‘rlik beva vaqt chog‘ edi,
Qonsiz lablar kular jimgina,

Kipriklari momiq, oq edi,
Qoshlarida ayozdan nina...

XXXIII

Muz qotadi on sayin juvon,
Yaltir-yultir qirovga botib,
Tushga esa kirar saraton,
Pishgan hosil xayoldan o'tib...

Shukr, hosil chiqdi o'rimdan!
Erlar tushdi dasta tashishga,
Darya esa quvonib zimdan
Daryo bo'ylab kavlar kartoshka.

Qaynonasi ishlar yonma-yon;
Sabzi g'ajib, silkitib oyoq,
To'la qopning ustida shodon
O'ltiribdi Masha – bijildoq.

G'ijirlaydi arava, saman
Boshin silkir ularga xushvaqt.
Ortda qolmay aravasidan,
O'tib borar Prokl shu vaqt.

– Hormanglar! Ha, qani Grishka? –
Yo'l-yo'lakay yo'qlar otasi.
Kampir deydi: «No'xat yig'ishda!»
– Grishuxa! – yangrar-u sasi,

Ko'kka boqar: – ertamasmikan?
Chanqadim-ey... Darya tiklab qad,
Proklga oppoq mo'ndidan
Uzatadi kvas. Shu fursat –

Ko'rinati Grishuxa ham:
No'xatpoya to boshdan-oyoq.
Chopqir bola go'yoki shu dam
Uchayotgan yam-yashil butoq.

– Uh!.. Tirrancha! Chopishni qara!
Tovonidan o‘t chaqnaydi, boq! –
Grishuxa zag‘chadek qora,
Faqtgina kallasi oppoq.

Shovqin solib, sakrab kelar-u,
(No‘xatchambar xuddi xomutdek),
Keksa-yoshni mehmon qilar u.
Quyun kabi bir zum turmas tek.

Erkalaydi onasi xurram,
Ota esa chimchilar uni;
Bu orada asov saman ham
Cho‘zar, cho‘zar unga bo‘ynini,

Yetar oxir – kurt-kurt etkizib,
Ishtahada no‘xatni chaynar
Va beozor labin tekkizib,
Grishaning qulog‘in o‘ynar...

XXXIV

Otasiga Masha intilar:
– Olib ketgin meni ham, ota! –
Sakrayman deb, qopdan yiqilar,
Turg‘izadi otasi: «Ol, ha!

Yiqilibsan – xo‘sh, nima bo‘pti!..
Qiz kerakmas menga. Tag‘in bir,
Sen, onasi, bahorda, xo‘pmi,
Mana bunday shovvoz tug‘ib ber!

Tushunding, a!» Darya uyalar,
– Bittasi ham yetarli juda!
(O‘zi esa ko‘pdanki, bilar –
Gumona bor...) «Qani, Mashuk, ha!»

Aravadan turib Prokl
Mashutkani yoniga oldi.

Sakrab chiqdi Grishka dadil:
Keyin esa saman qo‘zg‘aldi.

Aravadan umid uzolmay
Gala chumchuq hanuz charx urar.
Peshonadan qo‘lini olmay,
Darya uzoq tikilib turar.

Yiroqlashib boradi ular,
Ko‘pchib yotar, huv, xirmonlari.
Dasta osha o‘grilib kular
Lola yuzli bolajonlari...

I-ye, qo‘shiq! Tanishdir sasi!
Yurak balqir ohang, so‘zidan...
Azoblarning so‘nggi sharpasi
Yo‘qoladi Darya yuzidan.

Qalbi uchar qo‘shiqqa hamroh,
Bor vujudi erir shu asno...
Ha, tushdagi kuydan go‘zalroq
Qo‘shiq bo‘lmas dunyoda aslo!

U ne haqda – Xudo biladi!
Ilg‘olmadim so‘zlar ma’nisin,
Lekin qalbni asir qiladi,
Bir ohangki – iqbolga tahsin.

Unda – mayin taqdir ardog‘i,
Poyon bilmas ishq ahdlari jam...
Tark etmasdi Darya yonog‘in,
Mannun, baxtli tabassum bir dam.

XXXV

Qancha qimmat tushmasin uyqu,
Horg‘in, yolg‘iz dehqon ayolga.
Ne ham derdik? – jilmayardi u.
Achinmoqlik nechun bu holga?

Qish osmoni ostida oppoq
O'rmon bizga sokin, benido
Baxsh etguvchi uyqudan xushroq,
Komil orom bo'limagay aslo.

Horg'in ko'krak ololmas shunday
Chuqur, erkin nafas hech qayda,
Agar to'ysak hayotdan: bunday
Totli uyqu yo'q biror joyda!

XXXVI

Na biror sas! Qalb o'lar asta
G'am-u zavqdan. Sezasan faqat:
O'z domiga tortar qay tarzda
Uni bu gung, o'lik sukunat.

Na biror sas! Ko'rganing xolos:
Niliy gumbaz, quyosh va o'rmon –
Kumush rangli qirovdan libos
Kiyganicha mo'jiza kon.

O'z bag'rida asrab ne-ne sir,
Cheksiz-hissiz turar... Nogahon –
Tasodif bu – shitirlar nedir:
Shoxdan shoxga o'tar olmaxon.

U sakrarkan, Darya ustida
Bir bo'lak qor – kumush rang kukun.
Darya esa – qirov tusida,
Xob sehrida qotmishdi butun.



SO'NGGI
QO'SHIQLAR

1876–1877-yillar qo'shiqlari





MUQADDIMA

Yo‘q! Ojizdir dori-yu darmon,
Tabiblarning ilmi ham bekor:
Muncha azob chekmasa bir jon?
Falak! Tezroq o‘limni yubor!

Isyonkormas do‘sstar atayin,
Ma'yus boqar vafodor itim,
Xotinimning nigohi mayin,
Men qyinoqdan hozir qutuldim.

Boshlanguncha qaytadan azob
Ovunaman bir orzuda tek:
Qaniydi shift bossaydi shu tob
Ko‘kragimdan qabr toshidek.

Xo‘splashardim hayot-la oson,
Azoblarsiz... Kechir, ey orom!
Og‘riq bosar go‘yoki to‘fon:
O‘xshar to‘sak ninaga tamom.

Olishaman – bo‘y bermaydi u,
Olishaman – g‘ijirlar tishim...
Ilhompari, do‘stim eding-ku,
Kel endi, bu – so‘nggi chorlashim!

Bu dahshatlar emas yangi gap;
Mo‘jizaviy kuch berding har choq,
Sen changalni gul bilan bezab,
Madad qilding – yengildi qyinoq.

Kel, rag'bating qudrati bilan
Mag'lub bo'lsin tandagi qiyinoq,
Qahr-u qasos, nafrat, sevgidan
Ko'ksim aro ezgu olov yoq!

Tasavvurga, qanotli yeldek,
Xayollarning birkit boshini.
Va mening dim qabrimdan yeldek,
Ag'dar og'ir qabr toshini!





* * *

Kunlar o'tar... hanuz o'sha dim havo,
Ko'hna dunyo yo'li – halokatli yo'l...
Tosh – inson qalbidan yumshoqroq hatto,
Zaifga cho'zilmas bunda biror qo'l!

Biroq...adolatli g'azabda jim qol!
Asrni, odamni qarg'ash noravo:
She'riy yonishlarga erk berib, behol
Sham kabi tugaysan bu kunlar aro.





URUG' SOCHUVCHILARGA

Xalq yeriga bilimdan urug' sochuvchi!
Yer yomonmi, zarangmi yo yo'qmi kuchi,
Puchmi urug'ing magar?
Yuragingda qo'rquvmi? Yo sen bedarmon?
Mehnatingga mukofot maysalar – nimjon,
Juda kamdir to'q donlar!
Qaydasiz, tetik nigoh, pishigan ko'zlar,
Qaydasiz, savat tutgan, doni nig'izlar?
Cho'chib, kam-kam sochganlar mehnatin sizlar
Tezlatting bugun!
Soching: aql, yaxshilik, ezgu urug'lar,
Soching! Rahmat deb qalbdan, sizni ulug'lar
Rus xalqi butun...





IBODAT

Qahraton va qahat bizning qishloqda,
Tong – g'arib, tumanli, namchil, ma'yushol,
Qo'ng'iroq bo'g'ilib yangrar yiroqda,
Chorlar yo'lovchini cherkovga alhol.
Qandaydir qat'iyat, hukmning bongi –
Qo'ng'iroqning bu bo'g'iq sasi,
Cherkovda o'tkazdim ul namchil tongni –
Unutmasman men uni asti.
Butun qishloq ahli, yosh ham, qari ham
Yig'lab, sajda keltirar bajo,
Bu sovuq qahatga tilaydi barham
Dillardagi qaynoq iltijo,
Men xalqni ko'rghanman juda kamdan-kam
Bunday g'amda, bunday holatda!
«Karam et Haq, xalqqa, do'stlariga ham! –
Shivirlardim g'ayri hayratda:
Qabul qil, bu duo baxshida dildan
Xalqqa xizmat etganlar uchun,
Mangu turmalarga hukm qilingan,
Surgunlarga ketganlar uchun,
Ne-ne kurashlarni boshdan kechirgan,
Qoim qolib ahdda jo'mardvor,
«Senga yukinamiz, Xudoyim» degan,
Qul qo'shig'in aytganga so'ng bor.





DO'STLARIMGA

Tan berdim bu sabil taqdirga butun,
Na xohish, na kuch bor xasta vujudda.
Bu do'zax o'tiga tob bermoq uchun!
Tezroq o'lmaklikni istayman juda.

Siz esa, do'stlarim, kun ko'rib halol,
So'ngra bosh qo'yingiz sovuq tuproqqa,
Aziz xotirangiz bo'lmasin uvol,
Xalq so'qmoqlar ochsin qabringiz yoqqa...





ILHOMPARIGA

Ilhompari! Kel, bu – eng so‘nggi o‘y.
Kel, shoirning ko‘zin yopib qo‘y,
Mangu xobda orom olsin jim.
Kel, xalqimning va mening singlim!





* * *

Tezda chirib bitar majruh vujud ham.
Unut bo'lmoq og'ir, o'lmoqlik oson;
Hech kimdan kutmayman aza-yu motam,
Zotan, men kimga ham bo'lardim armon.

Men bizning dvoryan naslimiz uchun
Shuhrat keltirmadim o'z liram bilan;
Men xalqqa yot edim tug'ilganim kun,
Xalqqa esh bo'lolmay bugun o'lamан.

Do'stlikning iplari, ishqiy olovlar –
Hammasi tugadi: yoshlikdan taqdir
Menga baxsh etdi-yu umrzoq yovlar,
Do'starim maydonda qoldilar bir-bir.

Bo'g'zida qo'shig'i qotgancha, nigun,
Yosh qurbon bo'ldilar xiyonat, dordan.
Ma'yus ta'na bilan boqadi bugun,
Ularning suvrati menga devordan.





HUKM

«...Sizlarki, muqaddas yurtda bir maqsur,
Mosuvo! Xalqingiz bilmaydi sizni.
Oqsuyak davralar – toshqalb, takabbur:
Sovuq nafrat bilan siylaydi sizni.

Yangrar lirangiz ham bemaqsad, zabun,
Soyada qolguvchi kuychisiz – beshon:
Dunyoning muhabbat, hurmati uchun
Sizlar tug‘ilsangiz bo‘lib noshoyon!..»

Otib rus qalbiga toshlar betinim,
Biz haqda shu gapni aytar butun G‘arb.
Himoya qil, mening jonajon yurtim!
Zarba ber!.. Lekin yurt sukut aro g‘arq.





* * *

Sizga, iste'dodim qadrin bilganlar,
Sizga, dardlarimga hamdard bo'lganlar,
Boshimda qora yil yozganda qanot,
So'nggi mehnatimni bag'ishlash murod!
Xalqim ibratiga sodiqman alhol:
«Ezsa hamki g'am,
Yashayman xurram»,
Men yarim yildirki, ishlab xastahol,
Mehnat-la og'riqning yo'lini to'sdim:
Sen ham shafqatli bo'l, kitobxon do'stim!





* * *

Buyuk muhabbat bu! Qay hovliki bor,
Qayerga bormaylik, tinglaymiz qoim:
Bolalar chaqirar olis, intizor,
Ularga intilgan onani doim.

Buyuk muhabbat bu! Toki so‘nggi dam
Kelguncha asraymiz qalbda nurafshon,
Azizdir ota ham, singil, xotin ham,
Biroq, og‘ir kunda deymiz: «Onajon!»





SHOIRGA

Xarobalar ostida – Muhabbat, mehnat!
Dushmanligu xoinlik – qayga qarasang,
Sen esa sukutga g‘arq, ma’yus, beg‘ayrat,
Uyat o‘tida sekin yonib borasan.
Iste’dod uchun ko‘kka keltirasan shak:
Nechun umring bezadi, axir, u bilan,
Toki xayolkash-hurkak qalbingga falak
Kurashmoqqa qat’iyat bermagan ekan?





YONAYOTGAN MAKTUBLAR*

Yonar!.. Sen ularni yozmaysan takror,
Garchi va'da berding yozmoqqa kulib...
Balki yonayotir ularni ilk bor
Yozmakni buyurgan ishq ham qo'shilip?

Hayot na atadi ularni yolg'on,
Na isbot ayladi haqligini bir yo'l...
G'azab-la yondirar, ammo bir zamon
Ularni muhabbat bilan yozgan qo'l!

Shu yo'lni tanlading o'zing ul soat,
Qul kabi poyingga men qo'ymadim bosh!..
G'oyat tik zinadan boryapsan, faqat
Har o'tgan poyangga o't qo'yib bebosha!..

Xatarlidir bu yo'l!.. Balki halokat...



* Qayta ishlangan she'r.



ZINAGA

Qog‘oz-u qalamni surgin yaqinroq!
Azizam! Xalqda bor bir naql: emish –
Tushgach zuhd zanjiri bo‘ynidan, shu choq
Zohid ham zanjirdek bejon qulamish!

Zina! Ishlashimga bersang-chi madad!
Menga jon baxsh etdi shu mehnat alhol.
Yana bir manzara, – go‘zal beedad, –
Yodimdan chiqmasdan yozib ol darhol!

Qo‘ysang-chi, yashirin yosh to‘kma! – Inon,
Kul, kuyla – bahorda kuylaganingdek,
Avvalgidek o‘qi do‘stlarga komron
Har bir yozib olgan misrangni tetik.

Aytginki, do‘stingdan to‘q erur ko‘ngil:
Xastalikni mag‘lub aylagan shoir.
G‘oliblik zavqini totdi-yu, so‘ng ul
Unutib yubordi o‘limni oxir!





ALLA

Yengib bo‘lmas iztirob,
Tengi yo‘q hasrat...
Dardning qora qo‘llari shitob
Qurbanini sudrar beshafqat.
Qaydasan, o, ilhom! Kel, kuyla takror!
«Qo‘sishqlar tugadi, dunyo – qora tim;
Aytay deb: umid – yo‘q, faqat o‘lim bor! –
Men qo‘ltiqtayoqda sudralib keldim!»

Qabr belkuragi yo qo‘ltiqtayoq:
«To‘q-to‘q...» Jim... «to‘q-to‘q» Jim...
So‘ng topar barham...
Endi bo‘lmas, ilhomim hamroh,
Tashlab ketdi shoirni she‘r ham.
Mangu uyqu oldidan, biroq
Yolg‘izmasman... Ajib sado! Boq!
Bu – onamning mehribon sasi:
«Kun tig‘ida chekil, keldi on
Mangu orom panohi tomon!
Uxla, uxla, ko‘zim qorasi!
Mehnating evazi – gultojingni kiy,

Endi sen qul emas – shohsan qonuniy,
Hech kim senga bo‘lmas hukmron!

Tobut qo‘rqinchlimas, u menga ma’lum;
Chaqmoqlardan qo‘rqmagan, o‘g‘lim,
Qo‘rqma darra, zanjirlardan ham,
Qo‘rqma og‘u, shamshirlardan ham,
Qonunsizlik, qonun, zamondan,
Bo‘rondan ham, qaldiroqdan ham,
Inson to‘kkan ko‘z yosh-u qondan,
Inson chekkan oh, firoqdan ham.
Jabrdiyda o‘g‘lim, orom ol!
Vataningni ko‘rarsan iqbol,
Shon, ozodlik quchgan bir palla,
Allayo alla, allayo alla!

Kecha mardum pusqurgan o‘tdan –
Yovuzlikdan vujuding yondi;
Bari tamom, qo‘rqma tobutdan,
Yovuzlikni ko‘rmaysan endi!
Qo‘rqma, o‘g‘lim, tuhmat zahridan
«O‘lpon» deya berding unga jon,
Qo‘rqma qishdan, ayoz qahridan:
Men ko‘marman bahor kelgan on.

Cho‘chimagan unut bo‘lishdan:
Qo‘limdadir anchadan buyon
Ikki chambar – afudan, ishqidan –

Jon yurtingda senga armug‘on...
Nurga bergay o‘mini zulmat,
Tinglarsan kuyingni o‘zing baralla
Volga, Oka, Kama uzra tez fursat,
Allayo alla, allayo alla!»





* * *

Qora kun! So'rgandek gado burda non,
O'limni, o'limni so'rayman, osmon!
Men o'lim tilayman doktorlardan ham,
Do'stlardan, yovlardan, senzorlardan ham,
Rus xalqin chorlayman azob, qayg'udan:
Qutqar – qutqarolsang, chek qo'y jabrga!
Yo meni cho'miltir hayotbaxsh suvda,
Yo jonsiz tanimni qo'ygin qabrga.





KEKSALIK

Zaif vujud so‘rar hordiq, tin,
Sirli chanqoq qalbni qiydar bot.
Keksalikning azobi qursin!
Boqib, kular ustidan hayot:

Qo‘y, silama umidlar boshin,
Qalbingga de: aqlga yon ber!
Ko‘rib turib xalqning qon-yoshin,
Ojizliging sezgin-da, jon ber!..





SEN UNUT EMASSAN...

«Men kuniga yarardim kecha
Yaqinlarning – bugun iloj yo‘q!
Faqt o‘lim – men borar ko‘cha:
Behudaga asramadim o‘q...»

Shudir bizga bor vasiyating,
Faqtgina so‘ng bo‘ldi ayon:
Xor-zorlarga anchadan buyon
Topganingni bermoq – xislating.

Pop cho‘chidi – ko‘mishga ko‘nmas,
Yo‘lga solib bo‘lmadi sira.
Yel uv tortgan jarlikka besas
Olib bordik murdangni so‘ngra.

Keng jar ichra tosh yo‘nib, qo‘ydik
Shundoqqina tobut ustiga,
Toshga aniq yozuvlar o‘ydik –
Umring kirdi harf tusiga.

Odamlarga xoking ham aziz,
Unda ta’na, ibrat bor, bekach...
Ha, shunday keng bo‘lsin qabrimiz,
Tiriklikda kenglik bo‘limgach...





KUZ

Avvallari – qishloqda bayram,
Endi esa, kuz – qahatchilik.
Ayollarni ezib tashlar g‘am,
Hol yo‘q pivo, vino ichgulik.
Yakshanbadan pochtani titar
Pravoslav xalqimiz bu dam,
Shanbalari shaharga ketar,
Surishtirar, so‘rab bilar ham:
Kimlar o‘lgan, kimlar nogiron,
Kim bedarak, kimlar topildi?
Yaradorlar jo‘nashdi qayon,
Qay tomonga lazaret jildi?
Shunchalar ham dahshatmi?.. Osmon
Tundagidek qora tushda ham;
Na o‘tirging kelar biror on,
Yotging kelar na pechda bir dam:
Issiq, to‘qman, xudoga shukur,
Faqat uyqu! Yo‘q, uxbab bo‘lmas.
Undar, undar yo‘lga dil qurg‘ur,
Yotmoq hatto xayolga kelmas,
Serqatnov-da yo‘limiz ham xo‘p!
Mayiblarni tashir shuncha ko‘p-
Ki ortdagи do‘nglikdan yelib,
Qator vagon o‘tgan zahoti,
Odamlarning ingroq, faryodi
Uriladi yurakka kelib.



TUSH

Tush ko'ribman: ostimda dengiz,
Men – qoyada, tashlanmoqchiman.
Nogoh, orom malagi shu kez
Qo'shiq aytdi menga – ajib, shan:
«Bahorni kut! Tongda kelurman,
Derman senga: tiril, ey odam!
Yo'qolgusi boshingdan tuman,
Og'irlashgan kiprikdan xob ham;
Kasb etgusi ilhoming ovoz,
Yana xushbaxt onlarga chindan
Erishgaysan, boshoq terib boz
O'rilmagan o'z paykalingdan».





* * *

Ilhomim! Men – qabr og‘zida!
Mayli, mening gunohim bisyor,
Mayli, oshsin u yana yuz bor
Mardumlarning yovuz bo‘g‘zida,
Yosh to‘kma sen! Ha, qismat baxtli,
La’natlashmas bizlarning nomni:
Sofdil inson bilan oramni,
Ul yurakdan bog‘langan ahdni,
Buzdirmassan sen uzoq muddat!
Bu rangpar-u qora qonga g‘arq
Darralangan Ilhomga faqat...
Yotlargina qaragay befarq.



A.A. FET



QALB AQLI BILAN YOZGAN SHOIR

Rus adabiyoti tarixida lirik shoir sifatida tanilgan ijodkorlardan biri Afanasiy Fetdir.

Shoir ijodi impressionizm yo‘nalishiga mansubroq ko‘rinadi. Bu yo‘ldagi san’atkor tashqi olamga yot emas, albatta. U insonning ichki olamiga naqadar ziyrak ko‘z bilan boqsa, moddiy dunyoga ham tiyrak ko‘z bilan qaraydi. Narsalar, hodisalar ayni lahzada unga qanday shaklda, qay rangda ko‘rinsa, uni o‘shanday tasvirlaydi. Uning uchun narsa yoki hodisadan ko‘ra ular paydo qilgan tasavvur va xotira muhimroq. Fetning o‘zi bu borada shunday yozadi: «San’atkorni asar yozishga undaydigan, ilhom beradigan tasavvur yoki tuyg‘u ana shu hissiyotlarni uyg‘otgan moddiyatdan-da afzalroqdir». Ana shu tushunchadan kelib chiqib, shoir yuz bergen tabiiy bir holatni ajoyib, sehrli bir kayfiyat, musiqiy bir xayoliylik bilan ifodalaydi. Uning tasvirlashicha, gul g‘aroyib bir tusda tabassum qiladi; yulduzlar iltijo etadi; qayinlar nimagadir, kimgadir intizor; hovuz xayol suradi; majnuntol esa azobli tushlarga g‘arq...

Shoирning qisqacha tarjimayi holi shunday: Afanasiy Afanasyevich Fet 1820-yilda Rusiyadagi Orlov muzofotida tug‘ilgan. Gimnaziyada ta’lim oladi, nemis, qadimgi yunon tillarini o‘rganadi. Harbiy xizmatdan qaytgach, uylanadi. Ma’lum muddat Moskvada yashaydi. So‘ngra shahar hayotidan voz kechib, uzoq bir qishloqdan yer sotib oladi. Ana shu qishloqda, o‘z mulkida xo‘jalik ishlari va badiiy ijod bilan shug‘ullanib umr o‘tkazadi va 1892-yilda vafot etadi.

Shoирning ilk to‘plami «San’at sag‘anasi» («Liricheskiy panteon») 1840-yilda bosilgan. Xuddi ana shu sanada Mixail Lermontovning ham ilk to‘plami nashr etilgandi. Bu davrda Fetning «G‘aroyib manzara», «G‘ussali oq qayin», «Tongda uni uyg‘otmagin», «To‘lqinli bulutlar» kabi she’rlari shuhrat qozongandi.

Atoqli adabiyotshunos Vissarion Belinskiy «Rus adabiyotining 1843-yildagi ahvoli» nomli maqolasida yosh shoir Fetning iste'dodiga yuksak baho berib, «Moskvada yashayotgan shoirlar ichida eng sermahsul ijodkor janobi Fetdir», deb yozadi va M. Lermontovning vafotidan keyin e'lon bo'lgan she'rlari kabi «haqiqiy shoirona asarlar janobi Fet qalamiga mansub» ekanligini ta'kidlaydi.

Keyinroq Fet ijodiga juda ko'p katta san'atkorlar hurmat va ehtirom bilan qaray boshlaganlar. Ivan Turgenev Fetning qadrdon do'sti, samimiy maslahatgo'yи bo'lgan. Turgenev 1855-yilda Fetga bitgan maktubida shunday deydi: «Geyne haqida menga nimalar deb yozdingiz? Axir siz Geynedan yuksaksiz, undan ko'ra erkinroq va kengroqsiz...»

1855-yillardan boshlab «Sovremennik» jurnali Fet asarlarini muttasil nashr eta borgan. Majmua bosh muharriri, xalqparvar shoir Nekrasov uning yangi she'rlar to'plami chiqishi munosabati bilan yozgan maqolasida: «She'riyatni tushunadigan, ko'nglini nazmga sirdosh tutgan har bir kitobxon Pushkindan keyin faqat janobi Fetning asarlarini o'qibgina haqiqiy she'riy zavq olishi mumkin», deya qayd qiladi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Dobrolyubov ham Fetning iste'dodiga ehtirom ko'rsatgan. Jahonshumul adib Lev Tolstoy esa shoirni juda yaxshi ko'rgan, qishloqda yashab ijod qilayotgan ikki buyuk san'atkor o'rtasidagi samimiy do'stlik, bordi-keldi chorak asr davom etgan. Bu do'stlik boisini Tolstoy shoirga yozgan bir maktubida shunday izohlagan: «Biz bir-birimizni suyamiz, chunki ikkalamiz ham, siz aytgandek, qalb aqli bilan fikrlaymiz».

Darhaqiqat, Fet she'riyatida aql to'lqinlaridan ko'ra ko'ngildagi tebranishlar – oniy holatlар, oniy tuyg'ular, oniy mushohadalar, oniy manzaralarni tasvirlash ustun turadi. XIX asr rus she'riyatiga, xususan, rivojlangan romantizm oqimiga realizm yo'nalishi ham kirib kela boshlagach, bu shoir ijodiga ham ta'sir qilgan, albatta. Bu uning tabiat manzaralari, insонning lahzalik kayfiyati va ruhiy holatlari tasvirlangan she'rlarida bo'rtib turadi.

Afanasiy Fet she'riyatida tabiat va muhabbat mavzusi bir-biri bilan chambarchas bog'langan, bir butunlikda ifoda etiladi. Qushning qanoti ikkita bo'lganidek, ana shu ikki qanot Fet she'riyati parvozini ta'minlaydi.

Shoir sevgi va mehr mavzusidagi she'rlarida turli kayfiyat-u his-hayajonlarni har xil vaznlarda aks ettiradi, ayri-ayri ohanglarda kuylaydi.

Ishq birmuncha majhulroq, ilohiyroq tarzda ifodalanadi. Oshiq va ma'shuqadan ko'ra ularning tuyg'ulari, chekayotgan sitam-u g'ussalari, intizorliklari shu'lalar, chechaklar, tabiatdagi tovushlar tili bilan aytiladi. Zarradan-da kichik insonning katta tuyg'ulari yer-u ko'kdagi ulkanliklar, koinotdagi cheksizlik chizgilariga tutash tasvirlanadi. She'riyat va koinot ohanglari bir butunlikda jaranglaydi... Ba'zida ishqiy holat-u tuyg'uchan tebranishlar makon-u zamondan alohidilikda yuz beradi. O'quvchining fikr-u xayoli bir afsunga burkanib, o'zi yashab turgan moddiy dunyodan bir necha lahma uzilib qoladi... She'r hikmatdir, she'r sehrdir, deyishadi; balki, o'sha sehr shudir.

Fet asarlarining xislatlaridan yana biri shuki, uning tabiat va muhabbat mavzusidagi she'rlarida, xuddi musiqiy asardagi kabi past hamda baland ohang, avj pardaga o'xhash tadrijiy shakl mavjud. Bir xil so'zlar turli ma'nolarni anglatgani holda mutanosib suratda takrorlanadi. Sodda, jarangdor, musiqiy she'riyat. Shu bois ham Fetning ko'plab she'rlari qo'shiq qilib aytilgan.

Fet she'riyati bugunda ham sevib o'qilmoqda. Juhon tillariga tarjima qilinmoqda.

Mana, nihoyat, Afanasiy Fet she'riyatidan namunalar jamlangan to'plam qo'lingizda.

Tohir QAHHOR



* * *

Ketma mening yonimdan, dilbar,
Qadrdonim, qolgil men bilan.

Ketma mening yonimdan, dilbar,
Shodliklarim faqat sen bilan.

Biz qanchalar inoqmiz, hech chog'
Bundan ortiq bo'lolmaymiz ham;
Bundan sofroq, bundan kuchliroq
Sevib, o'ynab-kulolmaymiz ham.

Huzurimda yuz ochib agar,
G'amgin boshing egib tursang-da,
Ketma mening yonimdan, dilbar,
Bil, quvonchim sen bilan birga...

1842



* * *

Men o'yga tolaman, kiprigim yumib,
Quloq solaman,
Ko'rkam kun va umid tovshiga cho'mib,
O'yga tolaman.

Bu ko'nglim der seni – muammolar rom
Etarkan meni;
Yorug'mi, xirami kunlarim, mudom
Ko'nglim der seni.

Yuksakda, shalola nurda mohitob
Qilmoqda yasan;
Oy aksi, suv mavji o'pishar bu tob,
Jonom, qaydasan?..

1842





* * *

Sukunatli, yulduzli oqshom,
O'ynoq yog'du to'kib turar oy –
Dudog'ida totli bir chiroy,
Sukunatli, yulduzli oqshom...

Azizam! Tun – yog'du qo'ynida,
Qayg'u meni qanday etsin rom?..
Sen yorqinsan xuddi sevgiday,
Sukunatli, yulduzli oqshom...

Yulduzlarga ruh bo'ldi qurban,
Tap tortmadim azoblardan ham...
Sen tag'in-da dilbarsan bu on –
Sukunatli, yulduzli oqshom...

1842



* * *

Yarim tunda qor sochib bo‘ron,
Shovqun solur huv o‘rmon yoqda...
O‘ltiribmiz ikkov yonma-yon,
Lov-lov yonor o‘tin o‘choqda...

Haybat solib, qizg‘ishrang polda
Ko‘lankamiz nurlanar, lip-lip...
Shod uchqunlar topilmas dilda,
Lek jo‘sh urar dilbar ma‘yuslik.

Ingranadi tashda g‘uj qayin,
Qatronli shox qirsillar dam-dam.
Menga-ku ne bo‘lgani ayon,
Senga nima bo‘ldi, do‘stginam?..

1842





* * *

Bazm-u qo'shiq; maxmur tovushlar
Aro senga shaydo edik biz.
O'tliydi u qo'llar – oqqushlar,
Otashindi ko'zlarda – yulduz...

Kecha esa dafn etdik seni.
Go'zal eding hatto tobutda.
Yumuq ko'zli dilrabo taning
Uxlardi ilohiy sukutda...

Men uxlardim... Tepamda murda –
Bo'lib bejon qotgan edi oy...
Mo'jizaviy ohang va nurda
Tirilardi sendagi chiroy...

1842





1


* * *

U kunlar qirg'og'idan – sog'inchim to'lqin
urib –

Xira bir tumanlikda seni bot topar ekan,
Yahudiy o'lkasiga ilk qadam bosgan g'arib
Juhud kabi xushnud yig'layman.

O'sha so'zsiz suhbatlar, sodda dillar shikvasi,
Goh xo'rsiniq, goh kulgu bilan vido aytilgan
O'sha qo'l siqishlar-u o'sha ko'zlar jilvasi –
Ko'r ehtiros sadosi bo'lgan!..

1844



* * *

Nafis gulchambaring musaffo, ifor,
Unda hid taratar muattar gullar.
Bunchalar patila, mayindir ular –
Nafis gulchambaring musaffo, ifor.

Nafis gulchambaring musaffo, ifor,
Yorqin ko'zlaringga ajaliy kuch bor...
Lek sevmasligingga ishonmayman, yor:
Nafis gulchambaring musaffo, ifor.

Nafis gulchambaring musaffo, ifor,
Baxtga osongina qul bo'lar yurak.
Yoningda bo'lsam, bas, u kuylab turar:
Nafis gulchambaring musaffo, ifor...

1847





HOVLIDA BAHOR

Ko'krak to'lib oladi nafas;
So'zlar neni etgay ifoda?..
Choshgoh chog'i yangrar gulduros,
Irmoqlar sho'x ko'pirgan joyda!..

Osmon to'la qo'shiqlar pinhon.
Bo'ltak yerda ko'karar javdar;
Kuylar, senga so'ylar mehribon:
«Yo'llaringda – yana bir bahor!..»

1855





MANQAL YONIDA

Qo'r so'nmoqda. Yallig'lar suzar,
Uchqun otar cho'g' yarim tunda... –
Raqs etadir ko'knorzor uzra
Qirmizqanot kapalak shunday.

Jazb bo'ladi horigan didam;
Kungurador xotirlar porlar...
Manqaldagi kul yuzasidan
Boqib turar afti angorlar...

O'tib ketgan baxt-u baxtsizlik
Mas'ud-mas'ud namoyon bo'lar...
Ko'ngil aldar: kechmish – afsuslik,
Bas, eslama, kerakmas ular!..

1856





* * *

Hey, o'ychan nigohlar, telba nigohlar,
Nechun xoh choshghoh, xoh yarim tun chog'lar
Uzoqlarga qarab qolasiz?..

Nahot g'arq etibdir sizni u o'tmish?
Qachondir tiz bukib, oniy milt etmish
Qaysi qalbni eslab yonasiz?..

Qayg'urib o'tirmang boshqatdan eslab...
Neni qalb eng nursiz qa'rida asrab,
Ne tufayli tortgandi alam;

So'roqlab o'tirmang ochko'z fursatdan
Qizg'anchiq, shafqatsiz qo'lllar berkitgan
U saxovat ehsonini ham!..





* * *

Atrof jo'shqin, shoshqin, yelvagay;
Ammo hechdir ko'pning shodligi.
Sen kulgumni olding, telbaday
Yasharman... yo'q umrim totligi.

Goho tingach oqshomgi sho'x rang,
So'nganida xomush kun oxir,
Nurlanarkan qarshimda chehrang,
Unga qarab, yuragim og'rir...

1856





* * *

G‘amgin dil iqrarin angla va faqat
Bir nafas qulog ber ko‘ngil dodiga;
Sening huzuringda, ey latif xilqat,
Yetishdim jasur bir kuch qanotiga!..

Ayriliq onida jonlangan jussang,
Hushimdan ayirar... tinaman karaxt.
Sensiz bir umrga cheksam-da g‘ussa,
U baxtday jonioimga bergusi farah.

Xokipoy bo‘lguncha kuylarman uni,
Sen – bir ilohasan qalbim qoshida;
Xurramman, chiroying tantanasini
Ko‘rarkan g‘amboda ko‘zlar yoshida...





BAHOR YOMG'IRI

Darcha oldi yorqindir, oftob
Bulutlar yorig‘idan boqar.
Qumloq suvda chumchuq ham bu tob
Suzar, titrab qanotin qoqar...

Yaqinlashib kelar bir parda
Yerga tomon, chayqalib taxi;
Go‘yo oltin to‘zonliklarda
Yoyilmishdir o‘rmon etagi...

Ikki tomchi qo‘nar oynaga,
Asaldek hid to‘kar arg‘uvon...
Shu payt nedir kirar-u boqqa,
Chala boshlar barglarni chunon...

1857





* * *

Bir tush ko'rdim: serqoya qirg'oq,
Oy ostida uxlardi dengiz
Go'dak kabi ma'sum... U sirg'oq
Suv sathida qoldirgancha iz,
Sen-la shaffof tutunlar tarqoq
Olmos yo'lidan yura ketdik biz...

1857





* * *

Qachondir ikkimiz uchrashgan maskan,
Yorug' zal ichida kecha men takror
Seni ko'rib qoldim... Xijolat bilan
Salomingga xomush bosh egdim nochor...

So'ng notinch fikrimning keng qorong'usi
Kechmish kunlar nurin tiklagan paytda,
Shivirlab aytganim ko'ngil orzusi –
O'tli so'zlarimni esladim qayta.

Men o'shandagiday turardim hazin.
Ruhiyat g'arq edi o'sha ohangga...
Taralganday bo'ldi suyuk ovozing,
Nozik shivirlashing: «Ne bo'ldi sanga?»

Tanish tovushingni, u tanish hidni
Men takror his qilib, takror o'rtandim.
So'ng tag'in shivirlab g'arib umidni,
G'arib tuyg'ularni takror tuydim jim...

1858





TERAK

Bog'lar tin olmoqda. Ko'zlarim ma'yus,
Qayg'uli ruh bilan atrofga boqdi;
Poyimga to'shaldi so'nggi barg betus,
So'nggi porloq kun ham so'ndi beyog'du...

Faqat sen kimsasiz sahroda yolg'iz,
Notavon dardingni tutganiningcha sir,
Ey, oshno teragim, tebranib holsiz,
Bahor kunlaridan keltirding shivir...

Mayli, xazonlansin kunlar birma-bir,
Yo'qlik shamoli-la chappor ursin kuz;
Yakkash sen samoga shox yoyib masrur,
Janub haroratin eslarsan yolg'iz...

1859





* * *

Farishta-kelinga o'xshaysan, bahor,
Takror yerga tushding... men ilhaq edim...
Tong ham jilva qildi xush, qirmizruxsor,
Xasis kuz neniki olgandi bir bor –
Yuz karra qaytarding, ey, fasli qadim!..

Barin olib kelding, o'zing muzaffar.
Afsungar u tovush shivirlar yana...
Hali sovumagan qabr uzra gullar –
Ochilar, atrofga hayot sochilar,
Illohiy u qudrat qilar tantana!..

1860





* * *

Yorqinligi oydin kechaning,
Yulduzlarning so'ngsiz chiroyi
Bo'lib yonur ko'zlarining saning
Fusunkor-u qodir baxtdayin...

Ulardagi tasodifiy nur
Quchar ekan yaqin-yiroqdan,
Sirli huzur, odamlar tugul,
Qamrar jonvor, qoyalarni-da...

Oh, bil, menda, ruhim parisi,
Na tole bor, na osudalik;
Jonim ichra qushdayin asir,
Qiynaladi qanotsiz qo'shiq...

1862

* * *

Ketma!.. Endi hech yolvormayman,
O'rtanmayman ichimda yig'lab;
Bu sitamkash dilga erk tilab,
«Sevaman!..» deb jim takrorlayman.

Senga yetmoq istayman, chopib,
Suv yuzida to'lqinlar kabi...
Tosh poyingga tegarkan labim,
Jon bermoqni istayman, o'pib...


1862



Kimgadir bu gulchambar: nafosat ilohasi,
Yo uning ko'zgudagi jilvagar jamoliga?
Xijolat bo'lur shoir hayratda qolsang basi
Sen uning dunyo qadar poyonsiz xayoliga...

Hayrat-u bor g'ayrilik mengamas, dunyoga xos,
U hayotni zarrada yashnatar, asrar nodir;
Lek sening nigohingga neki etsa in'ikos –
Uni so'ylab bermoqqa shoir tili noqodir.

1865





* * *

Shovilladi soylik butun tun,
Sermavj suvlar irmoqma-irmoq
Oqa-oqa shiddatli, jo'shqin,
Zafaridan jar soldi har yoq.

Sen uxlarding... Darchani ochdim.
Turna sayrab uchdi sayhonga...
Meni olib ketdi o'ylarim
Jondosh yerdan yiroq tomonga...

Behadligu berohliklarga
Dala, o'rmon uzra uchdim men;
Ostda o'zni o'rab bahorga,
Charx urardi shovqinli zamin...

Sharpalarga inonardi kim;
Kun o'tkinchi; kuyunmoq nega –
Ranjlar ichra chiniqqan do'stim –
Dildosh dahoim yonimda ekan?!

1872





* * *

Yulduzlar oq, yiroq... tun qaro...
Uzoq boqdim... bu termulishda
Men va o'sha yulduzlar aro
Paydo bo'ldi qandaydir rishta.

O'yga toldim. Bilmam, u nadir...
Tingladim afsungar kuylarni;
Bezabon yulduzlar titrardi –
Shundan sevib qoldim ularni...





* * *

Tabassuming ko‘rganda bir bor,
Shod qarashlar bo‘lganda talosh,
Ishq qo‘shig‘in sengamas, dilbar –
Chiroyingga aytaman, xolos.

Shoir haqda gap bor azaldan:
Oshiqona ohanglarda ul
Kuylamoqdan xushnuiddir har dam,
Xushbo‘y-xushbo‘y tebranarkan gul...

Latofatli, lekin toshyurak
Hokimasi bog‘ning turar jim:
Go‘zalga kuy-qo‘shiq na kerak?
Go‘zallik kuy-qo‘shiqqa lozim.

1873

* * *

Butun dunyo go‘zaldir –
Zarrasi yutog‘-toshi!..
Ne ibtido, azaldir
Deb qotirma hech boshing.

Axir cheksiz bu olam!
Nedir bir kun, bir asr?
Mangumas, mayli, odam,
Odamiylik mangudir.

1874



* * *

Huzuringda ocholmayman lab
Sherik qilib azob-o'ksimga;
Yurgan bo'lsam neni takrorlab,
Aytolmayman uni hech kimga.

Tun gullari uxlар kun bo'yи,
Lek o'rmonga quyosh so'nganda,
Barglar unsiz ocharkan ro'yin,
Tinglayman: qalb gul ochar qanday...

Tag'in xasta, horg'in ko'ksimga
Tun salqinin separkan... titrab,
Sherik qilib azob-o'ksimga,
Huzuringda ocholmayman lab...

1885





* * *

Agar seni sevintirsa tong,
Gar inonsang, irimlar haqdir –
Uni sevib, mayliga, bir on,
Shu gulni et shoirga taqdim.

Kimni sevsang, tiriklik har dam
Tashvishlarda sovurar dilni;
Faqt topgung dilbar she'rlardan
O'sha mangu xushnafas gulni...

1887





* * *

Serqayg‘u satrlarda qolarkan diydang jimib,
Qalb ingroq dardlari-la nurlanarkan yoningda,
Ko‘mgach seni bir mash’um ehtiroslar oqimi –
Nelar keldi yodingga?

Men-ku hech ishonmayman! Sahroda, ajib fursat,
Yarim tun zulmatida shafaq porlab, g‘ulg‘ula –
Solib, sendan olisda yoyib shaffof nafosat,
Tiklanarkan bir shu’la.

Va o‘sha joziblikka beixtiyor tushib ko‘z,
Ko‘rarkansan – tun titrar u ulug‘vor yolqinda...
Shunda senga shivirlab, aytilmasmi ushbu so‘z:
«Kim yondi ekan unda?...»

1887





* * *

Afsus, afsus, kechikkandim men
Quyosh tunga berkingan chog'-di;
Ko'rolmadim bizga atab kun
Xiyobonga to'kkanin yog'du...

Lekin yorqin yoz ziyofiga
Chayilgan kun to'nmadi butun:
Cho'mib uning alvidosiga,
Soyalarni so'ndirmadi tun...

Tag'in xira tumanlik aro
Maftunnavor tinib turaman;
Tag'in xushbo'y shu tongga qarab,
Yuksak hayot ruhin ko'raman...

* * *

Sen na nafis orzulardan, na
Qaddingdagi jozib sehrdan
Hech bir zarra yo'qotmading va
Ega bo'lning bariga birdan!..

Tik boqsa-da nigohing sening,
Bo'lsa hamki ko'ngling xotirjam,
Sirin aytar kechagi tuning,
Aytar... go'zal gunohkorin ham...

1890

* * *

Issiq kun so'ndi qiy nab,
Oppoq oy yuzin ochdi.
Ko'ksimga yoyib ziynat,
Ko'nglim chechaklar sochdi...

Sevarkanman, shu xilda
Asrab qolsam, qanday baxt!
Shodman, sirday sen dilda –
Ko'rolmas hech kim hech vaqt.

Shoshib boryapman, qara,
So'nikyotgan bog' sari...
Yuragimda hid tarar
Bog'ning ifor gullari...


1891





* * *

Qachonki, xo‘roz
Tapillatib
Qanotlarin urar-da,
Cho‘zilgan maqomda
Tongni qarshilar.
Va sen,
Inson,
Simirayotgan bo‘lasan
Uyquning so‘nggi
Shirin tomchilarin,
Shunda shoir...
Yo‘q! Uxlagin,
Charchagansan
Kunlarning tashvishlaridan,
Yerning zahmatkashi!
Lekin sen tushunmassan,
Nega men bedorman,
Sovuq tunda,
Bu sirli maskanda.
Qani, jim!
Kimningdir nafasi kelmoqda
Yumshoq o‘rindiqdan,
Qayerdaki,
Yoshgina ruxsorlar
Oqrishar
Oyning kumush nurlarida.
Shoyi, momiq parlarga
O‘ranishar
Ho‘v, joylarda
To‘zg‘igan qo‘ng‘iroq sochlilar.
Ha, eshitilar, eshitilar –



Sen hamon uxlamaysan,
Ey, baxtsiz xushtor!

Tinglasang-chi,
Tunda
Nimalarni yana eshitdim
Zuhal girdobidan:
Yerdagi g‘am-tashvish
Davosini
Baxus*dan topishni
Menga aytishdi.
Qani, ikkimiz ham
Qadahlarni to‘ldiraylik-da
Uyquga ketaylik tong-sahar,
Shunda
Boshqalar boradi mehnat qilishga.

(1840)



* *Vaks-Baxus* – yunon-rum afsonalarida may va aysh-ishrat ma’budi.



* * *

Huv, qirg‘oqdan nari lovullar gulxan,
Daryoning mavjlar ohangdir, go‘yo.
Qayiqqa qo‘riqchi kabi eshkak ham,
Zanjiri qulfsizdir, yoqtirmas daryo.

Birov menga aytmas: «Qani, yo‘l bo‘lsin,
Qay manzil ko‘nglingdan o‘tdi, mo‘ljalda?»
Qimirlab qo‘ysang-chi, eshkak, qimirla!
Yo‘qoldi qirg‘oq ham tunda o‘ljaday.

Senga nima bo‘ldi, nega ketmading?
Eshkak, gulxan chorlar daryo ortida,
Yana orzu-havas va yana qayiq...
Qolib ketma butun xayol qatida...

1842





Sevaman ko‘p narsalarni
Yurakka yaqin olgan,
Faqt
Goh-gohida sevaman...

Eng avvalo,
Ko‘rfazdan o‘tishni...
Shunchaki,
Eshkakning
Xushohang maromin unutib,
Bichirlagan ko‘piklar ko‘pchishin,
Ortga qarab-qarab qo‘yishni, –
Kuzatishni –
Ancha uzoq ketdimmi,
Yana qancha qoldi manzilga,
Ko‘rinarmi miltillagan shu'lalar...

Ba’zan,
Kichik-kichik orolchalarda
Ko‘zga tashlanib qolar
Hayallagan baliqchilar yog‘dusi,
Menga doim yaqin tuyular
Birgina afzallik...
Qizil ko‘zli quyon sevganday;
Maftunkor oqqushlar har bahor
Parvoz qilar bo‘ynini cho‘zib,
Qanotlarin kerishib
Aylanib qo‘nishar sokin suv uzra.

Jar boshida qisilib,
Shoxlarini tarab, yuvib

Yirik bargli qayin o'smoqda.
Bu makonda
Azal-azaldan
Yashab kelar bulbul!
U har tong kuylar,
Ba'zan-ba'zan
Tunda ham.
Qachonki,
Oy hiylakor
Kumush nurin
Barglarga,
To'lqinlarga yoyganda,
Jim turolmas,
Kuylayverar
Balandroq, balandroq.

Shunda,
G'alati fikrlar kelar aqlimga:
Nimadir bu –
Hayotmi, tush?
Baxtlimanmi,
Yoki bu aldov?
Jimlik,
Jimlikdan javob yo'q...
Nenidir shivirlar
Ortda qolgan mayda to'lqinlar.

Yo'l bosildi,
Eshkaklar miq etmas,
Tip-tiniq osmonda
Charaqlashni boshlar yulduzlar..,

(1842)



* * *

To'lqin-to'lqin bulut oqar,
Uzoqlarda to'zon turar;
Olimi yo piyodami,
Bari changga botib borar!..
Ana uchar bir chavandoz,
Abjir otda, epchil otda.
Hey, olisda qolgan do'stim,
Meni ham goh olgin yodga.

(1843)

* * *

Joyimdan jilmasdan men uzoq turdim,
Olis yulduzlardan uzolmasdan ko'z –
Men va yulduzlar. O'rtamizda xayolot yurdi,
Qandaydir bog'liqlik ko'rsatganday yuz.

O'ylayman... Unutaman o'ylarim;
Bir sirli jo'r ovozlarni tingladim,
Va keyin yulduzlar titray boshladi,
Shu ondan ularni sevdim – bilganim...

(1843)



Alahsima, mushugim xur-xur,
Lanj uyquda sen betoqat-da,
Zimistonda sensiz qo'rqinch bor
Bu mamlakatda;

Sensiz o'sha-o'sha o'txona,
Kechagiday, o'sha deraza,
Eshik, sham ham o'sha, yagona,
Yana g'amzada...

(1843)





* * *

Uxlamagin, kun chiqar, qara,
Keldim bir juft atirgul bir-la –
Shabnam – kumush ko‘z yoshlar aro
Porlab, orom beradi nurlar...

Ko‘klam chog‘i, chaqin-chaqmoqlar,
Sof havo, ilk yaproq, tugunlar...
Jimgina ko‘z yoshi to‘kmoqda
Yoqimli bo‘y taratgan gullar.

(1847)



XAYOLOT

Yolg‘izmiz; deraza oynasin bog‘dan
Yoritar Oy... xira tortar bu shamlar;
Sochlaring xush bo‘yin sezib dimog‘da,
Yelkangdagi sochday tarqalar g‘amlar.

Nega jimmiz? Yoki bunda hukmron
Jimlik sultanati yorug‘ kunimda.
Bulbul zor aytur-mu atirgul bo‘ylab,
Yoxud kuylaydurmi jo‘sinqin bugundan?

Yo qushlar uyg‘ondi chakalak ichra,
Shamol uyalarin silkir-da, buzar,
Bot-bot titrar, taralar rashk nuri-la,
Yaqinlashib qoldimi bizga yulduzlar?

Egri-bugri, g‘aroyib shox-butoqda
Umri qisqa, yashar rangin ertaklar,
Zumradlangan, olovlangan boricha
Suv uzra qaqnus qush qalqinib turar.

Ohang og‘ushida g‘aroyib, zarhal,
Naqshin chig‘anoqlar tinmay tovlanar.
Olmosgard favvora ko‘tarilgan dam
Marvarid ko‘piklar chiqar oy qadar.

Rangin hasharotlar bargni bosishgan,
Bari bosh ko‘tarar ko‘kka yetguncha.
Yuraklarda ko‘plab e’tiqod bo‘lsa,
Bu tushlar uzoqqa bormas, bitguncha.

O'tar bir-bir kamalakrang bo'yoqlar,
Ko'z o'ngingni qamrar bu yolg'on ranglar;
Bir lahzada yo'qdir sehr, ertaklar,
Yana qalbga to'lar mavjud ohanglar.

Yolg'izmiz; deraza oynasin bog'dan
Yoritar Oy... xira tortar bu shamlar;
Sochlaring xush bo'yin sezib dimog'da,
Yelkangdagi sochday tarqalar g'amilar.

(1847)





TUNGI VENETSIYA

Oy shu'lasi porlaydi tiniq,
Sochilar marmartosh bo'lakka:
Avliyo Mark* sheri ko'zi yumiq,
Uyqudadir dengiz – malika.

Kumush rang yo'llarning chetida
Saroylar cho'zilib ketishgan,
Yarq etar... bedor suv betida –
Qayiqchilar kechroq qaytishgan.

Sonsiz yulduz charaqlar ekan,
Tun havosi toza va tiniq;
Kumush rangga burkangan, ulkan –
Shahar uxlар nurga chulg'onib...

(1847)



* Venetsiyadagi avliyo Mark ibodatxonasi.



Shamol qahri, shamol charxi dalada
Lof urmoqda,
Biyday dashtda uyum qorni yanada
Buramoqda.

Uzoq-yaqin muzlagan oy nurida –
Olovlanar onlar,
Shamol – xabarchi, tiriklik siridan
Qo‘ng‘iroq chalar...

Eman xoch ostini hushtaklar o‘rar,
Tebratib o‘tar.
Kulrang dasht quyoni xurillab qo‘yar,
U hushyor tortar.

(1847)





MAJNUNTOL

O‘tiraylik shu tol tagida,
Egri-bugri shoxlar ortida,
Qobiqlarda g‘ovaklar to‘p-to‘p!
Tolning tagi qanday chiroyli,
Titragan oynaday nur yoydi,
Torlarida oltin ohang ko‘p!

Pishiq novdalari yoysimon,
Osilib tushishgan suv tomon,
Mislikи, yam-yashil sharshara;
Ninachalar goh jonlanishar,
Shivirlashar va gap talashar,
Barglar suvda kezar yo‘l tarab.

Suv yuzida – tiniq ko‘zguda
Qiyofang aks etar osuda,
Yuragimda qo‘zg‘otar rashkni...
G‘ururli va mayin ko‘zing ham...
Titroq bosar, ko‘rib baxtliman
Suvda titrashingday xos ishqni...

(1854)





BALIQVOY

Oftob qizdiradi. Bahor
Yo'l-ko'yiga tushmoqda;
Suv ko'p. Daryo tiniq oqar,
Tubida o't o'smoqda.

Muzday to'lqin jimib-jo'shar,
Po'kakni kuzataman, —
Sho'x baliqqa ko'zim tushar,
Chuvalchang o'ynar hamon.

Havorangmi ust tomoni,
O'zi aniq kumush rang,
Ko'z – kahrabo, dona-dona
Qanoti qizil – xush rang.

Suzar, sho'ng'ir, sovqotmas,
Chuvalchang og'zida-da!
Lek iz qoldirar, ketmas
Desam, yo'q, suv yuzida.

Mana, o'sha ko'z hiylakor,
Paydo bo'ldi yaltillab.
Shoshma, mabodo... bu safar
Qarmoqdasan hilpillab!

(1858)



MAY OQSHOMI

Bosh uzra oxirgi bulutlar o'tar –
So'nggi bo'lagi.

Yaltiroq parchasin jim, mayin titar
Oyning o'rog'i.

Yog'ilar bahorning sirli hislari
Yulduzlar rangidan.

Nozигим, baxtimdan darak istading
Bu notinch zaminda.

Baxt qani? Bunda yo'q! Qashshoqlar ichra,
Ana u, – tutunday.

Chopamiz, osmonda ruhimiz uchar,
Manguga butunlay!

(1870)





KUZDA

Qachonki o'rgimchak to'rlarin tarab,
Tarqatar tolasin yorug' kunlarning.
Va dehqon o'z uyi oldidan qarab,
Tinglaydi qo'ng'iroq unlarin.

Hech kim qayg' urmaydi, yana qo'rqiitsa,
Yaqin qish kunlarin sovuq nafasi.
To'g'ri tushunasiz, har gal yoz o'tsa,
Uning yashab bo'lgan barcha soz-sasin...

(1870)



* * *

Bitta yulduz to‘pi ichra entikar
Ham titrar,
U olmos nuri-la ko‘z tikar,
Gap qotar:

Taqdirda yo‘q sen va menga do‘stona
Kiymoqlik kishan.
Qilmish-qidirmish-ku, bizga begona
Na so‘z, na qasam.

Bizniki emasdир quvonch va qayg‘u
Mening sevgilim!
Lek ko‘z qarashlarda topilgan tuyg‘u
Sen kim-u men kim.

Gaplarimiz tayin, gullahsga tayyor
Tub-tubda qiyg‘os;
Haqiqiy zamindan izlaymiz baxt, yor,
Odamlardanmas.

1882





SHOPENga

Sharpaday paydo bo‘lding,
Yana larzada qalbim,
Dilbar sadolar bosdi,
Baxtmi, azobmi, asli,
Kelar titroq qo‘l sasi –
Yonimdasan sen hamon!

G‘amli damlar, xush onlar,
Vido chog‘i, xush onlar,
O‘sha libos... hur, tolim
Turibsan qaboq solib, –
Umidvor bo‘ldim g‘olib:
Meniki bo‘ldi shu on!

Qo‘llarimda qo‘l tafting,
Birdan qalqdi qalb taxtim;
U yoqqamas, g‘am toqqa
O‘tmish botar dimoqqa, –
Bariga boshqachaman,
Hijronda sirman!

Bu tilsimdir, qo‘shiqdir,
Dunyoni olgan ishqadir;
Ko‘ksingda bo‘lsa ham g‘am,
G‘olib kelganda hijron,
Tinib qolar goh ohang –
Gumburlar u goh birdan!

(1882)



* * *

Yulduzlar duoda, milt-milt porlaydi,
Duoda Oy kezar, ko'kdir oromi,
Bulutlar yo'rgaklab olar, qo'y maydi
Qora yerdan ko'kka o'rkar bo'ronni...

Ularga ma'lumdir bizning azoblar,
Qator ehtiroslar, kuchsiz kurashlar,
Ular nigohida olmos ko'z yoshlar –
Ibodat uchquni jimgina yashar...

(1883)



* * *

Bog' nur ichra
Kech olovda
Ko'nglim yorishgan – xushvaqtman har holda!

Mana turibman,
Mana yuribman,
Go'yo bir sirli xabarni kutgan bo'lib man.

Bu tong,
Bu ko'klam,
Aqling-ku yetmaydi, lek toza, ko'rak!

Baxt butunmi,
Rostmi yig'larim,
Sen – mening baraka, rohat sirlarim.

(1884)





Kutaman, olaman ko'z tashlab,
Intizor o'tirib so'qmoqda:
Kelarsan, shu bog'dan yo'l boshlab,
Va'dang bor, intiqman kutmoqqa.

O'zicha pashsha ham ming'illar,
Yaproqcha uzilar va tushar...
Tovushlar kengayar, ulg'ayar,
Tungi gullar kabi u yashnar.

Xuddi tormi uzib yuborar,
Qarag'ayga otilgan qo'ng'iz;
Bo'g'ilib sherigin chaqirar,
Qiziloyoq qo'narkan shu kez...

Sokin o'rmon ko'lankasida
Uxlayapti yosh-yosh butalar...
Ko'klam hidi kelar osuda...
Kelayapsan, oh, go'zal dilbar!..

(1886)





* * *

Bugun ko'kda yulduz ko'p yorqin,
Havorang olovlar porlaydi.
Sen yonimdan jimgina o'tding,
Nigohlaring meni ko'rmaydi.

Nega bezovtasan, ey, yurak,
Hayiqqanening sezdi-ku ko'ksim?
Sovuq tanda bu issiq irmoq
Yuzga berdi tongning nafasin...

Tun bo'yi kuzatdim milt-miltni,
Porlashlar yorug'roq va mayin.
Sukunat – cho'g‘, junjitar etni,
Sehrlanar bilganim sayin!..

1888





♥

* * *

Taqiqlashdi chiqmasing uydan,
Taqiqlashdi yaqin kelmasim,
Tushunaylik nima bo'lmasin,
Tonmaymiz sevgidan har ko'yda...

Bizga-ku taqiqning o'zi yo'q,
Muvofiqmas sevgi va taqiq –
Sevgi – qo'shiq, qanotli, balqir,
Sevishimiz manguga barhaq.

1890

* * *

Oy hovurimni bosar
Jazirama kundan so'ng, –
Ko'ksimda gul barg yozar,
Omadim kelgani o'ng.

Bu qanday baxtdir – sevdim,
Shu gulga mendir posbon!
Xursandmanki, men seni
Birovga bildirmasman!

Ko'rmaysanmi, shoshaman
Xira tortgan ul boqqa –
Va har yerda jo'shaman
Bo'y taratib dimoqqa.

1891



* * *

Agar qalbing yoqmasam, har vaqt erkalamasam,
Bu so'zlarni hech qachon aytmay umrim o'tardi;
G'azabing keltirishdan, haqoratlar

yo'llashdan

Va senda ich o'timni o'chirishdan qo'rqardim...

Yo sukutda boqishga qudratim yetmaydimi?

Chorasiz, lol hayronman... Lahzalar o'tar

mayin, -

Lek gapni aylantirsam – bu ham aldov,

o'tmaydi,

Senga qarab, albatta, alday olmasim –

tayin!..

1891





* * *

Uchayotgan bulut so‘nggi bor,
To‘planarkan boshimiz uzra,
Va hilolning qoshida nochor,
Tarqaladi bir-bir ohista.

Hukm surar bahoriy afsun,
Naq manglayda yulduzlar bilan.
Sen dilbarsan! Tolesan men-chun,
Behalovat zamindagi shan.

Baxt qayerda? Qashshoqlikka shon,
Xuddi tutun – nenii quchamiz.
Ha, abadiy uning ortidan,
Havo yo‘li bilan uchamiz.





TUTQUN

Deraza ostida,
Guvillar xushhol,
Osilib turgancha
Chodirsimon tol.

Olislarda qalqar,
Quvnoq qayiqlar.
Temir panjaralar
G'ijirin uqar.

Bag'rida uxlardi,
Bir zamonlar tog'.
Dengizni yo'qlardi,
Ozodlik har chog'.

Tug'yon solganda ruh,
Zerikish so'nar.
Qulqlar tinglardi,
Charxlasa qo'llar.





KECHA

Yangradi tinch daryo ustida,
Jarangladi o‘tzorda chaqnoq.
G‘uldiradi daraxtzoraro
Yolqinlandi narigi qirg‘oq.

Huv olisda, g‘ira-shirada,
Mashriq tomon jilmoqda daryo.
Jig‘alari rangin porlab-da,
Bulut tutun bo‘lib o‘rlar, o.

Do‘ngligida goh nam, goh otash,
Kun tafti bor tun nafasida.
Ko‘k va yashil alanga talash,
Yonayotgan oy shu’lasida.





QARAG‘AYLAR

Bokira zaranglar, mungli qayinlar
Orasida manman qarag‘aylar yo‘q.
Jo‘shqinlik hissini uyg‘otar ular,
Hushyor boqishiga chidab bo‘lmas, o‘h.

Atrofin o‘ragan qo‘snilari jim,
Na titrashni bilar, na olar nafas.
Hatto bahorda ham shodlanmas bir zum,
Qishning qahratonin eslatar, abas.

O‘rmon to‘kkanida so‘nggi barglarin,
Bahor uyg‘onishin kutishga tushar.
O‘zga avlodlarni cho‘chitib barin,
Sovuq go‘zalligi bilan qolishar.





KAMIN OLDIDA

So‘na boshlagach cho‘g‘ qorong‘ulikda,
Kulrang tusga kirar qizil kamalak.
Shunday hilpiraydi qizg‘aldoqlar va
Qanotlari bilan moviy kapalak.

Turnaqator xilma-xil ko‘zлari ila
Jalb etar baliqning horg‘in nigohi.
Tushunarsiz yuz-u, nursiz qiyofa,
Ko‘kintir kul ichra tikilib gohi.

Eski qadrdondek erkalar shu dam,
Unutilgan baxt-u qayg‘u sarsari.
Kerakmas deydi-yu aldaydi qalb ham,
Afsus, qayg‘ulidir ularning bari.





ASALARI

Ruhsizliklar aro bo'laman g'oyib,
Tanhilikda hayot kechirish qiyin.
Yurak g'ash, ko'rinar dunyo torayib,
Har bir siren xushbo'y guliga ajib,
Asalari qo'nib boshlaydi kuyin.

Toza maydon aro imkon bor, axir,
O'rmonda qolaman tamom yo'qolib.
Erkinlikda qadam tashlash ko'p og'ir,
Yurak injiqlanib tobora og'rir,
Ko'ksimda naq toshni yuribman olib.

Yo'q, shoshma, g'am-g'ussa, nechun anduhlar,
Bunda xayrashaman. Shumurt-chi uxlari.
Evoh, yana paydo asalarilar,
Sira tushunmadim, ne derlar ular,
Hamon qulog'imda jaranglar gullar.





* * *

Bu tong – quvonch lazzati,
Kun va tunning quvvati.
Bu zangor gumbaz tiniq,
Bu qichqiriq ne hushlar,
Bu to‘da-yu, bu qushlar,
Chug‘ur-chug‘uri iliq.

Bu tollar-u qayinlar,
Bu tomchidan ko‘z tinar,
Bu patlar ham barg emas,
Bu vodiylar, bu tog‘lar,
Bu daryolar, bu bog‘lar,
Bu chinqiriq tark etmas.

Bu subhidam sharpasi
Ham qishloqning nafasi,
Tunni ham etgay bedor.
Bu taqur-tuqur ovoz,
Qushlar sayrog‘iga xos,
Buning barchasi – Bahor.





* * *

Xushxabar aytgali yoningga keldim,
Quyosh balqanini eslatmoq uchun.
Uning qaynoq nuri barglar uzra jim
Titradi yiltirab, ko'rsatib kuchin.

O'rmon uyg'onganin aytmoqlik uchun,
Navdalarda ko'klam bo'y cho'zganin ham.
Har bir qush patlarin qoqishdi beun,
Bahor asirida tashnahol, bardam.

Zavq-shavq ila xabar yetkazmoq uchun,
Xuddi kechagidek yoningga keldim,
Qalbim baxtli ondan yashnadi butun,
Senga xizmat qilmoq shavqiga to'ldim.

Xushxabar yog'ilsin, mayli to'rt yoqdan,
Ko'nglimni yoritsin quvnoq kayfiyat.
O'zim-ku bilmayman bu surur nedan,
Hayot, kuylamoqdan ayirma faqat.





* * *

Qaldirg‘ochlar ko‘zga tashlanmas,
Shomgi shafaq ollanar biroq.
Go‘ngqarg‘alar uchishdi chuvvos,
Xuddi to‘rdek ko‘rinib elas,
Tog‘ bag‘rida charx urib bu choq.

Kechadan-da atrof uyquda,
Hovli ichra qorong‘ulik yov.
Quruq barglar uchar ohista,
Shomda shamol quturib juda,
Derazani qoqdi beayov.

Bundan ko‘ra esib qorbo‘ron,
Shodlantirar ro‘baro‘ kelsa.
Cho‘chigandek har ne sharpadan,
Jar solishib janubga tomon,
Uchmoqdadir turnalar esa.

O‘rmingni-da tark etsang shu dam,
O‘krab-o‘krab yig‘lasang to‘lib.
Maydon ichra qaraysan beg‘am,
Boshpanasiz ey yolg‘iz odam,
Xuddi to‘pdek sakrab va kulib.





* * *

Ko'z ilg'amas g'azotlar bilan,
Va ko'rinxmas qanotlar bilan.
Olib keldi Shimolga otash.
Borgan sari yorqinlashdi kun.
Daraxtlar-la sayr etmoq uchun,
Olib chiqdi o'rmonga quyosh.

Ufq uzra shafaqlar alvon,
Nafislanib bo'ldi namoyon.
Qoplangandir qor bilan har yon,
O'rmon esa pinakda hamon.
Har notada yangraydi inonch,
Jo'shqinligu qanotli quvonch.

Yalanglikda ekinzor qator,
Dengiz kabi yastanib yotar,
Po'lat ko'zgu misol nurafshon,
Daryo uning qoq o'rtasida,
Muz parchalar o'ynar osuda,
Gala-gala oqqushlarsimon.





* * *

Quyuq jo'kaning osti naqadar salqin erur,
Jazirama oyog'i bu yerga yetmagan, hey.
Xushbo'y yelpig'ichsimon tebranadi begidir,
Ming-minglab yaproqlar-da ustimda osilgan ko'y.

Olisda kuydirguvchi havo chaqnaydi nuqul,
Dam tebranar, dam mudrar kengliklarning xush sozi.
O'tkir-quruq uyquni quvadi yeldek butkul,
Chigirtkalarning sho'x jaranglagan ovozi.

Shox-u shabbalar aro moviylashdi keng osmon,
Xuddiki yengilgina tutun qoplagan misol.
Uxlayotgan tabiat orzu-umidisimon,
Qat-qat bulutlar o'tar, tomchilari-da zilol.





* * *

Naqadar qashshoqdir, afsus, bizning til!
Do'st-u yovga aytib bo'lmaydi, savil.
Shaffof to'lqin bo'lib qilar g'alayon,
Qalbning mangu azob chekishi abas,
Ulug' dahosiga bo'ysungaydir, bas.
Halokatli yolg'ondan oldin, bu ayon.

Shoir, senda erkin so'z ovozi bor,
Po'latdek mustahkam, guldek fusunkor.
Anglab bo'lmas giyoh hididek harchand,
Uchar bulut aro Zuhal burguti,
Ko'rimsiz vodiyni tark etib butun,
Chaqmoq guldastasin ko'tarib baland.





* * *

Derazamning oldida qayin,
Tikiladi g'amgin va o'sal.
Injiq ayoz quvshirgan sayin,
Ko'rkamlashar yanada – go'zal!

Xuddi uzum boshlari misol,
Osilgandir shoxlari – ozg'in.
Nigoh uchun quvonchli timsol,
Kiygan tag'in motam libosin.

Tong shafag'in tovlanishin xo'b,
Yoqtiraman, kuzatgum uni.
Menga og'ir, qushlar-chi qoqib,
Yuborsa gar shoxlar ko'rkini.





* * *

Qanday kecha! Havo musaffo,
Kumush tusda barglar mudrar, o.

Sohilda-chi tollar tarar soch,
Uxlar ko'rfaz betashvish, yuvosh.

Tinim bilmas hech qayda to'lqin,
Jimjitlikdan bag'ri olib tin.

Tun yog'dusi sen kabi chorlar,
Qora soya oqarib porlar.

O't-o'lanlar ifori mayin,
Tiniq tortar aql dam sayin.

Yurak istar, ehtirosdanmas,
Sof havodan nafas olsa, bas.





* * *

Men senga hech narsa demayman,
Bezovta ham qilmasman bir bor.
Jimman, uning g'amin yemayman,
Shama uchun menda yo'q qaror.

Tungi gullar uxlар kun bo'yи,
Quyosh kezar daraxtzor aro.
Nishlamoqlik kurtaklar o'yi,
Eshitaman qalb gullahin, o.

Xasta ko'ngil qiladir ado,
Sovuq rutubatdan titrayman.
Bezovta-ku qilmasman aslo,
Men senga hech narsa demayman.





* * *

Ulardan o'rganing – eman, qayindan,
Chor-atrof qahraton, qahri qattiq zil.
Behuda sovqotib ko'z yoshlar to'ngan,
Qobig'i darz ketib junjikar butkul.

Izg'irin kuchayar daqqaq sayin,
Iddao-la so'nggi barglar uzilar.
Yurak-chun qish qahri ortadi tayin,
Jim tur, axir sen ham. Jimdir daraxtlar!

Lek bahorga ishon – ko'klam dahosi,
Hayot nafasi-la zavq tutar rosti.
Porloq kunlar uchun ko'targanda jom,
Ko'ngil xastalikdan qutilar tamom.





* * *

Yozgi ekinzorda javdarlar pishdi,
Tillo jarangini tutar boshoqlar.
Injiq shamol esa zarlanib quchdi,
Jilovlandi go‘yo yiroq-yiroqlar.

Oy ojiz termilar topolmay jur’at,
Hayron-u lol kunning to‘l maganidan.
Biroq uzun kecha kengaygan fursat,
Quchog‘ini yozdi kun ham yayrab – sha’n.

Bepoyon javdarzor ustida giryon,
Kun botar, kun chiqish orasida jim,
Oniy lahzada ko‘z qisarkan osmon,
Diydasi to‘lishib sochar quvonchin.





* * *

Porloq kunni kuting ertaga,
Qaldirg'ochlar chug'urlashar soz.
Alanganing alvon yo'lida,
Shaffof shafaq yorishar bexos.

Ko'rfaz uzra mudrar kemalar,
Hilpiraydi mitti tug'i ham.
Olis samo sari intilar,
Hadsiz dengiz ungadir hamdam.

Ojiz soya bostirar shunday,
Yorug'lik ham chekinar tayin.
Kun o'tdiku demaysan bunday,
Kech tushdi, deb aytmaysan tag'in.





* * *

To'lqinsimon bulutlar bilan,
Ko'tarildi uzoqdan to'zon.
Otliq yoki piyodamikan,
Ko'rib bo'lmas chang ichra shu on.

Irg'ib kelar allakim, ko'rdim,
Abjir otning ustida xushhol.
Do'stim mening, qadrdon do'stim,
Men haqimda o'yla, esga ol!

* * *

Qalin tumanlardan iymanib chunon,
Jonajon qishlog'im bekindi, inon.
Bahorgi quyoshning tafti qadrdon,
Shamol olislarga uchirdi, hayhot.

Darbadar kezish ham jonga tegdi ko'p,
Bepoyon zamin-u dengiz ham unut.
Osmonim qopladi qop-qora bulut,
Vatanim ustida yig'lash-chun ozod.





* * *

Shovqinga inonma, dabdabaga o'ch
Rahmsiz olomon inongandek hech.
Shaffof dunyosisan uning-da, voz kech,
Irg'it-u u haqda qayg'urma abad.

Zig'ircha ishonma, shuldir o'tinchim, –
Shovqin-u dabdaba, rohat o'tkinchi.
Yolg'iz sening dunyong beg'ubor, inju,
Unga qadrlidir shunisi faqat.





* * *

Go‘zallikdan iborat dunyo,
Ulkanlikdan zarraga qadar.
Hud-behuda intilma aslo,
Ibtidosin topgil muqarrar.

Kun yo asr ma’nosi nadir,
Cheksizmidi to bungacha – sir.
Garchi inson abadiy emas,
Abadiydir insoniylik, bas!

* * *

Ajib bir surat,
Jam sir-sinoat.
Oq tekislik bor,
To‘lin oyga yor.

Oy nuridan-da,
Qorda porlar iz –
Olisda chana,
Uchadi yolg‘iz.



F.I. TYUTCHEV





RUSIYA IDROK-LA ANGLASHILMAS...

Fyodor Ivanovich Tyutchev 1803-yilda Ovstug qishlog‘i (hozirgi Bryansk viloyati)da, uncha boy bo‘lmanan dvoryan oilasida tug‘ilgan. U oila sharoitida, gumanitar yo‘nalishda ta’lim olgan. Ilmga chanqoq Fyodor 1819–1821-yillarda Moskva universitetining slavyan bo‘limida o‘qigan. U 1822-yildan Germaniyaning Myunxen shahriga, Rossiya elchixonasiga ishga yuboriladi va 1837-yilgacha faoliyat ko‘rsatadi.

Ijod qilishdan bir zum to‘xtamagan Fyodor Tyutchev 1837–1839-yillarda Italiyaning Turin shahrida xizmat vazifasini davom ettiradi. U yigirma ikki yil davomida chet ellarda yashaydi, har-har zamonda Rossiyani ziyorat qilib turadi.

Shoir hayotining so‘nggi yillari juda og‘ir kechadi, oldin xotini, keyin katta o‘g‘li va qizi Mariya olamdan o‘tadi.

Fyodor Tyutchev 1873-yili 15-iyulda vafot etadi. XIX asrda yashab ijod qilgan buyuk rus shoiri o‘n olti yoshidan she’rlarini nashr ettira boshlagan. Uning she’rlari uncha ko‘p emas: uch yuzdan oshadi, xolos. F. Tyutchev haqida N.A. Nekrasov «Sovremennik» jurnalida maqola chop ettiradi... u asosan, XIX asrning oxirlariga borib mashhur shoirga aylangan.

Fyodor Tyutchev she’rlarida tabiat manzaralari, Rusiyaning ijtimoiy hayoti, sevgi-muhabbat kuyylanadi. U ham boshqa shoirlar kabi o‘z davrining qaysidir ma’nodagi kurashchisi bo‘lgan. Lev Tolstoy, Afanasiy Fet, I. Turgenev, N.A. Nekrasov kabi zamondoshlari F. Tyutchev ijodiga katta baho berganlar.



BEDORLIK

Kunlar bir xil: kurash-u g‘avg‘o,
Tun – jonlarni ezguvchi doston.
Tili, so‘zi notanish go‘yo,
«Tanishmiz», deb ta’kidlar vijdon.

Kimdir dunyo dodin tingladi,
Zamon ichra toshday qotdi kim?
Bu jahoniy sukunat ichra
Payg‘ambarga vido aytdi kim?

Bizga ayon: bu yetim dunyo
Peshonadan ko‘rar ne ko‘rsa –
G‘irrom kunlar kurashda bizni
Tashlab qo‘ydi, bo‘ldik har narsa...

Hayotimiz ko‘z o‘ngimizda,
Jar bo‘yida turar sharpaday –
Asrimiz-u do‘st-yorimiz-la
Uzoqlikda holsiz oq parday...

Paydo bo‘ldi yangi yosh avlod,
Oraliqda nurday ulg‘aydi.
Davrimiz ham, bizlar ham hayhot,
Unutildik – hech kim bilmaydi!

Dunyo o‘sha, o‘sha urf-odat:
Do‘stlarimning mungli tunlari...
Goh dafnda chekarlar faryod –
Bizni eslab ortar munoglari...

(1829)



* * *

Boqurman – borursan bo‘g‘iq muhitda,
Tuyaman odiming, sezgi, so‘zlarining.
Visoldan quvonmas, balki ko‘zlarining –
Sevgilim, jonginam, meni ayb etma!..

Qaragin, kun qanday oq-harir tuman,
Biroz yorishmoqda oy ham, ajabo!
Top-toza oynaday cho‘kadi tun ham,
Taratib rohatbaxsh xush bo‘y, kahrabo!..

1830





OQQUSH

Mayli, burgut bulut ortida,
Parvozini chaqmoq qarshilar.
Sirli, ko'rkam bulut qatida
Quyosh taftin olar yaxshilab.

Oqqushginam, sendan ko'nglim to'q,
Yog'duli kun kabi hur oting:
Parvozingdan charog'ondir ko'k –
Inoyatdir qoqqan qanoting...

Qat-qat, cheksiz tubsizlik aro,
Balki ajib tushlar ko'rarsan,
Ardoqlaydi yulduzlar sara,
Qurshovdasan, ko'kni yorarsan...

1829–1830





* * *

Ko'k gumbazi bosh uzra sust taranib
Tuslanadi, ko'z tikadi chaqchayib, –
Tosh qotganday, yer jim bo'lar o'ranib,
Tabiat ham tin oladi, uxlaydi...

Horg'in tortar huv uzoqda oq qayin,
Mox gulim – tosh gul, buta-da dang qolgan.
Misli xayol – tuman bosgan-u, qoyim,
Hatto sukunat dovdiratmas, tin olgan...

1830





YAPROQLAR

Qarag‘ay hamda eman
Butun qish tund turishar.
Qor, bo‘ronlar o‘rashib,
Uyquni xo‘p urishar...

Kichraygan kurtakchalar
Kirpining tikoniday,
Sarg‘aymas ham ulg‘aymas
Asrlar bo‘stonida...

Biz-ku, shunday naslmiz,
Gullaymiz, yaltiraymiz...
G‘animatmiz, mehmonmiz,
Butoqda hilpiraymiz.

Go‘zal o‘tgan yoz bo‘yi
Zo‘r bo‘ldik husn-shanda.
O‘ynatdi nurlar ko‘yi,
Cho‘mildik dur shabnamda.

Qushlar ham sayrab bo‘ldi,
Gullar ham yayrab bo‘ldi,
Nurlar ham porlab bo‘ldi,
Sabolar kuylab bo‘ldi.

Bu tomosha shartmidi,
Turamizmi osilib?..
Yaxshimasmi, bu yerdan
Uchib ketsak bosh olib!..

Yopiriling, shamollar,
Yopiriling har yoqdan!

Bizni yuling, amallab,
Bezor qilgan butoqdan!

Yulingu olib keting,
Istamaymiz kuz, qishni –
Esing, bahridan o‘ting,
Biz xohlaymiz uchishni!..

1830

* * *

Hissiyot yo‘q ko‘zlariningda,
Haqiqat yo‘q so‘zlariningda,
Senda qalbning o‘zi yo‘q!..

Ulg‘ay, yurak, bo‘l najotkor:
Ijodingda yo‘q ijodkor!..
Munojoting-da quruq!..

1836



* * *

Ishonma, shoirga ishonma, qizcha,
O'zimniki dema, hech qachon uni –
Olovlangan azob o'tidan harchand
Qo'rqqin, kuydiradi sevgisi seni!..

Uni yuragingga o'rgatolmaysan,
U sig'mas qalbingga, ishq, amalingga.
Lovillagan o'tni yopa olmassan,
Yoshlikdan o'ragan shu ro'moling-la.

Shoirning qudrati misli to'rt unsur,
O'zin boshqarmasa, xayol avjida.
Qo'ng'iroq sochlар ham etadi ta'sir,
Asli ko'p xislati kiygan tojidan...

Bekorga maqtamas, boshga ko'tarmas,
Huda-behudaga uni odamlar...
Yurakka ilonday aslo nish urmas,
Asalari kabi so'rар har damda...

Ilohiy izmingga u rioya qilar,
Qalbi kabi doim ochiqdir qo'li.
Hayotda bo'g'ilar, goh hayo qilar,
Goh olib uchadi – ko'k, falak yo'li...

1839



SHE'RIYAT

Gulduraklar, chaqinlar boshlar,
Shoshqinlik va jo'shqinlik toshar,
Tabiat chaqinar nifoqda,
Uchib kelar ul samolardan –
Ilohiyot biz bolalarga,
Lojuvard-u tiniq nigohda –
Bul pishqirgan dengizga goho
Murosa urug'in muloyim sochar...

1850

* * *

Odamlar ko'z yoshi, taqdir ko'z yoshi,
Tomchilaydi unsiz, tomchilar goho...
Sizib chiqar sassiz, tomchilar behad, –
Yog'ar yomg'ir tori, yog'ar sim-sim dard,
Jimib qolgan kuzga, tunlarga tanho...





Kun oxirlab borar, yaqin tun.
Cho'kar soya – tog'lardan uzun...
G'oyib bo'lar bulutlar butun,
Shom qo'narkan, tugab borar kun.

Qo'rqtolmas lekin tun hali,
O'tinchim yo'q o'tkinchi kunga,
To'xta sen, ey pari timsolim,
Tashlab ketma, keraksan menga!..

Qanolrlaring o'ragin, xushla,
Yuragimning to'lqinlarin bos,
Farog'atga solar bu rishta,
Maftun bo'lgan ko'ngillarga mos.

Sen – tunimni yoritgan ko'lka,
Makoning ayt, ko'kmidir yo yer?..
Havolarda yasharsan, balki
Ayoldirsan – qalbi to'la nur...

1851





ASRIMIZ

Ro'yolik yo'q, kunlarni ruh qurshagan,
Inson umid qilar, tilar tarahhum.
Yog'du izlar, o'qdek titib tunlarni,
Hasrat kabi kezinar nur ham mahkum.

Oy-kun o'tar jaholat changalida,
Chidab bo'lmas g'amga odam chidaydi.
Inqirozin sezar u shu holida,
E'tiqodsiz kunlar bir kun tugaydi.

So'nggi tavba-tazarru bo'lar dushvor,
Tinglarmi berk eshik, desang so'ng damda:
«Tangrim, qo'yib yubor, to'g'ri, aybim bor!
Asrab qolgin, qutqar, axir men banda!»

1851





O‘Y VA TO‘LQIN

O‘y o‘yni yetaklar, to‘lqin to‘lqinni –
Borliqda ikki hol mutloq farqlidir:
YURAK tordir... DENGIZ tinmas qalqinib,
YURAK – mahkum, DENGIZ rostlar qaddini, –
Toshmoq, qaytmoq ular azaliy haqqi.
Quruq sharpa – ojiz, buzmas ko‘k toqin.

1851





* * *

Kun issig'i hali ketmagan,
Iyul tuni yaltirab turar...
Jozibasiz yer uzra osmon
Qabog'ida chaqmoq – nayza bor,
Gumburidan yer-ko'k larzavor.

Go'yo og'ir kipriklar zo'rg'a
Ko'tarilar balqib yer uzra,
Va yugurik chaqmoqlar aro
Kimdir ta'qib etar tobora –
Balki chorlar u mushtoq ko'zlar...

1851

* * *

Ayriliq ham bo'lar purma'no,
Sevavergin har kun, manguga.
Sevgi – uyqu, o'tar bir onda,
Sergaklik ham kerak insonga,
Yashasin u tushmas, o'ngida...

(1851)






* * *

Quyosh charaqlaydi, suv to'lqinlanar,
Har yuzda tabassum, shirindir hayot.
Daraxtzor shivirlar, uzoq-yaqinlar –
Moviy havolarda cho'milar bot-bot.

Daraxtlar kuylaydi, mavj urar suvlar,
Muhabbat shavqi-la to'la to'rt tomon,
Tabiat bag'rida zavq surar gullar,
Hayot quchog'ida to'lqinlanar jon...

Sevgilim, g'am chekma, kerakmas ortiq,
Seni xalos etar barcha dardingdan –
Birgina tabassum aylagil tortiq
Iztirob-la to'lib-toshgan qalbingdan...

1852





* * *

Afsungar qish sohir bitikday,
Sehrlangan o'rnmon, past-balandy –
Qor tagida qolgan popukday,
Ayrilganday tildan, hadikdan,
Yaltiragan hayot yastangan...

Qiltillamas, sehrdan qotgan –
Tirikmas-u, o'lik ham emas –
Yo tushlari mahliyo etgan,
Muzlar bilan yo parchinlangan,
Sehrlangan, o'zni unutgan...

Qish quyoshi nurlarin tiymas,
Lek ta'sirin sezmas, shubhali –
Bir manzara qimirlab qo'ymas,
Ko'rkamlashar borliq, yaltirar,
Ko'z oladi muhtasham holi...

1852





DEKABR TONGI

Ko‘kda oy kezadi, hali tun,
Tarqalmagan soyalar butun,
O‘z-o‘zicha surmoqda hukm,
Bilmaydiki, yaqinlashar kun –

Jur’atsizmi, mayli erinchoq
Nur ustiga nurlar taralar,
Samovot-ku ko‘rkli, vaqtি chog‘,
Maromida tantana borar...

Ko‘k o‘zgarar oniy lahzada,
Yer uzra bug‘lanib ketar tun;
Yana ko‘rki, tarovati-la
Qamraydi olamni kunduz, kun...

1859





A.A. FETga

Senga ta'zimdaman ko'ngildan
Buning izhoridir portretim,
Mayli, bildirsin shoir otim,
Hech qursa jim so'zlasin dildan,
Salomlaring qadrini, tokim,
Anglatsin qalb mehrimni zimdan.

1862





DO'STIM YA.P. POLONSKIYga

Ovozingning o'xshashi yo'q, dadil, xushchaqchaq –
Ichim qora tun, unda yo'q tong hukmlari...
Va yaqin parvozi – zulmatdan ketar mutlaq –
O'chgan gulxanning nochor so'nggi tutunlari...

1865





* * *

Rusiya idrok-la hech anglashilmas,
Arshinlab ham uni o'lchamas hech kim,
U boshqa o'lchovni hech ko'zga ilmas –
Rusiyaga faqat ishonish mumkin.

1866





* * *

So‘nggi dam qandayin qiyin bo‘lmasin –
Bizga tushunarsiz o‘tar hammasi,
O‘limning qayg‘usi, tashvish, rohati, –
Bular qalbimizda kechar dahshatraq,
Qalbga og‘ir jon berishin kuzatmoq,
Barcha go‘zal xotiralar ofatin...

1867





* * *

Ko'k bulutlarni tarar,
Va issiqdan nurlidir,
Kun – charx, daryoni o'rар,
Po'lat ko'zgu kabidir...

Soat sayin issiq zo'r,
Gung eman soya yutar,
Va oqargan dala hur
Asal hidin taratar.

Kun go'zal! Asr o'tar –
Shunday manguga qolar,
Daryo oqar va chaqnar
Issiq. Yer nafas olar.

1868





* * *

Butun borliq tirik, rang-barang,
Sado sirli, sirlidir tush ham;
O, qanchalik yosh va go'zalsan –
Dunyolarga seni almashmam.

1872





* * *

Shu yumshoq va uzun o‘rin-hol,
Istaganim: bo‘lsin qabrimda,
Almashsa-da asr galma-gal
Yotardim jim mangu sabrim-la...

1872





* * *

Borim oldi mendan jazo egasi:
Sog'lig'im, qudratim, nafasim, tushim,
U birgina seni qoldirdi menga
Hali unga ibodat qilmog'im uchun.

1873





* * *

Bahoriy muattar yorug'lik,
Fevraldan bog'larda tiriklik,
Mana, bodom darhol gulladi,
Bor yashillik oqqa belandi.

(1873)





MUNDARIJA

N.A. NEKRASOV

RUSIYADA KIM YAXSHI YASHAYDI

Poema

PROLOG. (<i>Birinchi bo 'lim</i>) (<i>Mirtemir tarjimasi</i>)	4
I bob. Pop	11
II bob. Qishloq yarmarkasi	19
III bob. Badmast kecha	27
IV bob. Baxtiyorlar.....	36
V bob. Pomeshchik.....	50
DEHQON AYOL (<i>Uchinchi bo 'limdan</i>)	61
PROLOG.....	62
I bob. Erga chiqquncha	70
II bob. Qo'shiqlar	74
III bob. Saveliy – qutlug' rus bahodiri.....	79
IV bob. Dyomushka.....	87
V bob. Ona bo'ri.....	94
VI bob. Og'ir yil	100
VII bob. Beka	104
VIII bob. Ayol kinoyasi.....	110
DUVARAK (<i>Ikkinci bo 'limdan</i>).....	113
I. «O'raza kunlari-yu...».....	114
II. «Bizning pomeshchigimiz...».....	118
III. «Vlas ketidan ketdi...»	129
OLAMGA TATIRLIK BAZM (<i>Ikkinci bo 'limdan</i>).....	139
KIRISH	140
I. Og'ir zamonlar – mungli qo'shiqlar	144
II. Sayyohlar va xudojo'ylar	152

III. Eskisi ham, yangisi ham	159
IV. Yaxshi zamona – yaxshi qo'shiqlar	170
V. «Zap qo'shiq...»	178
 SHE'RLAR	 179
Shahardan tashqarida (<i>Razzoq Abdurashid tarjimasi</i>)	180
«Bilmam, qandoq...» (<i>Razzoq Abdurashid tarjimasi</i>)	181
Elegiya (<i>Razzoq Abdurashid tarjimasi</i>)	182
«Urush dahshatiga...» (<i>Razzoq Abdurashid tarjimasi</i>)	184
«Soat oltilarda...» (<i>Razzoq Abdurashid tarjimasi</i>)	184
Romchi ayol (<i>Razzoq Abdurashid tarjimasi</i>)	185
Vidolashuv (<i>Razzoq Abdurashid tarjimasi</i>)	187
Axloqli kishi (<i>Razzoq Abdurashid tarjimasi</i>)	188
Kechir (<i>Razzoq Abdurashid tarjimasi</i>)	190
«O'sdim olis ovloqda...» (<i>Razzoq Abdurashid tarjimasi</i>)	191
Sudxo'r (<i>Razzoq Abdurashid tarjimasi</i>)	193
Temir yo'l (<i>Ramz Bobojon tarjimasi</i>)	196
«Qorong'i ko'chadan...» (<i>Mamarasul Boboyev tarjimasi</i>)	201
 QIZILBURUN QAHRATON SARDOR (Doston)	
(<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	203
Dehqon o'limi (<i>Birinchi bo'lim</i>)	207
Qizilburun qahraton botir (<i>Ikkinchchi bo'lim</i>)	223
So'nggi qo'shiqlar (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	243
«Kunlar o'tar...» (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	246
Urug' sochuvchilarga (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	247
Ibodat (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	248
Do'stlarimga (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	249
Ilhompariga (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	250
«Tezda chirib bitar...» (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	251
Hukm (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	252
«Sizga, iste'dodim» (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	253
«Buyuk muhabbat bu!» (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	254
Shoirga (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	255
Yonayotgan maktublar (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	256
Zinaga (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	257
Alla (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	258
«Qora kun» (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	261
Keksalik (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	262
«Sen unut emassan...» (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	263
Kuz (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	264
Tush (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	265
«Ilhomim!...» (<i>Abdulla Sher tarjimasi</i>)	266

A.A. FET
KUNBOTAR YOG'DULARI
She'rlar

Qalb aqli bilan yozgan shoir. (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	268
«Ketma mening yonimdan...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	271
«Men o'yga tolaman...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	272
«Sukunatl, yulduzli oqshom...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	273
«Yarim tunda...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	274
«Bazm-u qo'shiq...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	275
«U kunlar qirg'og'idan...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	276
«Nafis gulchambaring...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	277
Hovlida bahor (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	278
Manqal yonida (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	279
«Hey, o'ychan nigohlar...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	280
«Atrof jo'shqin...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	281
«G'amgin dil...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	282
Bahor yomg'iri (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	283
«Bir tush ko'rdirim...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	284
«Qachondir ikkimiz...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	285
Terak (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	286
«Farishta-kelinga o'xshaysan...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	287
«Yorqinligi oydin kechaning...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	288
«Ketma!...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	288
«Kimgadir bu...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	289
«Shovilladi soylik...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	290
«Yulduzlar oq...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	291
«Tabassumning ko'rganda...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	292
«Butun dunyo go'zaldir...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	292
«Huzuringda...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	293
«Agar seni...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	294
«Sergayg'u satrlarda...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	295
«Afsus, afsus...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	296
«Sen na nafis...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	296
«Issiq kun so'ndi...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	297
«Qachonki, xo'roz...» (<i>Tohir Qahhor tarjimasi</i>)	298
«Huv, qirg'oqdan...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	300
«Sevaman ko'p narsalarmi...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	301
«To'lqin-to'lqin bulut...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	303
«Joyimdan jilmasdan...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	303

«Alahsima...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	304
«Uxlamagin...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	305
Xayolot (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	306
Tungi Venetsiya (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	308
«Shamol qahri...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	309
Majnuntol (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	310
Baliqvoy (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	311
May oqshomi (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	312
Kuzda (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	313
«Bitta yulduz...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	314
Shopenga (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	315
«Yulduzlar duoda...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	316
«Bog' nur ichra...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	317
«Kutaman...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	318
«Bugun ko'kda...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	319
«Taqiqlashdi...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	320
«Oy hovurimni bosar...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	320
«Agar qalbing yoqmasam...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	321
«Uchayotgan bulut...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	322
Tutqun (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	323
Kecha (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	324
Qarag'aylor (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	325
Kamin oldida (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	326
Asalari (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	327
«Bu tong...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	328
«Xushxabar aytgali...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	329
«Qaldirg'ochlar...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	330
«Ko'z ilg'amasa...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	331
«Quyuq jo'kaning osti...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	332
«Naqadar qashshoqdir...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	333
«Derazamning oldida...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	334
«Qanday kecha!...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	335
«Men senga...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	336
«Ulardan o'rghaning...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	337
«Yozgi ekinzorda...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	338
«Porloq kunni kuting...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	339
«To'lqinsimon bulutlar...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	340
«Qalin tumanlardan...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	340
«Shovqinga inonma...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	341
«Go'zallikdan iborat dunyo...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	342
«Ajib bir surat...» (<i>O'roz Haydar tarjimasi</i>)	342

F.I. TYUTCHEV

YAPROQLAR

She'rlar

Rusiya idrok-la anglashilmas.....	344
Bedorlik (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	345
«Boqurman...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	346
Oqqush (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	347
«Ko'k gumbazi bosh uzra...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	348
Yaproqlar (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	349
«Hissiyot yo'q ko'zlariningda...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	350
«Ishonma...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	351
She'riyat (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	352
«Odamlar ko'z yoshi...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	352
«Kun oxirlab borar...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	353
Asrimiz (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	354
O'y va to'lqin (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	355
«Kun issig'i...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	356
«Ayriliq...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	356
«Quyosh charaqlaydi...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	357
«Afsungar qish...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	358
Dekabr tongi (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	359
A.A. Fetga (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	360
Do'stim Ya.P. Polonskiyga (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	361
«Rusiya...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	362
«So'nggi dam...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	363
«Ko'k bulutlarni tarar...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	364
«Butun borliq...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	365
«Shu yumshoq...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	366
«Borim oldi...» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	367
«Bahoriy muattar yorug'lik» (<i>Rauf Subhon tarjimasi</i>)	368

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

N.A. NEKRASOV

RUSIYADA KIM YAXSHI YASHAYDI

Poema, she'rlar

* * *

A.A. FET

KUNBOTAR YOG'DULARI

She'rlar

* * *

F.I. TYUTCHEV

YAPROQLAR

She'rlar

Nashr uchun mas'ul

M. Bo'ronov

To'plab, nashrga tayyorlovchi *G. Azizova*

Muharrir *G. Azizova*

Rassom *R. Zufarov*

Badiiy muharrir *B. Zufarov*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Kompyuterda tayyorlovchi *K. Goldobina*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158. 14.08.2009.

Bosishga 2020-yil 12-fevralda ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 90^{\frac{1}{16}}$.
Offset qog‘izi. «Times New Roman» garniturasida offset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 23,5. Nashr tabog‘i 19,34.
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 20-114.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: iptduzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

Nekrasov, N.A.

N 42

Rusiyada kim yaxshi yashaydi [Matn] / N.A. Nekrasov, Kunbotar yog'dulari / A.A. Fet. Poema va she'rlar / F.I. Tyutchev. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2020. – 376 b. (Rus adabiyoti durdonalari).

ISBN 978-9943-25-955-3

Ushbu kitobdan rus adabiyoti namoyandalari N.A. Nekrasovning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» poemasi, A.A. Fet hamda F.I. Tyutchevlarning she'rlari o'rinni olgan. Bu poema va she'rlar to'plami siz aziz kitobxonlarni, ayniqsa she'riyat ixlosmandlarini quvontiradi, degan umiddamiz.

**UO'K 821.161.1-3
KBK 84(2Rus)**



N.A. Nekrasov



A.A. Fet



F.I. Tyutchev

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-25-955-3

A standard linear barcode representing the ISBN number.

9 789943 259553